ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 4.1

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 10.11.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Jo'rabek Cho'tmatov, t.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Mahliyo Botirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 10.11.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Журабек Чутматов, д.и.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Махлиё Ботирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 10.11.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Jurabek Chutmatov, Doctor of Philosophy in History (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Makhliyo Botirova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Solixo‘jayeva Havasxon Zokirjanovna
Professor Nosirjon Uluqov – Namangan onomastika maktabi asoschisi 7

XAKIMOVA MUHAYYO KARIMOVNA
O‘zbek tili abstrakt leksikasida zidlik munosabatlari 11

SHUKUROV AXAT AXMATOVICH
Sinonimlarning lingvostilistik xususiyatlari 16

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Yashirin, yumshatilgan va bilvosita ifodalangan ma’nolar tahlili
(evfemik ibora va maqollar misolida) 20

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Tortuvli etnonimining etimologik tahlili 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Ziyoratgohlar etimonining lingvomadaniy kodlarda aks etishi: sangardak teotoponimi 26

AHMEDOV HAKIM YARASHEVICH
Doston frazeologiyasida mifologik qatlamning lisoniy ifodasi
(Surxondaryo turkum dostonlari misolida) 29

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Badiiy so‘z san’atida dialogning ifodasi (Odil Yoqubov asarlari misolida) 32

ISOQOVA FERUZA SHAMSIDDIN QIZI
Kommunikatsiya, muloqot va diskurs: tushunchalarning farqlanishi va
diskursning kommunikativ maqomi 35

САЙДУЛЛАЕВА РАНО ИБАДОВНА
Проблема терминологической фиксации онимной периферии 38
(на материале русского и узбекского языков) 38

SULEYMANOVA NILUFAR KAMILOVNA,
TUKHTABAYEVA NILUFAR UKTAMJONOVNA
A token-level audit of acoustic measurements in british english vowel reduction 42

QULBULOV SHERQUZI TOSHTEMIROVICH
O‘zbek adabiy tilida nutq uslublari: funksional xususiyatlar va qo‘llanish mezonlari 45

TOJIYEVA DILDORA KOMILJON QIZI
Muammoli maqolada faktlardan foydalanish tartibi 50

ZAYNIDDINOVA ROZIYA SAIDAKBAROVNA
Nato harbiy terminologiyasining shakllanishi: institutsional va me’yoriy model 54

NURMATOVA DURDONA SHUXRAT QIZI
Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar baho ma’nosining nutqiy aktlarda voqelanishi 57

МУНДАРИЖА

ISLOMOVA BARNO XABIBULLA QIZI
O‘zbek tilida morfologik noaniqlik turlari: tasnif va avtomatik tahlildagi o‘rni 62

HAMROYEV SARDOR AKMALJON O‘G‘LI
Badiiy matnda makon deyksisini o‘rganishning
lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlari 67

QURBONOVA MARJONA ERKINJON QIZI
Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasida qo‘llangan antroponimlarning
lingvokulturologik talqini....71

ADABIYOTSHUNOSLIK

ALIMOV PARDA,
TOSHPO‘LATOV ZAYNIDDIN IBODULLO O‘G‘LI
Shafoat Rahmatulla Termiziyning ijodiy yo‘li....75

OCHILOVA OZODA BAXTIYOROVNA
Syujet yaxlitligida «davr, shaxs, muallif» uchligi sintezi....80

OBIDJONOVA MA’SUMA
O‘zbek va ingliz ilmiy fantastikasida kelajak motivining badiiy-poetik xususiyatlari....84

PARDAYEVA DILFUZA RAIMOVNA
Insider and outsider perspectives: the earliest literary models of amir timur
in uzbek and russian traditions (oral epic and medieval written sources) 87

ABDUNAZAROV O‘TKIR SAYDULLAYEVICH
A.Oripovning «Jannatga yo‘l» dostonida inson va jamiyat ziddiyatining badiiy talqini 92

ABDULLAYEVA NILUFAR IBRAGIM QIZI
Avhadiy Marog‘iy va Yusuf Amiriy «Dahnoma»larida
o‘n noma janrining poetik transformatsiyasi 95

XURRAMOVA TO‘LG‘ANOY MUZAFFAROVNA
Hakim Termiziy asarlarining adabiyotshunoslik talqini:
janr, timsol va axloqiy-didaktik an’ana masalalari....99

TA’LIM

ДЖУМАНАЗАРОВА ЗИЛОЛА ОБИДЖОНОВНА
Цифровые и интерактивные технологии в содержании
методической подготовки будущих учителей русского языка 104

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Эффективность развития русской диалогической речи студентов национальных групп....109

ТУРГУНОВА САЙЕРА АХМАДЖАНОВНА
Проблемное обучение в преподавании специальных филологических дисциплин 112

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 4.1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Fanimiz fidoyilari



PROFESSOR NOSIRJON ULUQOV – NAMANGAN ONOMASTIKA MAKTABI ASOSCHISI

Solixo'jayeva Havasxon Zokirjanovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ilm – mas'uliyat. Mas'uliyat bilan yaratilgan ilmiy meros esa omonatdir; uni pok saqlash va insoniylikka xizmat qildirish – eng ulug' burch. Zero, olimdan oxir-oqibat mol-dunyo ham, mansab-u daraja ham qolmaydi; qoladigani – ong-u shuuri orqali yurakdan to'kilgan sahifalar, ya'ni ilmiy merosidir. Bu merosning ilmiy maktab asosi uchun xizmat qildirish esa har bir olimga ham nasib etavermaydigan oliy natijadir. Ana shunday natijaga erishgan olimlardan biri – filologiya fanlari doktori, professor Nosirjon Muhammadaliyevich Uluqovdir.

Fan tarixida «ilmiy maktab» tushunchasi bir necha mezon asosida belgilanadi: yetakchi olim va uning tadqiqot dasturi; shu dasturni davom ettiruvchi shogirdlar guruhi; metodologik birlik; natijalarni jamlab boruvchi nashrlar tizimi; kadrlar tayyorlash va ilmiy muloqotni ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalar; avlodlar almashinuvida uzilmaydigan vorisiylik. Bu mezonlar birgalikda mavjud bo'lgandagina alohida olimlar to'plamini emas, ilmiy maktabni ko'ramiz.

Maqolada professor Nosirjon Muhammadaliyevich Uluqov rahbarligida so'nggi chorak asrda shakllangan Namangan onomastika maktabi ana shu mezonlar asosida tahlil qilinadi. Maqsad – olim tarjimai holini takrorlash emas[1], balki maktabni yaxlit ilmiy hodisa sifatida tavsiflash, uning tuzilishi va rivojlanish mantiqini ochib berishdir.

Ilmiy maktab bo'shliqda tug'ilmaydi. Namangan onomastika maktabining ildizi o'zbek nomshunosligi asoschilaridan biri, professor Ernst Begmatov an'anasiga borib taqaladi. Olim ustozi bilan hammualliflikda o'zbek onomastikasi uchun tayanch ahamiyatga ega ikki ma'lumotnoma asarini yaratdi: terminlarning izohli lug'ati[2] va bibliografik ko'rsatkich[3]. Bu ikki ish sohaning atamalar tizimini va manbashunoslik asosini tartibga soldi; tizimlilik, atamalarda aniqlik hamda manbaga tayanish tamoyillari Namangan maktabiga aynan shu asarlar orqali o'tdi.

Ikkinchi omil – hududiy. Farg'ona vodiysi gidronimik jihatdan g'oyat boy bo'lsa-da, uning suv obyektlari nomlari XXI asr boshiga qadar monografik tarzda o'rganilmagan edi. Ustozning 2010-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi[4], asosan, vodiy gidronimlari materialida bajarilib, shu bo'shliqni to'ldirdi

[1] Olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqida batafsil qarang: Qulmamatov D.S. Iqtidorli, iste'dodli, sermahsul, serg'ayrat tilshunos olim // Foreign Languages in Uzbekistan. – 2026. – Vol. 12, No 4 (69). – B. 181–194.
[2] Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – 104 b.
[3] Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi: bibliografik ko'rsatkich. – Namangan, 2008. – 166 b.
[4] Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2010. – 299 b.

va vodiy materialini umumnazariy muammolarni hal qilish maydoniga aylantirdi: maktab mintaqaviy material asosida umumiy nazariya yaratish yo‘lidan bordi. Bu – maktabning birinchi o‘ziga xos xususiyatidir.

Ilmiy maktabni tasodifiy mavzular yig‘indisidan ajratib turadigan asosiy belgi – yagona tadqiqot dasturidir. Namangan maktabining dasturi E.Begmatov an’anasini davom ettirish asosida shakllandi. O‘zbek onomastikasida bir qator onomastik birliklar uzoq vaqt maxsus o‘rganilmay keldi. E.Begmatov atoqli otlarning tip va turlari hamda ularning o‘rganilish darajasi haqida fikr yuritar ekan, geortonim, anoykonim, anemonim, artionim, agionim, venesuonim, glyatsionim, gemeronim, dignitonim, ideonim, insektonim, katoykonim, litonim, nautonim, oykodomonim, ornitonim, polionim, speleonim, stratonim, terronim, tautonim, fiktonim, xoronim, transport vositalari nomlari hamda ilmiy, badiiy adabiyot va san’at asarlari atoqli otlari – biblionimlarni atoqli ot sifatida mavjud va ma’lum bo‘lsa-da, deyarli tahlil qilinmagan onomastik birliklar qatoriga kiritgan edi[1]. Ustozi ko‘rsatib bergan ana shu bo‘shliqni to‘ldirish N.Uluqov ilmiy faoliyatining va u rahbarlik qilgan tadqiqotlarning asosiy maqsadiga aylandi: o‘rganilmagan onomastik birliklar birin-ketin shogirdlarga dissertatsiya mavzusi sifatida taqsimlandi. Ustoz rahbarligida himoyalangan dissertatsiyalar mavzulari xronologik tartibda ko‘rib chiqilsa, bunday dastur yaqqol ko‘zga tashlanadi: bizning tahlilimizga ko‘ra, maktab ishlari to‘rt yo‘nalishga birlashadi.

Birinchi yo‘nalish – atoqli otlarning turlarini izchil monografik tadqiq etish. Ustozning o‘zi gidronimiyani o‘rgangan bo‘lsa, shogirdlari onomastik makonning boshqa bo‘laklarini birin-ketin qamrab oldilar: fitonimiya – N.Pazliddinova (2018), oykonimiya – Y.Ne’matova (2018), oronimiya – Sh.Temirov (2019), xrononimiya va geortonimiya – H.Solixo‘jayeva (2020), antroponimiya – S.Kenjayeva (2020), taxalluslar – Sh.Nizomova (2021), gemeronimiya – O. Yuldashev (2023)[2]. Natijada tabiiy-geografik obyektlar nomlaridan inson nomlari va madaniy-temporal nomlargacha yaxlit qator hosil bo‘ldi; har bir yangi dissertatsiya avvalgisi qoldirgan bo‘shliqni to‘ldiradi.

Ikkinchi yo‘nalish – onomastik tizim ichidagi jarayonlar tadqiqi. Bu yerda tadqiqot obyekti atoqli otlarning alohida bir turi emas, balki nomlar tizimini harakatga keltiruvchi jarayonlardir: toponimik variantlilik – K.Hamidova (2022), konversiya va transonimizatsiya – D.Sotiboldiyeva (2024), toponimik indikatorlar – D.Islomova (2026)[3]. Bu mavzularning har biri ustozning gidronimiya nazariyasida ilk bor qo‘yilgan masalalarga borib taqaladi: gidronimik indikatorlar konsepsiyasi[4] toponimik indikatorlar tadqiqiga, gidronimlardagi transonimizatsiya kuzatuvlari butun toponimik tizim miqyosidagi konversiya tadqiqiga bog‘lanadi.

Uchinchi yo‘nalish – matn va tarixiy manba onomastikasi: «Alpomish» dostoni onomastik birliklari – B.Yunusova (2022), Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalardagi antroponimlar – N.Xalilova (2025), Beruniy asaridagi onomastik birliklar – O.Mirzaxmedova (2026)[5]. Bu yo‘nalish maktabga diaxronik chuqurlik berdi: sinxron material tarixiy manbalar bilan to‘ldirildi.

To‘rtinchi yo‘nalish – qiyosiy va lingvokulturologik onomastika. U 2023-yilgi III Xalqaro onomastika simpoziumi va Egey universiteti bilan hamkorlikda bajarilgan FL-7523021174-sonli «O‘zbek va turk geortonimlarining lingvokulturologik, etnolingvistik tadqiqi» loyihasi (2024–2026) orqali shakllandi. Loyiha

[1] Қаранг: Бегматов Э., Авлақулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макрокўлами таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – №5. – Б. 34; Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 37.

[2] Pazliddinova N.Z. O‘zbek tili fitonimlarining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 54 b.; Ne’matova Y.O. Namangan viloyati oykonimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 52 b.; Temirov Sh. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 52 b.; Solixo‘jayeva H.Z. O‘zbek tili xrononim va geortonimlarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2020. – 58 b.; Kenjayeva S.E. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2020. – 50 b.; Nizomova Sh. O‘zbek taxalluslarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2021. – 60 b.; Yuldashev O.T. O‘zbek tili gemeronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2023. – 56 b.

[3] Hamidova K. Farg‘ona vodiysi toponimiyasida variantlilik: yuzaga kelish omillari, turlari va funksional xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qo‘qon, 2022. – 56 b.; Sotiboldiyeva D.S. O‘zbek tili toponimik tizimida konversiya va transonimizatsiya: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2024. – 58 b.; Islomova D.A. Toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Namangan, 2026. – 161 b.

[4] Uluqov N. Gidronimik indikatorlarning lisoniy tadqiqi. – Namangan, 2012. – 58 b.

[5] Yunusova B.M. “Alpomish” dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 60 b.; Xalilova N. Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalardagi antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qo‘qon, 2025. – 58 b.; Mirzaxmedova O.A. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi onomastik birliklarning tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Namangan, 2026. – 147 b.

doirasida yaratilgan monografiyalar va kichik ensiklopedik lug‘at[1] maktabni mintaqaviy doiradan turkiy dunyo miqyosiga olib chiqdi.

To‘rt yo‘nalish birgalikda onomastik makonni to‘rt o‘lchamda – obyekt, jarayon, matn (vaqt) va madaniyatlararo qiyos – qamrab oladi. Bunday to‘liqlik rejasiz yuzaga kelmaydi; u ustozning shogirdlarga mavzu tanlashdagi aniq strategiyasining natijasidir.

Maktab a’zolarining ishlarini yonma-yon o‘qigan kishi ularda umumiy tahlil uslubini sezadi. Bu birlik besh tamoyilda namoyon bo‘ladi. Indikator-markazli tahlil: ustoz gidronimlar tarkibidagi ariq, buloq, soy, ko‘l, band, zovur kabi indikatorlarni nomning turini, obyekt xilini va etimologik qatlamini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida talqin qilgan edi; shogirdlar ishlarida bu tamoyil atoqli otlarning boshqa turlariga tatbiq etildi. Nominatsion-motivatsion tahlil: har bir onim «nima uchun aynan shunday atalgan» degan savol orqali o‘rganiladi. Areal-tarixiy yondashuv: material muayyan hudud doirasida to‘planadi, dala, tarixiy hujjat va xarita ma’lumotlari bilan qiyoslanadi, xronologik qatlamlarga ajratiladi; ustozning 3000 dan ortiq gidronimlik korpus tajribasi shogirdlar uchun andoza bo‘ldi. Lingvokulturologik va etnolingvistik talqin: onim xalqning tarixiy xotirasi, e’tiqodi va turmush tarzini saqlovchi madaniy kod sifatida o‘rganiladi. Leksikografik yakun: tadqiqot natijasi lug‘at shaklida mustahkamlanadi – suv obyekti nomlarining imlo lug‘atidan geortonimlarning ensiklopedik lug‘atigacha.

Ilmiy maktab uzoq yashashi uchun g‘oyalar bilan birga muassasalar ham kerak; bu borada ustozning izchil bazani yaratganligini ko‘rish mumkin. Kadrlar tayyorlash zanjiri – «Yosh tilshunoslar» ilmiy to‘garagi → ustoz tashabbusi bilan ochilgan lingvistika (o‘zbek tili) magistraturasi → doktorantura → o‘zi raislik qilayotgan 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha ilmiy kengash – iqtidorli talabani ilmiy darajali mutaxassisga aylantiradigan yaxlit, uzluksiz tizimni tashkil etadi. Nashrlar tizimi – «Ilm ummonidan qatralar» va «Til va adabiyot masalalari» to‘plamlari – yosh tadqiqotchining ilk maqolasidan yetuk olimning tadqiqotigacha bo‘lgan yo‘lni ta’minlaydi. Ilmiy muloqot maydoni – 2016-yildan faoliyat yuritayotgan «Filologiyaning dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy masalalari» seminari, 2022-yildan har ikki yilda o‘tkaziladigan onomastika bo‘yicha xalqaro anjuman, 2023-yilgi III Xalqaro onomastika simpoziumi va 2026-yilgi E.Begmatov 90 yilligiga bag‘ishlangan respublika anjumani – maktabni respublika va xalqaro onomastik hamjamiyat bilan doimiy aloqada ushlab turadi. Ustozning xalqaro ilmiy jurnallar tahrir hay’atlaridagi faoliyati esa shogirdlar tadqiqotlari uchun sifat mezonini belgilaydi.

Shubhasiz, ilmiy maktabni yashatuvchi eng nozik omil – ustozning shaxsi va u o‘rnatgan ilmiy muomala madaniyatidir. Bu haqda 21 yillik shogird sifatidagi shaxsiy kuzatuvlarim asosida quyidagi asosiy tamoyillarni ko‘rsatish mumkin.

Birinchi tamoyil – ilmiy ishga tenglik asosida mas’ullik. Ustoz nafaqat o‘z rahbarligidagi, balki boshqa olimlar rahbarligidagi ishlarga ham bir xil jiddiylik bilan yondashadilar. Ustozga bir gal «bu ishning rahbari bor-ku» deyilganida, ustozning javobi qisqa bo‘lgan: «Ilmda ilmiy ishga hamma teng mas’ul». Bu tamoyil ilmiy kengashda ham, oddiy maslahatda ham o‘zgarmaydi.

Ikkinchi tamoyil – talabchanlik orqali hurmat. Ustozning savol-javob mashg‘ulotlariga tayyorgarlik kamida bir hafta davom etadi: talabalar ustoz beradigan taxminiy savollarni oldindan tuzib, javoblarini yozib chiqadilar, adabiyotlarni qayta o‘qiydilar. Ustoz auditoriyaga kirganlarida butun guruh jiddiy tus oladi – bu qo‘rquvdan emas, ilmga bo‘lgan hurmatdan. Darsda tushunilmagan masala qolmaydi: har bir nazariy holat hayotiy misol bilan bog‘lab tushuntiriladi.

Ustozning bu mahoratini birinchi kursdayoq his qilganman: Namangan davlat universiteti filologiya fakultetida «Tilshunoslikka kirish» fanidan tinglagan ilk ma’ruzam xotiramda alohida iz qoldirgan. Murakkab nazariy masalalar ustoz tilida sodda, aniq va tushunarli shakl olar, har bir qoida kutilmagan, biroq o‘rinli misollar bilan dalillanar, ovozining goh sokin, goh ko‘tarinki ohangi auditoriyani o‘ziga jalb etib turardi – ma’ruza yillar davomida sayqal topgan, puxta o‘ylangan yaxlit asar taassurotini uyg‘otar edi. Til ilmini tanlash istagi menda aynan o‘sha kuni tug‘ildi va keyinchalik ustoz rahbarligidagi ilmiy yo‘lga aylandi.

Uchinchi tamoyil – uzluksiz hamrohlik. Ustoz shogirdini abituriyentlik davridan bakalavriat, magistratura, PhD va DSc bosqichlarigacha kuzatib boradilar. Mening 2005-yildan buyon davom etayotgan ustoz-shogirdlik yo‘li bunga misol bo‘la oladi. Sadoqat, matonat, mahorat va shogirdga mehribonlik – ustoz siymosini belgilovchi to‘rt fazilat aynan shu uzluksizlikda namoyon bo‘ladi.

Namangan onomastika maktabi ilmiy maktabning barcha mezonlariga javob beradi: unda yetakchi olim Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich, aniq tadqiqot dasturi (onomastik makonni to‘rt o‘lchamda tizimli qamrab olish), metodologik birlik (indikator-markazli, nominatsion-motivatsion, areal-tarixiy, lingvokultur-

[1] Uluqov N., Solixo‘jayeva H., Qoraboyev U. O‘zbek va turk geortonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 124 b.; Uluqov N., Solixo‘jayeva H. O‘zbek va turk geortonimlari. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 124 b.; O‘zbek va turk geortonimlari: kichik ensiklopedik lug‘at / N.Uluqov va boshq. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 240 b.

ologik tahlil va leksikografik yakun), tashkiliy tuzilmalar (to‘garak – magistratura – doktorantura – ilmiy kengash; to‘plamlar; seminar va anjumanlar) hamda vorisiylik (Begmatov → Uluqov → 20 nafar PhD) mavjud. Maktabning o‘ziga xosligi mintaqaviy material asosida umumnazariy natijalarga erishishida va qiyosiy-turkiy miqyosga chiqishida ko‘rinadi. Bugun maktab o‘z rivojining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda: ustozning shogirdlari o‘z shogirdlarini tarbiyalamoqda, demak, maktabning uchinchi avlodi shakllanmoqda. Ilmga sadoqati saodatga aylangan olim uchun bundan katta e’tirof bo‘lmasa kerak.

Rezyume. Maqola professor N.M.Uluqov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda olim rahbarligida shakllangan Namangan onomastika ilmiy maktabining faoliyati ilmiy maktabga xos asosiy mezonlar (yetakchi olim va tadqiqot dasturi, shogirdlar jamoasi, metodologik birlik, nashrlar tizimi, tashkiliy tuzilmalar hamda vorisiylik) va tahlil uslubining besh tamoyili asosida yoritildi. Shuningdek, mazkur maktab tadqiqotlarining to‘rt asosiy yo‘nalishi hamda uning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy muloqot madaniyati ochib berildi.

Resume. The article is dedicated to the 60th anniversary of Professor N.M.Ulukov; it describes the activity of the Namangan onomastic school formed under his guidance on the basis of the main criteria characteristic of a scientific school (a leading scholar and a research programme, a team of disciples, methodological unity, a system of publications, organisational structures and continuity) and the five principles of its analytical method. The four main research directions of the school and the culture of scholarly communication that ensures its sustainable development are also revealed.

Резюме. Статья посвящена 60-летию профессора Н.М.Улукова; в ней освещена деятельность Наманганской ономастической научной школы, сформировавшейся под его руководством, на основе основных критериев, присущих научной школе (ведущий учёный и исследовательская программа, коллектив учеников, методологическое единство, система публикаций, организационные структуры и преемственность), и пяти принципов её аналитического метода. Раскрыты также четыре основных направления исследований школы и культура научного общения, обеспечивающая её устойчивое развитие.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

Jurnalimiz faxriy mehmoni



O‘ZBEK TILI ABSTRAKT LEKSIKASIDA ZIDLIK MUNOSABATLARI

Xakimova Muhayyo Karimovna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Ma'lumki, leksik antonimiya deb qarama-qarshi ma'no anglatadigan leksemalar munosabatiga aytiladi. Antonimiya ikki leksema o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, ushbu leksemalarning semalaridan biri zid, qolgan semalari esa aynan bo‘ladi. *Novcha – pakana*antonimik juftligida *novcha*»bo‘y o‘lchami me'yordan ortiq»,*pakana*»bo‘y o‘lchami me'yordan oz» zid ma'nolarni bildiradi. Ushbu zidlik «oz» va «ortiq» o‘zaro antonim bo‘lgan bir sema doirasida yuzaga chiqqan.

Antonimlar, asosan sifat, ravish va fe'l so‘z turkumida ko‘p uchraydi. Ot turkumiga oid so‘zlarda ham antonimlar mavjud. Lekin ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ot kabi predmetlik ma'nosiga ega emas. Ular ma'nosi asosida hamma vaqt belgi yoki harakat yotadi[1]. Darhaqiqat, predmetni ifodalovchi konkret otlar muayyan aniq bir predmetni nomlagani uchun ularda antonimiya munosabati kuzatilmaydi.*Kitob, qalam, qog‘oz, uy, xona, eshik* kabi konkret buyum va narsa nomlari antonimiya munosabatini hosil qila olmaydi. Zero, mazkur leksemalarning leksik ma'nosi o‘z ziddiga ega emas.

H.Jamolxonov antonimiya hodisasi kengroq tarqalgan holatlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi: 1) «Belgi-xususiyat» ma'noli leksemalar doirasida: *katta* va *kichik*, *issiq* va *sovuq*; 2) «payt», «holat», «miqdor» ma'noli leksemalar doirasida: *kecha* va *ertaga*, *tez* va *sekin*, *ko‘p* va *oz*; 3) «predmet» va «belgi» semalari mujassamlashgan leksemalarda: *boylik* va *kambag‘allik*, *botirlik* va *qo‘rqoqlik*[2]. E'tibor qilinsa, olim ajratilgan va abstrakt otlarni «predmet» va «belgi» semalari mujassamlashgan leksemalar sifatida talqin qilmoqda. Bu ham o‘ziga xos yondashuv bo‘lib, bu kabi belgi ma'noli abstrakt otlar belgini predmetlashtirilgan holda nomlaydi va o‘z-o‘zidan boshqa belgi bildiruvchi leksemalar qatori ularning ham antonimlik munosabatlar hosil qilish imkoniyatlari yuqori bo‘ladi.

O‘zbek tilida *-li* va *-siz* antonim so‘z yasovchi qo‘shimchalar vositasida yasalgan so‘zlarning antonimligi xususidagi fikrlarda tarqoqlik bor. «O‘zbek tilidagi antonimlar haqida lug‘atning kirish qismida ular bir o‘zakdan antonimlar yasaydi, deb ko‘rsatilgan. Undan avvalroq B.O.Isabekov o‘z nomzodlik dissertatsiyasida -li va -siz affiksi vositasida yasalgan sifatlarning o‘zaro antonim bo‘la olmasligini aytgan

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. –B.277.
[2] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. –B.213

va isbotlar keltirgan[1]. R.Shukurov bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: «*Aqlli-aqlsiz* kabi bir o‘zakli yasama so‘zlarning, shuningdek, *o‘qigan-o‘qimagan* kabi fe’l formalarining antonim hosil qila olishini ko‘rsatuvchi belgilardan biri shuki, bunday so‘zlar, odatda, shu tilda so‘z holidagi sinonimlariga ega bo‘ladi; ikkinchidan, ular boshqa tilga, masalan, rus tiliga yaxlit so‘z holidagi sifatlar bilan tarjima qilinadi»[2].

Bizningcha, *-li* va *-siz* affiksi predmet ma’nosini bildiruvchi so‘zga qo‘shilsa, yangi so‘z yasalmaydi, ya’ni antonimlik hosil bo‘lmaydi. Bu affikslar orqali shu predmetga egalik yoki ega emaslik ma’nosi vujudga keladi. Agar yasalishga asos bo‘lgan so‘z abstrakt bo‘lsa, bu o‘rinda so‘z yasalishi xususida fikr bildirish mumkin.

Maqolada tilshunoslikning tavsifiy, sistem, komponent tahlil metodlaridan, konseptual-kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Abstrakt so‘zlar, xususan, abstrakt otlar o‘rtasidagi ma’noviy ziddiyatlar talqini xalqimizning madaniyati, ma’naviyati, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq. Zero, yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, adolat va haqsizlik, hayot va o‘lim, rost va yolg‘on, sog‘lik va kasallik, do‘stlik va dushmanlik, mehnatkashlik va dangasalik, boylik va kambag‘allik, quvonch va tashvish kabi qadriyatlar tizimi bir necha asrlardan beri xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylangan. Mazkur aksiologik juftliklar maqollar, matallar, naqllar, frazeologik iboralar, rivoyatlar, afsona, dostonlardan, ya’ni xalq og‘zaki ijodidan hamda yuksak badiiy ijod namunalaridan mustahkam o‘rin egallagan.

Masalan, «sog‘lik» xalqimizning eng qadimgi qadriyatlaridan biri bo‘lib, insoniyat tabiiy mavjudot sifatida doimo sog‘ yurishga intilgan. Uni asrashga harakat qilgan. Qadim zamonlardan beri tabiblik kasbining mavjudligi ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir. Antiqadriyat hisoblangan «kasallik»ka ham turli munosabatlar bildirilgan. Masalan, kasallik qilingan gunohlar, Allohning sinovlari, kimningdir nazari, yomon odamlarning turli sehrlari, noto‘g‘ri ovqatlanish, makon va zamon (fasllar) bilan sharhlangan. Xalqimizning bu ikki tushunchaga bo‘lgan qarashlari, albatta, frazemalarda ham o‘z aksini topgan. «Kasallik» so‘ziga antonimik munosabatdagi frazemalar: *g‘arq pishmoq, barq urmoq, barq urib ko‘karmoq, omon-eson bo‘lmoq, yostiqdan bosh ko‘tarmoq*.

Tutday to‘kilmoq, boshi yostiqqa yetganda, mazasi qochmoq, ko‘z oldi qorong‘ilashmoq, badanidan o‘tib ketmoq kabi frazemalar *sog‘lik* leksemasi bilan antonimik munosabatni hosil qiladi. Yuqoridagi misollardan ma’lumki, odamlar o‘zining sog‘ligini o‘simliklarning rivojlanishiga o‘xshatib kelgan. Shu o‘rinda «Nima uchun tut daraxtiga?» degan savol tug‘iladi. Bizningcha, buyuk ipak yo‘lida joylashgan mamlakatimizda ipak qurti yetishtirish doimo dolzarb bo‘lgan. Ipak qurtining ozuqasi hisoblangan tut daraxti esa ko‘plab frazemalar, o‘xshatishlar uchun asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shu tariqa tut mevasining to‘kilish jarayoni mazkur ma’no nominatsiyasi uchun asos bo‘lgandir.

Abstrakt ma’nolar antonimiyasi xususida fikr yuritganda, hosila ma’nolarning antonimiyasiga ham to‘xtalishni lozim topdik. Jumladan, yuqorida aytilgan qadriyatlardan biri *oq* va *qora* juftligidir. Bu aksiologik juftlikni *oq* va *qora* rang bildiruvchi leksemalarning semantik tarkibidagi hosila ma’nolar shakllantirib, ular sememalar antonimiyasiga misol bo‘la oladi. *Oq* va *qora* leksemalari bosh ma’noda antonim emas. Lekin olam lisoniy manzarasining o‘ziga xosligi natijasida hosila ma’nolari o‘zaro ushbu munosabatni shakllantirgan. O‘zbek xalq maqollaridan quyidagilarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda *oq* va *qora* leksemalari hosila ma’nolarining antonimiyasi aniq aks etadi: ***Oq** degani – olqish, **Qora** degani – qarg‘ish. Asli **qora** **oq**armas, Asli buzuq tuzalmas. **Qora** itning uyati **oq** itga tegar.* Frazemalarda ham bu ikki ma’no antonimiyasi o‘z aksini topgan. Masalan, *oqni qoradan ajratmoq* frazemasi yaxshini yomondan ajratmoq ma’nosini beradi. Bu o‘rinda ham *oq* leksemasi «ijobiy», *qora* leksemasi «salbiy» ma’nolarni ifodalayotgani ma’lum. O‘zbek xalqida *oq* va *qora* leksemalarining hosila ma’nolari antonimiyasiga kun va tunga bo‘lgan munosabatlar sabab bo‘lib, qora tundan qo‘rqish va oppoq tongni kutish asnosida qarama-qarshi ma’nolar shakllangan bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda *oq* leksemasining ma’no taraqqiyotida ijobiylikka asoslangan «gunohsiz» mavhum ma’no shakllangan bo‘lsa, *qora* leksemasining ma’no taraqqiyotida esa salbiylikka asoslangan abstrakt ma’nolar hosil bo‘lgan:

1. Qora (ko‘mir tusidagi rang: *qora qalam*) - Qora (o‘qimagan, savodsiz, avom: *qora xalq*).

2. Qora (o‘qimagan, savodsiz, avom: *qora xalq*) – Qora (maxsus malaka, hunar talab qilmaydigan, qo‘l kuchi bilan har kim qilaveradigan ish: *qora ish*)

3. Qora (maxsus malaka, hunar talab qilmaydigan, qo‘l kuchi bilan har kim qilaveradigan ish: *qora ish*) - Qora (og‘irchilik, vazminlik bilan bog‘liq bo‘lgan, mashaqqatli azob: *qora ter*)

4. Qora (ko‘mir tusidagi rang: qora qalam) – Qora (ko‘ngilsiz, noxush, mash’um*: qora kunlar*)

5. Qora (ko‘ngilsiz, noxush, mash’um: *qora kunlar*) – Qora (qo‘rqinchli, dahshatli, mudhish: *qora xat*).

[1] Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. –B.92.

[2] Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимия. – Тошкент: Фан, 1977. –Б.10.

Ma’nolararo antonimiya, asosan, antonim bo‘lgan konkret sifatlarning hosila ma’nolari hisobiga to‘g‘ri keladi. Masalan, *yengil va og‘ir, shirin va achchiq, baland va past, katta va kichik, uzoq va yaqin*.

Shirin leksemasining izohli lug‘atda 4 ta ma’nosi berilgan bo‘lib, ular quyidagilardir.

Shirin 1. Shirasi o‘tkir. Shirali. Bu ma’no *shirin qovun, shirin choy* kabi kontekstlarda reallashadi. *Shirin* leksemasining ikkinchi sememasi esa ta’mi yoqimli, mazali, lazzatli ma’nosini beradi: *shirin osh, shirin sho‘rva*. 3-sememasi kishi huzur qilidigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan ma’noni ifodalab keladi. Bu ma’no quyidagi kabi qurshovlarda reallashadi: *shirin xayollar, shirin orzular, shirin bola*. *Shirin* so‘zining 4-sememasi esa «ahil, inoq» ma’nosini ifodalab, u *turmush* va *oila* so‘zlari bilangina voqelanadi. Biz tahlillar asosida *shirin* leksemasining 4 ta emas, 7 ta ma’nosini ajratdik. Quyida esa mazkur so‘zning ma’no taraqqiyotini aniqlashga harakat qildik.

Metafora shunday bir sirli hodisaki, u orqali umuman o‘xshamagan voqeliklar ham bitta nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Bunga yuqoridagi so‘zimiz yaqqol misol bo‘lib, o‘zbek xalqi shakar solingan choyini ham, lazzatli palovni ham, yoqimtoygina qizini ham, ezgu orzularini ham, jarangdor ovozni ham, mazmunli hayotini ham bir so‘z bilan ifodalay oladi va bunda hech qanday g‘aritabiiylik yo‘q. Tilshunos uni muayyan semalar, qoliplar orqali tahlil qilishga, bir xil sxemalarga, jadvallarga solishga harakat qiladi. Lekin xalqning ijodkorligi, dunyoni o‘ziga xos ko‘rishi, uni o‘ziga xos qabul qilishi va nomlashi qat’iy qoliplarga tushmaydi, bizningcha. Shunday bo‘lsa-da, *shirin* leksemasining semantik strukturasini quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

1-jadval

***Shirin* leksemasining semantik strukturasi**

№	**shirin 1**	**shirin 2**	**shirin 3**	**shirin 4**	**shirin 5**	**shirin 6**	**shirin 7**
1	belgi	belgi	belgi	belgi	belgi	belgi	belgi
2	konkret	konkret	konkret	konkret	konkret	abstrakt	abstarkt
	ta’m	ta’m	ko‘rinish	hid	ovoz		hayot
3	shira-ning ko‘pligi	-	-			-	-
4	lazzatli	lazzatli	yoqimli	yoqimli	yoqimli	yoqimli	yoqimli
5	***shirin qovun, shirin tort***	***shirin sho‘rva shirin osh***	***shirin bola, shirin qizaloq***	***shirin bo‘y, shirin hid***	***shirin ovoz, shirin nafas***	***shirin orzular, shirin o‘ylar***	***shirin turmush, shirin oila***

Shirin so‘zi *achchiq* so‘zi bilan bosh ma’noda antonim bo‘la olmaydi. Chunki *shirin choy* va *achchiq choy* ma’noviy jihatdan qarama-qarshi emas. Shirin so‘zining bosh ma’nosi «shirali, shirasi ko‘p» belgini ifodalab, mazkur ma’no *bemaza* leksemasi bilan antonim bo‘la oladi: *shirin qovun* yoki *bemaza qovun. Achchiq* leksemasi esa «shirasiz yoki shirasi kam» ma’nolarini anglatmaydi. U shiringa qarama-qarshi bo‘lmagan boshqa bir ta’mni ataydi. Bu ikki leksemaning antonim ma’nolari mazkur ta’mlarning yoqimliligi yoki yoqimsizligi asosida vujudga kelgan:

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg‘on yomon,
Ul shirin yolg‘onga mendek
Aldanib qolg‘on yomon (E.Vohidov).

Shirin so‘zining antonimi hisoblangan *achchiq* so‘zini semantik tahlil qilishga harakat qilib ko‘ramiz:

Achchiq 1- og‘izni achitadigan, lovullatadigan ta’m. Achchiq garmdori, achchiq murch.

Achchiq 2 – nordon, tishni qamashtiradigan ta’m. Achchiq anor, achchiq nok. Achchiq 3 – sezgi a’zolariga qattiq ta’sir qiluvchi hid. Achchiq gaz, achchiq tutun.

Achchiq 4 – jizillatadigan, jonni achitadigan. Achchiq shamol, achchiq sovuq. Achchiq 5 – kishiga qattiq tegadigan, ko‘ngilga ozor beradigan; qattiq, noxush. Achchiq istehzo, achchiq so‘z.

Achchiq 6 – g‘am-iztirobli, alamli. Achchiq taqdir, achchiq qismat.

Achchiq 7 – Jahl. Dadamning achchig‘i yomon.

2-jadval

***Achchiq* leksemasining ma'no tarkibi**

№	achchiq 1	achchiq 2	achchiq 3	achchiq 4	achchiq 5	achchiq 6	achchiq 7
1	belgi	belgi	belgi	belgi	belgi	holat	holat
2	konkret	konkret	konkret	konkret	abstrakt	abstrakt	abstrakt
2	ta'm	ta'm	hid	sovuq		hayot	
3	og'iz	og'iz	burun	badanni	ko'ngilga		
4	achitadi-gan	qamashti-radigan	achitadi-gan	achitadi-gan	ozor beradigan	ozor beradigan	ozor beradigan
5							ruhiy
6							norozilik
7	***achchiq garmdo-ri, achchiq murch***	***achchiq anor, achchiq nok***	***achchiq gaz, achchiq tutun***	***achchiq shamol, achchiq sovuq***	***achchiq istehzo, achchiq so'z***	***achchiq taqdir, achchiq qismat***	***achchig'i chiqdi***

Shirin va *achchiq* leksemalarining antonim sememalari esa quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

3-jadval

***Shirin* va *achchiq* leksemalarining qiyosiy tahlili**

1	shirin 2 ***(shirin olma, shirin anor)***	achchiq2 (***achchiq olma, achchiq anor***)
2	shirin 4 ***(shirin so'z, shirin gap)***	achchiq 5 (***achchiq istehzo, achchiq so'z***)
3	shirin 7 (***shirin turmush, shirin oila***)	achchiq 6 (***achchiq taqdir, achchiq qismat)***

Abstrakt so'zlar orasida nutqiy antonimiya boshqa nutqiy leksik munosabatlarga nisbatan ko'p kuzatiladi. Chunki nutqiy antonimiya xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollar, matallarda, dostonlarda ko'p uchraydi. Maqollar xalq og'zaki ijod namunasi sifatida millatning olamni idrok etishini o'zida aks ettiradi. Til egasi bo'lmish xalq o'zaro zid bo'lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtirgan, zidlagan va buning natijasida maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilingan.

Ma'lumki, o'zbek tilida *to'g'ri* so'zi *egri* so'zlari leksik antonimdir. Lekin o'zbek xalq maqollarida *to'g'ri* va *yomon* leksemalari nutqiy antonimiyasi ko'p kuzatiladi: *To'g'riga balo yo'q, yomonda hayo yo'q.* Ma'nolararo ziddiyat antonimiya bilan chegaralanib qolmaydi. Antisemiya, enantiosemiya kabi lisoniy munosabat va hodisalarda ham abstrakt ma'nolar ziddiyatini kuzatish mumkin.

Antisemiya abstrakt so'zlarda yorqinroq namoyon bo'ladi. Xususan, belgi bildiruvchi abstrakt otlar sifatlar bilan antisemik munosabatlar hosil qiladi. D.Abdullayeva leksik sathdagi abstraksiya haqida munosabat bildirar ekan, uni so'z turkumlarining o'zgarishi bilan bog'laydi: «Semantik abstraksiya belgi yoki harakat ifodalovchi so'zlarning o'z asl turkumidan (sifat, ravish, fe'l) chiqib, ot turkumiga o'tishi (ya'ni mazkur turkumlardan ot yasalishi) jarayonida sodir bo'ladi. Masalan: yaxshi – yaxshilik, dono – donolik, sezmoq – sezgi»[1]. Darhaqiqat, abstrakt otlar mohiyatan ot so'z turkumining «predmet» turkumlik semasiga ega emas. Ular ot turkumiga xos bo'lgan belgi bildiruvchi so'zlardir. Shu zaylda mazkur so'zlarning belgi bildiruvchi sifat turkumiga mansub so'zlar bilan antisemik munosabatga kirisha olishi tabiiydir. Masalan, *qayg'u* so'zi *shod* so'zi bilan antisemiya hosil qila oladi. Lekin bu o'rinda bir turkumdan chiqib, ikkinchi turkumga o'tishi haqidagi fikr biroz munozarali. Zero, abstraksiya tushunchaviy sathda amalga oshirilayotgan aqliy jarayon bo'lib, bu jarayon natijasida bir turkumdagi nomdan ikkinchi turkumga oid nom shakllanishi mumkin.

Antisemiyaning nutqiy ko'rinishlari maqol va matallarda yorqinroq ko'rinadi: *Achchiq bo'lsang, qalampir bo'l, Totli bo'lsang bolday bo'l.* Bu o'rinda *qalampir* va *bolday* so'zlari nutqiy antisemiyani vujudga keltirmoqda.

[1] Abdullayeva D. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fanlari nomzodi dis...avtoref. – Toshkent, 2010. –B.45.

Antonimiya bir leksema doirasida ham kuzatilishi mumkin. Bunda, ya'ni enantiosemiyada, leksema o'zi anglatayotgan ma'nolari bilan o'ziga o'zi antonim bo'lib qolishi ma'lum. Abstrakt leksemalarda enantiosemiya ham kuzatiladi. *Balo, ofat, dahshat, bedil* kabi so'zlarda enantiosemiya mavjud bo'lib, ularning ma'nolari o'zaro antonimlikni shakllantiradi. Masalan, *dahshat* leksemasining ma'nolari kontekstda antonim bo'la oladi: *urush dahshati – dahshat kiyinmoq.* Shunday holat *ofat* leksemasida ham kuzatiladi: *1. Tog'li hududlarda tabiiy* ***ofat*** *yuz berdi. 2. Qiz* ***ofat*** *bo'libdi*[1].

«Bedil» so'zi uchta ma'no anglatadi:

1. Ma'yus, hasratli; g'amgin. *Bunchalar qattolsan, o sirli olam, Bunchalar bedilsan, bepoyon xilqat* (A. Oripov).

2. Ko'ngilsiz bo'lgan, ko'ngli sovigan. *Dardsiz, bedil bila hargiz musohib bo'lmag'il* (Hamza).

3. O'ta darajada oshiq, ishq o'tida kuygan. *Chirog'poyadagi sham bedillar yuragidek titrab, mehmonxonani arang yoritar edi* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar).

2- va 3- ma'nolar o'zaro enantiosemiyani hosil qilmoqda: ko'ngilsizlik va o'ta darajada oshiqlik.

Ma'lumki, tarkibida antonim semaga ega so'zlar semantik jihatdan bog'lanib kela olmaydi. Ularning o'zaro bog'lanishiga semantik strukturadagi zid ma'noli semalar imkon bermaydi. Masalan, *issiq (haroratli,* ***qizigan****)* va *qor (yog'in, oq*, sovuq*)* leksemalarining tanlangan sememalarida zid semalar mavjudligi uchun ular ketma-ket bog'lana olmaydi. Bu zidlik semalararo emas, hatto semema-sema maqomida kuzatilmoqda: *issiq (semema) – sovuq (sema).* Lekin, badiiy san'at turlari, jumladan, oksyumoronda zid semali sememalar sintagmatik bog'lanishi mumkin. O'zaro zid ma'noli abstrakt so'zlar ham oksyumoron hosil qila oladi: *achchiq haqiqat, shirin yolg'on, qayg'uli baxt, shirin tashvish, shirin azob, yoqimli hijron* kabi.

Demak, abstrakt otlarda ham, abstrakt sifatlarda ham antonimiya munosabati ko'p kuzatiladi. Bu lisoniy munosabatga xalqimizning ko'p asrlik madaniyati, ma'naviyati, dunyoni anglashi kabi qadriyatlar asos bo'ladi. Zero, insoniyat o'zini anglagan davrdan hozirgacha *yaxshilik* va *yomonlik*, *hayot* va *o'lim*, *haqiqat* va *haqsizlik* kabi aksiologik juftliklar hayotni belgilovchi omil bo'lib kelmoqda. Abstrakt so'zlarda hosila ma'nolar antonimiyasi o'ziga xos bo'lib, odatda, konkret sifatlarning ma'no taraqqiyoti natijasida abstrakt ma'nolarning shakllanishi ko'p kuzatiladi. Demak, abstrakt otlarda ham, abstrakt sifatlarda ham antonimiya munosabati ko'p kuzatiladi. Bu lisoniy munosabatga xalqimizning ko'p asrlik madaniyati, ma'naviyati, dunyoni anglashi kabi qadriyatlar asos bo'ladi. Zero, insoniyat o'zini anglagan davrdan hozirgacha yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, haqiqat va haqsizlik kabi aksiologik juftliklar hayotni belgilovchi omil bo'lib kelmoqda. Abstrakt so'zlarda hosila ma'nolar antonimiyasi o'ziga xos bo'lib, odatda, konkret sifatlarning ma'no taraqqiyoti natijasida abstrakt ma'nolarning shakllanishi ko'p kuzatiladi.

Rezyume. Mazkur maqolada abstrakt so'zlar orasidagi ma'noviy ziddiyat o'rganildi. Aksiologik juftliklardagi abstrakt so'zlarning antonimik munosabati qadim ildizlarga ega eganligi tahlil qilindi. Hosila ma'nolarning antonimik munosabatlarining o'ziga xosliklari semik tahlil asosida ochib berildi. Abstrakt so'zlardagi antisemiya, enantiosemiya kabi hodisalar o'rganilib, nutqiy antonimiya va oksyumoron kabilarga e'tibor qaratildi. Abstrakt nomlarda ham leksema darajasidagi, ham semema darajasidagi antonimlik aniqlandi.

Resume. This article examines the semantic opposition between abstract words. The fact that the antonymic relations of abstract words in axiological pairs have ancient roots is analyzed. Based on seme analysis, the features of antonymic relations of derived meanings are revealed. Phenomena in abstract words such as antisemy and enantiosemy are investigated, and attention is paid to speech antonymy and oxymoron. In abstract nouns, antonymy is identified at both the lexeme and sememe levels.

Резюме. В данной статье исследуется смысловая оппозиция между абстрактными словами. Анализируется тот факт, что антонимические отношения абстрактных слов в аксиологических парах имеют древние корни. На основе семного анализа раскрываются особенности антонимических отношений производных значений. Исследуются такие явления в абстрактных словах, как антисемия и энантиосемия, уделяется внимание речевой антонимии и оксюморону. В абстрактных именах выявлена антонимия как на уровне лексем, так и на уровне семем.

[1] Xakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2025. –B.36.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SINONIMLARNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Shukurov Axat Axmatovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Hozirgi o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati, stilistika masalalariga, shuningdek, badiiy asar tilini, umuman, matn lingvistikasini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ma'lumki, badiiy asar tili o'rganilar ekan, unda sinonimlarga alohida e'tibor beriladi.[1] Sinonimlar fikrning aniq, rang-barang bo'lishini, nutq obyektiga nisbatan subyektning ijobiy, salbiy va xolis munosabatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Badiiy matnda sinonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari katta. Umuman, sinonimiya nutqda o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. Bu hodisa lug'aviy doirada bo'lganidek, so'z yasalishi, frazeologiya, gap qurilishi sohalarida ham amal qiladi. Sinonim so'zlar lingvopoetik jihatdan nutqqa aniqlashtirish, ta'sirchanlik, birxillik va takrordan qochish kabi ma'no bo'yoqlari beradi.

Badiiy mavzudagi she'riy dostonlarda ham sinonim so'zlarning turli o'rinlarda o'ziga xos lingvostilistik ma'nolarda qo'llanganini ko'ramiz. Sinonimlar lingvouslubiy qo'llanish xususiyatiga ko'ra bir necha ko'rinishlarda uchraydi:

1. Sinonimlar bir o'rinda ketma-ket qo'llanib bir qator ma'no anglatish xususiyatlariga ega bo'ladi. Chunonchi:

a) bir joyda ketma-ket bog'lovchisiz qo'llanib, gapda uyushiq bo'lak vazifasida keladi va harakat hamda holatning tinimsiz takrorlanishini bildiradi. Masalan, A.Oripovning «Hakim va ajal» dostoni[2]da Malikaning davosiz dardga yo'liqqanligi haqida gap ketar ekan, «Qolmabdi hech qaratmagan tabib duoxon» deb yoziladi. Bu yerda takrorlangan, «tabib», «duoxon» sinonimlari Malikani sog'aytirib, darddan qutqarish yo'lida qilingan harakat, tashvish va g'amxo'rlikni umumlashtirib ifodalashga xizmat qilgan.

b) badiiy matnda sanash ohangida takrorlangan sinonimlar *joy, hudud* ma'nosini tasavvur etishga xizmat qiladi. Masalan, Mirmuhsinning «Shiroq»[3] dostonida ana shunday takror bosh qahramonning sinchkovligi, hushyorligi, o'zi o'sib-ungan yurtga mehri balandligini ifodalashga hamda u yashagan hududiy kengliklarni o'quvchi ko'z oldiga keltirishga xizmat qilgan:

Qumliklarni, dashtlarni, qirni,
O'tloqlarni bilar mukammal.

d) badiiy nutqda sinonimlarning takrorlanishi qahramonda yuzaga kelgan qat'iyatni, ro'y bergan voqea-hodisaga e'tirozli qarashini bildiradi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida saroyga yo'l olgan tabib oldidan chiqqan Mirzo o'z dardini aytar ekan, uning bu fe'li suhbatdoshining ensasini qotiradi va ushbu muloqotdan tezroq qutulishga intiladi:

Qaradi-yu, Mirzoning u hissiz ko'ziga,
Yurib ketdi ilgariga ***dadil, shiddatkor****.*

e) ba'zan sinonimlarning bunday takrori o'ng'aylik, qulaylik, ishni oson bitishi ma'nosini ifodalaydi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida Hakimning amir kutubxonasidan foydalanishga ijozat olish uning uchun naqadar yuksak quvvat bo'lganligi tasvirida quyidagicha mulohaza bildiriladi:

Murodiga yetganda u ***beto'siq, bejang****.*

Hakim uchun bunday martabaga erishish oson emas edi, amir ro'yixushligi go'yo yorib o'tilishi kerak bo'lgan to'siqlarning bartaraf etilishi, jang bilan qo'lga kiritiladigan imkoniyatning maydonsiz ishg'ol etilishi edi;

f) sinonimlarning bu xil takrori mulohazani kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida dono tabibning kutubxonada ishlash jarayoni tasvirida:

Sahifalar orasidan ro'barusiga,
Chiqar edi turfa savol: ***Nimaga? Nechun?***

degan dardkashlik, jonkuyarlik o'rinlari bor. Bir savolning ikki xil variantda takrorlanishi qahramon ruhiyatida g'alayonlarni, mulohazada fikriy to'xtashga intilish, undagi ilmiy tafakkur bezovtaligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, B.Boyqobilovning «Toj mahal» dostonida Shohjahonning orzu-o'ylari quyidagicha tasvirda berilgan:

[1] Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – 307 б.
[2] Орипов А. Ҳаким ва ажал: достон // Шарқ юлдузи. – 1980. – № 10. Б. 3–16.
[3] Мирмуҳсин. Танланган асарлар: 3 жилдлик. 1-жилд: Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 334 б.

Shu maqbara dunyoda,
Bo‘lib ***tengsiz, yagona****...*
Yetti iqlimni hayron,
Qilsa, – deydi Shohjahon.[1]

Bu yerda «tengsiz», «yagona» sinonim so‘zlari Shohjahonning katta orzu-havasini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

g) sinonimlarning bu xil takrori ifodani aniqlashtiriga xizmat qiladi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida shunday tasvir bor:

Malika deb Mirzo garchand cheksa ham hasrat,
O‘zga edi, boshqa edi, *uning matlabi.*

Bu o‘rinda shoir «o‘zga edi», «boshqa edi» sinonimlaridan birdaniga foydalanmasligi mumkin edi, ammo ifodada hozirgi holat to‘la aks etmay, tasvirda keskin qat’iy xulosa chiqarish mumkin bo‘lmay qolar edi. Muallifning niyati esa qahramon xarakteridagi riyokorlikni ko‘rsatish, uning qalbida yashiringan noxolis niyatni oydinlashtirish, sirliligini tasvirlash bo‘lib, bu parda orqali o‘quvchida mulohaza qo‘zg‘atish uchun sinonimlar takrori g‘oyat qo‘l kelgan.

h) sinonimlarning takrori mulohazadagi keskinlikni, shiddatni, ohang balandligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida Mirzoning kutubxonaga o‘t qo‘ygani va bu ayb begunoh hakimning bo‘yniga tushganligi tasviri bor. Shunda shoh Hakimga qarata: «Sen *imonsiz zot ekansan, firibgar, ayyor*'', – deydi. Bu yerda keyingi sinonim so‘zlarning ajratilgan bo‘lak (sifatlovchi) sifatida qo‘llanishi nutq ohangidagi ta’kidni, keskinlikni, kuchaytirishga xizmat qilgan.

i) sinonimlarning takrori personajlar ruhiy holati va tasvirini umumlashtirishga, xulosalashga, ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonidan olingan quyidagi parchalarga e’tibor beraylik:

So‘ngra xilvat bu maskandan ***beun, besado.***
Chiqib ketdi...
Yotar edi to‘shagida ***bezabon,*** *xasta...*[2]

Ko‘rinadiki, har ikki parchada ham personajlar holatining tasviri chizilgan: birinchisida – ruhiy dardli holat, ikkinchisida – jismoniy dard holati. Tasvirning o‘quvchi ko‘z o‘ngida ishonchli namoyon etishda sinonimlarning takrori qo‘l kelgan.

2. Sinonimlar bog‘lovchilar bilan qo‘llanib, ta’kid, mulohaza, ehtiyotkorlikni ulardan anglashilgan ma’noning mo‘lligini, ko‘pligini ko‘rsatish, umumlashtirish, jamlash kabi ma’nolarni ifodalab keladi. Bunda:

a) *-u (-yu)* yuklamasi bog‘lovchi vazifasida qo‘llanadi. Masalan:

*Kori xayrga baxsh etardi lahza****-yu*** *onni.*
(«Hakim va ajal»)
*Zulm-****u*** *sitam ko‘rdi yurti boshida.*
(«Afrosiyob»)[3]

b) *va* bog‘lovchisi bilan keladi. Masalan, «Hakim va ajal» dostonida Mirzo Malikaga ishtiyoqi tufayli Hakimga nisbatan g‘animlik yo‘liga kirar ekan, uni o‘z eliga qaytarib yuborish rejasini tuzadi. Bu tadbirning yengil va o‘ng‘ay ko‘chishini o‘ylagani «Jo‘natmog‘i kerak, lekin tinch ***va*** *bejanjal»* degan mulohazada ifoda topadi.

d) *na..., na...* inkor bog‘lovchisi bilan bog‘lanib kelgan sinonimlar inkor ma’noning qat’iyligini ko‘rsatadi. Masalan:

Olmagaylar o‘zi bilan ***na*** *mulk,* ***na*** *bisot.* («Hakim va ajal»)

3. Takrorlangan sinonimlarning olmosh, modal so‘zlar bilan birgalikda kelishi ham ta’kid va nutqiy ta’sirchanlikni oshiradi.

a) sinonimlar takrorida «bu» ko‘rsatish olmoshi ham qo‘shilib keladi va ta’kidni ifodalaydi.

Aybimmi yo egnimdagi ***bu*** *zar,* ***bu*** *kimxob.* («Hakim va ajal»)

b) badiiy matnda «u» olmoshi sinonimlar bilan qo‘shilib, takrorlanib, nutqni shiddatlantirishga, ekspressivlikning kuchaytirishga, so‘zlovchining hayajonli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

U *bir gado,* ***u*** *bir tabib,* ***u*** *yalangoyoq.* («Hakim va ajal»)

Bu yerda *u* olmoshi ham ko‘rsatish, ham kishilik vazifasini qo‘shib ifodalaydi. Shuningdek, ushbu matnda «bir» so‘zi ham sinonim so‘zlarga qo‘shilib takrorlanib, ma’no ekspressivligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

d) «bu» ko‘rsatish olmoshining sinonimlar bilan qo‘shilib takrorlanishida ham ma’nodagi ta’kid, nutqdagi hayajonlilik kuchayadi:

O‘lat *edi bu* ***dahshatli****, bu* ***qora ajal****.* («Hakim va ajal»)

e) «balki» yordamchisi takrorlangan sinonimlar orasida kelib, nutqqa mulohazakorlik ma’no bo‘yog‘ini qo‘shadi:

Qayoqdandir kelib qolgan bir tabib yuzsiz,
Malikaga ***suhbatdoshdir, balki hasratdosh****.* («Hakim va ajal»)

f) «har» olmoshining sinonimlarga qo‘shilib takrorlanishida ham ta’kid belgisi kuchli:

Parchalansin ***har g‘ov, har to‘suv****.* («Shiroq»)[4]

g) «hanuz» ravishining sinonimlarga qo‘shilib takrorlanishida ham ta’kid ma’nosi kuchayadi. Masalan:

[1] Бойқобилов Б. Шарқ камалаги. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 287 б.
[2] Орипов А. Ҳаким ва ажал: достон // Шарқ юлдузи. – 1980. – № 10. Б. 3–16
[3] Бойқобилов Б. Афросиёб: шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. Б. 129.
[4] Мирмуҳсин. Танланган асарлар: 3 жилдлик. 1-жилд: Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. б. 314

Malika-chi, ***hanuz horg‘in, hanuz majolsiz****.* («Hakim va ajal»)

4. Takrorlangan sinonimlar juft so‘z shakliga kelib, umumiylikni, ko‘plikni, jamlik ma’nosini ifodalaydi:

Sizni kutar intizor,

Begim bilan ***do‘sti yor****.* («Toj mahal»)

5. Sinonimlar nutqda xilma-xil istioralar yaratishga xizmat qiladi hamda uning iboraviyligini, go‘zalligini ta’minlaydi. Masalan, «Afrosiyob» dostonida *sevgi, muhabbat, ishq, g‘am, qayg‘u, mung, hasrat* kabi sinonimik qatorlar mavjud. Ular asosida *sevgi minbari, muhabbat otashi, ishq bo‘lsa mehmon, muhabbat ko‘chasi, sevgi oshyoni* kabi istioraviy birikmalar yuzaga kelgan.

6. Ba’zan she’riy matnda sinonim so‘zlar o‘zaro sifatlovchidan sifatlanmish holatiga tushib, ma’nodagi ta’kidni, ekspressivlikni kuchaytirishga xizmat qiladi:

Yurtni toptasa ***yot bir begona****.* («Afrosiyob»)

Bu yerda «yot», «begona» so‘zlari o‘zaro sinonim, shu bilan birga biri ikkinchisini sifatlab turibdi. Natijada ifoda ta’sirchanligi kuchaygan.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda uchrovchi sinonimlar tuzilishi, nutqiy jarayonda hosil bo‘lish xususiyatiga ko‘ra ham xilma-xildir. Ularning ayrimlari quyidagichadir.

1. Leksema va majoz:

Necha-necha saroylarni hatlab o‘tgan ***baxt****,*

Nogahoniy ***Humoy*** *bo‘lib kelar qoshingga.* («Hakim va ajal»)

Bu yerda afsonaviy *baxt qushi, davlat qushi, Humo qushi nomi baxt* so‘zi bilan birga ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

2. Leksema va metafora:

Malikaning ko‘zlarida charaqlardi ***g‘am.***

Malikaning ko‘zalarida porlar ekan ***mung.***

Ayon edi Malikaning dilidagi ***darz.*** («Hakim va ajal»)

Ushbu nutqiy parchalardagi «g‘am», «mung» so‘zlariga metaforik tasvirdagi *darz* so‘zi ham sinonim bo‘lib kelgan.

3. Sifat va sifatdosh:

Aylanishib juda yuksak ***naqshin*** *viqorni,*

Ziynatlangan *bir eshikka borib yetdilar.* («Hakim va ajal»)

4. Forsiy va arabchadan o‘zlashgan leksema:

Odam loydan bunyod bo‘lgan deyishgan qadim,

Xoki turob *bo‘lajak u o‘lgandan so‘ng ham.*

(«Hakim va ajal»)

(***Xoki turob*** so‘zlariga zoh bering)

5. O‘zbekcha va fors-tojikchadan o‘zlashgan leksemalar:

Necha ***til-u zabon****larni farq etdi oson.* («Hakim va ajal»)

Bu yerda «til» va «zabon» so‘zlari «-u» bog‘lovchisi bilan kelib, umumiylik, jamlik, ma’no kengligini ifodalaydi.

6. Fors-tojikchadan o‘zlashgan leksemalar:

Kuni bo‘yi ikkovi ham ***dilgir, benavo****.* («Hakim va ajal»)

7. Ravishdosh va sifat:

Eshik tomon yo‘naldi u ***shoshib, bechidam****.* («Hakim va ajal»)

8. *Jins* va *tur* tushunchalarini ifodalovchi leksemalar:

Inson bilan talashardi bu uyda hamon,

Tokchalarda yaltirardi ***javohir, billur.*** («Hakim va ajal»)

9. Leksema va frazeologizm:

Yurtlar kezib, ***tentirarmish sargardon bo‘lmish****.* («Hakim va ajal»)

10. Yasama so‘zlar:

Hakim bir zum sukut etdi ***bekalom, beso‘z****.* («Hakim va ajal»)

Sinonimlar uslubga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra o‘zaro farqlanishi, ya’ni uslubning biror turiga mansub bo‘lishi yoki uslubga befarq (neytral) munosabatda bo‘lishi mumkin. [1]

Sinonimlarni o‘z o‘rnida, lingvopoetik jihatdan muvaffaqiyatli qo‘llash mahorat belgisidir, lekin ba’zan ularni noo‘rin qo‘llash, lug‘aviy-uslubiy ta’sirchanlik bilan aloqasi bo‘lmagan holda takrorlash hollari ham uchrab turadi. Masalan, «Afrosiyob» dostonida «Ke*lgindi topsa-yu* ***izzat*** *va* ***ikrom***» degan misra bor. «Izzat», «ikrom» sinonimlarini bu xil bog‘lovchi bilan qo‘llash nutqiy ta’sirchanlikka xizmat qilmagan, aksincha, uni sun’iylashtirgan.

Yoki «Toj mahal» dostonida ***otash*** so‘zlarining «bag‘rim otashlab ketdi», «o‘sha sher otash», qo‘rqmay suv-u otashdan, otash bo‘lib yonarkan, qalbi otash sasida, otashin quyoshdan, yuragi otash, cho‘g‘li kabi misra va qofiyalarda takrorlanish uslubiy ta’sirchanlikni buzadi, qaytariqlarni ko‘paytirish, o‘quvchining qiziqishini susaytiradi.

«Hakim va ajal» dostonida sinonimlardan mahorat bilan foydalanilgan o‘rinlar ko‘p. Shu bilan birga, ba’zan ularning me’yoriy jihati yaxshi saqlanmagan o‘rinlar ham uchrab qoladi. Masalan: «Kuni bilan ikkovi ham ***dilgir, benavo***», «Qaytar ekan Hamadonga Hakim ***benavo***», «***Dilgir*** *Hakim qamchi bosdi otga besabr».*

Bir o‘rinda Mirzo Hakimga qarata: «*Seni* ***yurt-u vatan****ingdan judo qilgan zot», – d*eydi. Bu yerda *«yurt», «vatan»* sinonimlarining bog‘lovchi olib takrorlanishi ma’no ko‘pligini ifodalash maqsadini ko‘zlagan. Bu, bir jihatdan, o‘zini oqlasa-da, ikkinchi jihatdan, sinonimlarning bunday takrori, ayniqsa,

[1] Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: Фан, 2010. Б. 256

bog‘lovchini olib kelishi uslubiy jihatdan to‘la o‘zini oqlamaydi. Bu o‘rinda sinonimlar ajratib qo‘llaganda, Mirzo nutqidagi qat’iyat, shiddat, aniqlik kuchaygan bo‘lardi.

Yoki ushbu dostonda Malikaning go‘zal tasviri «go‘yo g‘ujum nur», «qiz emas, pari edi», «g‘oyat mukammal» deya ta’riflangan va Hakimning birinchi bor uning huzuriga kirganida bu go‘zallik qarshisidagi holati tasvirida:

Qarshisida mo‘jizani ko‘rganday tugal,
Hakim bir zum turib qoldi ***hissiz va sovuq****, –*

deyiladi. Bu yerda lollik, hayratlanish bor. «Hissiz», «sovuq» boqish esa hayajon, ehtirosdan, qiziqishdan yiroq.

Shunday qilib, tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda sinonimlarning uslubiy ma’noda qo‘llanishi turli ko‘rinishlarda uchraydi. Ularning ketma-ket, bog‘lovchili, sifatlovchili qo‘llanishlarining o‘ziga xos ma’no xususiyatlari bor. Ular nutq ta’sirchanligini oshirish, ekspressiv ma’no bo‘yoqdorligini ta’minlash, nutqqa jo‘shqinlik, mulohazakorlik, o‘ychanlik ma’nolarini qo‘shish, jamlab ko‘rsatish kabi uslubiy ma’no bo‘yoqlarini beradi.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda sinonimlarning ketma-ket, bog‘lovchilar bilan yoki olmoshlar yordamida takrorlanishi matnning emotsional ta’sirini kuchaytiradi. Bunday qo‘llanishlar qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, qat’iyat, hayajon, g‘am, mulohaza va shiddatni ifodalashga xizmat qiladi. A.Oripovning «Hakim va ajal», Mirmuhsinning «Shiroq», Barot Boyqobilovning «Toj mahal», «Afrosiyob» kabi dostonlaridan olingan misollar sinonimlarning turli ma’no nozikliklarini ko‘rsatib berishi dalillangan. Shuningdek, sinonimlarning metafora, perifraza, frazeologizm va boshqa badiiy vositalar bilan uyg‘unlashib, obrazlilikni kuchaytirishi isbotlangan. Ular nutqda istiora yaratish, umumlashtirish, ta’kidlash va ifodani aniqlashtirish kabi vazifalarni bajarishi aniqlangan.

Sinonimlarning turkiy, arabcha va fors-tojikcha qatlamlari o‘zaro qo‘llanib, til boyligini namoyon etishini ham ko‘rsatadi. Biroq sinonimlardan noo‘rin foydalanish holatlari ham tanqid qilinadi. Ayrim misollarda sinonimlarning ortiqcha takrori matnning tabiiyligi va ta’sirchanligini susaytirishi qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimlar badiiy nutqning muhim uslubiy vositasi bo‘lib, ular tilning boyligi, obrazliligi va estetik ta’sirchanligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy dostonlarda sinonimlardan foydalanishning amaliy ahamiyati juda katta bo‘lib, birinchi navbatda, tilimizning qay darajada boy ekanligini, rivojlanganligini ko‘rsatib tursa, ikkinchidan, badiiy adabiyotda, umuman nutqda ta’sirchanlikni, rang-baranglikni ta’minlaydigan vosita ekanligi yoritilgan.

Rezyume. Maqolada tarixiy mavzudagi o’zbek she’riy dostonlarida sinonimlarni qo’llashning lingvostilistik imkoniyatlari xususida fikr yuritiladi.

Resume. The article discusses the linguostylistic possibilities of using synonyms in Uzbek poetic epics centered on historical themes.

Резюме. В статье рассматриваются лингвостилистические возможности использования синонимов в узбекских поэтических эпосах, посвященных исторической тематике.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

YASHIRIN, YUMSHATILGAN VA BILVOSITA IFODALANGAN MA'NOLAR TAHLILI (evfemik ibora va maqollar misolida)

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Tilshunoslikda leksemalarning frazeologik shakllanishi uchun mantiqiy asos bo'la olishi haqida turli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, L.I.Royzenzon frazeologizm leksemalar asosida emas, balki sintaksis frazeologik shakllanish uchun «qurilish maydoni» sanaladi[1], - deya ta'kidlaydi. Bu mulohazaga N.M.Shanskiy e'tiroz bildirib, «sintaksis mavhum modellar va qurilmalar asosiga emas, balki konkret so'z birikmalariga asoslanadi»[2], - degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Darhaqiqat, frazeologizmlar erkin birikmalar singari harakatchanlikka ega bo'lmaydigan gap qurilishi jarayonida fikrning talabiga qarab tashkil topavermaydigan til birligidir. Shuningdek, frazeologizmlar aniq tushunchalarni ifodalashdan mavhum tushunchalarni ifodalashga qarab harakat qiladi. Shu ma'noda frazeologizmlar leksik sathdagi kombinatsiyalardan tashkil topadi, deb ta'kidlashni o'rinli deb hisoblaymiz. Masalan,***»Ma'qullamoq»*** leksemasining mantiqiy asosi *ma'qul topmoq* frazeologizmining shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunda ***«ma'qul»*** leksemasi to'g'ri ma'noni, ***«topmoq»*** leksemasi esa ko'chma ma'noni ifodalaydi. Shu xususiyati bilan ular odatdagi so'z birikmalaridan ham farqlanadi.

Shu o'rinda shuni ham aytishimiz kerakki, *adabini bermoq, beti ochilmoq, balog'atg»a yetmoq, boshini ikkita qilmoq, biryoqli qilmoq, boshiga yetmoq, don olishmoq, dinyodan o'tmoq, yostig'ini quritmoq, javobini bermoq, ko'zi yorimoq, onasini ko'rsatmoq, otdan tushsa ham egardan tushmaslik, og'iz urmoq, o'g'iz solmoq, qo'li egri, qor yog'ib iz bosilmoq, qo'lga tushmoq* kabi birikmalar tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nosidan emas balki ko'chma majoziy ma'no anglatishi tomonidan frazema bo'lsa, voqelikning salbiy ta'sirini, noxush xabarni yumshatish, nutqiy beozorlikka odob doirasida muomala qilish nuqtayi nazaridan evfemik vosita hisoblanadi deb tahliliy munosabat bildirish mumkin.

O'zbek tilida ko'pgina leksemalar frazeologizmlarning shakllanishi uchun mantiqiy asos vazifasini bajaradi. Masalan; ***«***janjallashmoq – *janjal ko'tarmoq», «*salomlashmoq – *salom bermoq***»,** ***«***oziqlantirmoq – *oziq bermoq», «*tenglashmoq – *teng kelmoq»* va b.

Bu kabi leksemalar frazeologizmlarning shakllanishi uchun faqat mantiqiy asos bo'la oladi. Chunki leksemalar ishtirokida shakllangan frazeologizmlar o'rtasida o'zaro semantik munosabat saqlanadi, shu bilan birga, leksemaning ham, frazeologizmning ham mazmun tomonini shakllantiruvchi leksema yo'qolmaydi, shakli o'zgarib o'sha leksemaning asosi mazmunan hukmron bo'lib qolaveradi. ***«Tishlamoq – tishlab olmoq», «uxlamoq – uyquga ketmoq», «fikrlamoq – fikr yuritmoq»*** kabi frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu borada «Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati» mavzusida tadqiqot olib borgan X.Qodirova yozuvchining asarlarida mahorat bilan qo'llanilgan frazeologizmlarga alohida urg'u beradi. Mavjud frazeologizmlarning masalan, «*surobini to'g'irlab qo'ymoq* («ta'zirini bermoq»), *kavshining chakagi yirtildi* («ovora bo'ldi»), *boshida tegirmon yurgizish* («azob berish»), *yoshini yashab, oshini oshagan* («qarigan»), *kosasi oqarmay ketyapti* («kambag'al»), *tishimizni tishimizga qo'yishga majburmiz* («chidaymiz»), *tirnoq ostidan kir izlash* («arzimagan narsadan g'avg'o chiqarish»), *miyamizni qoqib qo'limizga bersin* («o'ta ezmalik qilish»), *yarasiga tuz sepdi* («o'tmishini esga soldi», «aybini yuziga aytdi»), *yomg'irdan qutulib, qorga tutilib* («bir tashvishning ustiga boshqa tashvish tushib»), *boshini ikki qilish* («uylantirish»), *tog'dagi mashoqqa besaranjom yugurish* («qo'ldan kelmaydigan ish-

[1] Ройзензон Л. И. Синтаксис и фразеология // Рроблемы синтаксиса, -Львов, -1963, - С.49-50
[2] Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка.- М., 1986.-С.75.

ga urinish»), *holimizga mushuklar yig‘lasun* («og‘ir, yomon ahvolga tushamiz»), *yebsiz noma’qul buzoqning go‘shtini* («yanglishibdi, ahmoq bo‘libdi»), *og‘zining suvi kelguvchi* («havasi kelgan», «ishtiyoqi bor»), *usta ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar* («uquvsiz», «malakasiz», «savodsiz»), *ko‘z bo‘yash* («xo‘jako‘rsinga», «shunchaki»), *tagiga suv keladi* («lavozimdan haydaladi»), *ko‘ksini zaxga berib yotgan ochog‘riq* («qashshoq», «kambag‘al», «och-nahor»), *og‘zi oshga yetgan* («maqsadiga erishgan»)»[1], kabi ifodalari evfemik xarakterga ega ekanligini qayd etib o‘tadi. Demakki, nutqimizda mana shu kabi evfemik frazeologizmlar nihoyatda ko‘p uchraydi. Bu esa nafaqat badiiy matnlarning mazmuniga mazmun, ta’sirchanligiga ta’sirchanlik, balki izohli lug‘atlar takomiliga katta hissa qo‘shadi deyish mumkin.

*Turmush ko‘rmaganlik*ni anglatuvchi tushunchani qo‘pol, vulgar birikmalar bilan ifodalash maqsadida *qaymog‘i buzilmagan, er qilmagan, xotin olmagan, erga chiqmagan, ko‘zi ochilmagan, to‘shak ko‘rmagan* kabi frazeologizmlar shakllangan. Shunday qilib, o‘zbek tilida ko‘pgina frazeologizmlar ayrim leksemalarning mantiqiy asosiga ko‘ra shakllanadi. Bunda mantiqiy asos bo‘lgan leksemalar va shu asosda shakllangan frazeologizmlar aynan bir denotativ ma’no kasb etadi. Ammo shu tarzda frazeologizmlar mantiqiy asos bo‘lgan leksemalardan o‘zlarining ma’no qirralari hamda obrazli ifodalashi bilan ajraladi. Olimning ta’kidlariga qo‘shilgan holda evfemik frazeologizmlar yashirin va yumshatilgan ma’no ifodalab, nutq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega birlik hisoblanadi.

An’anaviy ilmiy yondashuvlarda maqollar asosan xalq og‘zaki ijodi doirasida o‘rganib kelindi. Unga asosan folklor janri sifatida munosabatda bo‘lindi. Garchi tilshunoslikda maqollar, barqaror birliklar sifatida lisoniy hodisa deya e’tirof etilsa-da, uning lisoniy mohiyatiga yetarlicha baho berilgan deb bo‘lmaydi. Fanimizda lisoniy birlik sifatida uning ayrim sintaktik xuxusiyatlari tahlilga tortilgan, xolos[2]. Bundan aytish mumkinki, xalq maqollari lingvistik tahlilga tilshunoslikning yangi paradigmalari paydo bo‘lishi bilan tortilmoqda. Xususan, uning pragmatik tahlillari tilshunoslik, ayniqsa, lingvokulturologiya uchun qimmatli ma’lumotlar berib kelmoqda. Kuzatishlarimiz nafaqat maqollar evfemikasi masalasi, balki ularning ma’nodoshliklari qatorlari doirasidagi ayrim ma’noviy farqliliklar, ya’ni darajalanish hodisasining mavjudligini ham ko‘rsatmoqda. Bu, masalan, bir maqolning ma’nodoshlari nutq vaziyati, so‘zlovchining maqsad va vazifasi, kommunikantlarning o‘zaro munosabatiga bog‘liq ravishda mazmunning kuchayib borishini kuzatish mumkin. Va ular bir-biriga yaqin ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, til va madaniyat, ma’naviyat mushtarakligi bir qancha til birliklari, barqaror birliklar (maqol, matal, ibora)lar, tildagi metaforik va obrazli leksika, madaniy-lisoniy birliklar nutqiy odob va axloq kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yuqoridagilar qatorida xalq maqollari o‘zining evfemik xususiyatlari bilan til va madaniyat, til va muloqot munosabatlari hamda nutq madaniyligi borasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tilning murakkab birliklaridan biri bo‘lgan maqol o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa frazeologik birliklardan ajralib turadi. Boshqa til birliklarida aynan maqollardagi kabi semantik xilma-xillik, xalq madaniyatini yaqqol o‘zida namoyon qiluvchi birliklarning mavjudligi, stilistik bo‘yoqdorlik va lingvodidaktik xususiyatlarni uchratish qiyin desak xato bo‘lmaydi. Maqol jahon tilshunosligida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarining obyekti bo‘lib, uning semantik, stilistik, struktur hamda lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganilgan va hanuz o‘rganilib kelinmoqda.

Maqollarning evfemik xususiyati ularga berilgan «hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap»[3] izohida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Izohdagi *obrazli* so‘zi fikrimizning yorqin dalilidir. Maqollardagi obrazlar insonni turli belgilari asosida bilvosita tavsiflash vazifasini o‘taydi. Bu obrazlar evfemiklikni ta’minlashda asosiy mas’uliyatga ega bo‘ladi. Maqollardagi timsollar inson sifatlarini ifodalovchi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, sher – *mardlik*; tuya – *sabr-matonat*; eshak va ho‘kiz – *befahmlik va befarosatlik*; bo‘ri – *qonxo‘rlik*; sichqon, kalamush, chigirtka, chumchuq – *tekinxo‘rlik*; chumoli – *mehnatkashlik;* qurbaqa – *maqtanchoqlik*; burgut lochin, shunqor – *dovyuraklik*; gul qiz, qovun, bug‘doy, olma – *yaxshi odam*; qovoq, tarrak, arpa, qoramug‘, kurmak – *yomon odamlar timsolidir*[4]. Timsollar majoziylik darajasiga ko‘tariladi. Natijada maqollarning evfemiklik darajasi ham ortadi. Birgina misol sifatida yozuvchi Said Ahmad qalamiga mansub «Kelinlar qo‘zg‘oloni» dramasidagi Farmonbibi va kelini o‘rtasidagi diskursni olaylik. Kelin har bir gapini maqol bilan boshlab, maqol bilan tugatadi. «Menga pul kerak» degan mazmunni berish uchun *«bir tovuqqa ham don kerak,*

[1] Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. Toshkent. “Bookmany print” nahriyoti. 2022. – B. 25.

[2] Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского. Узбекского и казахского языков): автореф. Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 2007. – С.50.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти. –2006. – Б. 91.

[4] Шомақсудов. Ш, Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. –Тошкент. 1990. –Б.10.

ham suv», «qudalarga tog‘ora jo‘natish kerak» degan fikrini adresatga salbiy ta’siri kam bo‘lgan *«bor tovog‘im, kel tovog‘im»* maqollari tagiga «berkitadi». Fikrni maqolga o‘rab yashirin bayon qiladi.

Badiiy nutqda evfemistik vazifada qo‘llangan maqollar muallif yoki personajlar nutqiga xosligi bilan ajralib turadi. Muallif nutqiga xos maqollar fikrni latif, ta’sirchan va obrazli ifodalash maqsadiga bo‘ysundiriladi: *… Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi… Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi* (A.Qahhor). Adib «oilada birov og‘ir betob bo‘lib qolsa, boy kambag‘allashadi, kambag‘al xonavayron bo‘ladi» degan mazmunni ifodalashni uning o‘rnida qo‘llangan maqol zimmasiga yuklagan. Adibning voqelikning «yalang‘och» ifodasidan qochish istagi uni bayonda latif evfemistik vosita – maqoldan foydalanishga undagan[1].

Xalq tili va badiiy adabiyotida bunday vazifada qo‘llangan maqollarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, *dehqon ishi bilan ovora, sichqon teshigi bilan* (tekinxo‘r), *Non pishguncha kulcha kuyadi* (noo‘rin vaziyatda o‘zidan katta kishidan oldinga o‘tib ketishga intilishning oqibati yomonligi), *devorning sichqoni bor, sichqonning qulog‘i* (chaqimchiga ishora) kabi.

So‘zlovchi o‘z nutqida maqollardan turli maqsadlarda foydalanadi, bu esa o‘z navbatida nutqning ifodaliligini, ta’sirchanligini va stilistik jihatdan rang-barangligini namoyon etadi. Bilamizki, maqollarda xalqning urf-odatlari-yu milliy tushunchalaridan tortib, uning tarixiy shaxslari hamda mashhur obrazlarigacha ifoda etiladi. Ba’zan maqollarga ko‘chma ma’noga ega turg‘un birlik, fraza, frazeologik birlik sifatida qaralgani uchun ham ular turli kontekstda har xil mazmunga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Kontekstdagi maqol mazmuni kommunikantning intensiyasiga bog‘liq bo‘lib, u nutqiy jarayonni boyitishga va fikrni bevosita emas, balki bilvosita ifodalashga yordam beradi.

Maqol insonlarning hayotiy tajribalari va ko‘nikmalari, jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik-estetik tuyg‘ulari, fazilat hamda salbiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi xulosali tugal ma’noga ega gap ko‘rinishidagi murakkab til birligidir. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’noga boylik kabi xususiyatlar xosdir. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ifodaning ko‘proq yumshoqligi va ko‘proq ta’sir qilish imkoniyati boshqa lisoniy vositalarga nisbatan maqollarda ustuvor. Shu bois evfemiklik, evfemik mazmun haqida gap ketganda maqollar ko‘proq e’tiborni tortadi.

Maqollar umumiylik xususiyatiga ega. Shu bois uning xususiy hollar uchun tatbiq qilinishi, so‘zlovchining o‘z fikrini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda qilmay, maqolga o‘rab bayon etishi evfemizatsiyani hosil qiladi. Shuningdek, maqollar muloqot odobi darajasini belgilaydi. Ifodaning ko‘proq yashirinligi, yumshoqligi va ko‘proq ta’sir qilish imkoniyati boshqa lisoniy vositalarga nisbatan ayniqsa maqollarda yuqori darajada aks etib turishini ta’kidlash lozim.

Resume. Proverbs possess a general, universal character. Consequently, when they are applied to specific situations–allowing a speaker to convey their thoughts indirectly by embedding them within a proverb–this results in a form of euphemism. Furthermore, proverbs serve as an indicator of the level of conversational etiquette. It should be noted that the capacity for greater gentleness in expression, combined with a heightened potential for impact, is particularly pronounced in proverbs compared to other linguistic devices.

Резюме. Пословицы носят общий характер. Поэтому их применение к конкретным случаям, выражение мыслей говорящего в пословице, а не их прямое изложение, порождает эвфемизм. Пословицы также определяют уровень этикета общения. Следует отметить, что большая мягкость выражения и возможность большего влияния особенно ярко проявляются в пословицах по сравнению с другими языковыми средствами.

[1] Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизатсияси. Филол. фан.фал.док. дисс... Қўқон. 2019. – Б. 73.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TORTUVLI ETNONIMINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Qo‘ng‘irotlarning tarixi va sharhi ko‘p. Qo‘ng‘irot urug‘ining ildizi chinordek baquvvat. Baxshilari kuylab kelgan dostonlari, Alpomish-u Barchinoylari umrboqiydir. Sarvari olam qo‘ng‘irotning beshta urug‘iga beshta hislatni ko‘proq bergan deyishadi. Unga ko‘ra: *vaxtamg‘aliga* shajaralik, *qo‘shtamg‘aliga* sarkardalik, *qonjig‘aliga* boylik, *oyinniga* mullalik, *tortuvliga* botirlik berilgan emish[1]. Ilmiy manbalarda ham mazkur urug‘ning nomlanishi bo‘yicha ko‘plab etimologik qarashlar mavjud[2]. O‘zbek qo‘ng‘irotlarning shajarasini ishlab chiqishda T.Nafasov va B.Karmishevalar katta hissa qo‘shganlar. Karmisheva asarida keltirilgan qo‘ng‘irotlarning geneologik jadvalida ham bu qabilaning beshta katta urug‘dan: *vaxtamg‘ali, qo‘shtamg‘ali, qonjig‘ali, oyinli* va *tortuvli*dan iborat ekanligi ko‘rsatiladi. Ilmiy manbalar bilan birga xalq og‘zaki ijodi va insonlar orasida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan xalq etimologiyasiga ko‘ra *qo‘ng‘irot* urug‘ining asosiy katta guruhlari boshqa urug‘lardan ajralib, farqlanib turishi uchun o‘z tamg‘asi – bayrog‘i, muhriga ega bo‘lgan. Shu tamg‘alarning shakli va nomi urug‘ vakillarining tarixi, ota-bobolari, ularga xos bo‘lgan xarakter-xususiyat, asosiy mashg‘uloti, kasbi-kori va yashash manzillariga ishora bergan.

Qo‘ng‘irot urug‘ining bosh tarmoqlaridan biri – *tortuvli* etnonimi xalq orasidagi rivoyatlarga va ba'zi ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko‘ra «tortiq qilish», «in'om etish» ma'nolarini ifodalaydi. Yoshi o‘tib, ancha keksayib qolgan Qo‘ng‘irot boboga ikkinchi xotini tomonidan in'om etilgan, tortiq qilingan[3] (xalq orasidagi boshqa bir afsonaga ko‘ra xon tomonidan Qo‘ng‘irot boboga sadoqatli xizmati uchun taqdim etilgan, in'om etilgan kichik xotini tomonidan dunyoga keltirilgan farzand bo‘lgani uchun *tortuvli* nomini olgan) o‘g‘li – Jiyanbekning avlodi bo‘lib, eng kichik urug‘ guruhi hisoblanadi.

Tortuvlilarning tarixi juda qadim davrlarga borib taqalishi bir qancha ma'lumotlarda ham aks etgan. Ularda *tortuvli* urug‘i mo‘g‘ullardan ham oldin O‘rta Osiyo hududida mavjud bo‘lgan degan qarashlar bor. Mazkur urug‘ning Movarounnahrda Chingizxon istilosidan ilgari yashaganliklarini isbotlovchi asoslardan biri sifatida uning nomlanishi keltiriladi. Ya'ni, *tortuvli* so‘zi shu yerda qadimdan tog‘larda yashab kelayotgan xalqning nomi bo‘lib, tog‘ turklari (*tor – tur, turk; tuv – tov, tog‘*) degan ma'noni anglatadi, deb hisoblanadi Baxshilar tomonidan kuylangan termalar, xalq og‘zaki ijodiga oid ba'zi afsona va rivoyatlarda mazkur urug‘ haqidagi o‘rinlarni uchratishimiz mumkin. K.Marqayevning tadqiqotida esa mazkur urug‘ nomi tamg‘a shakliga asoslangan deb keltiriladi. Tadqiqotchi B.Karmishevaning fikriga tayanib, tortuvlining tamg‘asi *tortug‘ – to‘rt tug‘, to‘rt nayzali, shoxsimon bo‘lgan* deb hisoblaydi va urug‘ nomiga asos bo‘lgan deb ta'kidlaydi[4].

«Alpomish» dostonida keltirilishicha, Alpomish ham tortuvlidan bo‘lgan[5]. Mahmatqulboy qo‘ng‘irotlarning bosh bobosi, uning o‘g‘li Jiyanbek tortuvlining bobosi hisoblanadi. Qo‘ng‘irot urug‘ining shunqori, gapga yetar zukkosi tortuvli olti urug‘ – *to‘g‘iz, o‘r, mo‘nka, oboqli, cho‘poq, maydataboq*. Shu guruh tarkibiga kiruvchi urug‘lar borasida ba'zi tortishuvli o‘rinlar mavjud. Biz asosiy shajara sifatida to‘g‘ri deb hisoblaganimiz va tayanib ish olib borayotganimiz B.Karmisheva[6] tasnifidan boshqa bir qator manbalar farqlanadi. Xususan, ba'zi manbalarda moydatovoq (maydataboq) urug‘i tortuvlining tarkibiga kirmaydi[7]. Saqlanib qolgan ma'lumotlarga ko‘ra:

[1] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – Б.136.

[2] Bu haqda to‘liqroq qarang: Kurbanazarova N. Etnonimlar etimologiyasi. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 55-65.

[3] Қораев С.Қ., Арифбаев А.Ҳ. Ўзбек халқи этногенезини ўрганишда этнонимларнинг роли. “Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих” мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2024. – Б. 63.

[4] Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз. дис. – Тошкент, 2007. 67.

[5] Зарипов Х. Алпомиш.– Тошкент: Шарқ, 1998.

[6] Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – С. 90-94.

[7] Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Тошкент, 1997. – Б. 20.

To‘raquldan *to‘g‘iz*, Mo‘minqul Jebachidan *mo‘nka*, O‘rozmatdan *o‘r*, Choridan *cho‘poq*, Cho‘tboydan *qorabo‘yin*, Abrahmatboydan *oboqli* urug‘i tarqalgan[1].

Tortuvli urug‘ining ichki bo‘linishi quyidagicha: *To‘g‘iz: sadiri, bo‘rboy, obiz, kirboloq, mandat, balxiyonbosh, qo‘shchi, shoxol, ko‘kkalbosh; o‘r: shayxnazar, o‘ris, dalba, itbaliq, chuva, jostobon; mo‘nka: so‘ngkeldi, o‘razoq, marday, bo‘g‘robachcha, kalbachcha; cho‘poq: qorabo‘yin, Abray, qoshqa, qizilbosh, sorixo‘ja, Oshir kichkina; oboqli: murodbachcha, qaroqchi, cholish, bo‘z qiyiq, shudgor, qizilbelbov*[2]. Ayrim adabiyotlarda *xurosoni* urug‘i tortuvlining 6 ta eng katta urug‘laridan biri sifatida ko‘rsatiladi[3].

Tarixiy manbalarda tortuvli urug‘i Chingizxondan oldin kelgan va hatto Movarounnahr janubining qadimgi qabilalaridan biri deb hisoblash mumkin deb ta’kidlanadi. Bunga tortuvli tarkibidagi urug‘ nomlarining o‘zi guvohlik beradi. Ulardan VIII-XII asrlarda Movarounnahrda yashagan *to‘g‘uz (to‘qqiz o‘g‘uz), ming to‘g‘uz*, XIII asrdan keyin kelgan *tulkichi, mo‘nka* urug‘larini misol qilib keltirish mumkin.

Qayd qilingan ma’lumotlar tortuvlilarning Movarounnahrning qadimiy qabilalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Buni uning nomidan ham bilib olsa bo‘ladi. Ya’ni, tortuvli so‘zi shu erda qadimdan tog‘larda yashab kelayotgan xalqning nomi bo‘lib, *tog‘ turklari* (*tor-tur, turk; tuv-tov, tog‘*) degan ma’noni anglatadi. Shayboniyxon istilosidan keyin Surxondaryo hududiga Dashti Qipchoq qabilalarining o‘rnashuvi bilan *tulkichi, mo‘nka* va boshqa mustaqil qabialar tortuvli qabilasi ittifoqiga kiradi[4].

Ayrim manbalarda oboqli tortuvlining urug‘lari orasiga kiritilmagan[5]. Biz o‘rgangan va tahlil qilgan ma’lumotlarga ko‘ra oboqli tortuvli urug‘ining tarkibiga kiradi. Oboqli urug‘ining deyarli barcha shoxobchalariga mansub keksa avlod vakillari o‘zlarining bosh urug‘ini tortuvli deb hisoblashadi.

Xalq orasida oboqli/oboxli bilan aralash qo‘llaniladigan *avaxli* urug‘i ham bor. Qo‘ng‘irotlarning *tortuvli* tarmog‘i tarkibiga kiruvchi *oboxli* etnonimi hamda ba’zi olimlarning qo‘ng‘irotlar tasnifi berilgan ayrim jadvallarida, xususan, Karmishevaning tasnifida *vaxtamg‘ali* tarkibida ham mavjud deb hisoblangan *abaqli* urug‘i bilan fonetik jihatdan farqlanuvchi bir urug‘ deb hisoblaymiz. Ayrim ilmiy manbalarda ham bu shakllar bir urug‘ nomini ifodalashi ko‘rsatilgan: *avoqli* – o‘zbek xalqi tarkibidagi urug‘lardan biri. Qipchoqsaroylarning, Qashqadaryo bo‘yidagi *saroy* urug‘ining, Qashqadaryo va Surxondaryo *qo‘ng‘irot*larining tarkibida *avoqli/aboqli* urug‘i mavjud[6].

Mazkur urug‘ning asosi ayrim tarixchilarning fikricha, *«avax»* bo‘lib, *avax eli* so‘zining qisqartmasidir[7]. Hozirgi kunda Surxondaryo hududida yashovchi qo‘ng‘irotlar tarkibidagi eng faol va ko‘p sonlilardan hisoblanadi. Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Bandixon va Boysun tumanlarida yashovchi qo‘ng‘irotlarning asosiy qismini aynan shu urug‘dagilar tashkil etadi. Yuqoridagi hududlarda yashovchi keksa avlod vakillari o‘zlarini Chingizxon bilan bog‘laydilar. Tashqi ko‘rinish jihatidan ham mo‘g‘ullarga xos antropologik ko‘rinishga ega bo‘lgan *oboxli*lar (*oboqli, aboqli, avoqli, avoxli*)ning ayrimlari o‘zlarini *vaxtamg‘ali* tarkibidagi urug‘ deb hisoblasalar, ayrimlari *tortuvli*ning *oboxli*si deb biladilar.

Mazkur etnonim etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarixchilarning fikrlariga ko‘ra, *aboxli* urug‘ining kelib chiqish tarixi juda uzoq bo‘lib, qadimiylik bo‘yicha, hatto, xunnlardan ham o‘zib ketadi. Ular O‘rta Osiyo hududidan to Tinch okeanigacha bo‘lgan hududlarda, shuningdek, Shimoliy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlarida ham yashashgan. Bunga dalil sifatida hozirgi AQShning g‘arbida yashovchi *navax* (aboxli urug‘i ba’zan avaxli deb ham ataladi) qabilasini keltirish mumkin[8].

Navax va boshqa qabilalarning Shimoliy Amerikaga qachon ko‘chib borishgani aniq emas. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, *navax*lar mansub bo‘lgan katta *na-dene* oilasi Shimoliy-Sharqiy Osiyodan ancha kechroq ko‘chib kelgan qabilalarning avlodlaridir. E.Sepir ularning tilini tibet-xitoy tillari oilasi bilan aloqadorligi haqidagi fikrini ilgari suradi va ularning Amerikaning Osiyoga yaqin shimoliy-g‘arbiy hududlarida yashashlari ham tasodifiy emas deb hisoblaydi[9].

Ushbu urug‘ning tarixiyligini isbotlovchi yana bir asos ularning *saroy, qo‘ng‘irot* va *kenagas*lar tarkibida mavjudligidir. *Oboxli*arning qachondir yirik qabila bo‘lganligi hamda Chingizxon yurishlaridan so‘ng O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarga ko‘chib kelib, turli ellarga tarqalib ketganligi shu urug‘ning keksa vakillari tomonidan aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Boshqa bir manbada esa *avoqli/aboqli* – bir

[1] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – Б. 136.
[2] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – Б. 12.
[3] Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968. – Б. 87.
[4] Умаров И. Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўғиротлар) 1-китоб. – Қарши: Насаф, 2003. – Б. 23.
[5] Эшим Олтинбош. Хомкон. – Тошкент, 2022. – Б. 8.
[6] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 38.
[7] Умаров И. Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўғиротлар) 1-китоб. – Қарши: Насаф, 2003. – Б. 16.
[8] Ефимов А.В., Токарева С.А. Народы Америки. Том I. – Москва, 1959. – С. 30.
[9] Ефимов А.В., Токарева С.А. Народы Америки. Том I. – Москва, 1959. – С. 30.

necha turkiy xalqlarga xos urug‘. Qirg‘iz, qoraqalpoq, qozoq, boshqird xalqlarining *avaqlы, abaqlы, abaxlы* urug‘i borligi ma’lum. *Avaq/oboq* – tamg‘a shaklining nomi. Tamg‘a qora uyning uvug‘iga o‘xshash, to‘g‘ri chiziqning boshi yonga qayrilgan shakli. Shunday boshi egik to‘g‘ri chiziq shaklidagi tamg‘a mollarga qo‘yilgan. Tamg‘aning shakli asosida urug‘ nomlangan[1].

Yuqorida keltirilgan har ikki ma’lumot ham to‘g‘ridek ko‘rinadi. Biz, tahlil qilib chiqqan ma’lumotlarimizga asoslanib, tamg‘a nomi bilan bog‘liq nom ekanligi haqidagi fikrni yoqlaymiz. Chunki etnonimlar lingvistik jihatdan o‘rganilgan ko‘plab manbalarda tarkibida *-li* qo‘shimchasi mavjud etnonimlar tamg‘a shakliga ko‘ra nomlangan deb ko‘rsatilgan[2]. K.Marqayev tamg‘a va maxsus belgilar asosida shakllangan 40 ga yaqin etnoslar haqida ma’lumot beradi. Bular: *uvoq, avoqli, barmoq, boltali, boymoqli, ishqili, tuyoqli, cho‘michli, qaychili, qayroqli, changoyoq, chavtik, o‘roqli* va boshqalar[3]. Tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har birida *-li* qo‘shimchasi mavjud. Oboxli etnonimi ham *avax/abox/obox+li* shaklidan tarkib topgan deb hisoblab, *avoxli*ning *oboxli* shakliga o‘tishini qipchoq lahjasiga xos *«o»lanish* hodisasi bilan bog‘lash mumkin (*anor-onor, arqon-orqon* kabi).

Umuman olganda, Surxondaryo o‘zbek qo‘ng‘irot urug‘i tarkibiga kiruvchi bir qancha etnonimlar ko‘plab fonetik variantlarga ega. Mazkur etnonimlarning ayrimlari semantik jihatdan farqlilikka ega bo‘lsa, ayrimlari shunchaki shakliy har xil. Ularning aniq etimologiyasini topish anchayin mushkul ish. Shunday bo‘lsada, manbalarda keltirilgan ilmiy-tarixiy ma’lumotlarni xalq orasida mavjud qarashlar bilan qiyoslab, ilmiy mulohazalar yuritildi. Mazkur etnonimlar etimologiyasiga oid izlanishlarimiz davom etmoqda.

Rezyume. Mazkur maqolada turli tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy tadqiqot ishlari hamda xalq etimologiyasiga oid qarashlar asosida qo‘ng‘irot urug‘i tarkibiga kiruvchi tortuvli va oboxli etnonimlarining etimologik tahlili yoritilgan. Shuningdek, oboxli etnonimining variantlari orasidagi fonetik-fonologik tafovutlar aniqlanib, o‘ziga xos nomlanish tarixi o‘rganilgan.

Resume. This article discusses the etymological analysis of the tortuvli and oboxli ethnonyms that make up the bells seed, based on information from various historical sources, scientific research, and folk etymology views. It also identifies the phonetic-phonological differences among the variants of the oboxli ethnonym and studies its unique naming history.

Резюме. В этой статье на основе различных исторических источников, научных исследований и взглядов народной этимологии представлен этимологический анализ этнонимов тортулви и обохли, входящих в состав рода Кунгират. Также выявлены фонетико-фонологические различия между вариантами этнонима обохли и изучена его уникальная история именования.

[1] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 38.
[2] Нафасов Т. Yuqorida keltirilgan manba. – B. 379.
[3] Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз. дис. – Тошкент, 2007. – Б. 79.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZIYORATGOHLAR ETIMONINING LINGVOMADANIY KODLARDA AKS ETISHI: SANGARDAK TEOTOPONIMI

Turdiqulov Sherzod Duminovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Surxondaryo vohasidagi teotoponimlarning etimoni tahlil qilinganda, ulardan ko'pchiligi sun'iy nomlanmaganligi, aksincha, tabiiy nomlanish xususiyatiga egaligi aniqlandi. Ya'ni ularning nomi o'zlari ifodalagan predmet (voqelik) anglatgan aniq belgi asosida shakllangan bo'lib, bu holat nominatsiya nazariyasiga mansub nomlanishning *tabiiy jarayoniga* muvofiq keladi. Binobarin, biz tilga olgan Voha toponimlarining tabiiy nomlanishga egaligini quyidagi 3 ta asosiy tamoyil[1] asosida aniqlanadi.

1. Tabiiy nomlanishda ideal mazmun ifoda topgan shakl (tovush qobig'i – T.Sh.) evolyutsion tarzda oldindan "belgilab qo'yilgan bo'ladi" (ya'ni bu turdagi nomlarda xalqning jamoaviy tajribasiga doir bilimlar to'plangan bo'lib, bu nomlarning muallifi, odatda noma'lum bo'ladi).

2. Nom tasavvur negizida hosil bo'lgan tushunchani ifodalashga xizmat qiladi va tabiiyki, o'zi anglatgan obyektga taalluqli xususiyatlarni aks ettiradi.

3. Nom til tizimidagi nomlanishning semantik-model-etalonlar tamoyili asosida yuzaga chiqqan bo'ladi. Fanda bunday nomlar *motivlangan* (tabiiy tanlangan) *nomlardir.*

Bundan farqli, sun'iy nomlar muallif individualligi bilan ajralib turadi. Odatda, bunday nomlarda nomlashga doir lingvistik bilimlarning yetishmasligi, nom va u anglatgan obyekt o'rtasidagi kuchli nomuvofiqlik va sun'iylik ko'zga tashlanadi. Masalan, bunga poytaxt shaharlarimizdagi tushunarli-tushunarsiz ergonimlar (Miss Ledi, Analak restorani, Xanna restorani) ni misol qilsak bo'ladi.

Teotoponimik jihatidan olib qaralsa, Omonxona hududidagi teotoponimlar tizimining faqat *Omonxona* (g'or va shu nomdagi soy)*, Bibi Shirin maqbarasi, Bo'tabo'zlar ota, Ko'ppak ota, So'galtoshota* (*So'galtosh*), *Tishog'riqtosh, Ajinatosh* teotoponimlarini motivlangan nomlar sifatida olishimiz mumkin. Aksincha, *Juvazdana, Quruqsoy, Chakabsoy* teotoponimlarini esa motivlangan, ammo teotoponimik jihatdan motivlanmagan joy nomi sifatida oldik. Bu xulosalarimizga asos qilib, ularda mavjud lingvomadaniy kodlarning ochiq va yashirin ifodasi ma'lum.

Surxondaryo vohasida ana shunday motivlanganlik xususiyatiga ega bo'lgan toponimlar (teotoponimlar) talaygina bo'lib, shundan Sangardak teotoponimining lingvomadaniy kodlar asosida ifoda etilganini ko'rishimiz mumkin.

Sangardak sharsharasi (teotoponimi) O'zbekistondagi eng baland, Termiz shahridan 205 km masofada, Sariosiyo tumanida joylashgan sharshara suvlari tog'ning 150 metr baland qismidan oqib tushadi. Tuman hududidan o'tgan Hisor tog' tizmasidan Surxondaryo, To'palangdaryo, Obizarang daryolari boshlanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Sangardak sharsharasini hosil qiluvchi buloqning manbai qoyalar ichidagi ko'l yoxud tog' daryolar hisoblanadi. Bu sharshara *Sharsharamozor* (Sharimozor) nomi bilan mashhur. Sharsharaning o'ng tomonida, undan 200 metr balandlikda bir yilda bir marta, faqat javzo oyida tog' bag'ridan suv oqa boshlaydi. Buloqni mahalliy aholi "Javzo suvi" deb ham nomlashgan. Bu oy tugashi bilan tog' bag'ridan oqayotgan suv ham to'xtaydi. Bu jumboqli holat fanda o'zining to'liq talqinini topmagan. Shu kabi, Sangardak tog'larida yana ko'plab buloqlar mavjud bo'lib, ular *Sangardak bulog'i, Qora buloq, Sirsoy buloq, Shirin buloq* kabi nomlar bilan atalib kelinadi.

Tadqiqotchi M.Ergashev quyidagilar haqida ma'lumotlar keltiradi[2]: IX asrda al-Ya'qubiy Chag'oniyonga tegishli mulkliklar Xardanni tilga oladi. Uni Kardak

[1] Голев Н. Д. «Естественная» номинация объектов природы собственными и нарицательными именами. http://lingvo.asu.ru/golev/articles/z64.html; Вопросы ономастики. Вып. 8-9 / Отв. ред. А. К. Матвеев. – Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1975. – 138 с.

[2] Эргашев М. Чағониённинг ўрта асрлар шаҳарлари // Ўтмишга назар. 3-махсус сон. – Тошкент, 2021.

yoki Sankardak deb o‘qish mumkin[1]. Muqaddasiy Sankarda shahrini, ya’ni Sangardakni tilga oladi[2]. Sangardak shahri Budrachdan 20 km shimoldagi Yurchi qishlog‘ida joylashgan deb hisoblash mumkin. Negaki, Yurchidagi Bek qal’asi atrofida X-XI asrlarga oid yirik o‘rta asrlar manzilgohi mavjud bo‘lgan[3].

Maqdisiy asarlarida *Sangardak,* Ibn al Asir asarlarida *Sandjarda,* VIII-X asrlarga oid o‘zga manbalarda esa *Sankarda*[4] shaklida tilga olingan *Sangardak* qadimgi turkiy tilda “o‘tkir, keskir” ma’nolarini anglatgan: *Sangar, Sanjar, Xanjar.* Arab tilida esa bu leksema “hukmdor” ma’nosini ifodalaydi.

To‘plagan tahliliy dalillarimiz *Sangardak* etimoniga tegishli quyidagi ehtimollarni keltirib chiqardi:

1. T.Nafasov *Sangardak*ni qadimiy eroniy tillarga oid nom deb biladi hamda uni yasalish asosini *sang – san – gar* tarzida tushuntiradi. Qadimgi eroniy tilda *gar-gard-gird-kart-kirt-kird* – qal’a, shahar ma’nosida. Morfema tarkibi *sangar – sangir + dak. –dak* shimoliy eroniy tillarga oid *tak – tax – tag‘i* so‘zining varianti[5]. Pomir tillarida – *tak* asosli fe’l *oqmoq* ma’nosida; osetin tilida *tax* – daryoning tez oqar joyi; so‘g‘d tilida *tag‘i* – daryo manosini beradi. Shuningdek, olim *sangar* afg‘oncha istehkom, qoya, cho‘qqi ma’nosini, *sanger* esa toshli, fors tilida esa *sangar* – chuqur, istehkom ma’nosini beradi. Shunaqada *Sang gard* – tosh qo‘rg‘on, *Sanggard* esa qal’a nomi. Pirovardida, olim *Sangardak* so‘ziga shu nomdagi daryo hamda shu nomdagi qishloq yonidan oquvchi daryo, deya xulosa beradi[6].

2. *Sangardak* toponimi saljuqiy hukmdorlarning ko‘zga ko‘ringan sultoni – Sulton Sanjar nomidan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin, zero, mo‘g‘ullar davriga qadar hukm surgan, “Ulug‘ sulton” – Sultoni A’zam nomi bilan mashhur bo‘lgan bu sarkardaga san’at arboblari, olimlar, shuningdek, Abu Homid G‘azzoliy, Avhad ad-Din Anvariy, Umar Hayyom va uning shogirdi – mexanik, fizik, astronom, matematik, faylasuf va kimyogar Abd ar-Rahmon al-Xaziniy, Abdulmajid Majdud binni Odam Sanoiy (Sanoiy) kabi elning yuqori martabali shayxlari, so‘fiylari va olimlari hurmat-e’tiborda bo‘lganlari ma’lum. Jumladan, kelib chiqishi vizantiyalik yunon bo‘lgan Abd ar-Rahmon al-Xaziniy o‘zining astronomik asarini Sanjarga bag‘ishlab, uni “Ziji Sanjar” deb nomlagan[7]. Qolaversa, Amir Temur ham o‘zining “Tuzuklari”da: “Beshinchi yuz yillik boshida din-u shariatni rivojlantirgan odam sulton Sanjar ibn sulton Malikshoh edi. Shayx Ahmadi Jom va hakim Sanoiy uning zamondoshlari bo‘lib, sulton ularning muridi edi. Bu davrda dinsizlar va johillar islom dinini zaiflashtirgan edi. Sulton Sanjar dinsizlarni yo‘qotib, islom dinini rivojlantirishga kirishdi. Dini Muhammadiyga itoat va tobe’likda shunday darajaga erishdiki, shariatga xilof bo‘lgan hech bir ish qilmadi” deydi[8].

3. *Sangar* – qo‘miqlar folklorida ovchilik ma’budi, rahnamosi. Qator turkiy qavmlarda uning Sangur, sunar, sonar shakllari uchraydi. Demak, *Sangardak* toponimi u bilan bog‘liq ertak, afsona va rivoyatlar asosida kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin.

4. Ozarbayjonlik tarixchi G.Gumbatov[9] *Sangar* so‘zi qadimgi turkiy tilda “burun”, “burchak” ma’nosini anglatganini yozadi. Biroq “Devon”ning indeks lug‘atida bu so‘z uchramaydi. Aksincha, lug‘atda **siңar** so‘zi berilgan va u bir narsaning “yoni, tomoni, tarafi” deya izohlangan[10]. Shunga qaramay, har ikki so‘zning o‘rtasida ma’noviy aloqadorlik mavjud bo‘lib, u umumiy tarzda “yon, qirra, burchak” ma’nosini ifodalagani aniq.

5. Evenklarda *sangar* – “yoriq, teshik” ma’nosiga ega so‘z.

6. *Sangardak* etimonida tojikcha *sang* – “tosh” hamda *ardak* – “sha’n” leksemalari mavjud bo‘lib, toponimning bu toifa talqin etilishi o‘zining to‘liq isbotini topganicha yo‘q. Bizningcha esa, *Sagardak* toponimi kelib chiqishining bu qabildagi talqini mantiqdan bi-

[1] Al-Jakubi. Kitab al-buldan. – C.292.

[2] Al-Moqaddasi. Descriptio Imperii moslemici. 1967. – C. 284.

[3] Аршавская З.А., и др. Средневековые памятники Сурхандарьи. – С. 41. (Arshavskaya Z.A, and other. Medieval monuments of Surkhandarya. – P. 41.)

[4] Сариосиё Сангардаки тарихини ўрганиш йўлида. https://telegra.ph/Sariosiyo-Sangardaki-tarihini-organish.

[5] Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. (Жанубий Ўзбекистон худудлари материаллари асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.

[6] Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. (Жанубий Ўзбекистон худудлари материаллари асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.

[7] Рожанская М. М., Левинова И. С. Ал-Хазини и его “Книга весов мудрости” // Из истории физико-математических наук на средневековом Востоке. – М.: Наука, 1983. – С. 229-275.

Рожанская М. М. Абу-л-Фатх Абд ар-Рахман ал-Хазини, XII век. – М.: Наука, 1991. – 190 с. - (Научно-биографическая литература). ISBN 5-02-003507-6.

Могахед М. М. Весы мудрости: метод научного исследования аль-Хазини = ميزان الحكمة: منهج البحث العلمي عند الخازني. – Каир: Генеральная египетская книжная организация, 2005. – 503 с.

[8] Темур тузуклари //Форсчадан| А. Согуний ва Ҳ. Кароматов тарж; Б. Аҳмедов таҳрир. остида /– Тошкент: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 60. (- 144 б.)

[9] Гахраман Гумбатов Происхождение азербайджанцев. Введение. https://www.academia.edu/20063115/

[10] Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 220.

roz yiroqdir, chunki *tosh* va *sha'n* leksemalarining bu tarzdagi uyg'unlashuvi aslida hech qanday mazmunni bermaydi. Bu holda leksik derivatsiya haqida gapirish ham noo'rin. Tilshunos olim S.Qorayev Sangardakni Surxondaryo viloyatidagi soy deb ta'riflaydi va ushbu toponimning yasalishida S.Ibrohimovning taxminiga tayanadi: *sang+gir+ak* - "yumaloq tosh". Biroq S.Qorayev *Sangar* (*sangir*) so'zining "qal'a, istehkom" ma'nosi ham bor, deb yozadi[1].

7. Tarixchi olima S.Jo'rayeva esa Sangardak tog'idagi ziyoratgohda katta aylana tosh borligi sababli (forsiyda *sangi girdak* – "aylana tosh, yumaloq tosh" ma'nosini bildiradi) bu maskanning *Sangardak* deb nomlanishini ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, prof. S.Ibrohimov va tadqiqotchi S.Jo'rayevalarning qarashlarida ilmiy haqiqatga yaqinlik mavjud: *Sagardak* etimologiyasiga oid ikkinchi (*sang+gir+ak*) va uchinchi taxmin (*sangi girdak*)lar o'zaro forsiy izofaning mavjud/mavjud emasligi bilan farq qiladi, xolos.

Professor E.Begmatov esa *-dag, -dak* formantini "daryo, soy" ma'nosida talqin qiladi va shu tarzda qadimgi so'g'd tili elementlarini saqlovchi *Sangardak* toponimini gidronimik joy nomi sifatida tilga oladi[2].

Sangardak toponimi misolida dastlabki shaklning semantik (yoxud morfologik?) transformatsiyasini kuzatish mumkin va bunda ko'chish ekstralingvistik omilning toponimning lisoniy qurilmasi bilan ta'sirlashish jarayonida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin[3].

Sangardak ziyoratgohini teotoponim deb baholashimizga bosh sabab – mazkur hududda joylashgan sharshara hamda Sangardak va Xondiza yo'lida joylashgan Nelu qishlog'ida diametri 22 metrli ko'p yillik chinordir. Chinor ostida tiniq suvli buloq bo'lib, unda mahalliy nomi "Marinka" bo'lgan zaharli baliqlar yashaydi[4].

Tarixchi olimlarning aniqlashicha, nasroniylik diniga qadar qadimgi Skandinaviya xalqlari uchun sharsharalar boshqa dunyoga o'tish joyi hisoblangan. Ularga sig'inishgan, sharsharalar yonida qurbonliklar keltirishgan va ilohiy marosimlar o'tkazishgan. Binobarin, manbalarda qadimgi yunonlar, arablar va Movarounnahrning mashhur hukmdorlarining Sangardak mo'jizalarini tomosha qilishga tashrif buyurib turganlari aytiladi[5].

Maqdisiy qo'llagan *Sangardak,* Ibn al Asir qo'llagan *Sandjarda,* VIII-X asrlarga oid o'zga manbalarda esa *Sankarda*[6] shaklida kelgan *Sangardak* so'zining *Sangar, Sanjar, Xanjar* shaklidagi "o'tkir", "keskir" ma'nosiga tayansak, mazkur teotoponimda predmetli kodning ustuvor belgi sifatida yuzaga chiqqani aniqlanadi. Bu leksemaning arabcha "hukmdor" ma'nosiga ahamiyat berilsa esa, *Sangardak* toponimida antropomorf kodga ishora mavjud, degan xulosaga borish mumkin. Biroq biz bu taxminni yoqlamaymiz, chunki *Sangardak* sharasharasi bilan bog'liq jami aqidaviy qarashlarda shaxslashtirish emas, shu gidronim va umuman, tog'ning atrofida o'tkazilgan marosimlar alohida o'ringa ega.

Rezyume. Maqolada ziyoratgohlar etimonining motivlanganlik va motivlanmaganlik belgilari asosida lingvomadaniy kodlar ifodasiga bag'ishlangan. Surxondaryo vohasi tog'li hududlarida shu kabi teotoponimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Maqolada shu kod asosida shakllangan Sangardak teotoponimi tahlil qilingan.

Resume. This article focuses on the expression of linguocultural codes within the etymology of sacred sites (ziyoratgohlar), based on the criteria of motivation and non-motivation. Such theotoponyms are prevalent in the mountainous regions of the Surkhandarya oasis. The article analyzes the theotoponym "Sangardak" which was formed on the basis of this code.

Резюме. В данной статье рассматривается выражение лингвокультурных кодов в этимологии священных мест (святилищ) на основе критериев мотивации и немотивации. Такие теотонимы распространены в горных районах оазиса Сурхандарья. В статье анализируется теотоним «Сангардак», сформировавшийся на основе этого кода.

[1] Қораев, С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. -240 б.
[2] Бегматов Э. Жой номлари – маънавиятимиз кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 66.
[3] Адамец П. Порядок слов в современном русском языке / П. Адамец. – М.: Просвещение, 1969. – 186 с.
[4] Сариосиё Сангардаки тарихини ўрганиш йўлида. https://telegra.ph/Sariosiyo-Sangardaki-tarihini-organish-j
[5] https://www.surxondaryo.uz/pdfd/93.
[6] Сариосиё Сангардаки тарихини ўрганиш йўлида. https://telegra.ph/Sariosiyo-Sangardaki-tarihini-organish.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DOSTON FRAZEOLOGIYASIDA MIFOLOGIK QATLAMNING LISONIY IFODASI (Surxondaryo turkum dostonlari misolida)

Ahmedov Hakim Yarashevich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mifologik ong arxaik bilimlarning asosini tashkil etib, u hali mifologik qobiqdan chiqmagan qadimgi tasavvurlarni o'zida saqlaydi. Frazeologik birliklar tilning eng konservativ qatlami sifatida ana shu qadimgi tasavvurlarni asrlar davomida saqlab kelgan lisoniy ombor vazifasini o'tab kelmoqda. Frazeologizmlar o'zida insonning dunyo haqidagi dastlabki bilimlarini, idrok va miflarga asoslangan tasavvurlarini aks ettiradi va doston frazeologiyasida mifologik qatlamning lisoniy ifodasi 0'z aksini topadi. Zero, frazeologik birliklar nafaqat tilning lug'at boyligini, balki xalqning ko'p asrlik ma'naviy tajribasini, kognitiv paradigmasini va etnomadaniy kodlarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho lisoniy merosdir. Surxondaryo turkum dostonlari bu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda qadimgi eroniy (baqtriya-sug'diy), buddaviylik va ilk turkiy mifologik qatlamlar uzoq asrlar davomida saqlanib qolgan.

Dostonlar tilida qo'llanilgan frazeologik birliklarning arxaik mifologik qatlamini quydagi asosiy guruhlarga bo'lishni lozim topdik.

a) *Mifologik tafakkurning izchilligi, b) Etnik va geografik ezoliyatsiya. d) Dostonlarning diniy-ritual asosi. c)Genialogik jihati.*

a) Mifologik tafakkurning izchilligi: Dostonlarda kosmogonik qarashlar, totemistik tasavvurlar va otashparastlik ramzlari frazeologik shakllarda saqlangan. Masalan: *To'rt tomonga bosh urmoq, qirq chiroq yoqmoq, olovdan o'tkazmoq, qirq chiltanga sig'inmoq, yeru-ko'kka si'g'may qolmoq,yetti falakni ko'zlamoq. ko'k bo'riga do'g'inmoq, osmonning beti tutilmoq, ko'kning yoqasi sitilib, boshingni falak choldima. suvga suyanib bormoq, tog'ga tayanib bormoq, ko'k bo'riga iyarib bormoq, etti olamni kezmoq,* ka'bi iboralar doston matnida mifologik tafakkurning izchilligini ochib beradi va shu bilan bir qatorda animizm, totemizm, shomonlik va zardushtiylik kabi qadimiy e'tiqodiy qarashlar zamirida shakillanganligini ko'rsatadi. Dostondagi ushbu frazeologik birliklar mifologik dunyoqarash orqali marosimlarini, axloqiy-me'yoriy va genetik jihatlarini saqlagan holda, o'zbek xalqining etnografik va madaniy xotirasining qatlamliligini ochib beradi. Bu esa dostonlarni nafaqat adabiy, balki etnologik va diniy-tarixiy manba sifatida ham o'rganish imkonini yaratadi. Masalan: – *Ana Avazxon xudoga nola qilib, ahvolini yaratganga havola qilib, ko'z yoshlarini jala qilib, to'rt tomonga bosh urib, nazarkarda otiga ahvolini aytib, uch kecha-kunduz yotdi.* Ushbu doston parchasida keltirilgan misolda Avazxonning fazoviy yo'nalaishlarning barchasiga murojat qilishi – qadimgi kosmogonik tasavvurdagi *to'rt tomon* (sharq, g'arb, shimol, janub) muqaddasligining ifodasidir. Bu harakat orqali qahramon butun olamning kuchlariga yordam so'rab iltijo qilishi aks etgan. Islomiy aqidalarga xoslangan "To'rt tomoning qibla" iborasi bilan yo'g'rilgan bo'lib dostonda islomiy va undan oldingi e'tiqodlar sinkretik tarzda qorishgan.

b) Etnik va geografik ezoliyatsiya: Surxondaryo vohasi geografik jihatdan Bobotog', Hisor va Ko'hitang tog' tizmalari bilan o'ralgan hududda joylashgan bo'lib, bu tabiiy chegara tarixan vohaning tashqi harbiy va madaniy bosqinlardan nisbatan himoyalanishini ta'minlagan. Natijada, bu hududda qadimgi eroniy (baqtriya-sug'diy), buddaviylik va ilk turkiy mifologik qatlamlar uzoq asrlar davomida boshqa tillarning frazeologik ta'siriga kam uchragan va saqlangan. Vohaning o'ziga xos etnolingvistik izolyatsiyasi shu bilan izohlanadiki, bu yerdagi mahalliy etnik guruhlar, ko'chmanchi dasht qabilalaridan farqli ravishda asosan tog'li hududlarda yashab, o'zlarining tub madaniy va til xususiyatlarini saqlab qolganlar. Hozirgi kunda ham Surxondaryo vohasida istiqomat qiluvchi aholining tilidagi frazeologik birliklar sezilarli darajada dialektal xarakter kasb etgan holda, o'zgaruvsiz saqlanmoqda**.** Bu hodisaning asosiy sababi – voha aholisining uzoq vaqt davomida nisbatan yopiq etnomadaniy muhitda yashagani

va og‘zaki ijro an’analarining kuchliligi bilan bog‘liq[1]. Etnik va geografik ezoliyatsiya natijasida Surxondaryo turkum dostonlarida qo’llanilgan frazeologik birliklar etmomadaniy munosabatlarni shakillantirib doston matnida qanday qo’llanilgan bo’lsa voha aholisining jonli muloqatida ham hozirgacha o’z aksini ko’rsatib kelmoqda. Masalan: *“Ong qolmoq, tili toyib ketmoq, mo’ysafidga qo’shmoq, kallasi ko’chmoq, qamchi chotmoq, iyrik bo’lmoq, juyrik bo’lmoq, chiyriq bo’lmoq, shashti qaytmoq, jeyrib bo’lmoq, kuyruk bo’lmoq, is bilmas, og’zi shaloq, xayol taylamoq, mehrini to’kmoq, qiyomat solmoq, qistab bormoq, shobir berib bormoq, tomirini quritmoq, ko’zi o’ngmoq, suyagiga tortmoq, ishini tindirmoq, ko’kragiga qo’l solmoq, yuragi tushmoq, sollanib kelmoq, ro’mol chotgan, ustixoni chaqilib, g’urpish qilmoq”* v.hk.

Masalan: *Ketmasin-da tilim toyib,*
O’tmasin-da mendan ayib
Kelbating qizga o’xshaydi
Qarayman senga sarg’ayib.

“Malla savdogar” dostonida keltirilgan *“Tilim toyib”* iborasi Surxondaryo shevasiga xos bo‘lib, etnik va geografik izolyatsiya natijasida shakllangan dialektal frazeologizm hisoblanadi. *“Toymoq”* fe’li bu yerda *“adashmoq, xato qilmoq, og‘ishmoq”* ma’nosida qo‘llaniladi. *“Tilim toyib” – “tilim adashib, noto‘g‘ri so‘z aytib qo‘yish xavfi bilan”* degan mazmunni beradi. Surxondaryo vohasining tog‘-tog‘ oralig‘ida joylashgani, boshqa hududlardan nisbatan uzoq va aloqasi cheklangan bo‘lgani sababli bu yerda qadimiy turkiy unsurlar saqlanib qolgan. *“Toymoq”* so‘zining bu ma’nosi boshqa o‘zbek shevalarida kam uchraydi yoki eskirgan. Shuningdek, bu ibora shevaga xos fonetik shaklda (masalan, ayrim tovushlarning talaffuzi) ham namoyon bo‘ladi. Etnik izolyatsiya deganda, bu hududda yashovchi aholining o‘ziga xos urf-odat, tushuncha va ifoda tizimi saqlanib qolgani, geografik jihatdan esa tabiiy to‘siqlar (tog‘lar, daryolar) tufayli boshqa sheva va adabiy til ta’sirining kech va cheklangan darajada yetib borgani tushuniladi. *“Tilim toyib”* faqat Surxondaryo shevasidagina jonli qo‘llanishda saqlanib qolgan, adabiy tilda uning o‘rnida *“tilim adashib”, “xato gapirib qo‘ysam”* kabi iboralar ishlatiladi. Bu esa mintaqaviy dialektal frazeologiyaning etnogeografik izolyatsiya mahsuli ekanligini tasdiqlaydi.

Dostonlarning diniy-ritual asosi: Dostonlar tilidagi frazeologizmlarning diniy-ritual asosini o‘rganish lingvokulturologiya, etnolingvistika va folkloristik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Surxondaryo turkumi dostonlari o‘zida qadimiy e’tiqod tizimlari va islomiy dunyoqarashning o‘ziga xos sintezini aks ettirgan noyob manbadir.

Surxondaryo turkumi dostonlaridagi diniy-ritual frazeologizmlarni Tipologik jihatdan ikki asosiy guruhga – *mifologik komponentli* va *teonim komponentli* frazeologik birliklarga ajratish lozim. Mifologik komponentli frazeologizmlar qadimgi e’tiqodlar, tabiat kuchlariga sig‘inish, totemizm, animizm va shomonlik bilan bog‘liq iboralardir.

2. Teonim komponentli (Diniy-islomiy) frazeologizmlar. Bu guruhdagi frazeologizmlar islom dini bilan bog‘liq – Alloh, payg‘ambarlar, farishtalar, Qur’on, diniy marosimlar asosida shakllangan. Har ikki guruh dostonlarning badiiy tizimida qadimgi va yangi diniy qatlamlarning uyg‘unligini, xalq dunyoqarashidagi sintezni ko‘rsatadi. Mifologik frazeologizmlar ko‘proq qahramonlarning jasorati, tabiat bilan kurashi; islomiy frazeologizmlar esa axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar, taqdir, iymon mavzularini ifodalaydi. Surxondaryo turkumi dostonlaridagi diniy-ritual frazeologizmlar tahliliga ushbu bobning keyingi bo’limlarida to’xtalamiz.

d) Genealogik jihatdan ushbu birliklar arab, fors-tojik va turkiy tillardan o‘zlashgan bo‘lib, ularning semantik tuzilishi tarixiy qatlamlarni aks ettiradi. Funksional jihatdan diniy-ritual frazeologizmlar dostonlarda appelliativ, kontemplativ, konsektrativ va kataritik pragmatik funksiyalarni bajaradi. Masalan: *– Alqissa, Avazxon darg’azab bo’lib, qahri kelib, otdan tushib, devordan oshib ilon tilli kesgir p’o’latini ushlab, – Yo bismillo deyib qilichini yalong’ochladi va Axmad sardorning bo’ynidan qisib sudrab chiqardi.* “Malla savdogar” dostonida keltirilgan ushbu parchada *“Bismillo, deyib qilichni yalang‘ochladi”* frazeologizmi genealogik jihatdan uch til qatlamini (arab, fors-tojik, turkiy) o‘zida mujassamlashtirgan. **Genealogik qatlam (O’zlashma qatlamlar). Arabiy qatlam:** *bismilloh* (< ar. *bismillāhi* – بِسْمِ اللّٰهِ “Alloh nomi bilan boshlash”) – “Bismilloh” to‘liq arabcha ibora hisoblanib u arab tilining grammatik qurilishiga (izofa birikmasiga) ega, hech qanday turkiy yoki forsiy morfologik inklyuziyasiz qo’llanilinadi, doston matnida mustaqil diniy-ritual funksiyani bajaradi hamda janubiy o‘zbek folkloridagi arabiy qatlamning eng sof va ko‘p qo‘llanilinadigan iboralaridan biri hisoblanadi.

Fors tojik qatlami: *Deyib (< forscha -guftan so’zining zamonaviy o’zbek tilidagi shakli)* yordamchi fe’li. Deyib” – zamonaviy o‘zbek tilida “demoq” fe’lining ravishdosh shakli bo‘lib, uning etimologik ildizi forscha *guftan* (“aytmoq”) fe’liga borib taqaladi.

Turkiy qatlam: *qilich, yalang‘ochladi* – sof turkiy ibora bo’lib, islomgacha bo’lgan davirda “qilichni

[1] Rahmonov, B. A. (2023).Surxondaryo etnografizmlari va uning o’ziga xos jihatlari.Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayin jurnali, 3(2), 152-155.

yalang‘ochlash” – jangga tayyorgarlik ma’nosini bildirgan va qadimgi turkiy jangchilik rituali hisoblanib islomiy formula bilan shakillangan. Surxondaryo turkum dostonlaridagi “qilich, yalang‘ochladi” iborasi quyidagi xulosalarni beradi: **Semantik jihatdan** – ibora konkret qilichni qindan chiqarish, janga hozirlanish va marosimiy (jangovar marosim, qasamyod) ma’nolarni bildiradi. “Yalang‘ochladi” fe’lining asl ma’nosi (“kiyimsiz holatga keltirmoq”) qilichga nisbatan metaforik munosabat ko‘chgan. **Tarixiy qatlamlar nuqtayi nazaridan** ushbu ibora ikki asosiy qatlamni namoyish etadi. **Ilk turkey qatlam islomgacha bo’lgan davrda** *“qilichni yalang‘ochlash”* – qadimgi turkiy jangchilik rituallarining markaziy elementi sifatida qo’llanilgan bo’lib, Tengriga sig‘inish, qasamyod va jangga tayyorgarlikning muqaddas harakati sifatida baholangan.

Surxondaryo dostonlarida qadimgi turkiy marosim butunlay yo‘qolmagan, balki islomiy elementlar bilan sinkretik uyg‘unlik hosil qilgan. Qilichni yalang‘ochlash jismoniy harakati saqlanib, unga “Bismilloh” duosi qo‘shilgan. Dostonchilikdagi ahamiyati shuki– Surxondaryo turkumi ushbu iborani saqlab qolgani bilan boshqa o‘zbek dostonchilik an’analaridan farq qiladi. Bu hududda qadimgi turkiy substrat kuchliroq saqlangan.

Doston frazeologiyasining mifologik qatlamlarini tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki folklorshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zero, frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik ma’naviy tajribasini, kognitiv paradigmasini va etnomadaniy kodlarini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho lisoniy merosdir.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek xalq qahramonlik dostonlari frazeologiyasida mifologik ongning ifodalanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda xalq dostonlari matnidan olingan frazeologik birliklar lingvokulturologik va etnolingvistik jihatlar tahlil qilinib, ulardagi mifologik qatlamlarning semantik-funksional xususiyatlari yoritilgan. Mifologik ong mahsuli bo‘lgan mifonim va teonim komponentli frazeologizmlar xalqning qadimgi dunyoqarashi, e’tiqodi va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi ramziy-lisoniy kodlar sifatida namoyon bo‘lishi asoslangan. Tadqiqot natijalari doston frazeologiyasining mifopoetik asoslarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article examines the features of the expression of mythological consciousness in the phraseology of Uzbek folk heroic epics. In the study, phraseological units taken from the texts of folk epics are analyzed in linguocultural and ethnolinguistic aspects, and the semantic-functional features of mythological layers in them are elucidated. It is substantiated that phraseologisms with mythonym and theonym components, being a product of mythological consciousness, manifest as symbolic-linguistic codes reflecting the people’s ancient worldview, beliefs, and spiritual values. The results of the study are of great importance for revealing the mythopoetic foundations of epic phraseology.

Резюме. В данной статье исследуются особенности выражения мифологического сознания во фразеологии узбекских народных героических эпосов. В исследовании фразеологические единицы, взятые из текстов народных эпосов, анализируются в лингвокультурологическом и этнолингвистическом аспектах, освещаются семантико-функциональные особенности мифологических пластов в них. Обосновывается, что фразеологизмы с компонентами мифонима и теонима, являющиеся продуктом мифологического сознания, выступают как символико-языковые коды, отражающие древнее мировоззрение, верования и духовные ценности народа. Результаты исследования имеют важное значение для раскрытия мифопоэтических основ фразеологии эпоса.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY SO'Z SAN'ATIDA DIALOGNING IFODASI (ODIL YOQUBOV ASARLARI MISOLIDA)

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti dotsenti

Badiiy nasr til vositalariga boyligi, lug'aviy qamrovining kengligi jihatidan badiiy nutqning boshqa turlaridan ham keskin farqlanadi. Chunki nutqning bu turida umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy vositalardan foydalaniladi va bu vositalar ijodkor tomonidan turli nutqiy imkoniyatlarning vujudga keltirish uchun zamin yaratadi. Har bir ijodkor tilning lug'aviy xazinasidan o'z imkoniyati doirasida didi va idroki asosida so'z tanlaydi va o'z asarlarida qo'llaydi. Shuning uchun badiiy nasrning lug'aviy xususiyatlarini o'rganishda nasriy matnlarda uchraydigan barcha lug'aviy vosita, jumladan, umumiste'mol so'zlari ularning nutq jarayonidagi vazifasi xususida fikr yuritmaslik, badiiy nasr leksikasini bir tomonlama o'rganishga olib keladi[1].

Har bir davrning yozuvchi va shoirlari o'z asarlarini o'qimishli va jo'shqin qilish uchun qahramonlarining ruhiyatini munozaralarda, bahslarda, o'zaro tortishuvli suhbatlarda ochib ko'rsatadi. Bu vazifalarni bajarishda yozuvchi faqat til mahoratiga suyanadi. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini hamda sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta'sirini tahlil qiladi. Badiiy matnda qahramonning xarakter-xususiyati va obrazi uning nutqida, so'zlash tarzida yaqqol aks etadi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida til ruhiyatga, ruhiyat tilga o'tadi. Bu qonun dialoglarda, personajlarning o'zaro ziddiyatlarida ham ko'rinadi. Jaholat bag'rida yorqin yulduz bo'lib porlagan Ulug'bek hayotining so'ngi damlari, uning nodir ilm xazinalaridan bitgan asarlari-yu, suyukli shogirdlaridan, Nurziyo rasadxonasiyu, ona vatanidan benasib bo'lish arafasidagi o'g'li bilan qilgan dialogida namoyon bo'ladi: *– Meni bu maskandan haydagandin qatl qilganing a'lodur! Qatl! – Otangga yolg'iz rasadxonani in'om etsang bas! Bir burda non, bir qumg'on sovuq suv bo'lsa yetar. Shaxzoda keskin burilib qaradi. Siyrak muylovining uchlari dikkayib, lablari titrab: – Tag'in rasadxona! Tag'in "Ziji Ko'ragoniy" , – dedi bo'g'ilib. – Mudarris dastorini o'ragan barcha murtadlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz! Bul uchun haq taoloning qahriga, payg'ambar alayhissalomning qarg'ishiga uchrab, taxtu tojdan, saltanatdan ayrilmishsiz. Mirzo Ulug'bek ko'zlarini katta ochganicha qotib qoldi… Evoh! U ko'pdan beri shaxzodadan qo'rqib yurgani bejiz emas ekan*. (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" 111-b) Ular o'rtasidagi dialog ikki xil inson ruhiyatining ichki mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. Ulug'bek bilan Abdullatif ota-bola emasdek, dialogda ilm bilan jaholat kurashayotgandek tuyuladi.

Ulug'bek ota sifatida farzandiga achinadi, kuyunadi. O'gli din peshvolarining qo'lida bir o'yinchoq bo'lib qolishini oldindan his qiladi va farzandiga otalik mehri jo'shib, nasihat qilmoqchi bo'ladi. Farzandi tushunishni xohlamaydi. Amir Temur nabirasi, butun umri e'zozda o'tgan mamlakat podshosi, buyuk alloma Ulug'bek ("bir burda non, bir qumg'on sovuq suvga") qolgan umrini ilmga, asarlarni tugatishga bag'ishlamoqchi bo'ganida nobakor o'g'il otasining olijanob niyatini masxara qiladi. Ota ilm-fandan, noyob xazinadan so'z ochsa, ochko'z farzand Amir Temur tillalari yashiringan joyni so'raydi. Dialogning davomida Ulug'bek obrazining yana boshqa tipik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Albatta, uning o'ziga xos otalik burchi, farzandiga aytmoqchi bo'lgan nasihatlari, ilm yo'lidagi zaxmatkashligi yana individual tili orqali anglashiladi: *– Qulluq. Ixtiyoriddin qal'asidagi bobom Amir Temurdan qolgan tillalarimni tortib olgan kim? Yana siz, valine'mat padarim! Ne chora? Mute farzand, indamay bosh egdik va lekin bas! Sohibqiron Amir Temur oltinlarini qayg'a yashirdingiz, soyaboni marhamat? – Qaysi tillalar? Valine'mat padari buzrukvorim hech narsani bilmaydur! Men bobom Amir Temur Qohira-yu Damashqdan, Bog'dodu Hinddan olib kelgan javohirlarni, oltin zebi ziynatlarni aytamen! Qayda bu boylik? Shaxzoda, ko'zlari telbalarcha yonib, Mirzo Ulug'bekka yaqinlasha boshladi. Mirzo Ulug'bek daxshat ichida orqaga chekindi. Chekinarkan, oyog'i kursiga tegib, kursi gumbirlab ag'darilib tushdi-yu, u birdan hushyor tortib to'xtadi. – Xo'sh so'zlang: kimga in'om etdingiz? "Yo rabbiy!*

[1] 1Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 86 б.

Bu nobakor bilmagan sir-sinoat yo‘q! Uning xufiyalari kirmagan teshik qolmabdi! – Qaydan bilay, Ali qushchi qayda yuribdi? – Yo‘q! Emdi hech bir so‘zingizga inonmasmen! Mirzo Ulug‘bek qaddini rostlab, shaxzodaning ko‘zlariga tik boqdi. Shaxzoda hamon qalt qalt titrab, otasiga qadalib turardi. Shaxzoda Abdullatif yuzi asabiy bujmayib bir nima demoqchi bo‘ldi, lekin demadi, teskari o‘girilib bir zum boshini osiltirib turdi, so‘ng, bo‘g‘iq ovozda: – Saroybon! – deb baqirdi. (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” 98-b) Berilgan matnda dialog monologik nutqqa aylanib ketadi. Ulug‘bek o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgandek, yuragini kemirayotgan zardali so‘zlarni to‘kib tashlaydi. Farzandiga amrimni, nasihatimni eshit, deb da’vat etadi, ayni vaqtda shahzodaning mavqeyiga mos holda “boz ixtiyor sendadur” deydi. Otaning o‘g‘liga dil so‘zini aytishdan boshqa ilinji qolmagan edi. Bu holat esa dialogda o‘z o‘rnida berilgan. Uning tilida “ota qarg‘ishiga uchrab toabad badnom bo‘lursen”, “ota rozi xudo rozi”, “hech bir yomonlik intiqomsiz qolmas” kabi til birliklari berilishi xarakterni tipiklashtiradi. Hech bir ota o‘z jigarbandi farzandiga qarg‘ishni, yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Lekin Abdullatif toifasidagi farzandlar o‘z otasining ilmini, ustozlari-yu shogirdlarini oyoq osti qilar ekan, ularning qilmishlari intiqomsiz qolmasligi ota bilan o‘g‘il o‘rtasidagi dialogda ta’sirli ifodalanadi.

Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida real va tipiklashgan ota va o‘g‘il obrazining ruhiy holatlarini shundaygina ko‘rsatib qolmay, balki, dialoglar vositasida suhbatli tortishuvlarda ularning qalbini kitobxonga yaqqol ochib ko‘rsatadi. Romandan olingan qaysi bir dialoglarning jumlasiga e’tibor qilmang, ular asar g‘oyasini ochishga, qahramon ruhiy holatini yoritish va xususiyatlarini to‘liq gavdalantirishga yordam beradi. Asarda dialoglarga juda keng o‘rin berilgan, jumladan dialog to‘qima obrazlar ruhiyatini yoritishda ham kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eng yaxshi to‘qima obrazlar ham individuallashgan tipik xarakterlar darajasiga ko‘tariladi. Adibning bu uslubi, ya’ni qahramonlarining o‘zaro to‘qnashuvlari zamirida inson ruhiyatining rango-rang ko‘rinishi “Diyonat” romanida ham ko‘zga tashlanadi. Agarda “Ulug‘bek xazinasi” romanida ota-yu o‘g‘il munozarasi vositasida bosh qahramonlar qirrasi yoritilgan bo‘lsa, adibning keyingi “Diyonat” romanida tog‘a-yu jiyan o‘rtasidagi ziddiyatli to‘qnashuvlarda ham asosiy obrazlarning ruhiyati jilovlanadi. “Diyonat” romanida ham psixologizmning poetik vositalaridan biri bo‘lgan – dialog qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Hayot qiyinchiliklariga ko‘p bora duch kelgan, o‘z e’tiqodlariga vafodor, zahmatkash inson Normurod Shomurodovda halol, diyonatli kishilarning ruhiy holati ko‘zga tashlanadi: *“- Bu – u, – dedi cho‘zib, – meva-chevani tog‘day uyib kepsan, odamlarning og‘zini moylamoqchimisan? Otaqo‘zi zo‘rma – zo‘raki kulgan bo‘ldi: – Hamma moylab turganda bitta biz moylamasakmoylamasak… Domla Shomurodov jiyaniga o‘qrayib qaradi. – Hamma deb kimni aytayapsan?* (O.Yoqubov “Diyonat”34-b) Dialogda tog‘a-yu jiyanning bir-birini ayamay olishuvi kitobxon ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Dialog Otaqo‘zining sovg‘a salom tariqasida olib kelgan meva-chevasidan boshlanadi. Shu yerda Shomurodov bilan Otaqo‘zi sovg‘a-salomni o‘z ruhiy holatiga mos holda ikki xil tushunadi. Biri – keksa firqa a’zosi, “yoshini yashab, oshini oshaganini ko‘p gapiradi”gan bo‘lib qolgan Normurod cholga tog‘day uyilgan sovg‘a – salomlar jiyani Otaqo‘zining qing‘ir ishlarini vaqtincha yashiruvchi niqob bo‘lib ko‘rinadi. Kechalari ko‘zidan uyqu qochadi. Biri – keyingi avlod vakili Otaqo‘zi sovg‘a-salom bilan o‘z tashvishlarini, qishloq xo‘jalik ishlarini tezroq bitkazib olishni ko‘zlaydi. Go‘yo “hamma bir-birini og‘zini moylab nega u moylamasin?”. Uning nazdida hamma shunaqa, hatto tog‘asi ham.

Dialogda Shomurodov bilan Otaqo‘zining sovg‘a-salom haqidagi mulohazalari ayni paytda ularning fe’l-atvorini, qalb va ongini harakterlaydi. Dialog davomida tog‘a-jiyan o‘rtasidagi ziddiyat murakkablashib boradi. Normurod Shomurodovning nutqidagi ruhiyatga mos ko‘rinishlar vijdoniga qarshi borolmaydigan, ilmni muqaddas nurli ziyo deb tushunadigan olimlar toifasidan ekanligini isbotlaydi, uning xaq ekanligini bugungi kun ko‘rsatib turibdi. Mazkur to‘qnashuvda ikki qahramon dilidagi iztirob, dard tiliga ko‘chadi. Otaqo‘zi tilida kaltafahmlik, o‘zini tuta bilmaslik, shaxsiyatparastlik, qarindosh-urug‘chilikni yuqori qo‘yish, manmanlik. Shomurodov tilida esa halollik, cho‘rtkesarlik, prinsipiallik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Romanda hayotiy munozaralarning mahorat bilan ochib berilishi Normurod Shomurodov obrazining rivojida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shomurodov domlaning irodasi, e’tiqodi kuchli. Juda og‘ir yuklarni o‘z yelkasida ko‘tara olgan inson. Lekin inson kamchiliksiz bo‘lmaganidek (beayb parvardigor), Normurod cholda ham o‘ylamasdan gapirish, oshiqcha qattiqqo‘llik, ayniqsa, yostiqdoshini ranjitish kabi nuqsonlari bor: *– Hamma tentak, hamma egri, yolg‘iz siz to‘g‘ri! Bunaqada o‘lsak o‘ligimizni ko‘madigan inson topilmas? …” Dahlizga kirgan domla shitob bilan o‘girilib qaradi, ko‘zlari yana boyagiday ola-kula bo‘lib: – Qo‘rqma! – dedi. – Sen o‘lsang o‘zim ko‘maman. Men o‘lsam mayli! O‘sha … xudbin qarindosh-urug‘larimsiz o‘ligim ko‘chada qola qolsin. – Mayli, o‘z bilganingizdan qolmang! Sizga …– Bas dedim senga! – Normurod Shomurodov cho‘qmorday og‘ir, qoramtir mushtini osmonga ko‘tardi. – Tinch qo‘yasanmi meni, yo‘qmi? Hiqildog‘imga keldi bu da’voyu dostonlaring! – deb qichqirdi u, qichqirdiyu qora mushtini boshi uzra ko‘targancha joyida qo-*

tib qoldi. (O.Yoqubov “Diyonat”42-b) Dialoglarning biri jiyanlari Haydarjonning nomzodlik ilmiy ishining himoyasidan oldin, ikkinchi suhbat esa himoyadan keyin bo‘lib o‘tadi. Gulsara aya eri bilan bo‘lgan suhbatlarda musulmon ayollariga xos tortinchoqlik, ming andisha bilan qo‘rqa – pisa so‘zlaydi. Domla esa kampirini ayamaydi, bo‘lib o‘tgan voqealarga Gulsara aya aybdordek dag‘dag‘a qiladi, hatto mushtini ko‘taradi. Mana shu nuqtada Shomurodov haq emas, bu uning xarakteridagi kamchilik. Farzand dog‘i yetmaganidek Normurod cholning navbatdagi qo‘polligini aya ko‘tarolmaydi, olamdan ko‘z yumadi.

Real hayotda insonlar ruhiy holatdan, xarakter jihatdan bir-biriga o‘xshamaganidek, badiiy asar qahramonlarining ruhiyati ham individuallashgandir. Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o‘sha suv, lekin daryo goh keng bo‘ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq bo‘ladi, goh loyqa. Odamlar ham shunday, goh sovuq, goh iliq bo‘ladi [1] .

Tilshunos Georg Fon Gabeles: “Inson tili bilan biron narsanigina ifodalab qolmasdan, u o‘zini ham ifodalaydi”[2], – degan edi. Badiiy asarda tasvirlangan obrazlar tirik insonning o‘zginasi. Asarlarda dialog ikki kishi va undan ortiq qahramonlarning o‘zaro so‘zlashuvi, munozarali tortishuvi, bir-birini inkor etuvchi ikki xil e’tiqodli kishilarning kimligini ochiq ko‘rsatuvchi bir vosita bo‘lsa, ichki monolog qahramonlarning og‘ir ruhiy holatlarini, birovga aytib bo‘lmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini ichidan(ovoz chiqarmasdan) tahlil qilib kitobxonga yetkazadigan nutqdir.

Yozuvchi inson hatti – harakatlarini, ruhiyatidagi fikr – kechinmalarni ochib beradi. Odil Yoqubovning asaridagi Otaqo‘zi obrazi ruhiyatidagi g‘alayonlar, tashvishli holatlar qat’iy chizilgan xarakter tushunchasiga zid keladi. Adib O.Yoqubov xoh tarixiy, xoh zamonaviy obraz yaratmasin munozaralarda muallif nutqi orqali yoritib bera olgan.

Yozuvchi Ulug‘bek xazinasi” romanida ota-yu o‘g‘il munozarasi vositasida bosh qahramonlar qirrasi yoritilgan bo‘lsa, adibning keyingi “Diyonat” romanida tog‘a-yu jiyan o‘rtasidagi ziddiyatli to‘qnashuvlarda ham asosiy obrazlarning ruhiyati jilovlanadi.

Badiiy nutqni, uning muhim shakli bo‘lgan badiiy nasrni lug‘aviy xususiyatiga ko‘ra o‘rganishdan maqsad, badiiyatga xizmat qiladigan lug‘aviy vositalarni aniqlash, ularning nutqiy jarayonga mosligi va uslubiylik xususiyatlarini baholashdir.

Badiiy asar tili turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilib, bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, mazkur masala bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini va ilmiy yangilik ahamiyatini saqlab qolmoqda. Chunki badiiy ijod davom etar ekan, asar tilini hamda ijodkorning poetik mahoratini tahlil qilish zarurati ham barqaror ravishda saqlanib qoladi. Zero, yozuvchining individual uslubi, eng avvalo, uning til birliklaridan foydalanishida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Maqolada badiiy matndagi dialogning ifodasi lingvopoetik tahlilga olingan. Xususan, Odil Yoqubov asarlari misolida dialoglarga juda keng o‘rin berilgani, dialogning to‘qima obrazlar ruhiyatini yoritishda ham kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi ochib berilgan. Eng yaxshi to‘qima obrazlar ham individuallashgan tipik xarakterlar darajasiga ko‘tariladi. Adibning bu uslubi, ya’ni qahramonlarining o‘zaro to‘qnashuvlari zamirida inson ruhiyatining rango-rang ko‘rinishi “Diyonat” romani orqali ham tahlil etilgan.

Resume. The article provides a linguopoetic analysis of the expression of dialogue in the artistic text. In particular, on the example of Odil Yaqubov’s works, it is revealed that dialogues are given a very wide place, and that dialogue serves as a powerful tool for illuminating the psyche of textile images. The best textured images also rise to the level of individualized typical characters. This style of the writer, that is, the colorful appearance of the human psyche at the heart of the conflicts between his characters, is also analyzed through the novel “Dionat”.

Резюме. В статье анализируется выражение диалога в литературном тексте посредством лингвопоэтического анализа. В частности, в произведениях Одиля Якубова выявляется, что диалоги занимают очень широкое место и служат мощным инструментом освещения психологии вымышленных персонажей. Лучшие вымышленные персонажи также возводятся до уровня индивидуализированных типичных героев. Этот стиль писателя, то есть красочное проявление человеческой психики, лежащей в основе конфликтов между его персонажами, анализируется также на примере романа «Дионат».

[1] 2 Solijonov Y. XX asrning 80-90 – yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. – Toshkent: 2022. – B. 20-21.
[2] Сороков Ю. А. Психолингвистические аспекты изучения текста. М. Наука. 1985. – 124 с.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMMUNIKATSIYA, MULOQOT VA DISKURS: TUSHUNCHALARNING FARQLANISHI VA DISKURSNING KOMMUNIKATIV MAQOMI

Isoqova Feruza Shamsiddin qizi,
Termiz davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tilshunoslik insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vositalarni o'rganuvchi fan sifatida falsafa, psixologiya, neyrofiziologiya va semiotika bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Fanlararo integratsiya natijasida zamonaviy tilshunoslik kognitiv va kommunikativ yo'nalishlarda yangi nazariy yondashuvlar bilan boyidi. Endilikda til faqat grammatik tizim sifatida emas, balki tafakkur, ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida tadqiq etilmoqda.

Bu jarayonda diskurs tushunchasi markaziy ilmiy kategoriyalardan biriga aylandi. Diskurs tilning real muloqotdagi ko'rinishi bo'lib, unda til birliklari bilan bir qatorda nutq ishtirokchilari, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy-madaniy omillar ham namoyon bo'ladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda «kommunikatsiya», «muloqot» va «diskurs» atamalari ko'pincha sinonim sifatida qo'llanadi, bu esa tadqiqotlarda terminologik noaniqlikka olib keladi. Kommunikativ-pragmatik, diskursiv-kognitiv va psixolingvistik paradigmalar doirasida ishlayotgan tadqiqotchi uchun ushbu tushunchalarni aniq farqlash metodologik zaruratdir.

Mazkur maqolada kommunikatsiya, muloqot va diskurs tushunchalarining mazmuniy va funksional chegaralarini aniqlash hamda diskursning zamonaviy muloqotdagi kommunikativ vosita sifatidagi o'rnini asoslash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, konseptual va definitsion tahlil, shuningdek, tavsifiy metod va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek, rus va ingliz tilshunosligidagi monografiyalar, lug'atlar va dissertatsiya avtoreferatlari xizmat qildi.

Kommunikatsiya tushunchasi turli fan vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. E.Rojers uni qabul qiluvchining xatti-harakatini o'zgartirish maqsadida manbadan unga g'oya uzatish jarayoni sifatida belgilaydi[1]. A.V.Sokolov esa kommunikatsiyani shaxsning boshqa shaxsga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarishning faol, maqsadli, amaliy va ma'naviy shakli deb kengroq izohlaydi[2].

Lotincha *communicatio* termini polisemik birlik bo'lib, kontekstga qarab turli jarayonlarni ifodalaydi va tilshunoslik, psixologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi sohalarda keng qo'llanadi. Keng ma'noda kommunikatsiya shaxslar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yuvchi omildir. Tahlil qilingan ta'riflarning barchasida uning protsessual tabiatiga – uzatish, almashish va tarqatish mexanizmlariga urg'u berilgani kuzatiladi.

Psixologik adabiyotlarda kommunikatsiya shaxslararo munosabat o'rnatish, axborot, g'oya va hissiyotlar almashinuvi hamda xatti-harakatga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida qaraladi[3]. Bu talqinda kommunikatsiya tashqi axborot bilan birga shaxsning ichki kechinmalari va emotsional holatini ham ifoda etadi. Sotsiologik yondashuvda esa u ijtimoiy tizimlar barqarorligini ta'minlovchi, bilim, qadriyat va hissiy holatlarni o'zida jamlagan ramziy xabarlar almashinuvi mexanizmi sifatida talqin etiladi[4]. Bu mexanizm jamiyatda axborotning vertikal (hokimiyat – jamiyat) va gorizontal (shaxs – shaxs) harakatini ta'minlaydi. B.D.Parygin kommunikatsiyaning yana bir vazifasi – muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatiga xos elementlarni uzatishni alohida ta'kidlaydi[5].

Kommunikatsiya va muloqot atamalarining nisbati masalasida olimlar yakdil emas. Yu.D.Prilyuk axborot almashinuvini kommunikatsiyaning mohiyati deb hisoblaydi, muloqotni esa ushbu tizimning shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi torroq ko'rinishi

[1] Rogers E. Communications in Organizations. – M.: Economica, 1980. – P. 15.
[2] Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации: учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2002. – С. 19.
[3] Психологический словарь / под ред. В.В. Давыдова, А.В. Запорожца, Б.Ф. Ломова и др. – М.: Педагогика, 1983. – 154 с.
[4] Социология: словарь-справочник. Т. 3. Междисциплинарные исследования. – М., 1991. – С. 70–71.
[5] Парыгин Б.Д. Анатомия общения. – СПб., 1999. – С. 63.

sifatida baholaydi[1]. T.N.Astafurova muloqotni bevosita axborot almashinuvi, hissiy ta'sir va fatik funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy kommunikatsiyaning tarkibiy qismi deb biladi[2].

Bizningcha, kommunikatsiya jamiyat miqyosidagi axborot oqimlarini qamrab oluvchi umumiy tushuncha bo'lsa, muloqot uning shaxslararo, bevosita shaklidir. Muloqotda hissiy ta'sir, aloqa o'rnatish (fatik funksiya) va noverbal vositalar (mimika, imo-ishora, ohang, tana tili) muhim o'rin tutadi. Kommunikatsiya odatda til vositasida amalga oshsa-da, u imo-ishora, mimika va jestlar orqali ham ifodalanadi[3]. Muloqotga yo'naltirilgan yondashuv tilshunoslikda vaziyat omiliga urg'u beradi va kommunikativ tilshunoslikning rivojiga turtki bo'ladi. Tilning inson tafakkuri, ongi va ijtimoiy faoliyatiga ta'siri haqidagi qarashlar esa kommunikatsiya nazariyasida diskursning fanlararo tabiatini yanada mustahkamlaydi[4].

Diskurs nazariyasiga oid tadqiqotlar orasida o'zbek tilshunosi Sh.Safarovning qarashlari muhim o'rin tutadi. Olim shunday yozadi: «Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so'zlovchi istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o'zaro qorishib, birikib, muloqotning samaradorligini ta'minlovchi omilga aylanadi. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda»[5].

E.S.Kubryakova diskurs konsepsiyalari faqat til tizimi va grammatik me'yorlar bilan chegaralanmasligini, kengroq kontekstdagi strukturaviy o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi[6]. Diskursning matndan farqi A.Yu.Popov, matn lingvistikasidagi interdiskursivlik masalalari V.E.Chernyavskaya, til va diskurs munosabati O.G.Revzina tadqiqotlarida yoritilgan[7]. Shunga qaramay, mavjud ishlarda uch tushunchaning – kommunikatsiya, muloqot va diskursning – o'zaro munosabati yagona tizim sifatida, ayniqsa, o'zbek tilshunosligida yetarlicha umumlashtirilmagan.

Diskurs va kommunikatsiya o'zaro bog'liq, biroq vazifasi jihatidan farqlanuvchi tushunchalardir. Kommunikatsiya asosan axborot almashinuvini ifodalasa, diskurs shu axborotning ijtimoiy konteksti, kommunikativ maqsadi va ta'sir mexanizmlarini ham qamrab oladi. Tahlil natijasida ajratilgan asosiy farqlovchi belgilar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Kommunikatsiya, muloqot va diskursning qiyosiy tavsifi

Belgi	Kommunikatsiya	Muloqot	Diskurs
Asosiy mohiyati	Axborot uzatish va almashish jarayoni	Shaxslararo bevosita axborot va hissiy almashinuv	Axborotning ma'nosi, ijtimoiy o'rni va ta'sirini qamrab oluvchi faol nutqiy hodisa
Maqsadi	Xabarni yetkazish	Aloqa o'rnatish, o'zaro tushunish, hissiy ta'sir	Ijtimoiy ta'sir, harakatga undash, ko'p tomonlama munosabatlarni shakllantirish
Qamrovi	Shaxs, guruh, tashkilot, davlat	Shaxslar	Ijtimoiy, siyosiy, madaniy kontekst bilan birga
Tuzilmasi	Aniq va qisqa xabarlar	Dialogik, vaziyatga bog'liq	Keng kontekstual-semantik maydon, uzoq muddatli muloqot
Shakli	Rasmiy (formal) yoki norasmiy (informal)	Asosan og'zaki, noverbal vositalar bilan	Ijtimoiy kontekst, maqsad va vaziyatga moslashgan
Ekstralingvistik omillar	Qisman	Vaziyat va emotsional holat	Dunyoni anglash, tafakkur, qabul qiluvchi munosabati va maqsadi

[1] Прилюк Ю.Д. Общественные отношения и социальное общение // Общественные отношения (социально-философский анализ). – Киев: Наукова думка, 1991. – С. 34–38.

[2] Астафурова Т.Н. Лингвистические аспекты межкультурной деловой коммуникации. – Волгоград, 1997. – С. 14.

[3] Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие / пер. с нем. – СПб.: Наука, 2001. – 380 с.

[4] Касториадис К. Воображаемое установление общества / пер. с франц. – М.: ГНОЗИС, Логос, 2003. – 480 с.

[5] Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 236.

[6] Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. – М., 2000. – С. 45–56.

[7] Попов А.Ю. Основные отличия текста от дискурса // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: СПбГУЭФ, 2001. – С. 41–44; Чернявская В.Е. Лингвистика текста: Поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность. – М.: ЛИБРОКОМ, 2009. – 248 с.; Ревзина О.Г. Язык и дискурс // Вестник Московского университета. – 1999. – № 1. – С. 25–34.

Jadvaldan ko‘rinadiki, diskurs kommunikatsiyaning kengroq va murakkab shakli sifatida til va jamiyatning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Zamonaviy muloqotda diskurs muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning zarur omili sifatida qaraladi: u tilning ijtimoiy reallik bilan birga o‘zgarishini turli darajalarda namoyon etadi[1]. Diskurs mohiyatini shartli ravishda «Diskurs = Nutq + Harakat» formulasi bilan ifodalash mumkin, ya’ni shaxsning nutqiy harakati muayyan kommunikativ muhit va ijtimoiy kontekstda sodir bo‘ladi[2]. Har bir diskurs turi o‘ziga xos nutq shakllari va leksik birliklarga ega bo‘lib, muayyan madaniy, ijtimoiy va mafkuraviy kontekst bilan belgilanadi[3].

Diskurs va kommunikatsiya masalasi faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-falsafiy va siyosiy kontekstda ham dolzarbdir: turli siyosiy tizimlarda kommunikatsiyaga qadriyat sifatida munosabat turlicha bo‘ladi[4]. Ye.V.Tolstixinaning fikricha, kommunikativ diskurs nutqdan foydalanishning barqaror usulini aks ettiradi va milliy xarakter, nutq odobi hamda xushmuomalalik shakllarini aniqlash imkonini beradi[5].

Siyosiy diskurs oddiy murojaat shakllaridan tubdan farq qiladi. Saylovoldi targ‘iboti, fuqarolar bilan uchrashuvlar va tantanali marosimlarda siyosatchi bilan auditoriya o‘rtasidagi munosabat ham kommunikatsiya, ham diskurs elementlarini o‘z ichiga oladi. Bunda faqat xabar almashish emas, balki har bir nutqiy aktning ijtimoiy-siyosiy konteksti va ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois kommunikatsiyaning istalgan ko‘rinishini to‘liq anglash uchun diskursning mazmuni, tuzilishi va funksional mexanizmlarini tahlil qilish zarur[6].

Xulosa qilib aytganda, kommunikatsiya umumiy belgilar tizimi vositasida amalga oshadigan axborot almashinuvi jarayoni bo‘lib, uning barcha ta’riflarida protsessual tabiati yetakchi belgi hisoblanadi. Muloqot kommunikatsiyaning sinonimi emas, balki uning hissiy ta’sir, fatik funksiya va noverbal vositalar bilan ajralib turuvchi shaxslararo shaklidir. Diskurs esa kommunikativ va informativ mazmunning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan, axborot bilan birga uning ijtimoiy konteksti, kommunikativ maqsadi va ta’sir mexanizmlarini qamrab oluvchi integral kommunikativ tizimdir. Shu sababli «diskurs» atamasini muloqot harakatlari sodir bo‘ladigan integral muhitga nisbatan, «kommunikatsiya» atamasini esa oddiy axborot almashinuviga nisbatan qo‘llash asoslidir.

Keyingi tadqiqotlarda siyosiy diskursni, xususan, o‘zbek tilidagi siyosiy nutq materiali asosida kommunikativ-pragmatik va kognitiv jihatdan o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Rezyume. Maqolada «kommunikatsiya», «muloqot» va «diskurs» tushunchalarining lingvistik, psixologik va sotsiologik talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning mazmuniy va funksional chegaralari aniqlangan. Kommunikatsiya axborot uzatish jarayoni, muloqot uning shaxslararo shakli, diskurs esa ijtimoiy kontekst, kommunikativ maqsad va ta’sir mexanizmlarini qamrab oluvchi integral kommunikativ tizim ekani asoslangan. Diskursni siyosiy kommunikatsiya doirasida o‘rganish zarurati ko‘rsatib berilgan.

Resume. The article offers a comparative analysis of linguistic, psychological and sociological interpretations of the concepts of “communication”, “interpersonal interaction” and “discourse”, and clarifies their semantic and functional boundaries. It argues that communication is a process of information transfer, interpersonal interaction is its person-to-person form, and discourse is an integral communicative system encompassing the social context, the communicative purpose and the mechanisms of influence. The relevance of studying discourse within political communication is substantiated.

Резюме. В статье проводится сопоставительный анализ лингвистических, психологических и социологических трактовок понятий «коммуникация», «общение» и «дискурс», уточняются их содержательные и функциональные границы. Обосновывается, что коммуникация представляет собой процесс передачи информации, общение – её межличностную форму, а дискурс – интегральную коммуникативную систему, охватывающую социальный контекст, коммуникативную цель и механизмы воздействия. Показана актуальность изучения дискурса в сфере политической коммуникации.

[1] Патюкова Р.В. Публичная коммуникация в дискурсе американской политической элиты: справочное пособие. – Краснодар: Просвещение-Юг, 2009. – С. 7.

[2] Текст и дискурс в современной коммуникации: монография / под ред. Т.Н. Плесканюк. – Нижний Новгород: НИЦ «Открытое знание», 2019. – 88 с.

[3] Шиян Т.А. Текст как элемент акта коммуникации // Методы современной коммуникации: проблемы теории и социальной практики: материалы междунар. науч. конф. «МСК-2002». – М., 2002. – С. 93–94.

[4] Дискурс и коммуникация: монография / под ред. Е.В. Грудевой. – Новосибирск: СибАК, 2015. – 234 с.

[5] Толстихина Е.В. Коммуникативный дискурс в межкультурной коммуникации: автореф. дисс. … канд. филос. наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – 28 с.

[6] Попов А.Ю. Основные отличия текста от дискурса. – С. 41–44.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ПРОБЛЕМА ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ФИКСАЦИИ ОНИМНОЙ ПЕРИФЕРИИ (на материале русского и узбекского языков)

Сайдуллаева Рано Ибадовна,
доцент Каршинского государственного университета
доктор философии по филологическим наукам

Ономастика располагает развитым понятийным аппаратом, однако его развитость неравномерна. Терминология «ядра» антропонимики и топонимики сложилась давно и закреплена в словарях, тогда как терминосистема «периферии», объединяющей разряды онимов с ослабленными собственно-именными признаками, остаётся подвижной и во многом дискуссионной. Круг периферийных разрядов – эргонимы, хрематонимы, идеонимы и их виды, хрононимы, прагматонимы и др. стремительно расширяется вслед за ростом коммерческой, медийной и цифровой номинации, который исследователи называют «ономастическим взрывом».[1]

Сам термин «онимная периферия» входит в научный обиход: в воронежском «Ономастическом вестнике» ей отведён самостоятельный тематический раздел.[2] Критерии периферийности формулируются так: ослабление номинативно-дифференцирующей функции (имя нередко индивидуализирует не конкретный предмет, а вид деятельности или абстрактную сущность), выраженная мотивированность, слабая системная организованность, изменчивость во времени.

Под терминологической фиксацией мы понимаем закрепление понятия за устойчивым термином и дефиницией в словарях, учебной и нормативной литературе, обеспечивающее единообразное употребление термина в научном сообществе.[3] Для русско-узбекской пары проблема двойная: внутриязыковая (нестабильность самих терминов периферии) и межъязыковая (передача терминов в узбекский язык, как правило, через русское и международное посредство). Цель статьи – описать состояние терминологической фиксации онимной периферии в русском и узбекском языках, выявить типичные проблемы и сформулировать принципы их преодоления. Задачи: уточнить критерии периферии; охарактеризовать русскую терминологическую традицию и её словарную фиксацию; описать формирование и фиксацию узбекской терминологии; классифицировать проблемы; предложить принципы фиксации.

Материалом послужили терминологические данные ономастических словарей и научных публикаций 2005–2026 гг. на русском и узбекском языках. Применены описательно-сопоставительный метод, анализ дефиниций, терминологический анализ (синонимия, многозначность, соотношение объёмов понятий), словообразовательный анализ терминов с компонентом -оним/-onim и сопоставление русских терминов с узбекскими соответствиями.

Критерии онимной периферии и состав терминологического поля. В полевой модели ономастического пространства В. И. Супруна ядро образуют антропонимы, околоядерную зону -теонимы, мифонимы, зоонимы и этнонимы, периферию – разряды с чертами апеллятивности.[4] Периферия не сводится к «новым» разрядам, а проходит через всё ономастическое пространство: внутри самой антропонимии периферийное положение занимают прозвища и псевдонимы. К числу периферийных разрядов относят, как правило, эргонимы (названия объединений людей), хрематонимы и ктематонимы (названия предме-

[1] Крюкова И. В. Периферийные разряды ономастики // Супрун В. И., Ильясова С. В., Беданокова З. К., Нефляшева И. А. Теория и практика ономастических и дериватологических исследований: коллективная монография. – Майкоп: Магарин О. Г., 2017. – С. 169–183. Цит. по: Родина Н. А. Полевый подход к рассмотрению ономастического фрагмента языковой личности военнослужащего // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. – 2023. – Т. 23, № 5. – С. 66–75.

[2] Ономастический вестник. – Воронеж, 2026. – № 3 (7).

[3] См.: Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 4-е изд. – М.: Либроком, 2009.

[4] Супрун В. И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. – Волгоград: Перемена, 2000. Цит. по: Родина Н. А. Указ. соч.

тов), идеонимы и их виды –библионимы, артионимы, хрононимы и эортонимы (названия событий и праздников), прагматонимы (названия товаров и торговых марок). Терминологическое поле при этом не имеет единой дефиниционной основы: одни и те же объекты описываются терминами разных уровней общности.

Русская терминология: итоги и пределы фиксации. Решающий вклад в упорядочение русской ономастической терминологии внёс «Словарь русской ономастической терминологии» Н. В. Подольской (1978; 2-е изд. 1988), в котором определены оним и его разряды -антропоним, топоним, зооним, фитоним, анемоним, астроним, космоним, теоним, идеоним, хрематоним, а также эргоним.[1] В. И. Супрун рассматривал этот словарь как основу, которую должны учитывать любые последующие терминологические своды.[2] Однако терминосистема периферии существенно выросла со времени выхода словаря и перестала помещаться в его рамки.

Проблемы возникают там, где периферия выходит за пределы словаря. Во-первых, продолжают появляться новые термины: в материалах «Ономастического вестника» (2026) описаны гефиронимы – названия мостов, не отмеченные в базовой классификации Н. В. Подольской, предложены термины рестороним и урботрапезоним для названий предприятий общественного питания, анализируются артионимы.[3] Во-вторых, конкурируют термины для близких понятий: названия коммерческих структур и их продукции описываются терминами эргоним, фирмоним, прагматоним, хрематоним, ктематоним, причём, как показывает М. В. Захарова-Саровская, чётких критериев разграничения эргонимов и других онимов до сих пор не выработано, а ктематоним и хрематоним она считает синонимами и видовыми понятиями по отношению к эргониму.[4] В англоязычной традиции им соответствуют описательные обозначения *brand name, trade name, company name*.[5] В-третьих, расходится объём одних и тех же терминов: в списке ICOS ойконим означает название дома или иного здания, тогда как в славянской традиции – название любого населённого пункта; термин годоним получает разные толкования; дромоним понимается то как название любого пути сообщения, то применительно к площадям.[6]

Эти расхождения не случайны. Терминологическая группа ICOS трактует координацию терминологии не как унификацию, а как упорядочение, делающее возможным сопоставление терминосистем разных языков;[7] между тем даже соотношение названий самой науки (ономастика - ономатология) остаётся предметом обсуждения,[8] а проблемы координации ономастической терминологии рассматриваются в научной литературе.[9]

Узбекская терминология: пути формирования и проблемы фиксации. Узбекская ономастическая терминология формировалась из трёх источников. Первый – интернационализмы греко-латинского происхождения, пришедшие, как правило, через русский язык: *antroponim, toponim, gidronim, oykonim, zoonim, ergonim, etnonim, kosmonim* и др. Второй – собственно узбекские и арабо-персидские обозначения традиционных категорий: *ism, laqab, taxallus, otasining ismi, atoqli ot* (имя собственное). Третий – кальки и описательные обороты: *nomshunoslik* наряду с *onomastika*, *joy nomlari* и *kishi ismlari* наряду с *toponimlar* и *antroponimlar*, *firma nomi, asar nomi, tashkilot nomi* вместо *ergonim, ideonim*. Такое сосуществование обеспечивает гибкость, но затрудняет фиксацию: термин и его описательный эквивалент конкурируют, не получая закреплённого статуса.

Специальный толковый словарь узбекской ономастической терминологии существует.[10]

---

[1] Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд. – М.: Наука, 1988. Цит. по: Казнина Е. А. Современная ономастическая терминология: проблема понимания и перспективы развития // Верхневолжский филологический вестник. – 2022. – № 3 (30). – С. 67–75.

[2] Супрун В. И. Размышления над ономастической терминологией // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2011. – № 8. – С. 133–138.

[3] См. выше: Ономастический вестник. – 2026. – № 3 (7).

[4] Захарова-Саровская М. В. К вопросу об эргономии // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2018. – № 3. – С. 187–191.

[5] Казнина Е. А. Указ. соч.; Sjöblom P. Commercial Names // The Oxford Handbook of Names and Naming. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – P. 453–466.

[6] Казнина Е. А. Указ. соч.; Разумов Р. В., Горяев С. О. Урбанонимическая терминология: системы и проблемы // Научный диалог. – 2019. – № 9. – С. 130–145.

[7] Гарвалик М. К вопросу о современной ономастической терминологии // Вопросы ономастики. – 2007. – № 4. – С. 5–13. Цит. по: Захарова-Саровская М. В. Указ. соч.

[8] Матвеев А. К. Ономастика и ономатология: терминологический этюд // Вопросы ономастики. – 2005. – № 2. – С. 5–10.

[9] Васильева Н. В. О координировании ономастической терминологии // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. – 2014. – № 2-1. – С. 373–377.

[10] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.

Вместе с тем терминология периферии отражена в узбекской научной практике неравномерно. В узбекской ономастике космонимы, астионимы, ктематонимы и урбонимы относят к числу известных, но малоизученных разрядов;[1] О. Т. Бегимов, сопоставляя узбекскую терминологию урбанонимии со словарём Н. В. Подольской, указывает на неполноту её словарной фиксации[2]. Об этом свидетельствует и вариативность форм (*urbanonim - urbonim*), и зависимость узбекских терминов от русских прототипов: вместе с термином переносятся и расхождения в объёме понятия (трактовки годонима и ойконима).

Отдельная проблема – межъязыковая передача терминов. Модель – оним последовательно воспроизводится в узбекском как *-onim*, производные -по схеме *-ika*, *-iya*, прилагательные образуются суффиксом *-ik* (*toponimik, onomastik*). Но при переводе словосочетаний возникает выбор: «онимная периферия» передаётся как *onim periferiyasi* или *onimik periferiya*. Русские «имя» (антропоним) и «название» (топоним, эргоним, идеоним) передаются в узбекском, как правило, через *ism* и *nom*, а «имя собственное» как *atoqli ot*; для периферийных разрядов, чьи единицы в русском тексте называются «названиями», узбекская практика предпочитает описательное *nom*. Наконец, двойственность терминов зооним и фитоним, которые в лексикологии обозначают названия животных и растений вообще, а в ономастике их собственные имена, при заимствовании сохраняется и требует дефиниционного разграничения.

Типология проблем и принципы фиксации. Обобщение показывает пять типов проблем. Они свойственны обоим языкам, но в узбекской терминологии усугубляются посредничеством русского языка и ограниченностью специальной лексикографии.

Таблица 1. Типовые проблемы терминологической фиксации онимной периферии

Тип проблемы	Русская терминология	Узбекская терминология
Синонимия и конкуренция терминов	эргоним, фирмоним, прагматоним, хрематоним, ктематоним; в англоязычной традиции -brand name, trade name, company name	ergonim наряду с описательными обозначениями (firma nomi, tashkilot nomi); соотношение между ними не закреплено
Расхождение объёма понятий	ойконим: «название населённого пункта» (славянская традиция) и «название здания» (список ICOS); разные трактовки годонима и дромонима	термины переносятся вместе с неоднозначностью объёма (oykonim, godonim); дефиниции опираются на русские и международные прототипы
Лакуны в словарях	гефироним (названия мостов) не отмечен в базовой классификации Н. В. Подольской; предлагаются новые термины (рестороним, урботрапезоним)	терминология урбанонимии и ряда других периферийных разрядов отражена в словарях неполно
Многозначность	зооним, фитоним: в лексикологии – названия животных и растений вообще, в ономастике -их собственные имена	двойственность сохраняется при заимствовании (zoonim, fitonim)
Вариативность формы	годоним - hodonym / *odonym*; онимный – онимический	urbanonim -urbonim; прилагательные на -ik (onomastik, toponimik) при отсутствии единой нормы для новых терминов

Для преодоления названных проблем предлагаются следующие принципы фиксации. Во-первых, статусная маркировка терминов («общепринятый», «предложенный», «дискуссионный») с указанием автора и источника: она позволяет отличить устоявшийся термин от авторского неологизма. Во-вторых, родо-видовая дефиниция с указанием гиперонима и смежных терминов, что снимает синонимию и конкуренцию объёмов. В-третьих, единая модель терминообразования -оним / *-onim* с фиксацией словообразовательного гнезда и допущением нового термина только при наличии нового понятия, не покрываемого существующими. В-четвёртых, двуязычная словарная статья: русский термин, узбекский эквивалент (интернационализм с описательным пояснением), дефиниции на обоих языках, допустимые варианты написания. В-пятых, сопоставление на-

[1] См.: Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

[2] См.: Begimov O. T. O‘zbek onomastikasida urbanonimiyaga oid terminologiyaning qo‘llanishi masalasi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Vol. 5, No. 8. – B. 87–94.

циональных терминов с международным списком ICOS и пометка расхождений со славянской традицией. В-шестых, регулярное обновление свода, в том числе в электронном виде, поскольку периферия расширяется быстрее, чем выходят печатные издания. Эти принципы могут быть реализованы в русско-узбекском словаре ономастических терминов, над которым ведётся работа.

Подводя итоги, отметим следующее. Онимная периферия отличается ослабленной номинативно-дифференцирующей функцией, мотивированностью и изменчивостью, поэтому её терминология нестабильна по самой природе объекта. Русская традиция, опирающаяся на словарь Н. В. Подольской, фиксирует ядро и значительную часть периферии, но не успевает за появлением новых разрядов и страдает синонимией и расхождением объёмов понятий. Узбекская терминология формируется под сильным влиянием русской и международной, располагает специальным толковым словарём, но для периферии фиксирована неполно и вариативна. Типичные проблемы – синонимия, расхождение объёмов, лакуны, многозначность и вариативность формы; путь их решения лежит в статусной маркировке терминов, родо-видовых дефинициях, единой модели терминообразования и двуязычной словарной фиксации. Перспективой исследования является создание реестра терминов периферии с узбекскими соответствиями и проверка его на материале новых ономастических разрядов.

Rezyume. Maqolada rus va o‘zbek tillarida onim periferiyasining terminologik qayd etilishi muammosi tahlil qilinadi. Periferiya terminlarining beqarorligi uning tabiati – nominativ-differensial vazifaning susayishi, motivlanganlik va o‘zgaruvchanlik -bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Terminologik qayd etishdagi tipik muammolar (sinonimiya, tushuncha hajmidagi tafovut, lug‘atlardagi bo‘shliqlar, ko‘p ma’nolilik, shakl variantliligi) aniqlanadi va ularni bartaraf etish tamoyillari – terminlarga maqom belgisi qo‘yish, tur-jins ta’rifi, yagona - onim modeli, ikki tilli lug‘at maqolasi taklif etiladi.

Resume. The article deals with the problem of terminological fixation of the onymic periphery in Russian and Uzbek. The instability of peripheral terms is shown to stem from the nature of the object itself: a weakened distinguishing function, motivation and variability. Typical problems (synonymy, divergent scope of concepts, gaps in dictionaries, polysemy, variation in form) are identified, and principles of fixation are proposed: status labelling of terms, genus–species definitions, a single - onym term-formation model and a bilingual dictionary entry.

Резюме. Статья посвящена проблеме терминологической фиксации онимной периферии в русском и узбекском языках. Показано, что нестабильность терминов периферии обусловлена природой самого объекта: ослаблением номинативно-дифференцирующей функции, мотивированностью и изменчивостью. Выявлены типичные проблемы (синонимия, расхождение объёмов понятий, лакуны в словарях, многозначность, вариативность формы) и предложены принципы фиксации: статусная маркировка терминов, родо-видовые дефиниции, единая модель терминообразования -оним / -onim, двуязычная словарная статья.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

A TOKEN-LEVEL AUDIT OF ACOUSTIC MEASUREMENTS IN BRITISH ENGLISH VOWEL REDUCTION

Suleymanova Nilufar Kamilovna,
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences
Alfraganus University

Tukhtabayeva Nilufar Uktamjonovna,
Master's Student
Alfraganus University

Vowel reduction is an important phenomenon in English phonetics and phonology. It is commonly associated with changes in vowel duration, spectral structure, and articulation, particularly in unstressed syllables. In British English, the degree of reduction depends on stress, lexical properties, phonetic context, speaker characteristics, and speech-production conditions. Reliable investigation therefore requires both an appropriate linguistic framework and accurate acoustic measurements.

Corpus-based research provides access to naturally occurring speech, but its findings depend on the quality of segmentation and measurement. An interval may include neighbouring consonants, a boundary may be incorrectly positioned, or an automatic formant estimate may not represent the intended vowel. Such issues can influence descriptive statistics and subsequent interpretations.

Dabouis and Fournier (2025) investigated vowel reduction and preservation in British English in relation to linguistic and lexical factors[1]. Caverlé and Vogel (2020) examined the stability, reliability, and sensitivity of acoustic measures of vowel space[2]. These studies underline the importance of interpreting acoustic data in relation to linguistic context and measurement procedures.

The present study examines ten observations from a working dataset associated with the International Corpus of English–Great Britain (ICE-GB). The observations were flagged because of their recorded durations, proximity to a recorded 400 ms processing limit, or formant values requiring further inspection. The earlier review also assigned each observation a preliminary reduction classification.

The aim is to establish a structured procedure for auditing individual acoustic observations. The objectives are to describe the ten flagged observations, report their preliminary reduction classifications, identify potential measurement issues, and define a transparent procedure for documenting verification decisions. The observations are treated as cases requiring review rather than as confirmed errors.

2.1. Dataset and acoustic variables. The study uses ten purposively selected observations from a working dataset associated with ICE-GB. They were selected because their recorded intervals were unusually long, some durations were at or near 400 ms, or their formant measurements appeared to require additional inspection. As the sample was selected for quality-control purposes rather than randomly, it cannot be used to estimate the prevalence of measurement errors in the complete dataset.

Three acoustic variables are considered: vowel duration in milliseconds (ms), first formant frequency (F1) in hertz (Hz), and second formant frequency (F2) in hertz (Hz). F1 is associated with vowel height, while F2 provides information related to vowel frontness and backness. Both values must be interpreted in relation to vowel identity, speaker characteristics, phonetic context, and recording conditions.

Duration must also be interpreted according to the operational definition used in the dataset. The recorded interval may represent a target vowel, a whole word, or a larger speech segment. These units

[1] Dabouis Q., Fournier J.-M. An empirical study of vowel reduction and preservation in British English // Phonology. 2025. Vol. 42. Article e15. DOI: https://doi.org/10.1017/S0952675725100122.

[2] Caverlé M. W. J., Vogel A. P. Stability, reliability, and sensitivity of acoustic measures of vowel space: A comparison of vowel space area, formant centralization ratio, and vowel articulation index // The Journal of the Acoustical Society of America. 2020. Vol. 148, No. 3. P. 1436–1444. DOI: https://doi.org/10.1121/10.0001931.

should not be treated as interchangeable.

2.2. Preliminary reduction classification. The earlier review classified seven observations as non-reduced and three as reduced. These labels are retained as preliminary classifications, not as final phonetic judgements. Reduction classification and measurement verification address different questions: a token may be linguistically classified while its boundaries or formant measurements remain uncertain.

2.3. Verification procedure. The proposed procedure uses Praat to inspect the waveform, spectrogram, and formant tracks[1]. It comprises six stages:

1. Source identification: match the observation to its original recording, transcript, and annotation.

2. Acoustic inspection: examine the waveform and spectrogram[2].

3. Boundary verification: confirm the beginning and end of the target vowel.

4. Formant inspection: assess F1 and F2 within the verified vowel interval[3].

5. Consistency checking: compare duration with timestamps when they describe the same interval.

6. Decision recording: document the verification status and evidence supporting the decision.

Five categories are used: VALID, when the measurement is supported by the acoustic evidence; RESEGMENT, when temporal boundaries require correction; REMEASURE, when acoustic measurements need to be repeated; EXCLUDE, when predefined inclusion criteria are not met; and PENDING, when evidence is insufficient for a reliable decision.

Original values should be retained, and any revised values should be recorded separately with an explanation. The present review does not report intra-rater or inter-rater reliability coefficients because repeated or independent measurements have not been completed.

3.1. Preliminary audit of the ten observations. Table 1 presents the initial acoustic values, preliminary reduction classification, and reason for selecting each observation for review.

Table 1. Initial acoustic measurements and preliminary classification

ID	Text code	Speaker	Word	Duration (ms)	F1 (Hz)	F2 (Hz)	Classification	Reason for review
OUT01	S1A-0012	A	so	400.000	472.097	1522.492	Non-reduced	At 400 ms limit
OUT02	S1A-0012	A	part	360.000	746.535	1621.773	Non-reduced	Long interval
OUT03	S1A-0012	D	like	384.579	496.160	1621.766	Non-reduced	Long interval
OUT04	S1A-0012	D	i	397.108	591.854	1574.716	Non-reduced	Near 400 ms limit
OUT05	S1A-0012	D	a	384.579	462.625	1898.272	Reduced	Long interval
OUT06	S1A-0012	E	half	370.642	575.304	1387.443	Non-reduced	Long interval
OUT07	S1B-0076	A	a	375.238	523.312	1639.756	Reduced	Long interval
OUT08	S1B-0076	B	is	400.000	706.395	1455.473	Non-reduced	At 400 ms limit
OUT09	S1B-0076	B	word	400.000	677.402	1697.253	Non-reduced	At 400 ms limit
OUT10	S1A-0062	A	for	190.000	361.887	2563.802	Reduced	F2 flagged for review

[1] Boersma P., Weenink D. Praat: Doing phonetics by computer [Computer software]. https://www.praat.org/

[2] Praat. Viewing a spectrogram. Praat Manual. https://praat.org/manual/Intro_3_1__Viewing_a_spectrogram.html.

[3] Praat. Formant. Praat Manual. https://praat.org/manual/Formant.html.

Seven observations were classified as non-reduced (OUT01, OUT02, OUT03, OUT04, OUT06, OUT08, and OUT09), while three were classified as reduced (OUT05, OUT07, and OUT10). This distribution describes only the selected observations and cannot be generalized to the full dataset because the sample was purposively selected for review.

3.2. Duration and processing-limit concerns. OUT01, OUT08, and OUT09 have recorded durations of exactly 400 ms, while OUT04 has a duration of 397.108 ms. These values raise the question of whether the duration field represents the target vowel, a larger annotation interval, or a processing constraint. The table alone does not establish the cause. The original audio, annotation boundaries, and extraction settings must be inspected before any value is revised.

Several other observations have recorded durations exceeding 350 ms. These intervals require checking to determine whether they represent the intended vowel, the whole word, or a wider speech segment. Long duration alone does not justify exclusion. The analyst must first establish the intended unit of measurement and confirm that the recorded interval corresponds to it.

3.3. Formant measurements and record consistency. OUT10 has an initial F1 value of 361.887 Hz and an F2 value of 2563.802 Hz. The F2 value requires closer inspection, but it does not automatically indicate an error. Formant frequencies vary with vowel identity, speaker characteristics, phonetic context, and recording conditions. The value should therefore be checked against the original recording, verified vowel boundaries, spectrogram, and formant tracks.

OUT03 and OUT05 share the same text code, speaker identifier, and recorded duration, although their target words and formant values differ. This correspondence does not prove that either observation is incorrect or duplicated. It does indicate that the original annotations should be checked to confirm that the records refer to distinct target intervals.

Duration values should also be compared with start and end timestamps when the fields describe the same interval. Any discrepancy should initially be treated as a consistency issue rather than automatically as evidence of a measurement error.

3.4. Verification status and methodological implications. All ten observations remain pending manual verification, and remeasurement has been recommended for each. The current review does not establish corrected measurements, final exclusions, or a confirmed measurement-error rate.

The audit highlights the importance of distinguishing a flagged value from a confirmed error. A value at a processing limit, a long interval, or an atypical formant estimate provides a reason for further investigation, but the final decision must be supported by the original acoustic evidence. The preliminary reduction classification must likewise remain separate from the verification status.

Preserving initial values and recording revisions in an audit trail supports transparency and reproducibility. The proposed workflow can help distinguish genuine phonetic variation from uncertainty introduced by segmentation or measurement. However, the ten selected observations cannot establish the prevalence of measurement errors in ICE-GB or general patterns of vowel reduction in British English.

This study presents a structured procedure for auditing acoustic measurements in research on British English vowel reduction. Ten observations were selected for further examination because of long recorded intervals, durations at or near a recorded 400 ms limit, or a formant value requiring additional inspection. The earlier review classified seven observations as non-reduced and three as reduced.

These classifications remain preliminary. All ten observations are pending manual verification, with remeasurement recommended. Consequently, the study does not claim that the measurements have been corrected or that any observation has been conclusively excluded.

The proposed procedure combines source identification, waveform and spectrogram inspection, vowel-boundary verification, formant review, consistency checking, and documentation of decisions. Retaining original values and recording any revisions separately provides a transparent basis for preparing a reliable dataset. Further work should complete manual verification against the original recordings and annotations and document the final decisions.

Reliable acoustic research requires not only numerical measurements but also a reproducible method for determining whether each measurement represents the intended phonetic event. The proposed audit framework provides a practical basis for improving data quality before statistical interpretation.

Rezyume. Maqolada Britaniya ingliz tilidagi unli tovushlar reduksiyasini o‘rganishda akustik o‘lchovlarni tekshirish usullari yoritilgan. O‘nta kuzatuvning dastlabki tasnifi va qo‘shimcha tekshirish zarurati ko‘rib chiqilgan.

Resume. The article examines methods for checking acoustic measurements in British English vowel reduction. Ten observations are preliminarily classified, and the need for further verification is highlighted.

Резюме. В статье рассматриваются методы проверки акустических измерений редукции гласных в британском английском языке. Представлена предварительная классификация десяти наблюдений и обоснована необходимость их дополнительной проверки.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK ADABIY TILIDA NUTQ USLUBLARI: FUNKSIONAL XUSUSIYATLAR VA QO‘LLANISH MEZONLARI

Qulbulov Sherquzi Toshtemirovich,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Til jamiyatda axborot almashish, bilim uzatish, hissiy munosabat bildirish va ijtimoiy tajribani avloddan avlodga yetkazishning asosiy vositasidir. Biroq til birliklari barcha muloqot vaziyatlarida bir xil qo‘llanmaydi: kundalik suhbatda tabiiy va ixcham ifoda, ilmiy matnda aniqlik va dalillanganlik, rasmiy hujjatda standartlik va bir ma’nolilik, badiiy matnda obrazlilik, publitsistik matnda esa axborot bilan ta’sirning uyg‘unligi talab etiladi. Demak, nutq uslublari tilning ijtimoiy vazifalari bilan uzviy bog‘liq hodisadir.

Mavzuning dolzarbligi o‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanish doirasi kengayib borayotgani bilan izohlanadi. 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmonda o‘zbek tilining jamiyat hayotining barcha sohalarida to‘laqonli qo‘llanishini ta’minlash vazifalari belgilangan bo‘lsa[1], 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmon bilan 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan til siyosati konsepsiyasi tasdiqlangan[2]. Bu vazifalar ta’lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va ish yuritishdagi matnlarning uslubiy me’yorlarga muvofiq tuzilishini taqozo etadi. Raqamli muloqot sharoitida esa so‘zlashuv unsurlari yozma matnlarga faol kirib, uslublar chegarasi xiralashmoqda.

Tadqiqot maqsadi o‘zbek adabiy tilidagi asosiy funksional uslublarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda matn uslubini belgilash mezonlarini aniqlashtirish bo‘lsa, tadqiqotnning obyektini funksional nutq uslublari, predmetini ularda qo‘llanadigan til birliklarining tanlanishi va vazifasi tashkil etadi.

Uslubiyatning mustaqil soha sifatida shakllanishi Sh. Balli nomi bilan bog‘liq: u til vositalarining hissiy-ta’siriy (affektiv) mazmunini o‘rganishni uslubiyatning asosiy vazifasi deb bilgan[3]. V.V. Vinogradov uslublarni tilning muloqot, xabar berish va ta’sir ko‘rsatish vazifalari bilan bog‘lagan[4] bo‘lsa, M.N. Kojina funksional uslubni ijtimoiy faoliyat sohasi bilan shartlangan nutq ko‘rinishi sifatida ta’riflab, ekstralingvistik omillarning hal qiluvchi rolini asoslagan[5]. R. Yakobson kommunikativ aktning har bir tarkibiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/acts/-4561730.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/5058375.

[3] Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1961.

[4] Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963.

[5] Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1977.

qismiga muayyan til vazifasini (emotiv, konativ, referentiv, poetik, fatik, metalingvistik) muvofiqlashtirgan[1], ya'ni matnda qaysi vazifa ustunligi uning uslubiy qiyofasini belgilaydi. M.A.K. Halliday esa registrni faoliyat sohasi (field), ishtirokchilar munosabati (tenor) va nutq shakli (mode) bilan belgilanadigan til varianti sifatida talqin qilgan[2].

O'zbek tilshunosligida badiiy nutq vositalariga oid dastlabki qarashlar A.Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarida bayon etilgan[3]. Uslubiyatning tizimli tavsifi A.Shomaqsudov va hammualliflarning "O'zbek tili stilistikasi" kitobida berilgan[4]. R.Qo'ng'urov tasviriy vositalarni[5], M.Mukarramov ilmiy uslubni[6], M.Yo'ldoshev badiiy matn lingvopoetikasini[7] maxsus tadqiq etgan. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev[8] va N. Mahmudov[9] uslub tanlashni nutq madaniyati bilan bog'lab talqin qiladi. So'nggi yillarda nutq uslublari umumiy tavsif doirasida[10], ilmiy uslub esa alohida[11] o'rganilgan, "stil" va "uslub" atamalari qiyoslangan[12].

Adabiyotlarda atamalar masalasida yakdil fikr yo'q. Mazkur maqolada "funksional uslub" va "nutq uslubi" adabiy tilning muayyan ijtimoiy vazifa bilan shartlangan, matnda voqelanadigan ko'rinishi ma'nosida sinonim sifatida qo'llanadi. Epistolyar nutqni alohida uslub yoki mavjud uslublar doirasidagi janrlar majmuii deb baholash masalasida ham turli qarashlar mavjud. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat ishlarda uslublar alohida tavsiflanadi, uslubni belgilash mezonlarining majmuiy tizimi va bir mazmunni turli uslublarda qayta ifodalash orqali qiyosiy tahlil yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, kontekstual-funksional va transformatsion usullardan foydalanildi. Illyustrativ material sifatida badiiy, publitsistik, ilmiy va idoraviy matnlar hamda kundalik muloqot namunalari jalb etildi. Tahlil birligi sifatida butun matn va uning tarkibidagi uslubiy xoslangan birliklar olindi. Transformatsion tahlil uchun muallif model matnlar tuzdi: bir propozitsional mazmun besh uslubda qayta ifodalanib, farqlar leksik, morfologik va sintaktik sathlarda hamda pragmatik jihatdan qiyoslandi.

Uslub tushunchasi va uni belgilash mezonlari. Uslubiyat til birliklarining ifoda imkoniyatlarini hamda ularni muloqot sharoitiga mos qo'llash qonuniyatlarini o'rganadi. Uslub esa til vositalarining muayyan kommunikativ vazifa, ijtimoiy soha va nutqiy vaziyatga bog'liq holda tanlanishi va birikishi natijasida shakllanadigan nutq ko'rinishidir. O'zbek tilshunosligida so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublar farqlanadi[13]. Matn uslubini belgilashda quyidagi mezonlar birgalikda hisobga olinadi: muloqot maqsadi; adresat va uning tayyorgarlik darajasi; nutq shakli (og'zaki yoki yozma, dialogik yoki monologik); til vositalari tanlovi; janr. Bu mezonlar Hallidayning registr parametrlariga mos keladi[14]: maqsad va janr faoliyat sohasiga, adresat munosabati tenorga, nutq shakli esa mode parametriga taalluqli. Bitta termin yoki hissiy birlikka qarab uslubni belgilash ko'pincha xato xulosaga olib keladi.

So'zlashuv uslubi. So'zlashuv uslubi norasmiy muloqotga xos bo'lib, fikrni tez va bevosita yetkazishga xizmat qiladi. Unda dialogik shakl, to'liqsiz gaplar, undalmalar, his-hayajon birliklari faol qo'llanadi; ma'no anglanishida ohang, imo-ishora va vaziyat muhim rol o'ynaydi. Masalan, chiptaxonadagi *"Beshinchidan ikkita"* so'rovi (*"Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering"*) vaziyat tufayli to'la anglashiladi: ellipsis suhbatdoshlarning umumiy bilimi tufayli kommunikativ jihatdan oqlangan. Uslub ichida adabiy so'zlashuv va talaffuz, so'z shakli hamda gap tuzilishi erkinroq bo'lgan oddiy so'zlashuv farqlanadi. Fonetik jihatdan tovush tushishi (*bo'lmasa – bo'masa*), leksik jihatdan frazeologizmlar (*og'zi qulog'ida*), morfologik jihatdan *-ku, -da, -chi* yuklamalari va kesimning qis-

[1] Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics // Style in Language / ed. by T.A. Sebeok. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1960. – P. 350–377.

[2] Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. – London: Edward Arnold, 1978.

[3] Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

[4] Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

[5] Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.

[6] Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent: Fan, 1984.

[7] Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2007.

[8] Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

[9] Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

[10] Soyipov S.N. O'zbek tilining nutq uslublari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, № 18 (Special). – B. 376–379.

[11] Aralova M. Nutq uslublari va ilmiy uslubga xos xususiyatlar // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, № 5. – B. 179–183.

[12] Xolmatov Sh.Z., Xolmatova D.M. Ingliz va o'zbek tilshunosligida stilistika va stil atamalari xususida // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Vol. 3, № 5. – B. 160–165.

[13] Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009; Shomaqsudov A. va boshq. Ko'rsatilgan asar.

[14] Halliday M.A.K. Op. cit.

qargan shakllari (*kevotti*) xarakterlidir. Biroq erkinlik adabiy me'yorlarni inkor etish degani emas[1].

Badiiy uslub. Badiiy uslubning yetakchi vazifasi voqelikni obrazlar orqali aks ettirish va estetik ta'sir ko'rsatishdir; metafora, o'xshatish, jonlantirish, epitet, mubolag'a va sintaktik figuralar muallif niyatiga ko'ra tanlanadi[2]. Masalan, *"tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi"* ifodasida fasl almashinuvi jonlantirish orqali hissiy-ko'rgazmali beriladi, *"ko'ngillarni qitiqlay boshladi"* birikmasi esa quvonch hissini bevosita nomlamasdan, obraz orqali yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda muallif idiostili namoyon bo'ladi[3]; u boshqa uslublarga xos birliklarni ham singdirib, ularni qahramon nutqini individuallashtirish yoki kinoya yaratishga bo'ysundiradi. Shu bois har bir vositaning kontekstdagi vazifasini aniqlash zarur bo'ladi.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslubning asosiy belgilari – terminologik aniqlik, izchil ta'rif, mantiqiy aloqa, xolislik va dalillangan xulosa[4]. Leksikada soha terminlari (*leksema, sema, denotat*) yetakchi, biroq terminning o'zi matnni ilmiy qilmaydi: u o'rinli qo'llanishi va izohlanishi kerak. Morfologik jihatdan harakat nomlari (*tahlil qilish*), majhul nisbat (*aniqlandi, ko'rib chiqiladi*), kamtarlik ma'nosidagi "biz" shakli, ta'rif gaplardagi *-dir* kesimlik ko'rsatkichi xarakterli hisoblanadi. Sintaktik jihatdan sabab-oqibat qo'shma gaplari va mantiqiy bog'lovchilar (*demak, binobarin, natijada*) fikr izchilligini ta'minlaydi. Uslub ichida sof ilmiy, ilmiy-o'quv va ilmiy-ommabop ko'rinishlar farqlanadi; maqola, dissertatsiya, monografiya va darslik uning asosiy janrlaridir. Ilmiy matnning ishonchliligi manbalarni aniq ko'rsatish, fakt bilan muallif talqinini farqlash va xulosani dalildan kelib chiqib chiqarish bilan ta'minlanadi.

Publitsistik uslub. Publitsistik uslubda axborot berish va ta'sir ko'rsatish vazifalari uyg'unlashadi. V.G. Kostomarov gazeta tilining konstruktiv tamoyili sifatida standart va ekspressiya almashinuvini ko'rsatgan[5]. Leksikada ijtimoiy-siyosiy so'zlar (*islohot, tashabbus*) va klishelar (*dolzarb masala, keng jamoatchilik*), sintaksisda ritorik so'roq, undov, takror va parsellyatsiya faol ishlatiladi. Masalan, sportning jamiyatdagi o'rni haqidagi maqolada sog'lom turmush tarzi haqidagi axborot muayyan ijtimoiy qadriyatni targ'ib qilish bilan uyg'unlashadi. Biroq ta'sirchanlik faktlarni buzish hisobiga yuzaga kelmasligi lozim: yangilik janrida xolislik ustuvor bo'lib qolishi talab qilinadi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Rasmiy-idoraviy uslubning bosh vazifasi huquqiy va tashkiliy munosabatlarni tartibga solishdir; uning ichida qonunchilik va idoraviy ish yuritish matnlari farqlanadi. Unda qoliplashgan birikmalar (*qaror qilinsin, ijrosi ta'minlansin, belgilangan tartibda*), buyruq-istak maylining III shaxs shakli va majhul nisbat topshiriqni shaxsga emas, institutsional vazifaga yo'naltiradi. Hujjat belgilangan kompozitsiyaga bo'ysunadi; noaniq olmoshlar va ekspressiv birliklar uning amaliy qiymatini pasaytiradi. Rasmiylikni ortiqcha uzun jumlalar bilan tenglashtirish ham noto'g'ri: hujjat imkon qadar lo'nda va tushunarli bo'lishi lozim.

Uslublarning qiyosiy tavsifi. Funksional uslublarning asosiy belgilari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Funksional uslublarning asosiy belgilari

Uslub	Asosiy maqsad	Yetakchi belgilar
So'zlashuv	Bevosita muloqot	Tabiiylik, dialogiklik, vaziyatga bog'liqlik, ellipsis
Badiiy	Obraz yaratish, estetik ta'sir	Ko'chma ma'no, tasviriy vositalar, idiostil
Ilmiy	Bilimni asosli bayon qilish	Terminlar, ta'rif, mantiqiylik, xolislik
Publitsistik	Axborot va jamoatchilikka ta'sir	Dolzarblik, baholash, standart va ekspressiya
Rasmiy-idoraviy	Munosabatlarni tartibga solish	Qoliplashgan ifoda, bir ma'nolilik, lo'ndalik

[1] Mahmudov N. Ko'rsatilgan asar; Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Ko'rsatilgan asar.
[2] Qo'ng'urov R. Ko'rsatilgan asar.
[3] Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan asar.
[4] Aralova M. Ko'rsatilgan asar; Mukarramov M. Ko'rsatilgan asar.
[5] Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – М.: Изд-во МГУ, 1971.

Uslubiy farqlarni ko‘rsatish uchun “ertaga havo keskin soviydi” mazmuni besh uslubda qayta ifodalandi (2-jadval).

2-jadval

Bir mazmunning turli uslublarda ifodalanishi

Uslub	Ifoda	Uslubiy belgilar
So‘zlashuv	Ertaga qattiq sovuq bo‘larkan, issiqroq kiyinib ol.	Eshitilganlik shakli (*-arkan*), buyruq mayli, bevosita murojaat
Rasmiy-idoraviy	Havo harorati keskin pasayishi kutilayotganligi munosabati bilan ertangi kundan ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlar soat 9:00 dan boshlansin.	Qolip birikma, buyruq-istak mayli III shaxsi, aniq vaqt
Ilmiy	Shimoldan kirib kelayotgan sovuq havo massasi ta’sirida sutkalik o‘rtacha harorat 8–10 °C ga pasayishi kutilmoqda.	Terminlar, sabab-oqibat, miqdoriy ko‘rsatkich, shaxssiz bayon
Publitsistik	Kuz o‘z kuchini ko‘rsatmoqda: ertadan harorat keskin pasayadi. Isitish tizimi bunga tayyormi?	Metafora, ritorik so‘roq, dolzarblik
Badiiy	Ertaga shimoldan muzdek shamol kelib, bog‘lardagi so‘nggi oltin yaproqlarni ham to‘kib ketadi.	Jonlantirish, epitet, obrazli tasvir

Mazmun o‘zgarmagan holda til vositalari tanlovi keskin farqlanadi. So‘zlashuv variantida *-arkan* shakli eshitilgan axborotni, *kiyinib ol* esa yaqin munosabatdagi murojaatni ifodalaydi. Rasmiy variantda havo sovishi asoslovchi qismga o‘tib, tashkiliy qaror (*boshlansin*) asosiy mazmunga aylanadi. Ilmiy variant terminlar, miqdoriy ko‘rsatkich va majhul *kutilmoqda* shakli bilan, publitsistik variant metafora va ritorik so‘roq bilan, badiiy variant esa jonlantirish orqali axborotni estetik tasvirga aylantirishi bilan ajralib turadi.

Natijalar uslublararo farqlarni mutlaq chegara emas, yetakchi tendensiya sifatida tushunish zarurligini tasdiqlaydi. Uslubiy betaraf birliklar (*inson, kitob, ish*) barcha uslublarda qo‘llanadi, uslubiy xoslangan birliklar esa matnning uslubiy qiyofasini shakllantiradi. Bir birlikning uslubiy qiymati kontekstga ko‘ra o‘zgarishi ham mumkin: *qaror* so‘zi kundalik nutqda “qat’iy niyat”, rasmiy matnda esa hujjat turi nomini bildiradi. Boshqa uslubga xos unsurlar matnning mansubligini avtomatik o‘zgartirmaydi: terminlarga boy, ammo me’yoriy majburiyatni ifodalovchi matn rasmiy uslubga mansub bo‘ladi. Demak, mansublikni yetakchi kommunikativ vazifa belgilaydi – bu M.N. Kojina va R. Yakobson qarashlariga mos keladi[1].

Badiiy uslubning maqomi bahsli bo‘lib qolmoqda: M.N. Kojina uni funksional uslublar qatoriga kiritsa[2], D.N. Shmelev badiiy til har qanday vositani estetik maqsadga bo‘ysundira olgani uchun uni boshqa uslublar bilan bir qatorga qo‘yib bo‘lmasligini ta’kidlagan[3]. Bizningcha, besh uslubli tasnif[4] amaliy jihatdan maqbul, biroq badiiy uslubni “ochiq” tizim sifatida talqin qilish lozim.

Raqamli muloqotdagi uslublar aralashuvi alohida e’tiborni talab etadi. Messenjer va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar shakl jihatidan yozma, qurilish jihatidan esa so‘zlashuv nutqiga yaqin bo‘ladi. Bunday matnlar uslubiy tasnifni inkor etmaydi, balki nutq shakli mezonining nisbiyligini ko‘rsatadi. Biroq bu holat rasmiy yozishmalarda so‘zlashuv unsurlarining asossiz qo‘llanishiga asos bo‘la olmaydi.

Uslub tanlash nutq madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib[5], uslubiy kompetensiya matnlarni qiyoslash, uslubiy xoslangan birliklarni aniqlash va bir mazmunni turli adresatlar uchun qayta ifodalash mashqlari orqali shakllanadi. 2-jadvaldagi transformatsion topshiriq bunday mashqlar uchun samarali namuna bo‘la oladi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. O‘zbek adabiy tilidagi nutq uslublari tilning ijtimoiy vazifalari bilan bog‘liq yaxlit tizim bo‘lib, ular maqsad, adresat, matn tuzilishi va til vositalarini tanlash mezonlari bilan farqlanadi; uslubiy belgilar mutlaq chegara emas, balki yetakchi tendensiyadir.

2. Matn uslubini belgilashda yagona til belgisiga emas, mezonlar majmuyiga tayanish lozim, chunki

[1] Кожина М.Н. Указ. соч; Jakobson R. Op. cit.
[2] Кожина М.Н. Указ. соч.
[3] Шмелев Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – М.: Наука, 1977.
[4] Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Ko‘rsatilgan asar; Shomaqsudov A. va boshq. Ko‘rsatilgan asar.
[5] Mahmudov N. Ko‘rsatilgan asar; Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Ko‘rsatilgan asar.

uslubiy mansublikni matnning yetakchi kommunikativ vazifasi belgilaydi, uslublararo unsurlar esa shu vazifaga xizmat qiladi yoki bo‘ysunadi.

3. Bir mazmunni turli uslublarda qayta ifodalash uslubiy farqlarni til sathlarida yaqqol ko‘rsatadi, shu bois transformatsion topshiriqlar ona tili va nutq madaniyati ta’limida uslubiy kompetensiyani oshirishga xizmat qiladi.

Rezyume. Maqolada o‘zbek adabiy tilidagi funksional nutq uslublarining mohiyati, tasnifi va kommunikativ vazifalari jahon va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar asosida tahlil qilingan. Besh asosiy uslubning leksik, morfologik, sintaktik belgilari va pragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektda o‘rganilib, matn uslubini belgilashda yagona til belgisiga emas, balki muloqot maqsadi, adresat, nutq shakli, janr va til vositalari tanlovidan iborat mezonlar majmuiga tayanish zarurligi asoslangan. Bir propozitsional mazmunni besh uslubda qayta ifodalash misolida uslubiy farqlarning til sathlarida namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Resume. The article analyses the nature, classification and communicative functions of the functional styles of the Uzbek literary language in the light of world and Uzbek linguistic theory. Five basic styles are compared in terms of their lexical, morphological, syntactic and pragmatic features. It is argued that the style of a text is determined not by a single linguistic marker but by a set of criteria: communicative purpose, addressee, form of speech, genre and selection of language means. The transformation of one message into five styles shows how stylistic differences manifest themselves at various levels of language.

Резюме. В статье на основе теоретических положений мировой и узбекской лингвистики анализируются сущность, классификация и коммуникативные функции функциональных стилей узбекского литературного языка. Пять основных стилей сопоставляются по лексическим, морфологическим, синтаксическим и прагматическим признакам; обосновывается, что стиль текста определяется не отдельным языковым признаком, а совокупностью критериев: целью общения, адресатом, формой речи, жанром и отбором языковых средств. На примере трансформации одного содержания в пять стилей показано проявление стилистических различий на разных уровнях языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUAMMOLI MAQOLADA FAKTLARDAN FOYDALANISH TARTIBI

Tojiyeva Dildora Komiljon qizi,
Termiz davlat universiteti
amaliy o'zbek tili va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

Muammoli maqola nomining o'ziyoq ushbu janrning murakkabligini anglatadi. Matbuotda jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi mavjud muammo yoki kamchiliklarni ko'tarib chiqadigan maqolalarga nisbatan «muammoli maqola» atamasi qo'llanadi. Shu sababli mazkur janrning mohiyatini anglash, avvalo, «muammo» tushunchasining mazmunini aniqlashni taqozo etadi. F.A. Brokgauz va I.A. Efron ensiklopedik lug'atida «muammo» tushunchasi turli xil yechimga ega bo'lgan ilmiy savol sifatida ta'riflanadi[1]. «Qisqa Rossiya ensiklopediyasi»da esa muammo keng ma'noda o'rganish, tadqiq etish va yechim topishga undovchi nazariy yoki amaliy savol sifatida izohlanadi[2].

Jurnalistikada muammo jurnalist asarining asosini tashkil etuvchi muhim unsurlardan biridir. U mavzu kabi asarning asosiy maqsadiga erishishga xizmat qiladi hamda voqelikning noma'lum yoki yetarlicha o'rganilmagan jihatlari to'g'risidagi ma'lumotni ifodalaydi. Shu bois jurnalistik asardagi muammo ijtimoiy ahamiyat kasb etib, ijtimoiy taraqqiyotdagi ziddiyatlarni aks ettiradi.

Gazeta janrlari, xususan, maqola janrining nazariy masalalari G.Ya. Solganik, A.A. Tertichniy kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan[3]. Biroq muammoli maqolada faktdan foydalanish tartibini milliy va xorijiy nashrlar materiallari asosida qiyosiy o'rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – «Hurriyat» va *The New York Times* gazetalari materiallari misolida muammoli maqolada faktlarni tanlash, joylashtirish va ulardan muallif fikrini asoslash vositasi sifatida foydalanish tartibini aniqlash. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob izlanadi: muammoli maqolada fakt qanday funksiyalarni bajaradi? O'zbek va amerikan matbuotida faktni taqdim etish uslubi qanday farqlanadi? Faktlardan samarali foydalanishning shartlari nimalardan iborat?

Tadqiqot materiali sifatida «Hurriyat» gazetasining 2015–2016-yillardagi sonlarida e'lon qilingan «Onalar mas'uliyati» va «Suvda atom bormi?» maqolalari hamda *The New York Times* gazetasida 2017-yil 9-martda chop etilgan «Trump and Russia: Connecting the Dots» materiali tanlandi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, matn tahlili, tavsifiy hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usul ikki nashrdagi faktni taqdim etish uslubini solishtirish imkonini bergan bo'lsa, matn tahlili orqali faktlarning maqola tarkibidagi o'rni va funksiyasi aniqlandi.

O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi muassisligidagi «Hurriyat» gazetasi 1996-yil dekabr oyidan nashr etila boshlagan. 2007-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida 0080-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. «Mustaqil gazeta» nomi bilan faoliyat yurituvchi nashr haftaning chorshanba kunlari chop etilib, ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy mavzularni yoritadi. Gazetada «Vatan siyrati», «Jarayon», «To'rtinchi hokimiyat», «Biz va dunyo», «Nigoh», «Ko'ngil gulshani», «Qadriyatlarimiz» kabi doimiy sahifalar mavjud. Muammoli maqolalar asosan «Nuqtayi nazar», «Gap egasini topadi», «Sharh o'rnida», «Ochiq gap», «Jamoatchilik nazorati» kabi ruknlar ostida e'lon qilinadi.

The New York Times – Nyu-Yorkda 1851-yil 18-sentabrdan boshlab nashr etib kelinayotgan kundalik gazeta bo'lib, AQShdagi eng yirik va nufuzli nashrlardan biri hisoblanadi. Dastlab hududiy nashr sifatida faoliyat yuritgan gazeta keyinchalik umummilliy, so'ng xalqaro miqyosdagi nufuzli nashrga aylangan. Gazetaning deyarli har bir sonida siyosiy va ijtimoiy muammolarni yorituvchi maqolalarga o'rin beriladi. Shu jihatdan u muammoli maqolada faktlardan foydalanish uslubini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Muammoli maqolaning asosiy talablari. Odat-

[1] Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А. Энциклопедический словарь. – СПб.: Брокгауз–Ефрон, 1890–1907. – Т.7. – С. 18.
[2] Краткая российская энциклопедия: в 3 т. – М.: Большая Российская энциклопедия; Оникс 21 век, 2003. – Т. 9. – С. 27.
[3] Солганик Г.Я. Стилистика текста. – М.: Флинта; Наука, 1997. – С. 33; Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 11.

da «muammo» so‘zining o‘zi kishida salbiy taassurot uyg‘otishi mumkin. Shu sababli uni o‘rganish jarayonida faqat salbiy jihatlarga e’tibor qaratish xavfi mavjud. Vaholanki, muammo har doim ham faqat salbiy hodisa emas: uni aniqlash va hal etish, eng avvalo, rivojlanishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Muammoli maqolalar an’anaviy tarzda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1) muayyan me’yor yoki holatning o‘sha davrning ijtimoiy-tarixiy, siyosiy va iqtisodiy voqeligiga mos kelmayotgani haqida axborot berish;

2) ko‘tarilgan muammoni hal qilish muhimligini asoslash;

3) muammoni hal etishning mumkin bo‘lgan choralari va yo‘llarini ko‘rsatish.

G.Ya. Solganik qarashlariga ko‘ra, muammoli maqola yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsad jamiyatning muayyan sohasi yoki jabhasidagi mavjud muammoga keng jamoatchilik e’tiborini qaratishdan iborat[1]. Bunda jurnalistdan nafaqat muammoni ko‘rsatish, balki uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, oqibatlarini tahlil qilish va imkon qadar konstruktiv yechimlarni taklif etish talab qilinadi.

Fakt va statistik ma’lumotlardan foydalanish. Muammoli maqolalarda ko‘p qo‘llanadigan faktlardan biri statistik ma’lumotlardir. Ba’zi jurnalistlar maqolada qancha ko‘p dalil keltirilsa, material shunchalik ishonchli bo‘ladi, degan qarashga ega. Biroq statistik ma’lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi matnning mazmuniy yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim muammoli maqolalarda statistik raqamlar shu qadar ko‘p beriladiki, o‘quvchi ularni o‘zlashtirishda qiynaladi. Shu sababli statistik ma’lumotlardan foydalanishda, avvalo, ularning manbasini ko‘rsatish, keyin esa maqolaning asosiy g‘oyasiga bevosita xizmat qiladigan raqamlarni tanlash maqsadga muvofiq. Har qanday faktni o‘rni bo‘lsa-bo‘lmasa matnga kiritish to‘g‘ri emas, chunki ma’lumot va tafsilotlarning haddan tashqari ko‘pligi o‘quvchini chalg‘itishi, dastlabki g‘oyadan uzoqlashtirishi va maqolaning ta’sirchanligini pasaytirishi mumkin. Demak, faktlardan unumli foydalana olgan jurnalist o‘z asarining mazmuniy va mantiqiy jihatdan muvaffaqiyatli chiqishi uchun muhim zamin yaratadi.

Muammoli maqolada faktning funksiyasi. Muammoni voqelikdan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan jurnalistik muammoni ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq. Muammoli maqola ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotning turli sohalaridagi dolzarb amaliy masalalarga qaratiladi. Ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, madaniyat, fan, ta’lim, moliya va boshqa sohalardagi muammolar shular jumlasidandir. Maqola muayyan muammoni ko‘tarish, undan jamoatchilikni xabardor qilish, muammoni keltirib chiqargan sabablar va uning oqibatlarini ko‘rsatish bilan birga, unga yechim topish vazifasini ham qo‘yadi. Jurnalistning dastlabki vazifasi muammoning mavjudligini ko‘rsatish bo‘lsa, keyingi vazifasi uni keltirib chiqargan sabab va omillarni aniqlash hamda yechim izlashdan iborat. Har ikki bosqichda ham fakt muallif fikrini asoslovchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

The New York Times misolida faktning qo‘llanilishi. O‘zbek matbuotidagi muammoli maqolalarda mavzuni ochib berishda jurnalistning shaxsiy fikri, tushuntirish va izohlari ko‘p uchraydi. G‘arb jurnalistikasida esa ko‘pincha boshqa yondashuv kuzatiladi: jurnalist ayrim hollarda bitta fakt yoki statistik ma’lumot orqali kengroq fikrni ifodalash imkoniyatidan foydalanadi. *The New York Times* gazetasida 2017-yil 9-martda e’lon qilingan «Trump and Russia: Connecting the Dots» maqolasi bunga misol bo‘la oladi[2]. Mazkur materialda Donald Tramp va uning atrofidagilarning Rossiya bilan aloqalari yuzasidan turli savollar ko‘tarilgan. Muallif o‘z fikrini asoslash uchun bir qator faktlarga murojaat qiladi: Tramp va uning atrofidagilar Rossiya bilan aloqalarini rad etgani, shu bilan birga, Tramp atrofidagi ayrim shaxslarning Rossiya mansabdor shaxslari bilan aloqalari haqida ma’lumotlar mavjudligi qayd etiladi.

Bu yerda faktning muhim xususiyati shundaki, u muallifning fikrini bevosita aytib bermaydi, balki o‘quvchini muayyan xulosaga kelishga undovchi dalilliy material vazifasini bajaradi. Maqolada keltirilgan «Trump Organization» kompyuter serverlari va Rossiyaning «Alfa-Bank»i o‘rtasidagi aloqa haqidagi ma’lumot ham faktning jamoatchilik e’tiborini muayyan masalaga yo‘naltirishdagi imkoniyatini ko‘rsatadi.

«Hurriyat» gazetasi misolida faktlardan foydalanish. «Hurriyat» gazetasining 2015-yil 11-noyabr sonida chop etilgan «Onalar mas’uliyati» maqolasida muallif farzandlarning ota-ona mehri va tarbiyasidan yetarlicha bahra olmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolarga to‘xtaladi[3]. Voqelikka munosabatini asoslash maqsadida muallif psixologiya fanlari nomzodi N. Shomurodovaning fikrini keltiradi: *«Besh yoshgacha bo‘lgan bola faqat onasi yonidagina o‘zini bexavotir, emin-erkin his qiladi. Inson xarakter xususiyatlaridagi sifatlarning poydevori shu davr oralig‘ida qo‘yiladi».*

[1] Солганик Г.Я. Указ. соч. – С. 55.
[2] Trump and Russia: Connecting the Dots // The New York Times. – 2017. – March 9.
[3] Onalar mas’uliyati // Hurriyat. – 2015. – 11 noyabr.

Maqola ta’sirchanligini oshirish uchun jurnalist anonim respondent fikridan ham foydalanadi: *«Birinchi marta o‘n sakkiz yoshimda narkotik iste’mol qilganman, – deydi yigirma besh yoshlardagi yigit. – Giyohvand moddalar bilan shug‘ullanuvchilar puli, imkoniyati borlarni va aynan men kabi irodasi bo‘shlarni tanlar ekan. Avvaliga chekib ko‘r deb bizga bepul berishardi. Yetti kishi edik. Hech birimiz bu darddan qutula olmadik...».*

Ushbu misoldan ko‘rinadiki, jurnalist muammoning ijtimoiy mohiyatini ochib berish uchun ekspert fikri va hayotiy tajribaga asoslangan anonim respondent fikrini birgalikda qo‘llagan. Biroq bunday uslubda jurnalistning o‘quvchiga tayyor xulosani singdirib qo‘yish xavfi mavjud. Shu sababli muammoli maqolada faktlarni tanlash bilan birga, ularning taqdim etilish usuliga ham alohida e’tibor berish zarur.

X. Mamatovning «Hurriyat» gazetasining 2016-yil 10-fevral sonida e’lon qilingan «Suvda atom bormi?» sarlavhali maqolasi ham faktlardan foydalanish nuqtayi nazaridan e’tiborga loyiq[1]. Muallif bugungi kunda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan suv tanqisligi muammosini ko‘taradi va o‘z fikrini asoslash uchun bir qator faktlarga murojaat qiladi: *«Masalan, Mendeleyev davriy sistemasidagi boshqa biror modda suv singari uch xil ko‘rinish xususiyatiga ega emas ekan. Haqiqatan ham suv tabiatda suyuq, gaz va qattiq kristall holatida namoyon bo‘ladi».*

Maqolada muallifning o‘zi guvoh bo‘lgan voqeaga oid fakt ham keltiriladi: *«Qish qattiq kelib, sovuq zabtiga olgan 2008-yili bir qator isitish tarmoqlari ishdan chiqqaniga ko‘plarimiz guvohmiz. Ichida suv muzlab qolgan quvurlar, isitish moslamalari tars-tars yorilib ketgan edi o‘shanda».*

Mazkur misollar jurnalist faktlardan turli funksiyalarda foydalanishini ko‘rsatadi: birinchi fakt mavzuning ilmiy jihatini tushuntirsa, ikkinchisi muammoni hayotiy voqea bilan bog‘laydi.

Mulohaza, tezis va dalillar. Muammoli maqolaning o‘ziga xos jihatlaridan biri bayonning mantiqiyligidir. Uning asosida bosh tezisni isbotlovchi mulohazalar yotadi. Maqola deduktiv – asosiy tezisdan dalillarga, shuningdek, induktiv – alohida fakt va ishoralardan umumiy xulosaga yo‘nalgan mulohaza ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ilmiy maqoladagi mulohazadan farqli ravishda, gazeta maqolasidagi mulohaza hissiy-emotsional xususiyat kasb etishi va o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Faktologik dalillar sifatida voqealarning turli epizodlari, qisqa intervyular va statistik ma’lumotlardan foydalanish mumkin. Maqolada keltirilayotgan faktlar, statistik ma’lumotlar, mulohaza va xulosalar bosh fikrni izchil rivojlantirib borishi kerak. Faktning vazifasi faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi: u maqoladagi asosiy fikrni rivojlantiruvchi tayanch nuqta sifatida ham xizmat qiladi.

Muallif «men»i va obyektivlik. Muammoli maqolaning muhim xususiyatlaridan biri muallif «men»ining namoyon bo‘lishidir. Muallif mavzuni tanlashning o‘zi bilan ma’lum darajada shaxsiy pozitsiyasini namoyon etadi. Shu bilan birga, muammoli maqolada obyektivlik va xolislik muhim o‘rin tutadi. Muallif muammoga nisbatan o‘z fikri va munosabatini bildirishga qanchalik urinmasin, tahlilning asoslanganligi va xolisligi uning shaxsiy hissiyotlaridan ustun turishi lozim. Muallif «men»i tanlangan mavzu, ma’no kuchaytiruvchi so‘zlar, muayyan fakt va dalillarga murojaat qilish, muammoning konstruktiv yechimini izlash hamda maqolaning o‘ziga xos uslubida namoyon bo‘ladi.

Jurnalist muammoning turli jihatlarini tasdiqlovchi faktlarni to‘playdi. Ularning o‘zaro taqqoslanishi bayonning dinamikligini ta’minlaydi. Biroq asosiy maqsad faktlarni qarama-qarshi qo‘yishning o‘zi emas, balki ularni umumlashtiruvchi fikr asosida birlashtirish, jamoatchilik uchun muhim masalani ishlab chiqish va konstruktiv yechim taklif qilishdan iborat.

Qiyosiy tahlil natijalari. Tahlil qilingan materiallarda faktni taqdim etish uslubidagi asosiy farqlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Muammoli maqolada faktni taqdim etish uslubi (qiyosiy tahlil natijalari)

Mezon	«Hurriyat»	*The New York Times*
Fakt turlari	Ekspert fikri, anonim respondent fikri, muallifning shaxsiy guvohligi, ilmiy ma’lumot	Hujjatli ma’lumotlar, shaxslar va tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalar haqidagi faktlar
Muallif pozitsiyasining ifodalanishi	Ochiq: jurnalistning shaxsiy fikri, izoh va tushuntirishlari ko‘p	Bilvosita: pozitsiya faktlarni tanlash va joylashtirish orqali ifodalanadi
Xulosaning berilishi	Ko‘pincha o‘quvchiga tayyor xulosa taqdim etiladi	Xulosa chiqarish asosan o‘quvchiga qoldiriladi

[1] Mamatov X. Suvda atom bormi? // Hurriyat. – 2016. – 10 fevral.

Mezon	«Hurriyat»	*The New York Times*
Faktning asosiy funksiyasi	Muallif fikrini tasdiqlash, maqola ta'sirchanligini oshirish	O'quvchini muayyan xulosaga yo'naltiruvchi dalil

Olingan natijalar jurnalistika nazariyasida maqola janri uchun asosiy belgi sifatida qayd etilgan mantiqiy-dalilli bayon tamoyilini tasdiqlaydi: har ikki nashrda ham fakt tezisni asoslovchi dalil vazifasini bajaradi. Farq esa faktning qanday taqdim etilishida ko'rinadi: «Hurriyat» materiallarida fakt muallif izohi bilan birga keladi va xulosa ochiq ifodalanadi, *The New York Times* materialida esa muallif pozitsiyasi asosan faktlarni tanlash va joylashtirish orqali bilvosita ifodalanadi.

Tadqiqot natijalari kirish qismida qo'yilgan savollarga quyidagicha javob berish imkonini beradi.

Birinchidan, muammoli maqolada fakt shunchaki axborot emas, balki muallif fikrini rivojlantiruvchi, tezisni asoslovchi va o'quvchini muammoning mohiyatini anglashga yo'naltiruvchi dalil vazifasini bajaradi. Tahlil qilingan materiallarda faktning tushuntiruvchi (mavzuning ilmiy jihatini ochish), tasdiqlovchi (ekspert fikri), ta'sir ko'rsatuvchi (respondent fikri, shaxsiy guvohlik) va yo'naltiruvchi (o'quvchini xulosaga undash) funksiyalari aniqlandi.

Ikkinchidan, «Hurriyat» va *The New York Times* materiallarini qiyosiy kuzatish shuni ko'rsatadiki, faktning taqdim etilish uslubi milliy jurnalistika an'analari, tahririyat siyosati, auditoriya xususiyatlari va jurnalistik maktab bilan chambarchas bog'liq. O'zbek matbuotida muallif izohi va tayyor xulosa ustunlik qilsa, amerikan matbuotida muallif pozitsiyasi ko'proq faktlarning o'zi orqali ifodalanadi.

Uchinchidan, faktlardan samarali foydalanish uchun jurnalist avvalo muammoni aniq belgilashi, keyin uning sabab va oqibatlarini o'rganishi, ishonchli faktlarni to'plashi, manbasini ko'rsatishi, ularni saralashi va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilishi lozim. Faqat shundagina faktlar maqolaning tashqi bezagi emas, balki uning ilmiy-mantiqiy va publitsistik asosiga aylanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada muammoli maqola janrining o'ziga xos xususiyatlari, unda faktlardan foydalanish tartibi, fakt va statistik ma'lumotlarning jurnalistik matndagi vazifasi tahlil qilinadi. O'zbekistonning «Hurriyat» hamda AQShning *The New York Times* gazetalari materiallari misolida faktlarni tanlash, saralash, joylashtirish va ulardan muallif fikrini asoslash vositasi sifatida foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, muammoli maqolaning mantiqiy qurilishi, tezis va dalillarning o'zaro munosabati, muallif «men»i va obyektivlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Resume. The article examines the specific features of the problem article genre and the procedure for using facts in it. Based on materials from the Uzbek newspaper «Hurriyat» and the American newspaper *The New York Times*, the study analyses how facts and statistical data are selected, arranged and used to substantiate the author's position. It is shown that Uzbek problem articles rely heavily on the author's comments and ready-made conclusions, whereas in *The New York Times* the author's position is expressed mainly through the selection and arrangement of facts.

Резюме. В статье рассматриваются особенности жанра проблемной статьи и порядок использования в ней фактов. На материале газет «Хуррият» (Узбекистан) и *The New York Times* (США) проанализированы приёмы отбора, расположения и использования фактов и статистических данных как средства обоснования авторской позиции. Установлено, что в узбекской прессе преобладают авторские комментарии и готовые выводы, тогда как в американской прессе позиция автора выражается преимущественно через отбор и расположение фактов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NATO HARBIY TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI: INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY MODEL

Zayniddinova Roziya Saidakbarovna,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar
"Tinchlik yo'lida hamkorlik" Markazi sharqiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Xorijiy tadqiqotlarda NATO terminlarini milliy tillarga o'tkazish masalalari o'rganilgan. Biroq terminning NATO tizimidagi rasmiy maqomi bilan milliy tildagi muqobilning maqomi alohida tekshirilishi lozim.

Qo'llangan usullar: hujjatlar tahlili, AAP-06 tahrirlarini solishtiruvchi tarixiy-qiyosiy tahlil, terminografik tahlil va tizimli modellashtirish. Nazariy tayanch sifatida tushunchaga yo'naltirilgan terminologiya, ya'ni Wüster nazariyasi olingan: unda tushuncha birlamchi, yondashuv onomasiologik, asosiy g'oyalar esa bir tushuncha–bir termin (biunivocity), Ist-Norm va Soll-Norm[1]. Davrlashtirish va institutsional model muallif tomonidan hujjatlar asosida tuzilgan; bunday o'rinlar matnda alohida belgilangan.

1. Rivojlanish bosqichlari. AAP-06 (2020) tahririga ko'ra, glossariyni NATO Harbiy komiteti terminologiya kengashi (MCTB) NATO Terminologiya dasturi (NTP) doirasida tayyorlaydi va yuritadi. Dastur 1954-yil fevralida NATO Doimiy guruhi (Standing Group) qabul qilgan, harbiy terminologiyani standartlashtirishga qaratilgan qarorga borib taqaladi: bu qaror terminologiyani muvofiqlashtirishni Standartlashtirish bo'yicha harbiy agentlikka (MAS, NSO ning o'tmishdoshi) topshirgan va umumiy vakolatlarni (TOR) belgilagan. 1970-yilda MAS Havo kengashi STANAG 3680 ni, ya'ni ingliz va fransuz tillaridagi harbiy terminlar va ta'riflar glossariysi AAP-06 ni e'lon qilgan. 2009-yilda NATO Terminologiyani boshqarish tizimi (NTMS) ishga tushgan, 2015-yil iyunida esa uni NATOTerm bazasi almashtirib, NATO terminologiyasining rasmiy ma'lumotnomasiga aylangan[2].

Bu faktlarga tayanib, tizim rivojini me'yorning asosiy mavjud shakliga qarab to'rt bosqichga ajratish mumkin (muallif davrlashtirishi; 1-jadval). Davrlashtirishda 2009-yil NTMS ning AAP-06 ustidan ustun kelgan sanasi sifatida olinadi, uning paydo bo'lgan sanasi sifatida emas: NTMS 2005-yilgi AAP-15 da ham eslatilgan[3], AAP-06 esa 2009-yilni ko'rsatadi. Farq sababi manbalarda izohlanmagan; bu yerda 2009-yilni rasmiy ishga tushirish sanasi, 2005-yildagi eslatmani esa tizimning ichki, oldingi bosqichi deb taxmin qilish mumkin (muallif talqini).

1-jadval. NATO terminologiya tizimining rivojlanish bosqichlari (muallif davrlashtirishi)

Bosqich	Yillar	Me'yorning asosiy shakli	Asos
1	1954–1970	Dastur va mas'ul organ (hujjat hali yo'q)	Standing Group dasturi, MAS, TOR (AAP-06, 2020)
2	1970–2009	Glossariy (AAP-06)	STANAG 3680 (AAP-06, 2020)
3	2009–2015	Boshqaruv tizimi (NTMS); AAP-06 unga kirgan glossariylardan biri	NTMS; 2013-yilgi tahrirda AAP-06 va yana 20 glossariy (AAP-06, 2013)
4	2015-yildan	Ma'lumotlar bazasi (NATOTerm); AAP-06 uning yillik nashri	NATOTerm (AAP-06, 2020; NTO, 2021)

2. Institutsional tuzilma va «NATO Agreed» maqomiga erishish tartibi. AAP-06 Harbiy komitet ko'rsatmasi bilan tuziladi va Shimoliy Atlantika Kengashi ma'qullaydi; uni MCTB yuritadi, NSO esa nashr

[1] Candel D. General principles of Wüster's General Theory of Terminology // Theoretical Perspectives on Terminology / eds. P. Faber, M.-C. L'Homme. – Amsterdam: John Benjamins, 2022. – P. 37–60. DOI: 10.1075/tlrp.23.02can. | Trojar M. Wüster's View of Terminology // Slovenski jezik – Slovene Linguistic Studies. – 2017. – No. 11. – P. 55–85. DOI: 10.17161/1808.25036.

[2] AAP-06 (2020). – XVIII (I qism, 1-bob, 1–3-bandlar). | AAP-06 (2013). – 1-E-1.

[3] AAP-15 (2005). – EN-1–EN-2 (preambula, 1–3, 6 va 11-bandlar).

etadi hamda NATO bo‘ylab kuchga kiritadi. Glossariyga oid takliflar NSO tarkibidagi NTO ga yuboriladi [1|XIV (preambula, 1 va 6-bandlar); XVIII (MCTB); I (e’lon qilish xati, 1 va 3-bandlar)]. Hujjatlar asosida tizimda uch qatlamni ajratish mumkin (muallif talqini): siyosiy-harbiy ma’qullash (Shimoliy Atlantika Kengashi, Harbiy komitet); ekspert-ma’muriy qatlam (MCTB, NSO, NTO, vakolatli organlar); a’zo davlatlar qatlami, bunda ularning konsensusi termin maqomini («NATO Agreed») hal qiladi. Tuzilmalarning nomlari ham o‘zgargan: 2013-yilgi tahrirda yurituvchi organ Harbiy komitetning terminologiya konferensiyasi (MCTC), nashr etuvchi organ NATO Standartlashtirish agentligi (NSA) deb berilgan, 2005-yilgi AAP-15 da esa NSA ichidagi tuzilma NATO terminologiyani muvofiqlashtirish idorasi (ONTC) deb atalgan [3|II (e’lon qilish xati); 1-E-1; 5|EN-1 (6-band), EN-2 (13-band)].

NTO ning taqdimotida terminologiya jarayoni to‘rt qadamdan iborat. Avval taklif kiritayotgan tomon o‘z hujjatini NATO Agreed terminologiya bilan yozadi, qolgan terminlarni bazadagilar bilan solishtiradi va qo‘shish, o‘zgartirish, bekor qilish yoki qayta tasdiqlash taklifini AAP-77 talablariga muvofiq NTO ga topshiradi. Keyin NTO taklifni sifat jihatidan tekshiradi va tuzatishlar kiritishni taklif qilishi mumkin. Uchinchi qadamda terminologiya tegishli qo‘mitaga taqdim etiladi; konsensus bilan ma’qullansa, u NATO bo‘ylab majburiy «NATO Agreed» terminologiyaga aylanadi. To‘rtinchi qadam – NATOTerm ni yangilash, ya’ni nashr etish [1]. Jarayonning batafsil qoidalari PO(2015)0193 va AAP-77 da bayon etilgan; ularning matniga kira olmaganim sababli maqolada tartib NTO taqdimoti va AAP-77 haqidagi ikkilamchi tavsiflar bo‘yicha berildi.

Terminologik me’yor va doktrinal me’yor ham ajratilgan: AAP-06 so‘zboshisida glossariydagi ta’riflar NATO siyosati yoki doktrinasini belgilamasligi va o‘zgartirmasligi, faqat ularni aniqroq ifodalashga ko‘maklashishi ta’kidlangan[2]. Ya’ni ta’rif ifoda vositasi hisoblanadi, siyosat va doktrina esa boshqa hujjatlarda yotadi (muallif talqini).

3. Termin yozuvining tuzilishi. AAP-06 da har bir tushuncha o‘z yozuviga ega. Yozuvda afzal ko‘rilgan termin va qisqartma, ruxsat etilgan, tavsiya etilmaydigan va eskirgan shakllar, ta’rif, izohlar, misollar, manba hamda yozuv NATO Agreed bo‘lgan sana joylashadi; ko‘p ma’noli termin har bir ma’nosiga alohida yozuv oladi NATOTerm yozuvlari to‘rt toifaga bo‘linadi: NATO Agreed, NATO Adopted (BMT yoki ISO kabi tashkilotlar yaratgan ta’riflar), Not NATO Agreed va NATO Cancelled[3].

4. Majburiylik darajalari va til doirasi. AAP-03 majburiylik ifodalarini aniq ajratadi: «shall» va «must» talabning majburiyligini, «should» tavsiyani, «may» ixtiyoriylikni bildiradi. NATO standartlashtirish hujjatlari mavjud NATO Agreed terminologiyadan foydalanishi shart; tasdiqlash organlari esa bir ma’noli va ikki tilli (inglizcha–fransuzcha) terminologiyani qo‘llashni rag‘batlantiradi[4]. A’zo davlatlar uchun STANAG 3680 amal qiladi: ishtirokchilar AAP-06 va uning keyingi o‘zgarishlarini NATO harbiy terminlari va ta’riflari uchun asosiy glossariy sifatida qo‘llashga rozilik bildiradi; shu bilan birga direktiva standartlashtirishning ixtiyoriy xarakterini ham qayd etadi [1|XVIII (3-band: STANAG 3680); XIV (preambula, 6-band); 6|1.1 (4-band)]. Hamkor davlatlar STANAG larni ratifikatsiya qilishi shart emas, ular Ittifoq standartlarini joriy etishga taklif qilinadi [6|2.7.3 (1–3-bandlar); 1.6.1.1 (3-band)]. Majburiy bo‘lmagan hujjatlar ham bor: AAP-15 qisqartmalar glossariysining annotatsiyasiga ko‘ra, u STANAG bilan ratifikatsiya qilinmagan va ma’lumotnoma xarakteriga ega[5].

2-jadval. NATO terminologiyasining majburiylik darajalari (rasmiy hujjatlarga ko‘ra, muallif umumlashtirishi)

Sub’yekt	Majburiylik	Asos
NATO standartlashtirish hujjatlari	NATO Agreed terminlardan foydalanish majburiy («shall»)	AAP-03 (2022); NTO (2021)
A’zo davlatlar	STANAG 3680 doirasida AAP-06 ni asosiy glossariy sifatida qo‘llash kelishuvi; kelishuv ixtiyoriy tuziladi	AAP-06 (2020); AAP-03 (2022)

[1] NTO (2021). – 22–25-slaydlar.
[2] AAP-06 (2020). – XIV (preambula, 4-band).
[3] JDP 0-01.1 (2025). – iv (3-band).
[4] AAP-03 (2022). – 1.3 (1-band).
[5] NATO. Glossary of Abbreviations Used in NATO Documents and Publications (AAP-15F) [annotatsiya]. – 1999. URL: https://apps.dtic.mil/sti/html/tr/ADA380915/index.html (kirilgan sana: 05.10.2026).

Hamkor davlatlar	Ratifikatsiya talab etilmaydi; amalga oshirishga taklif qilinadi	AAP-03 (2022)
Milliy tillardagi muqobillar	NATO jarayonidan tashqarida, normativ emas	AAP-03 (2022); Jones (1999; 2011)

Til doirasi haqida manbalar bir fikrda: AAP-06 ikki rasmiy tilda, ingliz va fransuz tillarida elektron shaklda mavjud va yiliga bir marta yangilanadi, termin NATO Agreed bo‘lishi uchun ikkala tilda tasdiqlanishi shart [1|XIV–XV (preambula, 5 va 7-bandlar); XX (lug‘at)]. AAP-03 til masalasini faqat shu ikki til doirasida ko‘radi [6|2.4.2 (2-band); 2.4.3 (1-band); Annex A (20-band); Annex B (21-band); Annex D (1-band)]. AAP-06 ning 2019 va 2020-yilgi tahrirlarida boshqa tillar ko‘rsatilmagan, 2025-yil 24-aprelda NATOTerm dan olingan eksportda (AAP-06 filtri) ham faqat ingliz va fransuz tillari bor.

Milliy tillardagi tarjimalar mavjud, lekin NATO jarayonidan tashqarida. Jones (1999) yozishicha, ikki rasmiy tilda yaratilgan terminologiyaning katta qismi boshqa tillarga ham o‘giriladi; buni ona tili ingliz yoki fransuz bo‘lmagan davlatlardagi NATO organlari yoki vazirliklar tilshunoslari bajaradi, NATO tilshunoslik xizmatlari terminologiyasi esa ish quroli bo‘lib, normativ hisoblanmaydi[1]. Jones (2011) NATOTerm loyihasida a’zo davlatlarning terminologiya idoralari o‘z tillaridagi ekvivalentlarni qo‘shishi nazarda tutilganini, NATO esa faqat rasmiy tillar uchun javobgar bo‘lishini bayon qiladi[2]; ammo bu reja 2011-yil holatiga oid bo‘lib, amalga oshganligi shu manbaning o‘zi bilan tasdiqlanmaydi. Milliy nashrga misol sifatida Chexiya Mudofaa vazirligining NATOTerm dan eksport qilingan uch tilli (ingliz, fransuz, chex) nashrini keltirish mumkin; chexcha muqobillar NATO Agreed emas, milliy tarjima (muallif talqini). NATO–Rossiya Hamkorlik Kengashining uch tilli glossariysi muqaddimasida esa u NATO yoki Rossiyani majburiy bog‘lamasligi ta’kidlangan[3].

Muallifning qiyosiy tahlili: me’yorning manbasi va uning amal qilish doirasi. NATO terminologiyasining to‘rt bosqichli davrlashtirilishi oddiy xronologik ketma-ketlik emas, balki me’yorni qayd etish va yangilash vositasining o‘zgarishini aks ettiradi. 1954-yildagi tashkiliy qaror, 1970-yildan glossariy shakli, keyinchalik terminologiyani boshqarish tizimi va NATOTerm bazasi bir xil vazifani – kelishilgan termin va ta’riflarni muvofiqlashtirishni – turli institutsional mexanizmlar orqali bajargan. Shu sababli bosqichlar chegarasi terminning tilga kirib kelgan sanasini emas, NATO darajasida uni boshqarish usulidagi o‘zgarishni bildiradi. Bu farq milliy tillardagi adaptatsiyani tadqiq etishda tarixiy manba bilan amaldagi me’yorni aralashtirmaslikka yordam beradi (muallif tahlili; maqolada tahlil qilingan AAP-06 tahrirlari va NTO materiallari asosida).

NATO Agreed maqomini milliy tildagi terminning amalda ishlatilishi bilan tenglashtirish metodologik xatoga olib keladi. Birinchi mezon – terminning NATO tizimidagi maqomi, ta’rifi, tasdiqlanish sanasi va rasmiy til doirasi; ikkinchi mezon – turk yoki o‘zbek tilidagi muqobilning milliy hujjatlarda belgilanishi hamda real qo‘llanishi. Birinchi mezon manba terminologiyasining institutsional maqomini, ikkinchisi esa qabul qiluvchi tilning me’yoriy va kommunikativ holatini tavsiflaydi. Ularni alohida qayd etish NATO tomonidan tasdiqlanmagan tarjimani noto‘g‘ri ravishda NATO me’yori deb atashdan saqlaydi; shu bilan birga milliy hujjat orqali belgilangan muqobilning milliy miqyosdagi kuchini inkor etmaydi (muallif sintezi; AAP-03, AAP-06 va Jones ishlari doirasida).

Davrlashtirishning tekshirilishi. Taklif etilgan to‘rt bosqich NATOning rasmiy tarixiy tasnifi emas, balki muallifning hujjatli modeli hisoblanadi. Har bir chegara terminlarni tasdiqlash vakolati, me’yoriy hujjat, terminografik vosita va tarqatish mexanizmidagi o‘zgarishlar bilan tekshirilishi lozim. NATO Agreed maqomi milliy turkcha yoki o‘zbekcha muqobilning avtomatik ravishda standartlashganini anglatmaydi.

Natijalar quyidagicha. (1) NATO terminologik me’yori 1954-yildagi dasturdan hujjatga (AAP-06), so‘ng boshqaruv tizimiga (NTMS) va NATOTerm bazasiga o‘tgan to‘rt bosqichli yo‘lni bosib o‘tgan; davrlashtirish muallif sintezi, 2009-yil sanasi esa manbalarda farq qiladi. (2) Termin uch qatlamli tuzilma va NTO ning to‘rt qadamli jarayoni orqali «NATO Agreed» maqomiga erishadi. (3) AAP-06 yozuvi tushunchaga yo‘naltirilgan va variantlarni maqomlar bilan tartibga soladi. (4) NATO terminologiyasi faqat ingliz va fransuz tillarida yuritiladi; turk, o‘zbek va boshqa tillardagi muqobillar NATO me’yori emas, milliy faoliyat mahsuli, «NATO Agreed» maqomi ularga o‘tmaydi. A’zo va hamkor davlatlar o‘rtasida majburiylik darajasida farq bor.

Cheklovlar: xulosalar ochiq manbalardagi hujjatlarga tayanadi; PO(2015)0193 direktivasi va

[1] Jones (1999).

[2] Jones (2011). – kirish va 3-band (PDF, 22 bet).

[3] NATO-Russia Glossary of Contemporary Political and Military Terms [Elektron resurs]. URL: https://www.nato.int/docu/glossary/eng/02-reverse.pdf (kirilgan sana: 05.10.2026).

STANAG 3680 ning joriy nashri matniga kirish imkoni bo‘lmadi, «boshqa til yo‘q» degan xulosa esa yo‘qlik dalili bo‘lib, NATOTerm ning hozirgi to‘liq tarkibi bilan alohida tasdiqlanishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda bu me’yoriy asos turk va o‘zbek tillaridagi NATO terminlari muqobillarining adaptatsiya yo‘llari va standartlashuvini qiyosiy tahlil qilishda manba tomon sifatida ishlatiladi.

Resume. This article examines the institutional development of NATO military terminology based on official documents and distinguishes NATO-approved terms from the normative status of national equivalents.

Резюме. На основе официальных документов рассматривается институциональное развитие военной терминологии НАТО; разграничиваются нормативный статус терминов НАТО и национальных эквивалентов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR BAHO MA’NOSINING NUTQIY AKTLARDA VOQELANISHI

Nurmatova Durdona Shuxrat qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Til birliklarining kommunikativ imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunda lisoniy ma’no, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va nutqiy vaziyat o‘rtasidagi munosabatni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, frazeologik birliklar o‘zining obrazliligi, semantik yaxlitligi va konnotativ xususiyatlari bilan nafaqat voqelikni nomlash, balki so‘zlovchining muayyan shaxs, predmet, hodisa yoki vaziyatga nisbatan baholovchi munosabatini ifodalash imkoniyatiga ham ega. Shu jihatdan frazeologik birliklarda baho ma’nosining shakllanishi va nutq jarayonida namoyon bo‘lish mexanizmlarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Baholash kategoriyasi insonning borliqni muayyan qadriyatlar me’zoni asosida idrok etishi va unga munosabat bildirishini aks ettiradi. E.M.Volf baholashni baho subyekti va baho obyekti o‘rtasidagi munosabat bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi[1]. Frazeologik birliklar tarkibida baho ma’nosi ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalovchi semantik komponent sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur birliklarning real muloqotdagi vazifasi faqat ijobiy yoki salbiy munosabatni bildirish bilan chegaralanmaydi. Ular muayyan kontekstda maqtov, ma’qullash, tanqid, qoralash, ogohlantirish, talab yoki tahdid kabi kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning ushbu xususiyatlarini tushuntirishda J.L.Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi va J.R.Syorl tomonidan ishlab chiqilgan tasnif muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, nutqiy ifoda nafaqat muayyan mazmunni yetkazadi, balki so‘zlovchining illokutiv maqsadini ham ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun frazeologik birlikning pragmatik vazifasini aniqlashda uning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda nutqiy vaziyat, so‘zlovchining niyati, adresat bilan munosabati va kutilayotgan kommunikativ natijani ham hisobga olish zarur.

Mavzuning dolzarbligi baholovchi frazeologik birliklarning semantik mazmuni bilan ularning turli

[1] Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. – 2-е изд., доп. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – С. 22.

nutqiy aktlar tarkibida bajaradigan kommunikativ vazifalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Ayniqsa, ijobiy va salbiy baholi frazeologik birliklarning assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv hamda deklarativ nutqiy aktlar doirasida qanday pragmatik vazifalarni bajarishini o‘rganish frazeologik ma’noning kontekstda faollashish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi frazeologik birliklarda ifodalangan ijobiy va salbiy baho ma’nosining nutqiy aktlar orqali voqelanish xususiyatlarini aniqlash hamda ularning lingvopragmatik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun baholovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini tavsiflash, ularning nutqiy aktlar tarkibidagi funksional imkoniyatlarini tahlil qilish va baho ma’nosi bilan kommunikativ niyat o‘rtasidagi munosabatni aniqlash vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida baho ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklarning nutqiy qo‘llanishi, predmeti sifatida esa ularning turli nutqiy aktlar doirasida namoyon bo‘ladigan semantik-pragmatik xususiyatlari belgilandi. Tadqiqot materialini ingliz tilidagi badiiy matnlardan olingan, ijobiy va salbiy bahoni ifodalovchi frazeologik birliklar ishtirokidagi nutqiy vaziyatlar tashkil etadi.

Maqolaning nazariy va amaliy ahamiyati frazeologik birliklarni faqat lug‘aviy ma’nosi va baholovchi semasi asosida emas, balki ularning kommunikativ vazifasi, illokutiv kuchi hamda adresatga ehtimoliy ta’siri bilan bog‘liq holda tahlil qilish yondashuvini yoritishida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini nutqiy aktlar bilan bog‘lab tadqiq etish uchun, avvalo, nutqiy akt nazariyasining asosiy tamoyillariga murojaat qilish lozim. Mazkur nazariyaning shakllanishi J.L.Ostin nomi bilan bevosita bog‘liq. U nutqni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi faoliyat sifatida talqin qilishga asos soldi. Ya’ni so‘zlovchi muayyan mazmunni ifodalashi bilan birga, shu ifoda orqali biror kommunikativ amalni bajaradi va adresatga muayyan ta’sir ko‘rsatishi mumkin. J.L.Ostin dastlab lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarni farqlaydi[1].

Ostin konsepsiyasining frazeologik birliklarni o‘rganish uchun ahamiyati shundaki, FBni nutqda qo‘llash ko‘pincha faqat nominativ vazifani bajarib qolmaydi. Frazeologik birliklarning nutqiy muloqotda lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda muayyan madaniy va kommunikativ axborotni mujassamlashtiruvchi “mikromatn” sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga FB lar ma’no tuzilmasida subyektiv faktor mavjudligi va u pragmatik mohiyatga egaligini asoslaydi[2]. Masalan, shaxsga nisbatan salbiy bahoni anglatuvchi frazeologizm kontekstga qarab ta’rif, tanqid, haqorat yoki ogohlantirish vazifasini bajarishi mumkin. Frazeologik birlik ma’nosi uning illokutiv kuchini avtomatik tarzda belgilamaydi; kommunikativ vaziyat, adresantning maqsadi va adresat bilan munosabat kabi omillar ushbu kuchning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

So‘zlovchi va tinglovchining muayyan nutqiy vaziyatdagi muloqot jarayoni nutqiy akt deb ataladi. Nutqiy akt so‘zlashuvchilarning muloqotdan ko‘zlangan maqsadini ifodalovchi asosiy mazmuniy struktura sifatida namoyon bo‘ladi va muloqotning mazmun mundarijasini belgilash uchun xizmat qiladi[3]. Nutqiy aktlar nazariyasining keyingi rivojida J.R.Syorl muhim o‘rin tutadi. Uning yondashuvida nutqiy aktning mohiyati uning illokutiv maqsadi bilan belgilanadi. U tadqiqotlarida nutqiy aktlarni assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklaratsiyalar guruhlariga ajratdi[4].

J.R.Syorl tasnifi frazeologik birliklarni pragmatik jihatdan guruhlash uchun samarali nazariy asos bo‘la oladi. Xususan, ijobiy baholi FBlar ko‘pincha ekspressiv aktlar tarkibida namoyon bo‘lib, so‘zlovchining maqtov, minnatdorlik, mamnunlik yoki hayratini ifodalashi mumkin. Salbiy baholi birliklar esa ekspressiv akt doirasida norozilik, nafrat, mensimaslik yoki qoralashni ifodalash bilan birga, direktiv aktlar tarkibida ogohlantirish yoki tanbeh vazifasini ham bajarishi mumkin. Shunday ekan, baho va nutqiy akt o‘rtasidagi munosabat bir-biriga teng hodisalar munosabati emas, balki semantik mazmunning kommunikativ vazifaga aylanishi jarayoni sifatida talqin qilinishi lozim.

Frazeologik birlikning baholovchi komponenti nutqda shunchaki obyektga nisbatan “yaxshi” yoki “yomon” munosabatni bildirish bilangina cheklanmay, so‘zlovchining kommunikativ niyatini ham yuzaga chiqaradi. U orqali frazeologik birliklar ijobiy munosabatni – ma’qullash, rag‘batlantirish, maqtash, hayratni, salbiy munosabatni esa – ma’qullamaslik,

[1] Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 101.

[2] Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 176

[3] Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. O`quv-uslubiy qo`llanma. Farg`ona: Farg`ona davlat universiteti, 2020. 15-b.

[4] Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – P. 12.

qoralash, mensimaslik, nafrat va xulosani ifodalashi mumkin[1].

Shu sababli baholovchi frazeologik birliklarni "semantik baho –kommunikativ niyat – illokutiv kuch – perlokutiv ta'sir" zanjiri asosida tahlil qilish mazkur muammoning kompleks yechimiga olib kelishi mumkin. Bunday yondashuv frazeologizmning faqat "ijobiy" yoki "salbiy" ekanligini belgilash bilan cheklanmay, uning real muloqotdagi funksional-pragmatik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Natijada baho ma'nosi frazeologik birlikning statik semantik belgisi emas, balki kontekstda muayyan kommunikativ maqsad bilan faollashadigan dinamik pragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalari baholovchi frazeologik birliklarning eng faol voqelanish sohasi ekspressiv nutqiy aktlar ekanligini ko'rsatadi. Ekspressiv aktlarda so'zlovchi o'zining obyektga, shaxsga yoki vaziyatga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Shu sababli ijobiy baholi frazeologik birliklar maqtov, taxsin, minnatdorlik, mamnunlik va rag'batlantirishni, salbiy baholi birliklar esa norozilik, qoralash, nafrat, mensimaslik, kinoya va haqoratni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin.

Assertivlar nutqiy aktlarning boshqa nomi reprezentativ aktlar bo'lib, ular so'zlovchi tomonidan borliqdagi muayyan fakt, holat yoki voqelikni tasdiqlash, bayon qilish, yoki xabar berish maqsadlarida qo'llanadi. Ular voqelikda o'zgartirish yasamaydi, holatni qanday bo'lsa shundayligicha aks ettiradi va boshqa turdagi nutqiy aktlardan farqli ravishda ularni rost yoki yolg'on me'zonlari bo'yicha baholash mumkin. Ijobiy baholi FB lar ishtirokida assertiv nutqiy aktlarning *First rate – first rate. Dreamt about the old days! That was before I settled down and became a pillar of society* (A.Christie). "A pillar of society" FBsi jamiyatda hurmatga ega inson ijobiy baholi ma'nosini anglatadi. Nutqiy akt esa bayon pragmatik maqsadini ifodalaydi. Salbiy baholi *'David always got on father's nerves.' said Alfred, 'with his music and his dreamy ways.'* (A.Christie) "get on someone's nerves" FB si birovning asabiga tegmoq, g'ashini keltirmoq salbiy baholi ma'nolarini anglatadi.

Direktiv nutqiy aktlar so'zlovchi tomonidan muayyan harakatni bajarishga undash, majburlash yoki yo'naltirish maqsadlarida qo'llanadi. Ular voqelikni o'zgartirish xususiyatiga ega bo'lib, buyruq, talab, iltimos, taklif, ta'qiq,maslahat, tavsiya, duo kabi turlarga bo'linadi: *"But watch out, they'll talk an arm off of you on any subject under the sun."* (J. London) "watch out" FB si xavfdan ogohlantirish ma'nosini anglatadi, "to talk someone's ear (head) off" birovga juda ko'p va uzoq vaqt davomida gapirishni anglatadi, "under the sun" esa barcha, hamma ma'nolaridagi umumlashtirishni anglatadi. Mazkur nutqiy aktda qo'llangan uch FB dan ikkitasi salbiy baholi ma'noga ega va shu asosida nutqiy akt umumiy bahosi ham biroz salbiy tus oladi va ular istalgan mavzuda bahslasha olishidan ogohlantiradi. *I don't know what you're talkin' about, but you better cut it out this red hot minute!'* (H. Lee). "cut it out!" – "bas qil" ma'nosini anglatadi va salbiy bahoga ega. "this minute" – hoziroq ma'nosini ifodalaydi va asosan talab ma'nosida salbiy bahoda qo'llanadi. Mazkur nutqiy vaziyatda qat'iy talab, ogohlantirish maqsadini ifodalaydi. Ehtimoliy jazo, oqibat belgilangan bo'lmasada "you better" birikmasi "shunday qilishing o'zingga foyda, aks holda yomon oqibatlari bo'lishi mumkin" mazmunidagi ogohlantirishni ifodalaydi. Ijobiy baholi aktlar: *'All right, you keep it up then' I said* (H. Lee). "Keep it up" FB si ishingizda davom etavering, charchamang ma'nosida qo'llab-quvvatlashni ifodalaydi.

Komissiv nutqiy aktlar biror harakatni sodir etishni niyat qilish, o'ziga biror majburiyat olish – kelajakda yuz beruvchi harakatni ifodalaydi. Ular voqelikni o'zgartirish xususiyatiga ega. Ular ham ijobiy va salbiy ma'nosiga ko'ra farqlanadi va bunda frazeologik birliklar muhim ahamiyatga ega. *"Now then, Rogers, we must get to the bottom of this."* (A.Christie) "get to the bottom of something" FB si biror narsa haqida haqiqatni tagiga yetishni anglatadi, nutqiy akt esa ahd illokutiv kuchini ifodalaydi. *But if you wanta try, I'll call you a liar to your face* (H. Lee), mazkur nutqiy akt tarkibidagi "to someone's face" FB si biror yoqimsiz gapni ochiqchasiga birovni yuziga aytish ma'nosini anglatadi. "Agar shu ishni qilmoqchi bo'lsang seni qo'rqmasdan, o'ylanmasdan yolg'onchi deb atayman" mazmunidagi ogohlantirish pragmatik maqsadini ifodalaydi. Komissiv nutqiy aktlar ichida salbiy baholi FB lar asosan tahdid va ogohlantirish aktlarini shakllantiradi. Bunday holatda baho bevosita adresatning o'ziga emas, balki uning xatti-harakatining oqibatlariga qaratilishi mumkin. Masalan: Bunda frazeologik birlikning pragmatik mazmuni quyidagi tarzda modellashtiriladi: salbiy baho – ehtimoliy salbiy oqibat – ogohlantirish – adresatni harakatini o'zgartirishga undash. Bu holat frazeologik birliklarning baho ma'nosi ularning lug'atdagi izohidan ancha keng ekanligi va kommunikativ imkoniyatlarini oshirishini ko'rsatadi.

Ekspressivlar nutqiy aktlar so'zlovchi voqelik hodisalariga nisbatan o'z his-tuyg'ularini, ruhiy holati va munosabatini ifodalash maqsadlari uchun hizmat qiladi. Serl ta'rifiga ko'ra ular voqelikni o'zgartirmay-

[1] Tomenchuk M. Evaluation as a Component of Phraseological Meaning in English // Науковий вісник Ужгородського університету. Серія: Філологія. – Ужгород, 2020. – Вип. 2 (44). – Pp. 338–342.

di, faqat unga emotsional munosabatni ifodalaydi. Salbiy baholi FB lar esa ekspressiv aktning tanqid, qoralash yoki haqorat kabi ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi. Masalan: *“well” I said, “who’s so high and mighty all of a sudden”* (H. Lee) “high and mighty” FB sining salbiy bahoga egaligi uning lug‘aviy izohida “disapproving” ya’ni “ma’qullamaslik, qoralash” ma’nolariga ega bo‘lib, “o‘zini boshqalardan muhimroqdek tutish” ma’nosini anglatadi. Mazkur nutqiy vaziyatda bu birlik shaxsni ta’riflash bilan birga so‘zlovchining unga nisbatan qoralovchi munosabatini ham ifodalaydi. Ijobiy baholi FBlar tabrik va yaxshi tilaklar, minnaddorchilik, hamdardlik kabi ijobiy nutqiy aktlar tarkibida qo‘llanadi. *Many happy returns of the day* FB si tug‘ilgan kun bilan tabrikni ifodalaydi.

Deklaratsiyalar voqelikdagi rasmiy-huquqiy holat, vaziyatni o‘zgartirish imkoniyatiga ega nutqiy aktlar bo‘lib, buning uchun ular vakolatli shaxs tomonidan aytilishi lozim. Bu turdagi nutqiy aktlar uchun maxsus qolipga solingan turg‘un birikmalar qo‘llanadi va obrazli, emotsional FB lardan foydalanish amaliyotda juda kam kuzatiladi. Shunga qaramay norasmiy vaziyatlarda va deklarativ nutqiy aktlarni ikkilamchi nominatsiya sifatida badiiy adabiyotlarda ifodalashda FBlar qo‘llanishi mumkin: *“From this moment on, I wash my hands of this entire operation.”* mazkur nutqiy akt tarkibidagi “wash your hands of something” FBsi oldin mas’ul bo‘lgan biror ish, loyihadan chiqish, barcha aloqalarni uzishni anglatadi. Vakolatli shaxs tomonidan aytilganda rasmiy kuchga ega bo‘lib, amaliyotdagi faoliyatini yakunlash va tark etishni anglatadi.

O‘tkazilgan tahlil frazeologik birliklarda baho ma’nosining voqelanishi semantik va pragmatik omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Frazeologik birlikning ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi uning muayyan nutqiy vaziyatda qanday kommunikativ vazifa bajarishini to‘liq belgilamaydi. Baho ma’nosining real muloqotdagi namoyon bo‘lishi so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, adresat bilan munosabati va kontekstual sharoitlar bilan uzviy bog‘liq. Frazeologik birliklar nafaqat shaxs, predmet yoki hodisaga baho berish, balki so‘zlovchining kommunikativ niyatini amalga oshirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ijobiy baholi birliklar maqtov, ma’qullash, rag‘batlantirish, minnatdorlik va yaxshi tilaklarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Salbiy baholi birliklar esa tanqid, qoralash, norozilik, mensimaslik, haqorat, tanbeh va ogohlantirish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi.

Baholovchi frazeologik birliklar nutqiy aktlarning turli ko‘rinishlarida o‘ziga xos funksional xususiyatlarga ega. Assertiv aktlarda ular voqelik yoki shaxs haqidagi baholovchi fikrni bayon qilishda, direktiv aktlarda adresatning xatti-harakatini yo‘naltirish va unga ta’sir ko‘rsatishda, komissiv aktlarda esa va’da, ahd, ogohlantirish yoki tahdid mazmunini shakllantirishda ishtirok etishi mumkin. Ekspressiv aktlarda frazeologik birliklarning hissiy-baholovchi imkoniyatlari ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Deklarativ aktlarda esa ularning qo‘llanishi tegishli kommunikativ va institutsional shartlar bilan chegaralanadi. Frazeologik birlikning pragmatik mazmunini aniqlashda uning lug‘aviy izohi bilangina cheklanib qolish yetarli emas. Birlikning kontekstda qanday vazifani bajarishi, so‘zlovchining maqsadi va adresatga ko‘zlangan ta’sirini hisobga olish zarur. Shu ma’noda “semantik baho – kommunikativ niyat – illokutiv kuch – perlokutiv ta’sir” modeli frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish uchun samarali metodologik asos bo‘la oladi.

Umuman olganda, frazeologik birliklarda baho ma’nosining nutqiy aktlar orqali voqelanishi tilning semantik, kommunikativ va pragmatik qatlamlari o‘rtasidagi uzviy aloqani namoyon etadi. Mazkur yondashuv frazeologik birliklarning real muloqotdagi funksiyalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Kelgusida ushbu masalani ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy o‘rganish, bir xil baho yo‘nalishiga ega frazeologik birliklarning turli nutqiy aktlardagi qo‘llanishini tahlil qilish hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada frazeologik birliklarda mujassamlangan baho ma’nosining nutqiy aktlar orqali voqelanishi lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda baholash kategoriyasining semantik xususiyatlari, frazeologik birliklarning kommunikativ imkoniyatlari hamda ularning so‘zlovchi maqsadi bilan aloqasi yoritiladi. J.L.Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi va J.R.Syorlning nutqiy aktlar tasnifi nazariy asos sifatida qo‘llanadi. Ingliz tilidagi badiiy matnlardan olingan misollar asosida ijobiy va salbiy baholi frazeologik birliklarning assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ nutqiy aktlar tarkibida qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlil natijalari frazeologik birliklarning baholovchi mazmuni faqat lug‘aviy ma’no bilan cheklanmasligini, balki kommunikativ vaziyat, so‘zlovchining niyati va adresatga ko‘rsatiladigan ta’sir bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklarning pragmatik imkoniyatlarini baho ma’nosi, kommunikativ niyat, illokutiv kuch va perlokutiv ta’sir munosabati asosida o‘rganish zarurligi asoslanadi.

Резюме. В статье исследуется реализация оценочного значения фразеологических единиц посредством речевых актов с лингвопрагматической точки зрения. Рассматриваются семантические особенности категории оценки, коммуникативные возможности фразеологических единиц и их связь с интенцией говорящего. Теоретическую основу исследования составляют теория речевых актов Дж.Л.Остина и классификация речевых актов Дж.Р.Серля. На материале примеров из англоязычных художественных текстов анализируются особенности функционирования фразеологических единиц с положительной и отрицательной оценкой в составе ассертивных, директивных, комиссивных, экспрессивных и декларативных речевых актов. Результаты анализа показывают, что оценочное содержание фразеологических единиц не ограничивается их лексико-семантическим значением, а реализуется с учётом коммуникативной ситуации, интенции говорящего и предполагаемого воздействия на адресата. Обосновывается необходимость комплексного изучения прагматического потенциала фразеологических единиц с учётом взаимосвязи оценочного значения, коммуникативной интенции, иллокутивной силы и перлокутивного воздействия.

Rezume. This article examines the realization of evaluative meaning in phraseological units through speech acts from a linguopragmatic perspective. It explores the semantic properties of evaluation, the communicative potential of phraseological units, and their relationship to speaker intention. The theoretical framework is based on J. L. Austin's speech act theory and J. R. Searle's classification of speech acts. Drawing on examples from English literary texts, the study analyzes the use of positively and negatively evaluative phraseological units in assertive, directive, commissive, expressive, and declarative speech acts. The findings indicate that the evaluative content of phraseological units extends beyond their lexical-semantic meaning and is realized in relation to the communicative situation, the speaker's intention, and the intended effect on the addressee. The article highlights the importance of examining the pragmatic potential of phraseological units through the interaction of evaluative meaning, communicative intention, illocutionary force, and perlocutionary effect.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA MORFOLOGIK NOANIQLIK TURLARI: TASNIF VA AVTOMATIK TAHLILDAGI O‘RNI

Islomova Barno Xabibulla qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi tayanch doktoranti

Ma'lumki, morfologik tahlil tizimlarida eng ko‘p uchraydigan qiyinchiliklardan biri bitta so‘zshaklning bir necha xil tahlil qilinishidir. Agglyutinativ tillarda bu muammo yanada sezilarli, chunki so‘zshakl o‘zakka ketma-ket qo‘shiladigan affikslardan tarkib topadi. K. Oflazer va İ. Kuruöz turk tili materiali asosida bu holatni shunday izohlaydi: «On the other hand, this very nature introduces another kind of ambiguity, where a lexical form can be morphologically interpreted in many ways»[1] («Boshqa tomondan, aynan shu (agglyutinativ) tabiat noaniqlikning boshqa turini keltirib chiqaradi: bunda bitta leksik shakl morfologik jihatdan ko‘p usulda talqin qilinishi mumkin»). O‘zbek tili uchun morfologik analizatorlar va annotatsiyalangan korpuslar yaratilayotgan bugungi kunda qaysi hodisani noaniqlik deb hisoblash va uni qanday teg bilan belgilash masalasini nazariy jihatdan asoslab olish zarurati tug‘ildi.

O‘zbek tilshunosligida omonimiya, ko‘p ma'nolilik va affikslarning ko‘p vazifaliligi ancha yillardan beri o‘rganib kelinadi. Shunga qaramay, bu hodisalarni nomlashda ham, ularning chegarasini belgilashda ham tadqiqotchilar yakdil emas. Sh. Hamroyeva omonim so‘zlarning bir necha ma'nosi bilan birdan ortiq turkumga mansubligi tufayli morfologik analizator tuzishda asos morfemani farqlashning turli formatlari ishlab chiqilganini qayd etadi[2]. M. Abjalova avtomatik qayta ishlash nuqtai nazaridan so‘z omonimligi va qo‘shimcha omonimligini alohida ko‘rsatadi[3]. Hammualliflikda yozilgan avvalgi ishimizda noaniqlik turlari hisoblash jarayonidagi qarorlar bilan bog‘lab ko‘rilgan, omonimlar lug‘ati asosida tuzilgan resurs tahlil qilingan edi[4]. Mazkur maqolada esa masalaga filologik tomondan yondashamiz, ya'ni morfologik noaniqlik turlarini o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar va ular o‘rtasidagi munozaralar asosida tasniflaymiz.

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad o‘zbek tilidagi morfologik noaniqlik turlarini nazariy manbalar asosida tasniflash va har bir turning avtomatik tahlildagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Ishning yangiligi shundaki, unda o‘zbek tilshunosligidagi omonimiya va affikslar nazariyasiga oid qarashlar avtomatik morfologik tahlil sathlari bilan bog‘langan holda bir tasnifga keltirildi, tasnif bilan bog‘liq to‘rt munozarali masala esa analizator lug‘ati va teglar to‘plami uchun annotatsiya qarori sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va tasniflash metodlariga tayanildi. Tahlil uchun o‘zbek tiliga oid 23 ta manba hamda morfologik disambiguatsiyaga bag‘ishlangan 2 ta xorijiy tadqiqot tanlab olindi. Manbalardagi ta'rif va misollarni qiyoslashda uch jihatga e'tibor qaratildi: noaniqlik qaysi birlikda (leksema, morfema yoki so‘zshaklda) yuzaga kelishi, hodisa til yoki nutq sathiga mansubligi hamda noaniqlik avtomatik tahlil natijasining qaysi qismida (lemma, so‘z turkumi, morfemalarga bo‘linish yoki grammatik belgida) ko‘rinishi.

1. Tayanch tushunchalar. Sh. Rahmatullayev va boshqalar tuzgan «O‘zbek tili omonimlari lug‘ati»da omonimiya «shakliy bir xillik va mazmunan har xillikka asoslanadi»[5] deb ta'riflanadi, omonimlarni ko‘p ma'noli birliklardan ajratishda esa «semantik aloqaning mavjud bo‘lmasligi»[6] asosiy mezon qilib

[1] Oflazer K., Kuruöz İ. Tagging and Morphological Disambiguation of Turkish Text // Proceedings of the Fourth Conference on Applied Natural Language Processing. – Stuttgart, 1994. – P. 144.

[2] Хамроева Ш.М. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 22.

[3] Abjalova M.A. Omonimiya va lingvistik tizimlarda omonimlarni aniqlash usullari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Vol. 1, № 10. – B. 1016–1017.

[4] Elov B.B., Kurbanova M.M., Mardonova S.O., Mavlonova K.M., Islomova B., Axmatova I., Saatova S.I. Morphological Disambiguation in Turkic Languages Based on an Uzbek Homonym Resource // 2026 11th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). – IEEE, 2026. – P. 1439. – DOI: 10.1109/UBMK71847.2026.11745190.

[5] Rahmatullayev Sh., Dadaboyev H., Xolmanova Z., Abdurahmonova M., Muhammadiyeva D., O‘razova I. O‘zbek tili omonimlari lug‘ati. – T.: Yashil yaproq nashriyoti, 2025. – B. 3.

[6] Rahmatullayev Sh. va b. O‘sha asar. – B. 15.

olinadi. Xuddi shu mezon U. Tursunov, A. Muxtorov va Sh. Rahmatullayev darsligida ham uchraydi: ko‘p ma’nolilikda sememalar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, bitta leksemaga birlashadi, omonimiyada esa bunday bog‘liqlik bo‘lmaydi yoki u yo‘qolgan bo‘ladi[1]. Ya. Pinxasov omonimiyani kengroq tushunadi, unga leksik omonimlardan tashqari grammatik, leksik-grammatik va frazeologik omonimlarni ham kiritadi[2]. Fikrimizcha, morfologik tahlil uchun aynan shu keng talqin qulay, chunki analizator faqat leksemalar bilan emas, morfema va so‘zshakllar bilan ham ishlaydi. Shu sababli maqolada morfologik noaniqlik deganda bitta so‘zshaklga lemmasi, turkumi, morfemalarga bo‘linishi yoki grammatik belgisi bilan farqlanuvchi bir necha tahlilning mos kelishini tushunamiz. Bir lemma doirasidagi ko‘p ma’nolilik bu ta’rifga kirmaydi. Bunday holatda lemma ham, turkum ham, teg ham o‘zgarmaydi, demak, u morfologik emas, leksik-semantik disambiguatsiya masalasidir.

2. Leksik-morfologik (o‘zak darajasidagi) noaniqlik. Noaniqlikning bu turida bir xil ifodali o‘zaklar turli leksemalarga tegishli bo‘ladi. M. Mirtojiyev omonimlarni turkumdosh va noturkumdosh tiplarga bo‘ladi, Ya. Pinxasov ham bir turkumga mansub (*mol*: chorva / gazlama) va bir necha turkumga mansub omonimlarni farqlaydi[3]. Turkumdosh omonimlarda lemmani bitta turkum ichida tanlash kifoya, noturkumdosh omonimlarda esa so‘z turkumini ham aniqlashga to‘g‘ri keladi. Sh. Rahmatullayev omoleksemalarni grammatik shakllardagi xususiyatiga qarab ikkiga ajratadi: «1. Омоним омолексемалар барча муқобил грамматик шаклларида тенг келади». «2. Омоформа омолексемалар деб ўзаро баъзи грамматик шаклларидагина тенг келадиган омолексемаларга айтилади»[4].

H. Jamolxonov ham omoformalarni «leksemalarning ayrim grammatik shakllaridagina teng kelish holatlari»[5] sifatida izohlab, *o‘t* (ot / fe’l), *sur* (ot / sifat) singari misollarni keltiradi. Avtomatik tahlil nuqtai nazaridan qaraganda, omonim omoleksemalarda noaniqlik so‘zning barcha shakllarida saqlanib qoladi. Omoforma omoleksemalarda esa u faqat ayrim shakllarda yuzaga chiqadi, boshqa shakllarda affikslarning o‘zi tahlilni aniqlashtirib beradi.

Turkumlararo omonimiya masalasida tilshunoslar o‘rtasida hanuz bir to‘xtamga kelinmagan. Uning asosiy manbai konversiya bo‘lib, M. Mirtojiyev so‘z konversiyasi leksik omonimiyani tarkib toptirishini aytadi[6]. R. Sayfullayeva mas’ul muharrirligidagi «Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya» qo‘llanmasida turkumdan turkumga o‘tishning lisoniy va nutqiy turi farqlanadi, lisoniy ko‘chishdan esa ko‘pincha shakldosh leksema, aniqrog‘i, omoforma hosil bo‘ladi, deyiladi[7]. A. Pardayev esa bu qarashni qabul qilmaydi: «...олтин сўзининг от сифати омоним, яхши сўзининг от, сифат ва равиш омонимлар сифатида талқин этиш кескин қораланган»[8].

Olim bunday hollarni transpozitsiya deb biladi. Bizningcha, bu munozara avtomatik tahlilda annotatsiya bilan bog‘liq aniq qarorga aylanadi. Agar birinchi qarashga amal qilinsa, *oltin* so‘zi analizator lug‘atiga ikki lemma (ot va sifat) sifatida kiritiladi. Ikkinchi qarashda u bitta lemma bo‘lib, ikki vazifasi alohida belgilanadi. Har ikki holatda turkum kontekstga qarab aniqlanadi, faqat lug‘at va teglar to‘plamining tuzilishi boshqacha bo‘ladi. Masalaning amaliy tomoni B. Elov va hammualliflarining ishida ham ko‘rinadi. Ular polifunksional so‘zlarni omonimiya bilan bog‘liq holda o‘rganib, o‘zbek tilida bunday so‘zlar ikki yoki uch so‘z turkumi doirasida uchrashini, ikki turkum doirasidagilari esa 15 guruhga bo‘linishini ko‘rsatadi[9].

3. Affiksal noaniqlik. Sh. Rahmatullayev ifoda jihati teng morfemalarni omomorfemalar (omoaffikslar) deb ataydi[10]. Bu turda shaklan teng morfemalar turli sinfga (so‘z yasovchi yoki shakl yasovchi) yoki turli turkum tizimiga mansub bo‘ladi. Affiksal omonimiya qanday turlarga bo‘linishi masalasida ham fikrlar bir xil emas. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalarning darsligida uning to‘rt turi ko‘rsatilgan: so‘z yasovchilar o‘rtasida (*-ki*: *turtki* / *ichki*), forma yasovchilar o‘rtasida (*-(i)sh*: harakat nomi / birgalik nisbati), so‘z yasovchi va forma yasovchi o‘rtasida (*-im*: *terim* / *qo‘lim*) hamda murakkab holat (*-ma*: ot / sifat / fe’lning bo‘lishsiz shakli). U. Tursunov, A. Mux-

[1] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 134.

[2] Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Т.: Ўқитувчи, 1969. – Б. 19.

[3] Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.: Университет, 2000. – Б. 61. Пинхасов Я.Д. Ўша асар. – Б. 17.

[4] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 41.

[5] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 240–241.

[6] Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Б. 62.

[7] Замонавий ўзбек тили. Морфология. Масъул муҳаррир Р.Р. Сайфуллаева. – Т.: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2008. – Б. 434–435.

[8] Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Т.: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2013. – Б. 92.

[9] Elov B.B. et al. Modeling of Models and Processes that Differentiate Semantically Polyfunctional Words in the Context of the Uzbek Language // Proceedings of Ninth International Congress on Information and Communication Technology (ICICT 2024). Vol. 6. – Singapore: Springer, 2024. – P. 427. – DOI: 10.1007/978-981-97-3299-9_35.

[10] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Б. 133.

torov va Sh. Rahmatullayev darsligida esa uch tur beriladi: so‘z yasovchilar o‘zaro, so‘z yasovchi bilan shakl yasovchi va shakl yasovchilar o‘zaro; bunda *-ma* ikkinchi turga kiritilgan[1]. Omonim-affiksni polisemantik affiksdan farqlash mezoni Sh. Shoabdurahmonov va hammualliflari darsligida quyidagicha belgilangan: «Айнан бир шаклдаги (кўринишдаги) аффикснинг маънолари ўртасида боғланиш бўлмаса, у кўп маъноли (полисемантик) аффикс эмас, омоним-аффикс саналади»[2].

A. G‘ulomov va hammualliflarining «O‘zbek tilining morfem lug‘ati»da bu tamoyil amalda qo‘llanganini ko‘ramiz: omonim affikslar alohida raqamlar bilan, polisemantik morfemalar esa bir o‘rinda, bitta raqam ostida berilgan[3]. Shunga tayanadigan bo‘lsak, omoaffikslar analizatorda turli teglar bilan, polisemantik affiks esa bitta teg bilan berilishi kerak.

Affiks polisemiyasi ham munozarali masalalardan biri hisoblanadi. M. Mirtojiyev ot yasovchi *-chi, -lik, -dosh, -ma*, sifat yasovchi *-li, -chan*, fe’l yasovchi *-la, -lash* kabi affikslarni polisemantik affikslar qatoriga kiritadi[4]. A.Hojiyevning bu boradagi qarashi esa yillar davomida o‘zgarganini ta’kidlash joiz. Olim 1979-yilgi ishida *-cha* affiksini omonim-affiks va ko‘p ma’noli affiks deb ko‘rsatgan edi[5]. 2010-yilgi monografiyasida esa morfemalardagi omonimiya va ko‘p ma’nolilikni leksemalardagi shunday hodisalar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi, degan xulosaga keladi: «Морфемалар мустақил тил бирлиги бўлмагани учун улар ўзаро семантик муносабатга кириша олмайди – бу қонуний ҳол»[6]. Bunday yondashuvda affiksning har bir vazifasi alohida morfema sifatida ko‘riladi.

Shu o‘rinda *-dir* affiksi masalasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. H. Ne’matov va R. Rasulov orttirma nisbat va kesimlik ko‘rsatkichi bo‘lib keladigan *-dir* affikslarini omonim deb hisoblaydi: «Орттирма нисбат кўрсаткичларидан (-дир) қўшимчаси (ёз–ёздир) ва кесимлик кўрсаткичи (-дир) (У шоирдир) моддий, ташқи жиҳатдан ўхшаш бўлишига қарамай, моҳиятан бутунлай бошқа-бошқадир»[7]. Kesimlik ko‘rsatkichi *-dir* maqomi ham munozarali. G‘. Abdurahmonov va boshqalarning sintaksis qo‘llanmasida u predikativlik affiksi, affiks-bog‘lama sifatida talqin qilingan, B. Sodiqov esa *-dir* bog‘lama bo‘la olmaydi, degan fikrni ilgari suradi[8]. Avtomatik tahlilda bu holat asosning turkumiga bog‘liq bo‘ladi: fe’l asosda *-dir* nisbat shakli, ot asosda esa kesimlik shakli sifatida talqin qilinadi.

4. So‘zshakl darajasidagi (segmentatsion) noaniqlik. Ayrim hollarda noaniqlik leksema yoki affiksning o‘zida emas, so‘zshaklni morfemalarga bo‘lishda paydo bo‘ladi. Sh. Shoabdurahmonov va hammualliflari darsligida *gullar* (*gul+lar* / *gulla+r*) va *oldi* (*old+i* / *ol+di*) misollari keltirilib, «omoforma» atamasiga e’tiroz bildirilgan: «Бу ҳодиса кўпгина ишларда омоформалар деб юритилади. Лекин булар бир хил форма эмас, балки ҳар хил формалардир»[9].

«Omoforma» atamasiga munosabat ham bir xil emas. M. Mirtojiyev *oldi* kabi hosilalarni nutqiy omonim deb hisoblaydi va bu atamani tanqid qiladi, H. Jamolxonov, Sh. Rahmatullayev hamda «Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya» qo‘llanmasi mualliflari esa uni bemalol qo‘llaydi[10]. Atamalardagi farq bitta ilmiy maktab doirasida ham kuzatiladi. Sh. Rahmatullayevning ta’kidlashicha, so‘zshakllar orasidagi bunday omonimiya nutqda hosil bo‘ladi va omoleksemalar doirasi bilan cheklanmaydi. Shu hodisa olimning omonimlar izohli lug‘atida «omoso‘zforma», «Hozirgi adabiy o‘zbek tili» darsligida «omoleksemashakl», uning ishtirokida tuzilgan yangi omonimlar lug‘atida esa «omoso‘zshakl» deb atalgan[11]. Bu turda lemma ham, so‘z turkumi ham, affikslar zanjiri ham birgalikda o‘zgaradi.

5. Grammatik-kategorial noaniqlik. Bunday noaniqlikda so‘zshaklning lemmasi, turkumi va morfemalarga bo‘linishi bir xil qoladi, morfemaning sinfi ham o‘zgarmaydi, faqat affiks ifodalaydigan grammatik ma’no farqlanadi. «Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya» qo‘llanmasida o‘zlik va majhul nisbatning omonimik xususiyatga egaligi ta’kidlanadi: *osildi, tashlandi, to‘kildi* fe’llarining qaysi nisbatda ekani qurshovdan bilinadi[12]. A. Pardayev keltirgan Sh. Shahobiddinova

[1] Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 165. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ўша асар. – Б. 192–193.

[2] Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ўша асар. – Б. 164.

[3] Ғуломов А., Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг морфем луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б. 399.

[4] Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан, 1975. – Б. 85.

[5] Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 49.

[6] Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: Фан, 2010. – Б. 59–60.

[7] Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 14.

[8] Абдураҳмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 57, 59–60. Содиқов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида боғлама. – Т.: Фан, 1984. – Б. 21–22.

[9] Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ўша асар. – Б. 113.

[10] Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Б. 60–61. Jamolxonov H. O‘sha asar. – B. 240. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Б. 41. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Ўша асар. – Б. 435.

[11] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 6. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Б. 43. Rahmatullayev Sh. va b. O‘sha asar. – B. 26.

[12] Замонавий ўзбек тили. Морфология. Ўша асар. – Б. 306.

fikriga ko‘ra, egalik affiksi *-(s)i* birlikka ham, ko‘plikka ham ishora qilaveradi[1]. A. Hojiyev ko‘plik ifodalovchi *-lar* kategorial formani, hurmat ifodalovchi *-lar* esa funksional formani hosil qilishini ko‘rsatadi. Ularning so‘zdagi o‘rni ham har xil: hurmat bildiruvchi *-lar* egalik affiksidan keyin, ko‘plik ko‘rsatkichi *-lar* esa undan oldin qo‘shiladi (*akamlar – akalarim*)[2]. Bu tartib analizator uchun ishonchli belgi bo‘la oladi. Avtomatik tahlilda bu turdagi nomzodlarning lemmasi bitta bo‘lib, ular faqat grammatik teglari bilan farqlanadi.

6. Funksional noaniqlik. Bu turda bir birlik goh mustaqil so‘z, goh yordamchi vosita vazifasida keladi. Sh. Rahmatullayevning omonimlar izohli lug‘atida ham, yangi omonimlar lug‘atida ham mustaqil fe’l bilan ko‘makchi fe’l o‘zaro omonim deb qaralgan va lug‘atga kiritilgan[3]. A. Pardayev fikricha, mustaqil-yordamchi so‘zlar sof yordamchi so‘zlar bilan sof mustaqil so‘zlar orasida oraliq o‘rinni egallaydi[4]. Analizator bu turda so‘z turkumini (mustaqil yoki yordamchi) va sintaktik vazifani birgalikda tanlashi kerak bo‘ladi.

7. Noaniqlik turlarining avtomatik tahlildagi o‘rni. B. Elov va hammualliflari ta’kidlaganidek, chekli holatli analizator noaniqlikni hal qilmaydi: shaklan o‘xshash tahlillarning barchasini chiqarib, to‘g‘risini tanlashni keyingi bosqichga qoldiradi[5]. Yuqoridagi tahlil natijalarini noaniqlik turlari analizator natijasining qaysi qismiga ta’sir qilishiga qarab umumlashtirdik (1-jadval).

1-jadval. O‘zbek tilida morfologik noaniqlik turlari va ularning avtomatik tahlildagi o‘rni (muallif tasnifi)

Noaniqlik turi	Misol	Analizatorda farqlanadigan qism	Asosiy kontekst belgisi
Leksik-morfologik: turkumdosh	mol (chorva / gazlama)	lemma	keng (semantik) kontekst
Leksik-morfologik: noturkumdosh	o‘t (ot / fe’l), sur (ot / sifat)	lemma va so‘z turkumi	yaqin qurshov, grammatik shakl
Affiksal	-ki (turtki / ichki), -im (terim / qo‘lim), -ma, -dir (yozdir / shoirdir)	affiks tegi, ba’zan so‘z turkumi	asos turkumi, affikslar tartibi
So‘zshakl (segmentatsion)	gullar (gul+lar / gulla+r), oldi (old+i / ol+di)	morfemalarga bo‘linish, lemma, so‘z turkumi	sintaktik qurshov
Grammatik-kategorial	osildi (o‘zlik / majhul), -(s) i (birlik / ko‘plik), -lar (ko‘plik / hurmat)	grammatik belgi (teg)	qurshov, affikslar tartibi
Funksional	mustaqil fe’l / ko‘makchi fe’l, bo‘l	so‘z turkumi va sintaktik vazifa	sintaktik qurilma

Jadvalning oxirgi ustunini korpusda tekshirilishi lozim bo‘lgan faraz sifatida taqdim etamiz. H. Ne’matov va R. Rasulov mustaqil leksemalarni ajratishda qurshov (distributsiya) hal qiluvchi omil ekanini, morfemalar bosqichida qurshov omili hisobga olinganda shaklan o‘xshash, mazmunan farqli birliklar soni deyarli ikki baravar kamayishini ko‘rsatgan[6]. C. Manning va H. Schütze esa yaqin strukturaviy belgilar so‘z turkumini aniqlashda juda foydali bo‘lsa-da, bitta turkum ichidagi ma’noni aniqlashda deyarli yordam bermasligini qayd etadi[7]. Bundan kelib chiqadiki, noturkumdosh omonimlarni yaqin qurshov yordamida farqlash mumkin, turkumdosh omonimlar uchun esa kengroq semantik kontekst kerak bo‘ladi. Sh. Hamroyeva ayrim affikslarning (*-kin*: *keskin* / *to‘kkin*) asosga nisbatan o‘rnini model orqali aniqlab bo‘lmasligini ko‘rsatadi[8]. Demak, affiksal noaniqlikni faqat morfotaktik qoidalar bilan to‘liq hal qilib bo‘lmaydi. Shuning

[1] Pardayev A.B. Grammatizatsiya va yordamchi so‘zlar. – Samarqand: SamDU nashri, 2012. – B. 41.
[2] Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Б. 50–51.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Б. 12. Rahmatullayev Sh. va b. O‘sha asar. – B. 32.
[4] Pardayev A.B. Grammatizatsiya va yordamchi so‘zlar. – B. 44.
[5] Elov B.B., Abdullayeva O.X., Abdullayeva F.Sh., Alavutdinova N.G. Methods of Morphological and Syntactic Analysis for the Uzbek Language // 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK 2025). – Istanbul: IEEE, 2025. – P. 465.
[6] Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўша асар. – Б. 86–87.
[7] Manning C.D., Schütze H. Foundations of Statistical Natural Language Processing. – Cambridge, MA: The MIT Press, 1999. – P. 231.
[8] Хамроева Ш.М. Ўша асар. – Б. 31.

uchun tasnifdagi har bir tur teglar to‘plamida alohida aks ettirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, morfologik noaniqlik omonimiyaning keng talqiniga tayanadi va leksema, morfema hamda so‘zshakl sathlarida namoyon bo‘ladi. Manbalarda omonimiyani ko‘p ma’nolilikdan farqlashda semantik aloqaning yo‘qligi asosiy mezon sifatida olingan.

Ikkinchidan, o‘zbek tilshunosligidagi qarashlar asosida morfologik noaniqlikning besh turini ajratdik: leksik-morfologik (turkumdosh va noturkumdosh), affiksal, so‘zshakl (segmentatsion), grammatik-kategorial va funksional noaniqlik.

Uchinchidan, tasnif bilan bog‘liq to‘rt munozarali masala, ya’ni turkumlararo omonimiya, affiks polisemiyasi, *-dir* affiksining maqomi va «omoforma» atamasi avtomatik tahlilda annotatsiya qarori ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Shu bois analizator lug‘ati va teglar to‘plamini tuzishda qaysi qarashga tayanilgani aniq ko‘rsatilishi lozim.

To‘rtinchidan, har bir tur analizator natijasining muayyan qismiga ta’sir qiladi. Leksik-morfologik va segmentatsion noaniqlik lemma va so‘z turkumini, affiksal va grammatik-kategorial noaniqlik grammatik teglarni, funksional noaniqlik esa so‘z turkumi va sintaktik vazifani belgilaydi. Taklif etilgan tasnifdan o‘zbek tili korpusini morfologik annotatsiya qilish qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Rezyume. Maqolada o‘zbek tilidagi morfologik noaniqlik turlari milliy tilshunoslikdagi nazariy qarashlar asosida tasniflanadi va har bir turning avtomatik morfologik tahlildagi o‘rni belgilanadi. Noaniqlikning besh turi ajratiladi: leksik-morfologik, affiksal, so‘zshakl (segmentatsion), grammatik-kategorial va funksional noaniqlik. Turkumlararo omonimiya, affiks polisemiyasi, -dir affiksining maqomi va «omoforma» atamasi bilan bog‘liq to‘rt munozarali masala ko‘rsatiladi. Bu munozaralar avtomatik tahlilda annotatsiya qarori sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi, har bir tur analizator natijasining muayyan qismi bilan bog‘lanadi.

Resume. The article classifies types of morphological ambiguity in Uzbek on the basis of Uzbek linguistic theory and defines the role of each type in automatic morphological analysis. Five types are distinguished: lexical-morphological, affixal, word-form (segmentation), grammatical-categorial and functional ambiguity. Four debated issues are shown: cross-part-of-speech homonymy, affix polysemy, the status of the affix -dir and the term «omoforma». It is argued that these debates appear as annotation decisions in automatic analysis, and each type is linked to the part of the analyzer output it affects.

Резюме. В статье на основе теоретических взглядов узбекского языкознания классифицируются типы морфологической неоднозначности в узбекском языке и определяется роль каждого типа в автоматическом морфологическом анализе. Выделены пять типов: лексико-морфологическая, аффиксальная, словоформенная (сегментационная), грамматико-категориальная и функциональная неоднозначность. Показаны четыре дискуссионных вопроса: межчастеречная омонимия, полисемия аффиксов, статус аффикса -дир и термин «омоформа». Обосновано, что эти дискуссии проявляются в автоматическом анализе как решения по разметке, и каждый тип соотнесён с той частью результата анализатора, на которую он влияет.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA MAKON DEYKSISINI O'RGANISHNING LINGVOPRAGMATIK VA DISKURSIV YONDASHUVLARI

Hamroyev Sardor Akmaljon o'g'li,
Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslik va diskurs tahlilida badiiy matn nafaqat axborot uzatuvchi lisoniy birliklar tizimi, balki muallif va kitobxon o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar, mazmunni anglash hamda talqin qilish jarayonlari namoyon bo'ladigan murakkab kognitiv-kommunikativ makon sifatida ham o'rganiladi. Badiiy matnda muallif tomonidan yaratiladigan badiiy voqelik (*fictional world*) muayyan makoniy munosabatlar va idrok nuqtayi nazarlari asosida shakllanadi. Ushbu voqelikni lisoniy ifodalash, undagi obyektlar va qahramonlarning joylashuvini, harakat yo'nalishini hamda o'zaro makon munosabatlarini belgilashda makon deyksisi (*spatial deixis)* muhim lingvopragmatik vosita hisoblanadi. Uning talqini deyktik markaz, nutqiy vaziyat va diskurs konteksti bilan uzviy bog'liq bo'lib, badiiy matnda makoniy referensiyaning qanday shakllanishi va o'quvchi tomonidan qanday anglanishini o'rganish imkonini beradi[1].

Makon deyksisi geografik joylashuv va masofani ifodalash bilan cheklanmay, badiiy diskursda voqelikning muayyan idrok nuqtayi nazaridan taqdim etilishi hamda makon munosabatlarining kontekstual talqinida ham muhim o'rin tutadi. Uning lingvopragmatik va diskursiv xususiyatlarini o'rganish makoniy ma'nolarning deyktik markaz, idrok nuqtayi nazari va matn konteksti bilan bog'liq holda shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Xorijiy tilshunoslikda K.Byuler, Ch.Fillmor, S.Levinson va J.Layons deyksisning nazariy hamda pragmatik asoslarini tadqiq etgan bo'lsalar, D.Zubin va L.Xyuit badiiy matnda deyktik markazning shakllanishi va o'zgarishini o'rganganlar. Ularning nazariy qarashlari makon deyksisini lisoniy vositalar, idrok nuqtayi nazari va diskurs konteksti o'zaro ta'sirida shakllanadigan hodisa sifatida tahlil qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi[2].

O'zbek tilshunosligida deyktik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlari A.Hojiyev, Sh.Shahobiddinova, B.Yo'ldoshev, M.Hakimov va X.Qodirovalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Biroq makon deyksisining badiiy asardagi lingvopragmatik va diskursiv xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy o'rganish, xususan, uning idrok nuqtayi nazari va fokalizatsiya bilan aloqasini aniqlash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi badiiy matnda makon deyksisini lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlar asosida tahlil qilish hamda ingliz va o'zbek materiallari misolida uning lisoniy xususiyatlari va kontekstual vazifalarini qiyosiy aniqlashdan iborat[3].

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini K.Byulerning ko'rsatish maydoni (*Zeigfeld*) va deyktik markaz (*Origo*) haqidagi qarashlari, badiiy narrativda deyktik markazning o'zgarishini izohlovchi deyktik siljish nazariyasi (*Deictic Shift Theory - DST*), shuningdek, M.Bal va G.Genette tomonidan ishlab chiqilgan narrativ fokalizatsiya konsepsiyalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida makon deyksisining lingvopragmatik va diskursiv xususiyatlarini aniqlash maqsadida lingvopragmatik tahlil, diskursiv tahlil, kognitiv-poetik modellashtirish hamda qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar ingliz va o'zbek badiiy matnlarida makon birliklarining struktur-semantik xususiyatlarini, deyktik markaz bilan munosabatini va kontekstual-pragmatik vazifalarini o'zaro qiyosiy o'rganishga imkon beradi[4].

K.Byulerning nazariyasiga ko'ra, deyktik markaz (*Origo*) shaxs, makon va zamon koordinatalariga asoslanadi. Ushbu koordinatalar *ego* («men»), *hic* («bu yerda») va *nunc* («hozir») tushunchalari orqali ifodalanib, tegishlicha shaxs, makon va zamon o'qlarini belgilaydi. Badiiy asarda voqealar muayyan idrok nuqtayi nazaridan taqdim etilishi natijasida

[1] Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 54-89; Zubin E.A., Hewitt L.E. The Deictic Center, Deictic Space, and Deictic Shift in Narrative // Deixis in Narrative. – Hillsdale: Erlbaum, 1995. – P. 129-158.

[2] Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 54-89; Zubin E.A., Hewitt L.E. The Deictic Center, Deictic Space, and Deictic Shift in Narrative // Deixis in Narrative. – Hillsdale: Erlbaum, 1995. – P. 129-158.

[3] Hakimov M. O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo'nalishi: shakllanishi va istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 45-62.

[4] Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – P. 185-210.

deyktik markazning o‘zgarishi yoki qayta belgilanishi mumkin. Deyktik siljish (*Deictic Shift*) deb ataladigan ushbu hodisa kitobxonning matnda tasvirlangan voqelikni hikoya qiluvchi subyekt yoki qahramonning makon-zamon mo‘ljallari hamda idrok nuqtayi nazari bilan bog‘liq holda talqin qilishini izohlashga xizmat qiladi. Biroq deyktik markazning qayta belgilanishi va voqealarning muayyan idrok nuqtayi nazaridan yoritilishi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular nazariy jihatdan farqlanuvchi hodisalardir[1].

Badiiy diskursda makon deyksisining struktur-semantik va lingvopragmatik xususiyatlarini tizimli o‘rganish maqsadida mazkur tadqiqot doirasida besh bosqichdan iborat analitik model taklif etiladi. Model makon birliklarining lisoniy shakli, deyktik markaz bilan munosabati, harakat yo‘nalishini ifodalash xususiyatlari hamda diskurs kontekstidagi vazifalarini izchil tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

Birinchi bosqich – deyktik markazni (*Origo*) aniqlash. Ushbu bosqichda matndagi makoniy mo‘ljal qaysi nuqtayi nazardan belgilanishi aniqlanadi. Bunda so‘zlovchi, hikoya qiluvchi subyekt yoki qahramon bilan bog‘liq deyktik markaz, shuningdek, tasvirlangan obyektlarning ushbu markazga nisbatan joylashuvi o‘rganiladi.

Ikkinchi bosqich – proksimal va distal ko‘rsatkichlarni aniqlash va tasniflash. Matnda yaqinlik yoki uzoqlik munosabatlarini ifodalovchi lisoniy birliklar ajratilib, ularning semantik xususiyatlari va kontekstdagi qo‘llanishi tahlil qilinadi. Jumladan, o‘zbek tilidagi *bu, shu, u, o‘sha, bu yerda, u yerda* hamda ingliz tilidagi *this, that, here, there* birliklari tegishli kontekst asosida ko‘rib chiqiladi. Bunda mazkur birliklarning makon talqini faqat fizik masofaga emas, balki nutqiy vaziyat va diskurs sharoitiga ham bog‘liqligi hisobga olinadi.

Uchinchi bosqich – harakat fe’llari va yo‘nalish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish. Bu bosqichda harakatning deyktik markaz tomon yo‘nalishi yoki undan uzoqlashishini ifodalovchi fe’llar va boshqa lisoniy vositalar o‘rganiladi. Ingliz tilidagi *come, go* hamda o‘zbek tilidagi *kelmoq, bormoq, ketmoq* kabi fe’llarning ma’nosi harakat yo‘nalishi, boshlanish va tugash nuqtalari hamda kontekst bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.

To‘rtinchi bosqich – deyktik siljish (*Deictic Shift*) holatlarini aniqlash. Bunda matn davomida makoniy mo‘ljalning o‘zgarishi, deyktik markazning boshqa nuqtayi nazar bilan bog‘lanishi yoki voqealarning boshqa makoniy koordinatalar asosida talqin qilinishi kuzatiladi. Aniqlangan holatlar matnning narrativ tuzilishi va konteksti bilan bog‘liq holda izohlanadi.

Beshinchi bosqich – diskursiv va kognitiv-pragmatik talqin. Yakuniy bosqichda makon birliklarining matn mazmunini tashkil etish, obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish va voqealarning muayyan idrok nuqtayi nazaridan taqdim etilishidagi vazifalari baholanadi. Zarur hollarda ularning kitobxonning badiiy voqelikni tasavvur qilishi, qahramonlar bilan bog‘liq emotsional munosabatni shakllantirish yoki matndagi makoniy kontrastlarni anglash jarayoniga qo‘shadigan hissasi ham tegishli kontekstual dalillar asosida tahlil qilinadi.

Mazkur model makon deyksisini alohida lisoniy birliklar doirasida emas, balki ularning struktur-semantik xususiyatlari, deyktik markaz bilan munosabati va diskurs kontekstidagi vazifalari birligida o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, u ingliz va o‘zbek badiiy matnlarini yagona tahlil mezonlari asosida qiyoslash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek badiiy asarlari materiallarining tahlili makon deyksisi vositalarining struktur-semantik xususiyatlari hamda pragmatik vazifalari har ikki tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Makon birliklarining ma’nosi ularning lisoniy shakli bilangina belgilanmay, deyktik markaz, nutqiy vaziyat va badiiy diskurs konteksti bilan o‘zaro munosabatda shakllanadi. Quyida ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridan olingan misollar asosida makon deyksisining lingvopragmatik va diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi.

Abdulla Qodiriyning *«O‘tkan kunlar»* romanida makon munosabatlari personajlar harakati va voqealar rivojini tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. Asar matnida qo‘llangan ko‘rsatish birliklari va makon bildiruvchi vositalarni tahlil qilish orqali ularning referensial xususiyatlari hamda kontekstga bog‘liq pragmatik vazifalarini aniqlash mumkin.

Masalan, quyidagi parchada *«o‘sha kuni»* va *«bu yerda»* birliklari makon-zamon referensiyasini shakllantirishda ishtirok etadi:

«*O‘sha kuni Otabek Marg‘ilondan qaytib, bu tor xonada yolg‘iz qoldi. Bu yerda uning xayolidan faqat bir siymolar o‘tar edi...*»[2]

Parchadagi *«o‘sha kuni»* birikmasi zamoniy referensiyani, *«bu tor xonada»* va *«bu yerda»* birliklari esa makon referensiyasini ifodalaydi. *«Bu»* ko‘rsatish birligining takroriy qo‘llanishi tasvirlanayotgan makonni aniqlashtiradi va keyingi jumlada shu makonga qayta murojaat qilinishini ta’minlaydi. Mazkur birliklarning talqini Otabek joylashgan xona bilan bog‘liq vaziyat asosida shakllanadi. Shu tariqa, makon ko‘rsatkichlari badiiy voqelikdagi joylashuvni

[1] Herman D. Story Logic: Problems and Possibilities of Narrative. – Lincoln: University of Nebraska Press, 2002. – P. 231-265.
[2] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 84.

aniqlashtirish bilan birga, matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Cho'lponning **«Kecha va kunduz»** romanida esa makon deyksisi subyektiv idrok nuqtayi nazari va ijtimoiy-siyosiy tazyiq muhitini yaratishga xizmat qiladi. Zebi obrazining tutqunlikdagi holati tasvirlanganda, makon deyksisi psixologik qamal holatini aks ettiradi: «*U yerda tun va kunning farqi yo'q edi. Zebi bu tor, qorong'i hujraga qaradi-da, chuqur ho'rsindi: «E xudo, men bu yerga qanday tushib qoldim?»*«[1]

Matnda *«u yerda»* birikmasi dastlab hikoya qiluvchi subyektning distal makon nuqtayi nazarini ifodalasa, Zebining ichki nutqidagi *«bu yerga»* proksimal deyksisi o'quvchida subyektiv deyktik siljishni yuzaga keltiradi hamda qahramonning umidsizlik va chorasizlik tuyg'ularini bevosita idrok etish imkonini yaratadi.

O'tkir Hoshimovning *«Dunyoning ishlari»* qissasida makon deyksisi o'tmish xotirasi va makon idrokining o'zaro munosabati asosida shakllanadi. Asarda o'tmishdagi makon bilan hikoya qilinayotgan hozirgi zamon o'rtasidagi semantik bog'liqlik ona obrazi orqali namoyon bo'ladi: «*Bu hovlida har bir giyoh onamning qo'li bilan ekilgan edi. O'sha paytlari men bu eshikdan har kuni shoshib kirib kelardim...»*[2]

Bu yerda «bu hovlida» iborasi jismoniy va ruhiy proksimallikni saqlab qolgan bo'lsa, «o'sha paytlari» va «kirib kelardim» (harakatning deyktik markazga - uyga tomon yo'nalganligi) onaga bo'lgan cheksiz mehr va sog'inchni ifodalovchi lingvopragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz badiiy asarlarida ham makon deyksisi narrativ va psixologik masofani belgilashda muhim o'rin tutadi. James Joyce'ning **«Eveline»** hikoyasida bosh qahramon Evelinening ruhiy ikkilanishi va qaror qabul qila olmasligi makon deyksisining immobilizatsiyasi orqali tasvirlangan: «She sat *by the window watching the evening invade the avenue. Few people passed. Home! She looked round the room, reviewing all its familiar objects which she had dusted once a week for so many years...»*[3]

Matndagi *«by the window»* va *«round the room»* birikmalari Evelinening jismoniy harakatsiz holatini hamda uning makoniy idrok markazi o'zi ulg'aygan xona bilan chegaralanganini anglatadi. Hikoya so'ngida bandargohdagi sahnada esa: «He rushed *beyond the barrier and called to her to follow. He was shouted at to go on but he still called to her...»* parchasida Frankning *«beyond the barrier»* joylashuvi bilan voqealarning Eveline idroki orqali berilishi o'rtasida sezilarli makon masofasi yuzaga keladi. Ushbu distal qarama-qarshilik qahramonning qaror qabul qila olmay, harakatdan tiyilib qolgan ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Daniel Defoening **«Robinson Crusoe»** asarida keltirilgan parchada Robinsonning makonni idrok etishi va o'z harakati orqali uni bosqichma-bosqich o'zlashtirishi tasvirlangan: «I walked about the shore, lifting up my hands, and my whole being, as I may say, wrapt up in the contemplation of my deliverance... I *came to a little plain, where I resolved to fix my tent...»*[4]

«I walked about the shore» birikmasi qahramonning sohil bo'ylab harakatini bildiradi, *«I came to a little plain»* esa *came to* fe'li orqali harakatning muayyan manzilga *kichik tekislikka* yo'nalganini ko'rsatadi. Bu yerda *came to* ifodasi o'z-o'zidan deyktik markaz almashganini anglatmaydi; u, avvalo, makondagi harakat va manzilga yetib borishni ifodalaydi.*»Where I resolved to fix my tent»* qismida *where* olmoshi *a little plain* makoniga qayta ishora qiladi. *«Fix my tent»* esa qahramonning shu joyni vaqtincha boshpana qurish uchun tanlaganini bildiradi. Demak, parcha doirasida makon avval harakat yo'nalishi orqali aniqlanadi, so'ng qahramonning qarori bilan amaliy faoliyat makoniga aylanadi. Biroq ushbu jumlalarning o'zi tekislikni xavfsiz yoki shaxsiy deyktik markaz (*Origo*) sifatida belgilashga yetarli asos bo'lmaydi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillari tizimidagi strukturaviy tafovutlar badiiy matnda makon deyksisining ifodalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qardosh bo'lmagan tillarida makon deyksisining ifodalanishi ko'rsatish birliklarining semantik-pragmatik xususiyatlari hamda grammatik vositalarining o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Shu bilan birga, har ikki tilda makon munosabatlari ko'rsatish birliklaridan tashqari, kelishik shakllari, predlogli konstruksiyalar, kontekst va pragmatik omillar vositasida ham yuzaga chiqadi. Tillararo qiyosda mazkur tizimlarni faqat deyktik bosqichlar soni bilan emas, balki ularning semantik, grammatik va pragmadiskursiv funksiyalari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Quyida ushbu lisoniy va pragmatik farqlar umumlashtirilgan. Ingliz tilida makon deyksisi, avvalo, *this/these* va *that/those* ko'rsatish birliklari, shuningdek, *here/there* ravishlari hamda *in, at, on, into, out of, beyond* kabi predlogli birikmalar orqali ifodalanadi. *This/these* va *that/those* birliklari odatda proksimal va distal qarama-qarshilikni bildiradi; ularning aniq talqini esa nutq vaziyati va matn kontekstiga bog'liq.

[1] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – B. 142.
[2] Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. – B. 56.
[3] Joyce J. Dubliners. – London: Grant Richards, 1914. – P. 36.
[4] Defoe D. Robinson Crusoe. – London: W. Taylor, 1719. – P. 78.

Predloglar obyektning joylashuvi yoki harakat yo‘nalishini aniqlashtiradi.

O‘zbek tilida makon deyksisi *bu, shu, u, ana u* kabi ko‘rsatish birliklari, *bu yerda, u yerda* singari birikmalar hamda *-da, -dan, -ga* kelishik qo‘shimchalari yordamida ifodalanadi. *Kelmoq, bormoq, ketmoq, kirmoq, chiqmoq* fe’llari ham harakatning yo‘nalishi va mo‘ljal nuqtasini anglashga xizmat qiladi. Ko‘rsatish birliklarining yaqinlik yoki uzoqlik ma’nosi nutq vaziyati va kontekstga qarab belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, makon deyksisi badiiy matnda joy va yo‘nalishni ko‘rsatish bilan birga, voqealarning qaysi idrok nuqtayi nazaridan berilishini ham belgilashga xizmat qiladi. Ingliz va o‘zbek nasri misollari makoniy ma’nolar ko‘rsatish birliklari, kelishik shakllari, predloglar hamda harakat fe’llari orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Bu vositalarning talqini deyktik markaz va matn kontekstiga bog‘liq. Taklif etilgan besh bosqichli model ularni izchil tahlil qilish va ikki tildagi qo‘llanish xususiyatlarini qiyoslash uchun metodik asos bo‘la oladi.

Rezyume. Ushbu tadqiqot badiiy matnlardagi fazoviy deiksichni lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlar uyg‘unligi asosida o‘rganadi. Karl Byulerning deiktik markaz (Origo) tushunchasi hamda Deiktik siljish nazariyasi (Deictic Shift Theory – DST)ga tayangan holda, maqolada fazoviy ko‘rsatkichlarning hikoya fokusini belgilash, o‘quvchi diqqatini yo‘naltirish va uni asar olamiga to‘liq singdirishdagi (kognitiv sho‘ng‘ish) roli tahlil qilinadi. O‘zbek nasri (A.Qodiriy, Cho‘lpon, O‘.Hoshimov) va ingliz nasri (J.Joys, D.Defo) namunalarini qiyosiy tahlil qilish orqali, muallif til tuzilishidagi farqlar hissiy masofa va subyektiv nuqtayi nazarni qanday shakllantirishini ko‘rsatib beradi. Matndagi barcha badiiy parchalar qo‘shtirnoqqa olingan va kursivda berilgan. Tadqiqotda badiiy diskursdagi fazoviy deiksichni tizimli baholashga qaratilgan 5 bosqichli tahliliy model taklif etiladi.

Resume. This study examines spatial deixis in literary texts through a combined linguopragmatic and discursive framework. Utilizing Karl Bühler’s concept of the deictic center (Origo) and the Deictic Shift Theory (DST), the paper analyzes how spatial markers establish narrative focalization, direct reader attention, and foster cognitive immersion. Through a comparative analysis of Uzbek prose (A.Qodiriy, Cho‘lpon, O‘.Hoshimov) and English prose (J.Joyce, D.Defoe), the article demonstrates how structural language differences shape emotional distance and subjective perspective. All literary extracts within the text are framed in quotation marks and italics. The paper proposes a 5-step analytical model for systematically evaluating spatial deixis in literary discourse.

Резюме. В данной статье исследуется пространственная дейксис в художественном тексте на основе лингвопрагматического и дискурсивного подходов. На основе теории дейктического центра (Origo) К. Бюлера и теории дейктического сдвига (DST) анализируется роль пространственных указателей в формировании нарративной фокализации и когнитивной иммерсии читателя. В ходе сопоставительного анализа произведений узбекской (А. Кадыри, Чулпан, У. Хошимов) и английской (Дж. Джойс, Д. Дефо) прозы раскрываются языковые и прагматические особенности ориентации в пространстве. Все литературные примеры в тексте оформлены в кавычках и курсивом. Предложена 5-этапная модель анализа пространственной дейксиса.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAID AHMADNING «UFQ» TRILOGIYASIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Qurbonova Marjona Erkinjon qizi,
Qarshi davlat universiteti magistranti

Badiiy matndagi shaxs nomi personajni boshqalardan farqlash vositasi bo'lish bilan cheklanmaydi. U muayyan til jamoasining dunyoni idrok etish tarzi, qadriyatlari, tarixiy xotirasi va muomala me'yorlarini ham o'zida saqlashi mumkin. Shu ma'noda antroponimni lingvokulturologik tahlil qilishda uning lug'aviy ma'nosigina emas, balki nom qo'yishga sabab bo'lgan madaniy motiv, ismning oilaviy va jamoaviy xotiradagi o'rni, murojaat jarayonida yuzaga keladigan konnotatsiya hamda badiiy kontekst bilan munosabati birgalikda o'rganiladi. B. Yo'ldoshev poetik antroponimika masalalarida nomning nominativ vazifasi bilan birga funksional-uslubiy imkoniyatlariga e'tibor qaratib, badiiy nomlarni syujet va konflikt bilan bog'liq keng kontekstda tekshirish zarurligini ta'kidlaydi.[1]

M. Yo'ldoshev, S. Muhamedova va M. Saparniyazova «Matn lingvistikasi» qo'llanmasida qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasidagi muvofiqlik ekspressiv effekt hosil qilishini qayd etadilar.[2] Lingvokulturologik yondashuv bu kuzatuvni yanada kengaytiradi: ism va obraz munosabati individual xarakter bilan birga jamiyatga xos qadriyatlar tizimi bilan ham bog'lanadi. «Ufq»dagi ayrim antroponimlarda ismning ijobiy lug'aviy mazmuni personaj taqdiri bilan uyg'unlashsa, boshqalarida aksincha, semantik zidlik yuzaga keladi. Bunday holatlarda nom madaniy tasavvur bilan badiiy voqelik to'qnashadigan mazmuniy nuqtaga aylanadi.

M. Saidova va U. Qo'ziyev V. V. Vorobyevga tayangan holda lingvokulturemani «lisoniy va nolisoniy (tushuncha va predmet) mazmunning dialektik birligi» sifatida izohlaydilar.[3] Antroponimga shu nuqtayi nazardan qaralganda, ism til belgisi sifatida bir shaxsni ataydi, ammo uning ortida xalqning tilagi, diniy tasavvuri, oilaviy tajribasi, axloqiy ideali yoki ijtimoiy bahosi mavjud bo'lishi mumkin. Sh. D. Turdiqulov onimlarning tilning kumulyativ, ya'ni avlodlar tajribasiga oid bilimlarni jamlash vazifasini voqelantirishini ta'kidlaydi.[4] Demak, «Ufq»dagi antroponimlar personajlar tizimining unsuri bo'lish bilan birga o'zbek xalqining madaniy xotirasini badiiy matnda saqlovchi birliklar sifatida ham o'qilishi mumkin.

Tadqiqot materiali sifatida trilogiyaning 1976-yilgi nashri olindi. Ismlarning leksik asoslari «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi ma'nolar bilan qiyoslandi; nomlash motivlarini sharhlashda o'zbek antroponimikasi va lingvokulturologiyaga oid manbalarga tayanildi. Tahlilda uch bosqichga amal qilindi: avvalo ism yoki nomlash shaklining lug'aviy-semantik asosi aniqlandi; so'ng uning ortidagi milliy-madaniy motiv ajratildi; nihoyat, bu motiv personaj taqdiri, dialog, jamoaviy munosabat va badiiy vazifa bilan bog'landi. Shu tariqa lug'aviy ma'no bilan muallif yaratgan kontekst bir-biriga tenglashtirilmay, ularning o'zaro aloqasi ochib berildi.

Tursunboy ismi asardagi eng yorqin lingvomadaniy birliklardan biridir. O'zbek nomlash an'anasida farzandlari go'dakligida vafot etavergan oilalarda keyingi bolaning yashab qolishi tilagini ifodalovchi Tursun, Turg'un, O'lmas kabi asrovchi ismlar qo'yilgani qayd etiladi.[5] Shu an'ana doirasida Tursunboy tarkibidagi tursun komponenti oddiy «turmoq» fe'lining grammatik shakli emas, balki «umri davom etsin, yashab qolsin» mazmunidagi madaniy tilakni ifodalaydi. Bu yerda ism farzand hayotini asrashga qaratilgan xalqona e'tiqod, ota-onalik umidi va oilaviy fojia tajribasini birlashtirgan lingvokulturema sifatida namoyon bo'ladi.

Roman konteksti bu talqinni bevosita kuchaytiradi. Jannatning yetti farzandini tuproqqa qo'ygani, ulardan ikkitasi o'lik tug'ilgani, qolganlari esa bir-ikki yoshga yetmay vafot etgani aytiladi. Shundan keyin ota-onaning yolg'iz Tursunboyni nihoyatda avaylab

[1] Yo'ldoshev B. O'zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand, 2011. – 41–42-b.
[2] Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2021. – 118-b.
[3] Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология. – Наманган, 2017. – 15-b.
[4] Turdiqulov Sh. D. Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi. – Toshkent, 2023. – 3-b.
[5] Kadirova X. O'zbek ismlarining lingvistik tahlili. – Toshkent, 2023. – 13-b.

o‘stirgani ta’kidlanadi: «Shuning uchun ham yolg‘izi Tursunboyga shamolni ravo ko‘rmasdilar».[1] Demak, ism ma’nosi oilaning biografik xotirasi bilan tutashgan. Keyingi voqealarda esa asrovchi ismda mujassam «tirik qolish» qadriyati bilan qahramonning el-yurt oldidagi mas’uliyatdan qochishi o‘rtasida fojiali zidlik yuzaga keladi. Bu qarama-qarshilik o‘zbek madaniyatidagi «farzandning omonligi» va «el oldidagi or-nomus» qadriyatlarini bir semantik maydonda to‘qnash keltiradi.

Jannat ismi ham lingvokulturologik talqin uchun muhim. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da jannat diniy tasavvurda rohat-farog‘atli makon, behisht sifatida izohlanadi va xotin-qizlar ismi sifatidagi qo‘llanishi qayd etiladi.[2] O‘zbek antroponimik an’anasida diniy-ma’naviy mazmunli ismlar farzandga ezgulik, saodat va baraka tilash bilan bog‘liq. Shu sababli Jannat nomi faqat «go‘zal ism» emas, balki rohat, osoyishtalik va baxt haqidagi madaniy idealni tashuvchi birlikdir. Biroq qahramonning yetti farzand dog‘ini ko‘rishi va tirik qolgan o‘g‘lining qilmishidan iztirob chekishi ismning madaniy semantikasi bilan hayotiy taqdir o‘rtasida kuchli antiteza hosil qiladi. Natijada «jannat» konseptining farog‘at mazmuni fojiali kontekstda aks ma’no kasb etib, onalik iztirobini yanada teranlashtiradi.

Ikrom ismi o‘zbek muomala madaniyatining tayanch qadriyatlaridan biri – izzat-hurmat konsepti bilan bog‘lanadi. Izohli lug‘atda ikrom «hurmat, izzat» ma’nosida izohlanadi.[3] Asarda Ikromning keksa kishiga handalak tutishi, hassasini uzatishi va ariqdan o‘tishiga ko‘maklashishi ism semantikasi bilan xatti-harakat o‘rtasida uyg‘unlik yaratadi.[4] Lingvokulturologik jihatdan bu epizod kattani e’zozlash, xizmat ko‘rsatish va hurmatni faqat so‘z bilan emas, amaliy harakat bilan namoyon etish kabi o‘zbek axloqiy me’yorlarini aks ettiradi. Shunday qilib, Ikrom ismi personajning individual fazilatidan tashqari, jamiyat tomonidan maqbul deb topilgan xulq modelini ham faollashtiradi.

Ikrom bilan keksa suhbatdosh o‘rtasidagi «Ikrommisan? Tinchmisan, bolam?» – «Ha, topdingiz, buva...» kabi murojaatlar yosh ierarxiyasiga asoslangan nutq etiketi bilan bog‘liq.[5] «Bolam» biologik qarindoshlikni shart qilmaydi; u yoshi katta kishining kichikka samimiy, homiyona munosabatini bildiradi. «Buva» esa suhbatdoshning aniq qarindoshi bo‘lmasa ham, yoshi ulug‘ erkakka hurmat ko‘rsatishning milliy-madaniy modeli sifatida ishlaydi. Demak, bu nomlash birliklarida o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining biologik chegaradan chiqib, ijtimoiy yaqinlik va ehtiromni ifodalovchi madaniy kodga aylanishi kuzatiladi.

Rasul buva nomlashida ham «buva» komponenti milliy muomala madaniyatidagi jamoaviy ehtiromni ifodalaydi. Muallif «Bu cholni butun yurt izzat qilardi» deb ta’kidlaydi. Kelin-kuyovlarning unga salom berishga olib kelinishi va chaqaloqning tizzasiga qo‘yilishi uning qishloq jamoasidagi ramziy maqomini ko‘rsatadi.[6] Bu urfiy harakatlarda keksa kishining duosi, roziligi va avlodlar uzviyligiga bo‘lgan ishonch namoyon bo‘ladi. Shuning uchun Rasul buva birikmasidagi buva oddiy yosh belgisi emas, balki oqsoqollik, tajriba, baraka va jamoaviy xotira konseptlarini birlashtiruvchi lingvomadaniy birlikdir.

Yo‘ldosh ota nomlashida «ota» so‘zi yanada keng ijtimoiy semantika kasb etadi. Rasul buvaning dafn marosimida «Ota kelayotibdilar. Yo‘ldosh ota kelayotibdilar» deyilishi bu shaxsning biologik qarindoshlik doirasidan tashqarida ham ota maqomida e’tirof etilganini ko‘rsatadi.[7] O‘zbek madaniyatida «ota» nafaqat qarindoshlik termini, balki katta hurmat, homiylik, rahnamolik va jamoaviy ishonchni bildiruvchi murojaat shaklidir. «Kelayotibdilar» kesimidagi hurmat ko‘pligi ham shu maqomni grammatik jihatdan mustahkamlaydi. Demak, antroponim + qarindoshlik termini modeli shaxsning ijtimoiy nufuzini til vositasida kodlaydi.

Yo‘ldosh Oxunboboyev, Yo‘ldosh ota va Yo‘ldoshvoy shakllarining almashishi ham nomning madaniy-pragmatik xususiyatini ko‘rsatadi. To‘liq ism-familiya rasmiy-jamoat maqomini, «ota» shakli xalqona ehtiromni, «Yo‘ldoshvoy» esa xotira va hissiy yaqinlikni faollashtiradi.[8] Shu jihatdan bir shaxsning turli nomlanishlari matnda tasodifiy variantlar emas. Ular o‘zbek muomala madaniyatidagi masofa–yaqinlik, rasmiylik–samimiylik oppozitsiyasini ifodalovchi pragmatik kod vazifasini bajaradi.

Oilaviy nutqda Tursunboyginangiz va bolaginam shakllari ota-onalik mehrining lingvomadaniy ifodasidir. Jannatning «Tursunboyginangiz uxlayapti» va «Tursunboy, bolaginam, qanisan?» kabi murojaatlari

[1] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 189-b.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. – Тошкент, 2006–2008. – 2-jild, 72-b.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. – Тошкент, 2006–2008. – 2-jild, 187-b.
[4] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 8-b.
[5] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 7–8-b.
[6] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 17-b.
[7] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 15-b.
[8] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 15–17-b.

-gina, -im singari erkalash va egalik vositalari orqali farzandga alohida yaqinlikni bildiradi.[1] Bunday diminutiv-emotiv shakllar o‘zbek oilaviy nutqida mehr, avaylash va himoya qilish munosabatlarini verbal shaklga ko‘chiradi. Tursunboyning oiladagi «yolg‘iz qolgan farzand» maqomi hisobga olinsa, bu erkalash shakllari uning ismidagi asrovchi semantikaning kundalik nutqda davom etishi sifatida baholanishi mumkin.

Nizomjon antroponimida -jon komponenti o‘zbek ismlar tizimida yaqinlik, mehr va samimiyat bilan bog‘langan qadimiy emotiv vositalardan biridir. Biroq Dildorning «Nizom, Nizomjon, kelma, dod deyman!» murojaatida bu shakl faqat erkalashni emas, keskin hayajon, iltijo va ogohlantirishni ham ifodalaydi.[2] Bu holat lingvokulturologik tahlilda morfemaning «lug‘aviy» yoki odatiy konnotatsiyasini konkret nutq vaziyatidan ajratmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Milliy nutq odatida -jon yaqinlik belgisi bo‘lsa-da, uning real pragmatik ma’nosi vaziyat va intonatsiya bilan shakllanadi.

Nizom pochchamiz nomlashida qarindoshlik terminining ikkilamchi, hazilomuz qo‘llanishi kuzatiladi. Qizlarning «Ana pochcha kelyaptilar!» va «Nizom pochchamiz-ku» deyishi hali yuz bermagan qarindoshlikni go‘yo mavjuddek tasavvur qilishga asoslanadi.[3] «Pochcha» o‘zbek qarindoshlik tizimida aniq ijtimoiy rolni bildiradi, -miz egalik shakli esa shaxsni guruhning «o‘z odami» sifatida yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, hurmat ko‘pligi va qarindoshlik atamasi bu epizodda kulgi va ijtimoiy bosim vositasiga aylangan. Demak, qarindoshlik leksikasi milliy madaniyatda nafaqat genealogik munosabatni, balki hazil, yaqinlashtirish va guruh ichidagi munosabatni boshqaruvchi pragmatik resursni ham ifodalaydi.

Indamas laqabi qahramonning kamgapligiga asoslangan bo‘lib, jamoaning shaxsni kuzatilgan xususiyat orqali nomlash tendensiyasini aks ettiradi.[4] Laqab bu yerda individual nomning o‘rnini to‘liq bosmaydi, balki guruh xotirasida qahramonning «ko‘rinadigan» belgisini siqilgan shaklda kodlaydi. Lingvokulturologik jihatdan bu hodisa jamoaviy nominatsiyaning baholovchi tabiatini namoyon etadi: shaxs o‘zini qanday tasavvur qilishidan qat’i nazar, guruh unga tashqi belgi asosida ikkilamchi nom beradi. Nizomjonning ichki kechinmalari bilan «Indamas» laqabining soddalashtiruvchi tavsifi o‘rtasidagi tafovut esa jamoaviy stereotip bilan individual ruhiy olam chegarasini ko‘rsatadi.

Kanal qurilishi paytidagi Tuya, Echki va Ko‘r laqablari o‘zbek askiya va davra madaniyati bilan bog‘liq holda yanada murakkab semantikaga ega. «Tuya» laqabiga qirq kun suvsizlikka chidash haqidagi kinoyali ishora hayvon haqidagi umumiy madaniy bilim bilan konkret shaxsga doir guruh xotirasini birlashtiradi.[5] «Echki» laqabi qahramonning siyrak soqoli va oqsaganda sakrab yurishi bilan bog‘lanadi. Bunday laqablar tashqi belgi asosidagi metaforik nominatsiyani ko‘rsatadi.[6] Ammo ularning mazmunini tushunish uchun lug‘aviy o‘xshatishning o‘zi yetarli emas; tinglovchi davra tarixini, shaxslararo yaqinlik darajasini va askiyaning o‘zaro «gap qaytarish» me’yorlarini ham bilishi kerak.

Teshaboyga qo‘yilgan Ko‘r laqabi esa laqabning madaniy chegarasini ko‘rsatadi. «Eshon hammani bir ko‘zda ko‘radiganlardan» tarzidagi hazil davra uchun kulgi manbai bo‘lsa-da, laqab egasining bunga munosabati bir xil emas.[7] Bu holatda askiyaning kollektiv quvonch va o‘zaro yaqinlik yaratish vazifasi bilan shaxsiy izzat-nafs chegarasi to‘qnashadi. Lingvokulturologik jihatdan muhim jihat shundaki, bir birlikning «hazil» yoki «haqorat» sifatida qabul qilinishi faqat uning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki suhbatdoshlarning maqomi, yaqinligi, vaziyat va jamoa ichidagi kommunikativ me’yorlar bilan belgilanadi. Shunday qilib, laqablar «Ufq»da askiya madaniyati, guruh birdamligi va shaxsiy qadrning murakkab nisbatini aks ettiradi.

Azizxon ismi «aziz» konsepti orqali qadr, ardoq va e’tirof mazmunini faollashtiradi. Izohli lug‘atda aziz «ardoqli, qadrli» ma’nosida izohlanadi.[8] Roman voqealarida Azizxonning jasorati butun qishloqning quvonchiga aylanadi va «Azizxonning jasorati qishloq ahlini qanchalar quvontirgan bo‘lsa, Tursunboyning qilmishi shuncha xafa qilgan edi» tarzida jamoaviy baho beriladi.[9] Bu qarama-qarshilikda «aziz bo‘lish» biologik yaqinlik emas, el nazaridagi qadrga sazovor bo‘lish bilan bog‘lanadi. Shaxsning jamoa uchun qiymati uning ijtimoiy mas’uliyati, jasorati va umumiy manfaatga xizmat qilishi orqali belgilanadi. Shu tariqa ismning lug‘aviy semantikasi o‘zbek madaniyatidagi «elga aziz bo‘lish» axloqiy idealiga ulanadi.

[1] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 9; 13-b.
[2] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 260-b.
[3] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 261-b.
[4] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 260-b.
[5] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 224-b.
[6] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 225-b.
[7] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 224–225-b.
[8] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. – Тошкент, 2006–2008. – 1-jild, 49-b.
[9] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 316-b.

Azizxon Ummataliyev va Ikromjon Usmonov kabi to‘liq ism-familiya shakllarining mukofot topshirish sahnasida qo‘llanishi nomlashning rasmiy-madaniy qatlamini ko‘rsatadi.[1] Kundalik muloqotdagi ism, «aka», «ota», «buva» kabi xalqona shakllardan farqli ravishda, ism-familiya va «o‘rtoq» murojaati shaxsning institutsional maqomini oldinga chiqaradi. Bu nomlashda individual shaxs jamoat oldida davlat va jamiyat tomonidan tan olingan subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Azizxonning to‘liq nomi eshitilganda odamlarning otasi Ummataliga qarashi esa rasmiy e’tirofning oilaviy sharaf bilan tutashishini ko‘rsatadi: farzandning obro‘si oila nomiga ham ijtimoiy qiymat qo‘shadi. Bu holat o‘zbek madaniyatidagi shaxs–oila–jamoa aloqasini antroponimik vosita orqali ochib beradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, «Ufq»dagi antroponimlarni faqat ismning lug‘aviy ma’nosi yoki obrazga mosligi doirasida talqin qilish yetarli emas. Tursunboy nomida asrovchi ism an’anasi va ota-onalik tilagi; Jannatda diniy-ma’naviy «jannat» konsepti bilan fojiali taqdir ziddiyati; Ikromda kattaga hurmat va amaliy ehtirom modeli; Azizxonda jamoaviy qadr va «elga aziz bo‘lish» ideali aks etadi. Rasul buva va Yo‘ldosh ota shakllari oqsoqollik, avlodlar davomiyligi va ijtimoiy hurmatni; Nizom pochchamiz qarindoshlik leksikasining hazil va guruh yaqinligini ifodalash imkoniyatini; Indamas, Tuya, Echki, Ko‘r laqablari esa jamoaviy baholash, askiya madaniyati va shaxsiy izzat chegarasini ko‘rsatadi.

Demak, Said Ahmad antroponimlardan tayyor «xarakter yorlig‘i» sifatida emas, turli madaniy qatlamlarni faollashtiruvchi badiiy vosita sifatida foydalanadi. Ism, laqab va murojaat shakllari orqali xalqning farzand haqidagi tilaklari, diniy tasavvurlari, kattani e’zozlash odati, qarindoshlikni ijtimoiy yaqinlik modeli sifatida ko‘rishi, jamoa oldidagi or-nomus va qadr mezonlari, askiyaga xos kommunikativ erkinlik kabi milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Shu bois «Ufq» antroponimiyasi til va madaniyatning uzviy munosabatini, shaxs nomining esa madaniy xotirani badiiy matnda saqlash va qayta talqin qilishdagi imkoniyatini ko‘rsatadigan muhim materialdir.

Rezyume. Maqolada Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasidagi antroponimlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, shaxs nomlarida o‘zbek xalqining nomlash an’analari, diniy-ma’naviy tasavvurlari, oilaviy xotirasi, yosh va maqomga asoslangan hurmat modeli, qarindoshlik konsepti hamda jamoaviy baholash me’yorlarining aks etishi yoritiladi. Tursunboy, Jannat, Ikrom, Azizxon kabi ismlarning lug‘aviy semantikasi badiiy kontekst va milliy-madaniy tajriba bilan qiyoslanadi; Rasul buva, Yo‘ldosh ota, Nizom pochchamiz singari nomlash shakllari va Indamas, Tuya, Echki, Ko‘r kabi laqablarning nutq etiketi, askiya madaniyati va guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi vazifasi ochib beriladi. Tahlil antroponimning faqat nominativ birlik emas, balki milliy qadriyat va madaniy xotirani mujassamlashtiruvchi lingvokulturema sifatidagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Resume. The article examines anthroponyms in Said Ahmad’s Ufq trilogy from a linguocultural perspective. It focuses on the representation of Uzbek naming traditions, religious and moral concepts, family memory, age- and status-based models of respect, the concept of kinship, and collective evaluation in personal names. The lexical semantics of Tursunboy, Jannat, Ikrom, and Azizxon are interpreted in relation to literary context and national-cultural experience, while forms of address such as Rasul buva, Yo‘ldosh ota, Nizom pochchamiz and nicknames such as Indamas, Tuya, Echki, and Ko‘r are analyzed as markers of speech etiquette, askiya culture, and group relations. The study demonstrates that an anthroponym in literary discourse functions not only as a nominative unit but also as a linguocultureme that preserves cultural memory and national values.

Резюме. В статье антропонимы трилогии Саида Ахмада «Уфк» рассматриваются в лингвокультурологическом аспекте. Анализируется отражение в личных именах узбекских традиций именования, религиозно-нравственных представлений, семейной памяти, возрастной и статусной модели уважения, концепта родства и коллективной оценки. Семантика имен Турсунбой, Жаннат, Икром и Азизхон сопоставляется с художественным контекстом и национально-культурным опытом; формы обращения Расул бува, Йулдош ота, Низом поччамиз и прозвища Индамас, Туя, Эчки, Кур исследуются как средства выражения речевого этикета, культуры аскии и внутригрупповых отношений. Делается вывод о том, что антропоним в художественном тексте выступает не только номинативной единицей, но и носителем культурной памяти и национальных ценностей.

[1] Саид Аҳмад. Уфқ: трилогия. – Тошкент, 1976. – 314-b.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHAFOAT RAHMATULLA TERMIZIYNING IJODIY YO'LI

Alimov Parda,
Termiz davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari nomzodi

Toshpo'latov Zayniddin Ibodullo o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Go'zallik singari, poeziya (adabiyot) ham go'zallikning ifoda etuvchisi – kohinidir; o'zidan tashqarida hech bir maqsadni ko'zda tutmaydigan, o'z-o'ziga maqsaddir. Agar u inson ruhini ko'kka ko'tarsa, uni oliyjanob ishlarga, ezgu niyatlarga chorlasa, bu uning ko'zda tutgan maqsadi emas, haqiqiy faoliyati, mohiyatining xossasidir. Bu o'z-o'zidan shoirning bir oz bo'lsa-da, oldindan belgilab qo'ygan rejasini amalga oshiradi. Shoir faylasuf emas, musavvirdir. Uning manzara va tasvirlaridagi hamisha mavzu, shuhratga to'la ijod – behudud va rang-barang hodisalarga boy olamidir. Poeziya ko'ngilga obrazlar bilan so'zlaydi va undagi obrazlar ibtidosi tabiatning barcha mo'jizaviy hodisalari va shakllari qurilishida toblanib turgan go'zallik ifodasining mohiyatidir. Lekin eng mavhum tushunchalarini ham fikr billur qirrasidan o'tgan nurdek ko'rinib turgan jonli va go'zal obrazlarga jo qila oladi. Shoir hamma narsada shakl va rang ko'radi va barcha narsaga shakl, rang beradi. Shoir uchun dunyodagi barcha hodisalar o'z-o'zicha mavjuddir. Shoir ularning bag'riga kiradi, ular bilan nafas oladi, muhabbati bilan yashaydi, ularni asrab-avaylaydi, o'zboshimchalik bilan ularning mohiyatini buzmaydi. Shuning uchun shoir o'zi kashf etgan dunyoni mushohada etishdan, o'z g'oyalarini singdirishdan to'xtamaydi.

She'riyat – ruhiyat hosilasi, uning ilohiy ne'mat ekanligini unutmaslik kerak. Ko'plab she'riy to'plamlar yaratgan shoir emas, buyuk ne'mat egalari shoir ekanligiga iqror bo'lish shart. Tasavvurimizda A. Oripov she'riyatida biror-bir bo'sh, ma'nosiz satrlar ko'zga tashlanmaydi. Bu esa A. Oripovni voqelikka o'ta sezgirlik bilan yondashishi, undan quruq bayon emas, hikmat izlashi hamda yaratgan bergan noyob iste'dod bilan o'lchanadi.

Adabiyotning vazifasi haqida bahs-munozaralar bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi tabiiy hol. Bir narsani unutmaslik kerak, insonning ruhiy olami doimo nimagadir muhtoj. Ana shu ruhiy bo'shliqni faqat va faqat adabiyot to'ldiradi.

Haqiqiy she'r inson qalbini qurshovga oladi, tuyg'ular oqimini muvozanatdan chiqaradi, ruhiy torlarda kutilmagan baxt(hissiyot)ni keltirib chiqaradi, kishi she'riyat quliga aylanib qoladi.

Shuni alohida uqtirish kerakki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, adabiyotimizda voqelikni badiiy idrok etish, inson ruhiy olami tasviri jiddiy o'zgarishga yuz tutdi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzaev, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdieva, Rauf Parfi, Uchqun Nazarov, Erkin A'zam, Usmon Azim, keyinchalik Isajon Sulton va Zulfiya Qurolboy qizi ijodida tasvirlashda inqilob yuz berdi, adabiyotda libosni yangilash san'ati kuzatildi, urf bo'lib qolgan, ancha zerikarli, ma'lum bir qolipdagi tasvirlardan voz kechildi, chinakamiga inson ruhiyati, uning tabiiy holatini yoritish asosiy omilga aylandi. Adabiyot insonshunoslik, ruhiy talab va ehtiyojga aylandi. Adabiyotimizda xalqning dardini badiiy haqiqat darajasiga ko'tarish kuchaymoqda.

R. Parfining shunday fikri bor: «Mozor sukunat, jimlik bilan ruhni tarbiyalaydi, san'at esa mung yordamida ko'ngildagi xasta tuyg'ularni davolaydi. Asar yurakning mahsuli, uning hosilasidir, u dilning qat-qatidan hech kim sezmaydigan, o'ta sirli nozik pardalarida tug'iladi. Odam odamdan muruvvat, shafqat, olijanoblik kutadi. Agar tuyg'ular yo'qolsa, dunyo huvillab qoladi. Yurakning parvarishiga muhtoj tuyg'ulardir.

Agar ana shu tuyg'ularga tilla sayqal tus berilmasa, o'lik tuyg'ularga aylanadi».

Nazar Eshonqulov: «Adabiyot tizimga emas, iymon va vijdonning azal va abad mohiyatidan kelib chiqib, inson ko'ngil zaminida tahlil qiladi. Tuzumlar o'tkinchi, chinakam asarlar esa inson ko'ngli o'lmagan ekan, yashaydi... Men hali ham Kafka, Joys, Kamyu, Prust, Folkner, Borxes, Onetti, Kortasar, Marks darajasidagi oqin ham, yozuvchi ham paydo bo'lgani yo'q deb hisoblayman».

Mashhur nazariyotchi olim Mixail Baxtin shunday deb yozgan edi... «Dostoyevskiy Gyotening Prometeyiga o‘xshash ovozsiz qullarni emas, balki o‘zlarini yaratgan ijodkor bilan bir safda tura oladigan, u bilan kelisha olmaydigan va hatto unga qarshi chiqadigan ozod odamlarni yaratadi. Qahramonning o‘zi va dunyo to‘g‘risidagi mulohazalari muallifning odatlari bilan teppa-teng, barobar keladi: uning mulohazalari qahramonning zarur xususiyatlaridan biri bo‘lgan obyektdagi obraziga bo‘ysunmaydi, ammo muallif mulohazalarini yetkazib beruvchi vazifasini ham bajarmaydi. U asar tizimida mustaqil, o‘ziga xos o‘rin tutadi, qahramon mulohazalari go‘yo muallif so‘zlari bilan yonma-yon tarzda eshitiladi va muallif so‘zlari, shuningdek, boshqa qahramonlarning to‘laqonli mulohazalari bilan uyg‘unlashadi».

Asarlarni tarixiylik tamoyiliga tayanmay tahlil qilish nojoizdir. Chunki har bir asarni yaratishda ma’lum bir hayotiy turtki mavjud.

Sh. Rahmatullayev she’riyati o‘zgacha olam. Uning nazmiy navolari xalq ohanglari bilan tutashib ketgan. Soddalik tagida she’riyatni tushunish, tahlil va talqin qilish, so‘zning qat-qat ma’nolarini topish, dunyo she’riyati va xalq og‘zaki ijodini chuqurroq anglashiladi.

Haqiqiy she’riyat esa davrning zug‘umlarini yengib o‘tishi, avlodlar o‘qiydigan san’at asari bo‘lishi kerak. Sodda misralarda qo‘shma fikrlarni aytish shoirdan katta aql va ijodiy jasoratni talab qiladi.

Shoir Shafoat Termiziy bir umr adolat, haqiqat yo‘lida ijod qildi. Ana shu adolat va haqiqatni istiqlol berdi. Shoirni bir umr to‘ydirmaydigan narsa – bu mustaqillik.

Turk dunyosi yulduzi Chingiz Aytmatovning mashhur bir gapi bor: «Inson bir-biriga achinmasa, qayg‘urmasa, inson haqiqiy insonga aylanmaydi, u haqiqiy inson hisoblanmaydi.»

Adabiyotchilar ko‘pincha shoir ijodidan shaxsiyat axtarishadi. Aslida ijodi va shaxsiyati bir-biriga o‘xshamas adiblar ham uchraydi. Shu jihatdan shoir Shafoat Termiziy shaxsiyati buyuk edi. Ba’zan shaxsiyati ulug‘ adiblar yaxshi asarlar yaratishadi deyishadi.

Shoir Shafoat Termiziyning belgilari: o‘ta sodda, kamsuqum, jiddiy, kamtar, halol, birovga ozor bermaslik, past ovozda so‘zlash, o‘zini shikasta tutish.

Sobiq Ittifoq davrida oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun iltimoschilar ro‘yxati tuzilardi: o‘g‘lim, qizim, yetti yot jiyan, o‘zi yo‘q singil, hammasi mashmasha gaplar, oddiy inson bolasi o‘qishga kira olmasdi. Shoir Shafoat Termiziy ana shunday dahmazalardan qochib, o‘z o‘g‘lining oliygohga kirishi uchun rektordan iltimos qilmagan.

Uning qismati, taqdiri, ruhiyati she’riyat edi. Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan shoir Shafoat Termiziy she’rida Surxon navolari, sodda va samimiy odamlari, dasht-u qirlar sadosi, To‘palang daryosining shovqini, beqiyos Bobotog‘ manzaralari, Termizning jazirama issig‘i, Hakim Termiziy va Iso Termiziyning so‘nmas ruhlari, Zaravut qadamjosi, Boysunning sho‘x dilbari, Surxon dilbarining nazokati, termizlik qiz nag‘malari, ozodlikning mangu qo‘shig‘i, Teshiktosh g‘orining sirlari va boshqa badiiy olamning intiq va mushtoq talqinlariga duch kelasiz.

Misralar o‘ta tabiiy chiqqan. Shoir tuyg‘ularining zarbli aks sadosi bor. Fikrning tiniqligi, kam so‘z ishlatish, chuqur ifoda san’ati shoirning mahoratidan darak beradi. Siz she’rda fikrlar bayonini emas, his-tuyg‘ularning yorqin yonishini ko‘rasiz. Shoirning so‘zga qanday mazmun berishini, fikrni yaqqol, muxtasar ifodasini quyidagi misralarda ko‘rasiz.

Davrang to‘rida men ham soz chaldim, baxshi bo‘ldim,
Zavqingdan zavq o‘rganib, kundan-kun yaxshi bo‘ldim.
Goh davrang yoshullisi, gohi yoshi bo‘ldim,
Ovunchim necha qalblar quvonch naqqoshi bo‘ldim.

Oddiygina «qalblar quvonch naqqoshi bo‘ldim» iborasi shoir ijodining bosh tomirlaridan biridir.

Adabiyotimizda ko‘proq ona, Vatanga muhabbat mavzusi ustunlik qilib kelmoqda. Vatan mavzusini hech bir adib chetlab o‘tmagan. Mashhur adib Chingiz Aytmatovning bir fikri aslo o‘zgarmaydi: «Vatanni sotib ham, yelkaga ko‘tarib ketib ham bo‘lmaydi.» Shu sohada Hamid Olimjon, Oybek, Abdulla Oripov, Muhammad Yusufning Vatan haqidagi she’rlari bir-biriga o‘xshamaydi, o‘ziga xos talqin, poetik ifoda bor, bu she’rlar yurakni entiktirib yuboradi, mavj-la tuyg‘ularga to‘ldiradi. Hamid Olimjon va Oybek she’rlarida ko‘proq O‘zbekistonning badiiy manzarasini chizadi, peyzajga keng o‘rin beradi. Shoir Shafoat esa fikrlarini hikmatga buradi. Ijod jarayonida Vatanga xos chiroyli, ohori to‘kilmagan ifodalarni qo‘llaydi.

Sen Vatan umrlar bahori, bobo tarix yo‘llarining bari, Shiroq, Temuriylar tadbiri, Beruniy va Navoiylar taqdiri, ota meros jannat paydo tuproqsan, sen tolesan xalq quvonchi va g‘ami, sen o‘zingsan qismatimiz hakami, noming jangda muqaddas ont, ona so‘zing eng muqaddas pand, hurriyatingiz – Humo qushing hilpiratgan yalov, mangu o‘lmas istiqloling qalbda yoniq olov, yetti iqlim ipak yo‘li sen – zaminning ustboshi, sen saxovat ob-havosi, sen o‘zbekning quyoshi.

Shoir she’rni samimiyat va faxr bilan tugatadi:
Ming yillarkim o‘zbekona pok tutgansan shoningni
Ming asrlar yurtim yana sharaf chulg‘ar nomingni,
O‘zbekona haqiqat bu, o‘zbekona qasamyod,
O‘zbekiston bo‘lajaksan, O‘zbekiston toabad.

«Temuri bor o‘zbekmiz» she’ridagi badiiy topilmalar kitobxonni lol qoldiradi, shoirning fikr bobidagi yuksak mahoratiga guvoh bo‘ladi. O‘zbekona faxrlanish, iftixor tuyg‘ularini e’zozlaydi, ulug‘laydi. O‘zbekning millat sifatidagi o‘rnini go‘zal chizadi, tarix bilan hamohang manzara yaratib, qalblarda g‘urur tuyg‘usini jonlantiradi.

Temuri bor o‘zbekmiz:
Qadim turk zuvalai zamiri bor,
Burundan Shumergacha tomiri bor,
Qalbda «O‘zim bek» degan amri bor,
Mangulikka yo‘g‘rilgan umri bor,
Ulug‘ yo‘lchi yulduzi – Temuri bor o‘zbekmiz.

Shoirning she’riy qobiliyatini bilish uchun «Bizkim Termiz» monologini o‘qish kifoya qiladi. «Er-suvimiz ul ilohiy rizqdir, «Payg‘ambar» ul ko‘ksimizda orol nomi, balki shunda paydo Zardusht, Spitamen, Fotih voiz so‘ng Iskandar, Homer bo‘ldi, «Avesto»miz yondi chala ko‘mir, Sharq-G‘arb bizda vayron bo‘ldi, biz ezgu nur Haq nurining parvonasi, ziyo ipak yo‘llarni nor Parvonasi, buddaning biz adabiyot parvonasi, so‘ng Muhammad quyosh oyi jonli, jonsiz bor olamning bir Xudoyi, bot biz bo‘ldik ul davlatning tayanch joyi, Nabiyshunos ulug‘lardan bitta bo‘ldik, tasavvufga hakim, hakam katta bo‘ldik, ezguliklar ummatiga bizkim, pir biz, «Avesto», «Tipitika», «Injil», «Qur’on» ruh mulkiga ezgu to‘fon – sohibqiron, to‘fonlarni tindirgan biz Termiz – Turon ezguliklar ummatiga bizkim, pir, yigirma besh asrning cho‘ng bahosi bizkim, qirqchillatgan Termiziylar dahosi biz».

Bu she’rda shoir fikrni qanday libosga o‘rashni yaxshi biladi. Misralarda shoirlar, chaqiriq, da’vat, turli oshiqcha fikrlar yo‘q. Shoir qanday so‘z aytishni yaxshi biladi, fikrlarda salmoq va hikmat sadolari yangraydi. She’rdagi asosiy tomiri vatanparvarlik, sayyidlari ulug‘ bo‘lgan Termiz tarixini misralarda jonlantirishdir. Shoir Shafoatning o‘z she’riy tili bor: bu lo‘ndalik, fikrning tiniqligi, badiiy vositalarni o‘z o‘rnida ishlatishdir. Baribir, she’rda hurlikka chanqoqlik, tashnalik seziladi. Chunki biz tariximizni bilmadik va o‘rganishga yo‘l qo‘yishmadi.

Istiqlol esa bizning shonli, viqorli, salmoqli, mo‘tabar tariximiz bizni quvontiradi.

«Ona yurt» she’ri esa qadimgi tarixning olamli, g‘amli hamda shodon damlarni esga tushiradi, olis yo‘lning inqirozdir, oboddir, tarixlardan ulug‘ ishing ona yurt, goh sen baqtir, kushon, chog‘on, tohar, so‘z va sozli zavq elining bahori, goh qismating yot qullarga topshirding, necha bobo murodingni o‘ldirding, ikki shoiringni suvga oldirding, daryo-daryo to‘kkan tersan, «Alpomish»day doston, she’rsan.

Quyidagi misralarga e’tibor bering:
Yaylovlaring kimning o‘tar yaylovi,
Darbandlaring ne uyurlar boylovi,
Davronlaring qay qismatlar saylovi?

Ba’zan biz mustaqillikni tinchgina qo‘lga kiritdik deb xom xayollarga berilamiz; hatto mustaqilligimizga ola ko‘z bilan qaragan ba’zi bir nusxalar davlatimizning konstitutsion tizimini o‘zgartirishga ham urinishdi. Bu kurash zaminida ne-ne azob, uqubat, uzluksiz istibdod va shaxid ketgan Vatan ozodligi yo‘lida to‘kkan mo‘tabar qonlar to‘kilgan, hamma yaxshi biladigan bir haqiqat bor: «Tarixsiz kelajak yo‘q».

Shoir «Zaraut» she’ri asrlarning tilsiz guvohi, o‘tmishni yorituvchi obidadir. Bu she’rda tarixning o‘ziga xos tarixi – Zarautsoy manzaralari berilgan, shoirni shaydo qilgan misralarga jon bag‘ishlaydi. Bir qadim tarixsan, sen ham Zaraut, ajdodlar senga o‘n yoki qirq ming yil shakl-shamoyil bermish, tosh kitobsan, sen ajdodlar merosi, ruhiy tarix – o‘zlikka sovut, yengilmas bir qal’asan;

Shoir faxrlanib ketadi:

Shu Vatan millatning qutbul Qur’oni,
Shu o‘zbek – ming yillik tojdor Turoni.
Har uy ulg‘a etar bir Sohibqironni,
Shay – yovga solgali burgutday chovut,
Qudrat va qanotsan sen-da Zaraut.

She’ri so‘ngida shukronalik, chuqur ehtirom aks etadi:

Sening saltanating abadiy paydo,
Qo‘hitang saroying, malikang bahor.
Shukur nasib etsa ziyorat, diydor,
Poyimizga yozgil poyondoz – movut,
Assalom alaykum, hazrat Zaraut.

«O‘ta dunyo» she’ridagi falsafiy mulohazalar sezgirlikka undaydi, hayotning mohiyatini chuqur anglashga da’vat etadi: «O‘tar dunyo, o‘tdi, do‘st-u g‘ayir o‘tdi, arbob-orif, oshiq Zuhro Toyir o‘tdi, har o‘tarning xos qismati, ko‘rari, har sobitning turari bor, nurari bor, har paykalning pisharining o‘rari bor, hosil sohibining so‘rari bor, so‘rari bor falangida nima qoldi? Mulki foniy, bir ta’ma qoldi, falangidan qayt himo qoldi, betavfiqlikdan zino qoldi, boylarning qurgan ko‘shk, saroyi qani? Milliy bedor vijdon sari sa’ying qani? Tuproq o‘pib Vatanim deb kuzatsang-a, suyaksizning soxtalikdan tiyapsang-a».

She’rdagi xotima kuchli iztirob, alam qoldiradi:
Shoir o‘tdi kunlari yo‘q, shomlari yo‘q,
Haqdan bo‘lak kamlari yo‘q, komlari yo‘q,
So‘zdan bo‘lak shonlari yo‘q, nomlari yo‘q,
Yo‘q-yo‘q yo‘qchilik Shafoatga doir o‘tdi.
Oh, o‘tdi-ya, bu olamdan shoir o‘tdi.

Biz o‘z e’tiqodimizdan qaytib yashadik. Hammamiz dindan qaytib, kommunistik mafkura o‘z g‘oyaviy qurolimiz bo‘lib qoldi, iymondan ajratishga harakat qilishdi, o‘z urf-odatlarimizni unutdik. Hovlilarga qulflar urildi, ba’zi bir og‘alar marosimlarini o‘zlashtirdik, yigit-qizlarning ko‘chada quchoqlashib yurishi, bo‘sa olishi kabi yaramas odatlar hayotimizga singidi.

Hayriyat, istiqlol o‘z eshiklarini ochdi. Shu jihatdan shoir Shafoatning «Imom Termiziyga munojot» she’ri xarakterlidir.

U yo‘llar makruhdir, izga qaytaman,
Sunnat haqiqat, so‘zga qaytaman,
Ahli mo‘min sizga, o‘zga aytaman,
Men izga qaytaman – o‘zga qaytaman,
Yo Imom Termiziy, sizga qaytaman.

Shoir buning sabablarini izohlaydi: «Ko‘r edim to‘liqmi, yarim basir, telbami, manqurtmi, aqli qosirman».

Shu satrlar mash’um tuzumga aybnoma sifatida yangraydi:

«Uchlik» mashinasiga sallamni berdim,
So‘ng qalam, iymonni, kallamni berdim,
Arbobu adibu mullamni berdim,
Men izga qaytaman, o‘zga qaytaman,
Yo Imom Termiziy, sizga qaytaman.

Shoirning nadomati, afsusi yanada chuqurlashadi: «Merosni toptash ham madaniyatmi? Ajdodni toptash ham ma’naviyatmi? Yolg‘onni maqtash ham aynul hayotmi? Kufr darsini oldim, bu sirim, menda iymon yo‘qdir, bo‘lsa ham yarim».

Tuyg‘ular tiniqligi qahrga aylanadi:
Tuf, yolg‘on dunyoga, asl qaydasan,
Sharq fikri jam etgan hosil qaydasan,
Haqqa yetaklagan Rasul qaydasan?
Men izga qaytaman, o‘zga qaytaman,
Yo Imom Termiziy, sizga qaytaman.

Shoirning «Beruniyga» she’ridagi badiiy topilmalar fikrni aniq va lo‘nda aytishi uning o‘ziga xos mahoratidan darak beradi:

Falakning charxiga ketdi o‘ralib,
Xudo qadar shohlar va qancha zamon.
Sen-chi bu o‘yinda chiqolding g‘olib,
Shu g‘altak ustida kelajak omon.

Beruniy bobomiz haqidagi fikrlar badiiy yuk tashiydi: «Buyuk aql bilan buyuk ish, kim jahon ilmini senchalik bilib oladi, aqlning olmas toshlari bilan kamol qasriga qo‘yding poydevor, bugungi aqlda sen qo‘ygan g‘ishtlar bor, shohlar bir asr saqlar xotirot, sen esa Baqoning taxtidan turib, o‘n asr yillarni sanading bir-bir, sen olgan qo‘rg‘onning bitta g‘ishtini ololmay chiridi millionlab shamshir, to‘xtamas hech shuhrat soating mili, sen mangulik mulkiga hokim».

Odamzodning ilk makonlaridan biri «Teshiktosh g‘ori» she’rida ana shu mangulik makoni haqida so‘zlaydi:

Million yildirkim guvohi shu g‘or,
Momo Havo qilgan buyuk «xato»ning.
Shu g‘orga quvildi ma’sum gunohkor,
Ul to‘ng‘ich farzandi Odam Atoning.
Uning qarshisida bepoyon dunyo,
U o‘ziga qo‘ydi inson degan ot.
Kunlik zaruratga darkordir deya,
U qila boshladi har kun kashfiyot.

U kashfiyot nima edi? Prometey bo‘lib topgan olovdan ushbu g‘orni yoritdi.

Ana shu olovda kelajak va bizning sher bor edi.
Odamzod beshigi shu muqaddas g‘or,
Ne-ne qasrlardan buyuk ming karra,
... Bunda ko‘milgan zot na podshoh, na qul
Ul erda hayotning xilvatning shohi.

«O‘zbekiston o‘zing yagona» she’ri topilmalarga boy. «O‘zbekiston o‘zing yagona, mangu chorlov, mangu tarona, ey Vatan ona – tengsiz yagona, O‘zbekistonim – ozod koshona, ketar bo‘lsam bag‘ringdan yiroq, men olaman bir hovuch tuproq, qiynar bo‘lsa sog‘inch va firoq, o‘sha tuproq taskindir, biroq».

Shoir dildagi muddaosini yuzaga chiqaradi:
Sen umrimning sevinchi, ohi,
Orzu qilsam, orzumning shohi,
Sajda qilsam duom ilohi,
Uvol-savobimning gunohi.

«Dunyoda men topgan eng oliy qadr» she’ri Vatan haqidagi uning badiiy taronasidir. Shoir nazarida: «Vatan Bobotog‘im, orolim, dashtlarida kezgan tarolim, men ov qilgan tog‘larning zovi, u qirdagi bobom o‘tovi, avlodimga beshik, ajdodimga qabr, tuprog‘i ilohiy ifor bag‘rida onam isi bor til, tug‘rom, bayrog‘im – Vatan jamolim».

She’r ehtirosli tugaydi:
Avlodimga beshik, ajdodimga qabr,
Shu ona Vatandir, ozod Vatandir.
Dunyoda men topgan eng oliy qadr,
Faqat shu muqaddas Vatanga tandir.
Oybekning mashhur «Na’matak» she’ri bor:
Nafis chayqaladi bir tup na’matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na’matak…

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo‘sa-chun,
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum…
Nafis chayqaladi bir tup na’matak…

Shamol injularin separ chashmadak,
Boshida bir savat oq yulduz-chechak,
Nozik salomlari naqadar ma’sum.
Tog‘lar havosining feruzasidan,
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na’matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

Ushbu she’r nafosat, go‘zallik hamda tabiat jilvasining o‘ta noziklik bilan chizilgan go‘zal namunasidir. She’rdagi badiiy topilmalar: «nafis chayqaladi bir tup na’matak, shamolning belanchagida, quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul, o‘shshaygan qoya labida».

«Vahshiy tog‘larga ham u berar fusun, so‘nmaydi yuzida yorqin tabassum, yanoqlari tutib olgan oltin bo‘sa, poyida yig‘laydi, kumush qor, nozik salomlari naqadar ma’sum, tog‘lar havosining firuzasidan mayin tovlanadi butun niholi, vahshiy qoyalarning ajib ijodi». Bu she’rda o‘lkaga bo‘lgan cheksiz muhabbatni hamda sadoqat, vafoni ko‘rish mumkin. Tog‘ manzarasining hech kim chizmagan beqiyos rassomona tafti bor.

Ushbu she’rlar har qanday vaqt silsilasiga ming yillar bardosh beradi, fikrlar tiniqligi, jozibasi mutlaqo o‘lmaydi. O‘zbek adabiyotida bunday she’rlar anchagina.

A.S.Pushkinning «Bulut» she’ri san’atning buyuk asari (V.G.Bellinskiy).

Bo‘ronda tarqalgan, ey so‘nggi bulut!
Yolgiz sen chopasan ko‘kda shu minut;
Yolg‘iz sen tashlaysan mungli ko‘lanka,
Shodmon kunda g‘amgin yolg‘iz sengina.

Boya sen kurshovding osmon yuzini,
O‘rovdi dahshatli chaqin o‘zingni;
Sen – sirli, vahmali guldiradingu,
Tashna yer qo‘yniga to‘ldi yomg‘ir – suv.

Bas, bo‘ldi, tarqalgin! Fursating o‘tdi,
Yer salqin va toza; bo‘ron ham ketdi.
Shamol ham erkalar tol barglarini,
Tinch ko‘kdan nariga haydashdi seni...

She’rda shoir tuyg‘ularni nazokat bilan qalamga oladi, ana shu his-hayajon tuyg‘ularni mohirona nafosat bilan bezaydi. Bulut ko‘chma ma’noda kelib shoirning ichki kechinmalarini berishda vositachilik qiladi: bo‘ron, ko‘k(osmon), soya, yashin, yomg‘ir, daraxt, shamol ramzlariga alohida mushohada yuklaydi.

Odatda kitobxonni sayoz, voqelikning quruq bayoni berilgan, shoirbob his-hayajondan yiroq, qalbning dramasi (bo‘lgan) bo‘la olmagan lirika qoniqtirmaydi. Bizga chinakam qalbdagi ruhiyatini ochib beradigan she’r (san’at asari) kerak.

Lirika uchun asosiy mavzu: qalbning zavqlari, mavji, taronasi, qayg‘u olam, shodlik va quvonchdir. Yana ta’kidlashga to‘g‘ri keladi, zamon o‘zgardi, odamlar o‘zgardi, endi bizga qalbni ovutadigan, taskin beradigan, go‘zallik olib kiradigan asarlar kerak. Tasvirda noan’anaviylik paydo bo‘ldi. O‘zbek nasrida bu ishni adabiyotni yangilashni, voqelikni yangicha idrok etish, turli xil qoliplardan qochishni, o‘ziga xos ifoda usuli topishni U.Hamdamov, N.Eshonqul, X.Do‘stmuhammad, E. A’zam va I. Sulton eplashmoqda.

Xo‘sh, poeziya-chi?! Bu haqda keyinroq...

Shoir Shafoat she’rlarida tematik jihatdan rang-baranglikni ko‘ramiz.

«Ota» she’rida otaga bo‘lgan mehrning aksini ko‘ramiz: «Siz kasbing deb tutqazmay tayoq, kitoblar shahri aro qo‘yding sayoq, qog‘oz uy boshladim men mo‘rt savdoyi, hidi siz ko‘z tashlang imroratimga, yaroqlimi unga bu she’riy loyiha, buzib tashlamasmi raqib bir kun, shoirlik bu bemansab joyim».

Lekin shoir o‘ziga yarasha kitobxonlar orttirdi, she’riy kalomni munosib e’zozladi, Surxonda adabiyotning jonkuyar kuychisi va uning fidoyi targ‘ibotchisiga aylandi. Bekorga Surxonda erkalab shoir Shafoat deyishmaydi. Unga shoirlik, el baxshisi bo‘lish urug‘ida bor. Akasi baxshi o‘tgan. U ko‘plab terma va dostonlarni kuylagan. Shoir Shafoat she’rlaridagi baxshiyona ohanglar, badihago‘ylik qonda bor.

«Singiljon» she’rida singilning dardlari va unga shoirning dil izhori bor; dardga sheriklik, g‘amgusorlik yangraydi; nechun sen bir o‘zing paykal qo‘ynida parishonsan, ufqlarga mungli qaraysan, kimgadir mushtoqmi yoki yosh ko‘ngil;

O‘tkinchi bo‘lsa gar sening dardlaring,
Sevinch qo‘shiqlarni aytib ovutay.
Og‘ir bo‘lsa agar dardu shartlaring,
Dardkashman, dardingni barobar yutay.

«Ota tilagi» she’rida tilaklar yuzaga chiqadi, elning ko‘z nuri bo‘l, yurt bog‘ida guldek bo‘y cho‘zaver, jajji umrim uchun tuzilgan shu to‘y, to‘ydagi gaplarning ko‘pi bola qalbingga sig‘mas, mo‘ylovdan ko‘ra sutning ta’mi yaqin qalbiga, tilimda shukrona, qalbimda umid. Lekin xavotirlik, bezovtalik qalbda bor:

Biz ota-bolamiz, bizning burchlarni
«Qobusnoma»larda bitgan kotiblar.
Lekin katta hayotda vay bir burjlari
Hamon egallamish Abdulatiflar.

Lekin ana shu sarosimalikni yaxshi tilaklar bosib ketadi: Alpomish kelbatli yigit bo‘lasan, sen bilan bezalar qizlarning tushi, to‘ying boraversin tong kabi yorib.

Rezyume. Ushbu maqolada Shafoat Rahmatulla Termiziy she’rlari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalangani va asar tuzilishining o‘ziga xosligini ta’minlagani ilmiy tahlil etiladi. Shoira ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob’ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. In this article, the writer Thanks the Shafoat Rahmatulla Termiziy kompozitsion story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis. The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

Резюме. В данной статье будет проведен научный анализ рассказов, в Шафоат Раҳматулла Термизий которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и, которые обеспечили оригинальность структуры произведения. В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхностьхудожественного замысла детали становятся важнымиКлючевые слова:композиция, художественная деталь, образ, природа,пейзаж деталь, предметная деталь, экспозиция, интерьердеталь, художественнаяконцепция

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SYUJET YAXLITLIGIDA «DAVR, SHAXS, MUALLIF» UCHLIGI SINTEZI

Ochilova Ozoda Baxtiyorovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Adabiyot nazariyasidan ma'lumki, badiiy asardagi voqealar tizmasi, asosiy mazmun yig'indisi syujet hisoblanadi. «Syujet badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o'zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari, umuman, kishilar orasidagi munosabatlar, u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o'sishi, tashkil topib borishidir»[1]. Shu bois ham har bir ijodkorning syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi badiiy mahoratini o'rganish va tadqiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, syujetlilik asardagi estetik mohiyatning asosiy shartidir. Badiiy asar syujeti ichki tugallikka ega bo'lganida, ya'ni tasvirlanayotgan voqea-hodisalar kitobxon diqqatini o'ziga tortib, har bir timsol, detal, obrazlar tizimi tabiiy bir-biriga bog'lanib, har bir unsur haqida chuqur mushohadaga tortsagina, o'z zimmasiga yuklangan vazifani ado eta oladi. Mahoratli yozuvchilar yaratgan badiiy asarlarning syujeti yuksak g'oyalarga, adabiy-estetik, ijtimoiy-tarixiy mazmunga ega bo'ladi. Syujetni asardagi obrazlar tizimi harakatga keltiradi. Badiiy obrazlar konkret, hayotiy, jonli va tabiiy yaratilgandagina kitobxon qalbiga abadiy muhrlanib qoladi. Shu ma'noda biz tahlilga tortgan qissalar ham o'ziga xos syujet tizimiga egaki, bu yozuvchilarning individual uslubi va badiiy iqtidori bilan bog'liqdir. X.Davronning «Shahidlar shohi», O.Matjonning «Dravaxonim» qissalari syujeti tarixiy fakt va voqelik bilan badiiy to'qima asosiga qurilgan. Darhaqiqat, tarixiy faktlar va real hodisalar yozuvchilar uchun katta imkoniyatlar beradi. Lekin hamma gap ularni muayyan maqsadni ifodalash yo'lida to'g'ri saralay bilish, teran baholash va yuksak badiiy shaklda talqin eta olishdadir.

X.Davronning «Shahidlar shohi» qissasida bevosita Najmiddin Kubro hayoti, uning yetuk tariqati, avliyoligi, komilligi va vatanparvar sifatidagi badiiy

[1] Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyoti. – Toshkent. 2005. – B.108.

siymosi gavdalantirilgan. Bu o‘rinda o‘rta epik tur janri bo‘lgan qissa xususiyatlari haqida V.G.Belinskiy yozadi: «Qissa shakli istagan narsangizning hammasini – urf-odatlarga bag‘ishlangan odmigina ocherkni ham, inson va jamiyatga qaratilgan achchiq zaharhanda istehzoni ham, ko‘ngil xilvatgohidagi yurak sirlarini ham, otashin ehtiroslarning shafqatsiz o‘yinini ham sig‘dira oladi»[1]. Ushbu qissada bu motivlarning muayyan darajada ifodasi mavjud bo‘lsa ham, «inson va jamiyatga qaratilgan»i asosiy o‘rinda turadi va qissaning tarixiy xarakterini aks ettiradi. Tarixiy qissada esa odatda, muhim, olamshumul voqealar yoxud buyuk tarixiy shaxslar hayoti bosh tasvir obyekti qilib olinadi. Shu jihatdan o‘rta asrlar ma’naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ tarixiy siymo, kubraviya tariqatining namoyandasi, Shayx Najmiddin Kubro faoliyatini badiiy talqini qissaning g‘oyaviy-badiiy mundarijasi mohiyatini belgilaydi.

Mazkur qissa kompozitsiyasi ana shu mohiyatni ifodalashga qaratilgan bo‘lib, quyidagicha qismlarga ega:

1) muqaddima va xotima;

2) ikki bobdan iborat o‘zak syujet yo‘nalishi;

3) mustaqil rivoyatlar, Qur’oni Karim oyatlari va hadislarlardan parchalar, tasavvuf haqidagi kitoblardan olingan ko‘chirmalar.

Qissaning yaxlit tarkibini shakllantiruvchi bu qismlarga xos mushtarak xususiyat – ulardan har birining Shayx Najmiddin Kubro siymosi talqiniga bevosita aloqadorligidir. Shu bilan birga ular o‘ziga xos shakliy-uslubiy funksiya tashiydi. Jumladan, kompozitsion qoliplash usuli orqali boshdan oyoq davom etuvchi o‘zak syujet voqealari vaqtincha to‘xtatilib, o‘rtada tasavvuf ta’limoti haqida fikrlar, bayon etiladi.

Ma’lumki, valiylar karomat va bashorat sifatlarini mukammal egallagan donishmandlar bo‘lganlar. Bu xislatlarning ibratli namunalari o‘rta asrlar Sharq tasavvuf ta’limotining yirik namoyandalari Shayx Najmiddin Kubro (1145-1221) va Pahlavon Mahmud (1247-1326) qarashlarida yorqin aks etgan. So‘fiylik ilmidagi javonmardlik yo‘lining bu ikki daho vakillarining hayoti, faoliyati va dunyoqarashidagi mushtarak va o‘ziga xos jihatlar haqida turli manbalar-manoqib, tazkira, tarixiy-diniy va boshqa kitoblarda ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Bu haqda A.Qayumov, O.Usmonov, N.Komilov, I.Haqqulov, E.Ochilov, M.Abdulhakimov va boshqalar jiddiy tadqiqotlar yaratganlar. Lekin ularning asosiy qismi turli zamonga mansub xotiraviy, badiiy va ilmiy asarlarda qayd etilgan.Ulardan biri Shayx Najmiddin Kubroning Pahlavon Mahmud haqidagi bashoratiga dahldor bo‘lib, alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu xususiyat taniqli adabiyotshunos N.Komilovning quyidagi fikrlari bilan bog‘liqdir: «Shayx karomatlarining turi ko‘p: chunonchi: *quvvai nazar, quvvai nafas, quvvai dil* orqali odamlarga ta’sir etish, voqealarni oldindan tushda ko‘rish yoki o‘ngda ham bo‘lajak ishlarni oldindan sezish, ruhan olamlarni sayr qilib qaytish va hakazo».[2] Karomat va bashorat xislatlarini umumlashtiruvchi ushbu e’tiroflarning har biri Kubro umrining barcha bosqichida o‘z aksini topgan, ayni davr, kelajak hamda safdosh va shogirdlari taqdiri xususidagi qarashlarida ro‘yobga chiqqan. Bu jihatdan Pahlavon Mahmud to‘g‘risidagi bashoratlarda qayd etilgan quvvai iste’dodlar ifodasi namoyon bo‘ladi.

Pahlavon Mahmud nomi zikr etilgan muhim manbalardan biri – Ollohyor ibn Xudoyberdi Mahzunning «Riyoz ul-zokirin» tazkirasida bunday deyilgan: «Shayx Najmiddin Kubro Xivakdan Ko‘hna Urganchga borg‘onlaridan so‘ng Chingizning Xorazmga bosqini arafasida ahli Xivaq: «Pirim, bizlarni besar (boshsiz, rahnamosiz) qilib ketdingiz» – deb ko‘p betoqat bo‘lg‘onlaridan so‘ng «Sizlarga bir ulug‘ pir yuborurmiz», – deb va’da qilib erkanlar». U vajhdin Piryor baqqol degan o‘zlarining bir xalifalarini Xivaqg‘a yuborib, mehribon bo‘lg‘on erkanlar. «Bor, sen Xivaqg‘a - ahli Xivaqni zalolat bodiyasidan hidoyat nihoyasiga dalolat qilg‘il. Sening ahliyang, ya’ni xotuningning qornida bir janiyn bordur, ul xud bizning nafas o‘g‘limizdur. Xorazm diyorining xullai ahdi oning zimmai iqtidoridadur. Ul pisar (o‘g‘il) bizning nafas o‘g‘limizdur. Oning oti Mahmuddur. Ul farzand ziyoda baquvvat pahlavon bo‘lur. Ul vajhdin ko‘p kishi aning otini bilmay «Pahlavon ota derlar» deb yuborib erkanlar».[3]

Ushbu parchaning mazmunida ikkita yo‘nalish ko‘zga tashlanadi. Birinchisi, Mahmudning otasi Pakkayor, ikkinchisi, uning o‘zi haqidadir. Pahlavon padari ta’rifidagi fikr «quvvai nazar»ga asoslangan bo‘lib, Shayx karomatiga misoldir. Shayxning bu lavhadagi nutqi ikki nuqtaga – Xivaq ahli va Pakkayorga qaratilgan bo‘lib, birinchisi va’da, ikkinchisi xalifaga buyruq ohangida aks etgan. Muhimi shundaki, ustozning o‘z shogirdini «ulug‘ bir pir» deb atashida ham ilohiy ma’no bo‘lib, Mahmudning azizlar sulolasiga mansubligiga ishoradir. Shuningdek, Shayxning Pakkayorni Xivaqga rahnamolikka loyiq ko‘rishi, cho‘l-sahro (bodiya) bag‘rida qiynalayotgan shaharni nokas-u zalolatdan saqlab, hidoyat yo‘li sari boshlashiga da’vat etishi ham valitarosh qalbidagi xaloskorlik, karomat ifodasidir.

Yuqoridagi fikrlar ustoz nutqining ikkinchi qismi –

[1] Белинский В.Г. Адабий орзулар. Мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 219.

[2] Комилов Н. Нажмиддин Кубро. Рисола. – Тошкент. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995. – Б.25.

[3] Маҳмудов Ж. Паҳлавон Маҳмуд ҳаёти ва адабий меросининг матний таҳлили. Филол. фанл. номз. дисс. автореферати. – Т. 2006. – Б.11.

tug‘ilajak farzand haqidagi karomat-u bashoratlarning qorishiq shakldagi bayonida yanada kengayadi va rivojlantiriladi. Bu qismda «quvvai nafas» va o‘ngda bo‘lajak voqealarni oldindan sezish qobiliyatlari bilan tasdiqlanuvchi namunalar yetakchilik qiladi va talqinlarni umumiy xulosa sifatida yaxlitlashtiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ayol vujudidagi farzand mavjudligining ayon bo‘lishi botiniy iqtidor bilan o‘g‘ilning hayratomuz g‘aroyib sifatlar sohibi bo‘lib yetishishi xususidagi ishonch zohiriy bilimning o‘zaro aloqasi va uzviyligini oydinlashtiradi. Bu jarayonda «ul (Mahmud) bizning nafas o‘g‘limizdur» jumlasining takrori alohida ijtimoiy-ilohiy ma’no kasb etadi va unda ikki niyat bir-birini to‘ldiradi va bir butun tasavvur hosil qiladi: birinchisi, «janiyn (go‘dak)» Xorazmni marjon ipi kabi birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida (zimmai iqtidori) namoyon bo‘lishi nazarda tutilsa, ikkinchisi, «nafas o‘g‘il» tushunchasida uning haq yo‘li va ilohiyat ta’limotiga kirishiga havola nazarda tutilgan. Bundan tashqari, o‘g‘il nomi uning pahlavonligi va «ota» so‘zining qo‘shib aytilishi bo‘lajak real olam voqealarini ruhan sezish, his qilishning g‘oyibiy in’ikosidir. O‘g‘ilning oti Mahmud bo‘lib, ziyoda baquvvat pahlavon bo‘lishi, ko‘p kishi uning otini bilmay «Pahlavon ota» deyishlari xususidagi bashoratlarining isboti og‘zaki va yozma ma’lumotlarda qayd etilgan. Alisher Navoiy ham bu jihatga e’tibor berib, «laqabi mashhur Puryorga ba’zan Pakkayor» debdurlar»[1],-deb yozadiki, bu o‘rinda Mahmudga nisbatan Piryorvaliy, Fanoiy, Qitoliy, Begyor laqablarining qo‘llanib kelishi yuqoridagi fikrning isbotidir.

Shunisi xarakterliki, Mahmud «bizning o‘g‘limizdir» iborasining tagma’nosi uning Kubro yo‘liga kirganini anglatadi. Tabiiyki, bu yo‘l «futuvvat» – mardlik, sahovat maqomi ekani tarixdan ma’lum. Bu haqda Jomiyning «Nafahotu-l-uns», Navoiyning «Nasoyimu-l-muhabbat» tazkiralari va boshqa turli davrlarga mansub manbalarda yetarli ma’lumotlar keltirilgan.

Mahzunning ushbu tazkirasidagi fikrlar talqinida yana bir muhim jihat diqqatni tortadi. Bu – Kubro nutqi bilan bog‘liq zamon va makon munosabati, ya’ni badiiy «xronotop» (M. Baxtin iborasi) masalasidir. Ma’lumki, Kubro va Pahlavon Mahmud yashagan davrni bir asr vaqt ajratib turadi. Chunonchi, Pahlavon Shayx vafotidan 26 yil keyin tug‘ilib, yana 56 yil umr ko‘rdi. Bu oraliqdagi vaqt xususiyatlari ayni va bo‘lg‘usi zamon hamda makon bilan muayyan darajada tutashadi, umumiy kontekstda esa har birining miqyos va voqe bo‘lishi ham aks etadi.

Bunda xronotop hodisasi tarixiylik konsepsiyasi asosida yuzaga chiqadi. Jumladan, Kubroning Xevaq ahli bilan uchrashuvi aks etgan epik lavhadagi monologik nutqi mazmuni real makon va zamon namunasi bo‘lsa, Mahmud shaxsiyati haqidagi bashoratlarida zamon umumiy tarzda bo‘lib, sarhadsiz va keng qamrovlidir.

Manbalarning guvohlik berishicha, Kubro fojeasidan keyin ham u asoslagan tariqat islom ma’naviy olamida, ilohiy-falsafiy qarashlar takomilida faol davom etdi, o‘tmish tajribalarida teran va adolatli munosabatga tayandi. Bu jarayonda tariqat mohiyatini tashkil etuvchi Haqqa intilish, inson komilligi, sha’ni va qadrini ulug‘lash, vatanparvarlik, ezgulikni targ‘ib qilish g‘oyalari Shayx izdoshlari tomonidan bardavom ado qilindi, yanada boyitildi. Xususan, Pahlavon Mahmud amaliy faoliyati, ijodi va falsafiy-ma’naviy aqidalari alohida bosqich sifatida shakllandi. Bu bosqichdagi uzviylikning bir qismi ustoz va shogird she’rlaridagi mushtarak ma’no va ohanglar uyg‘unligida ko‘rinadi. Bu uyg‘unlikning bir qirrasi an’anaviy ishq mavzusining mardlik, oshiq sobitligi va nafsni jilovlash motivlari bilan kengayganligida aks etadi. Jumladan, Pahlavon Mahmud Kubroning «Oshiq kishining ko‘ngli to‘la dard bo‘lg‘ay, el dardi bilan mard yana ham mard bo‘lg‘ay» degan purma’no ruboyisining yana bir jihatini kashf etadi:

Nafsingni tiyib, sen unga shoh bo‘l, mardsan,
Kimsasi yo‘qlarga panoh bo‘l, mardsan.
Nomardlar oyoqosti qilar miskinni,
Miskin va g‘aribga poyigoh bo‘l, mardsan.[2]

Tabiiyki, Najmiddin Kubro haqidagi mulohazalar beixtiyor Pahlavon Mahmudga borib taqaladi va bu daho juftlik qarashlaridagi ulug‘vorlik, donishlik ko‘nglimizdan kechadi. Bu xususiyat, ayniqsa, ustoz-shogird siymosida aks etgan og‘zaki va yozma asarlarda bo‘rtib turadi. Bu asarlarning ilk zamini asosan rivoyat bo‘lib, shu omil unsurlari tarixiy fakt, hodisa va badiiy to‘qima sintezi sifatida to‘qqiz asrdan buyon adabiyotimizdan joy olib kelmoqda.

Hozirgi zamonaviy nasriy asarlar, jumladan, qissalar ham xalq ijodi nasrining an’anaviy namunalari bilan ichki mantiqiy bog‘liqlikka ega. Chunonchi, ular qatlarida o‘tmishga mansub bir unsur, ifoda, tasvir va obrazning bo‘lishi turli miqyos va darajada, real voqelikning rivoyatda yorqin, hayotiy uydirma (xayoliy uydirma emas!) bilan aks ettirilishi ana shu aloqadorlikning ifodasidir. Bu jarayonda, tabiiyki, ijodkor iste’dodi, mayli, uslubiy individualligi asosiy omil bo‘lib, an’anaviylik bilan novatorlikni, obyektning yangicha talqin, yondashuv bilan takomillashtirishga erishadi.

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17 жилд. Насойим ул-муҳаббат. – Тошкент. Фан. 2001. – Б.300.

[2] Паҳлавон Маҳмуд. Ким агар озоддур. Рубоийлар. М. Абдулҳаким таржимаси. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1992. – Б.8.

Ikkinchidan, qissa yaxlit evolyutsiyasida xalq nasri janrlaridan quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

1) ertak, afsona, rivoyatda syujet asosini deyarli To‘rabekaxonimning suv uchun kurashi motivi tashkil etsa, qissada epik tizim ancha ko‘lamdorroqdir;

2) folklor namunalarida lokal variantlashuv faol bo‘lib, qahramonning yakka o‘zi jangda dushmanni mag‘lub etishi arxaik eposga xos xususiyatdir. Qissada esa bu holat jamoa kurashi shaklida namoyon bo‘ladi. (To‘rabekaxonim va Doston boshliq qizlar jasorati);

3) qissada xalq nasri asarlariga nisbatan tarixiy shaxslar, ma’lumotlar va realistik lavhalar miqyosli bo‘lib, umumiy talqinda moziy va hozirgi davr aloqadorligi masalalariga subyektiv munosabat ham zuhur etilgan.

Bu xususiyatlar qissa mazmun-mundarijasidagi og‘zaki va yozma evrilishlardan guvohlik bo‘lib, muallif ular mohiyati, mezonlarini yaxshi anglagan. Qissada XIV asr boshlaridagi Oltin O‘rda, uning xoni O‘zbekxon, ustoz No‘moniddin Xorazmiy, Xorazm hukmdori Qutlug‘ Temur haqida muxtasar ma’lumotlar berilib, ular asosiy voqealar va bosh qahramon To‘rabekaxonim sarguzashtlarining boshlanmasi, zamin sifatida izohlanadi. Malika tasvirida esa u «nuktadon, ma’rifatli ayol bo‘lib, gohi otda, gohi piyoda, goh oddiygina gilam to‘shamcha yoyilgan aravada shahar aylanardi, g‘oyat sipo, kamtarin, yuragi-dili bezovta, lekin ko‘rinmas tug‘yonli, boshqa «saroyxonimlar»dan farqi – boshlagan yumushlarining og‘iri oddiy xalq boshiga tushmasligi»[1] – deydi. Bu jihatdan uning P.Qodirovning «Ona lochin vidosi» romanidagi bosh qahramon Gavharshodbegim bilan muayyan mushtarakligi mavjudligini esga soladi.

Tabiiyki, asar syujeti, obraz tizimida ushbu xarakter qirralari tasvirida asosiy o‘rin tutadi va har bir personaj zimmasiga muayyan estetik yuk yuklaydi. Bu hol turli kasb, yosh va e’tiqodli kishilar siymosida aks etadi. Yana bir o‘ziga xoslik shundaki, obrazlar safiga Shayx Najmiddin Kubro va Pahlavon Mahmud ham qo‘shildi va tarixiylik konsepsiyasining qamrovi kengaydi. Bu ikki donishmand shaxslarning badiiy talqini syujet to‘qimasiga tabiiy singib, asosiy mundarija, xususan, To‘rabekaxonim sarguzashtlari tasvirida muhim halqalardan biriga aylandi. Natijada ular talqinining har bir lavha va harakati bosh qahramon bilan uzviy bog‘liq doirada aks ettiriladi. Ammo biz asarni kompleks tarzda emas, tadqiqotimiz maqsadiga ko‘ra, asosan, Kubro obrazi tasvirlangan o‘rinlarga va qissada asosiy o‘rinlarda tasvirlangan Pahlavon Mahmud obrazlarining badiiy tahliliga doir fikrlar bilan cheklanamiz.

Avvalo syujet to‘qimasida ikkala pir – ustozlar turlicha talqinda namoyon bo‘lishadi. Bu – ularning asardagi o‘rni, estetik funksiyasining o‘ziga xosligi natijasi bo‘lib, muallif idealiga muvofiq keladi. Chunonchi, asar hajmi ancha salmoqli – 17 bobning 6 tasida Shayx Najmiddin Kubro, 9 tasida Pahlavon Mahmudning turfa holatdagi faoliyatlari hikoya qilinadi. Voqealar bayoniga ko‘ra Kubro epizodik, Pahlavon Mahmud asosiy obrazlardan biri.

Syujet qurilmasi tarixiy asarlar an’anasiga asoslangan: o‘tmishda yashagan kishilar hayoti va yuz bergan voqealar yoki joriy hodisalar haqida hikoya qilinadi. Nisbatan turg‘un bu shaklda syujetning ikki qatlamini ko‘ramiz: 1) real – joriy qatlam; 2) xotira – eslash qatlami. Birinchisida muallif yoxud personaj nutqida ayni vaqtdagi hikoyalar aytilsa, ikkinchisida moziyga tegishli ma’lumotlar, xarakter va lavhalar xotira – eslash orqali ifodalanadi. Muhimi shundaki, xotira qatlamdagi esga olingan fakt va ta’rif mohiyatan biron jihati bilan real qatlamdagi syujet uzvlariga bog‘langan, ularni ifodalagan yoki to‘ldirgan bo‘ladi.

Xulosa shuki, O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning «Dravaxonim» qissasi so‘nggi davrda tarixiy mavzuda yaratilgan sara asarlardan biri bo‘lib, unda Najmiddin Kubro vafotidan keyingi davr, avliyo qo‘nimgohini tiklash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan Pahlavon Mahmud faoliyatining me’mor, mirob, dono maslahatchi va tabiblik kabi yangi qirralari yoritilgan. Bu esa donishmand, shoir va tengsiz polvon haqidagi mavjud bilimlarimizni yanada mustahkamlash va boyitishga xizmat qiladi. Mard va oqila ayol malika To‘rabekaxonim obrazi zamondoshlar qalbida g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Undagi xalqchil g‘oyalar zamondoshimiz uchun boqiy ma’naviy qadriyat ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Rezyume. Maqolada X. Davronning «Shahidlar shohi» va O.Matjonning «Dravaxonim» qissalarining syujet-kompozitsion xususiyatlari tahlil qilingan. Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud va To‘rabekaxonim obrazlarining badiiy talqini yoritilgan. Asarlarda tarixiy faktlar, rivoyatlar va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi ochib berilgan. Shuningdek, qahramonlar faoliyatida aks etgan vatanparvarlik, mardlik, insonparvarlik va ma’naviy komillik g‘oyalari tahlil etilgan.

[1] Омон Матжон.Дийдор азиз. Тўплам. – Тошкент: “Noshir”, 2011. – Б.95

Resume. The article analyzes the plot and compositional features of novellas «Shahidlar shohi» by Kh. Davron and «Dravakhonim» by O.Matjon. It examines the artistic portrayal of the figures Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, and Turabekakhanim, highlighting the harmonious blend of historical facts, legends, and artistic fiction within the works. Furthermore, the article analyzes the ideals of patriotism, courage, humanism, and spiritual perfection reflected in the actions of the characters.

Резюме. *В статье анализируются сюжетно-композиционные особенности повестей Х.Давро-на «Шахидлар шохи» и О.Матжона «Дравахоним». Рассматривается художественное воплощение образов Наджмиддина Кубро, Пахлавона Махмуда и Турабека-ханум, при этом подчеркивается гар-моничное сочетание исторических фактов, легенд и художественного вымысла в данных произве-дениях. Кроме того, в статье анализируются идеалы патриотизма, мужества, гуманизма и духов-ного совершенства, отраженные в поступках персонажей.*

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK VA INGLIZ ILMIY FANTASTIKASIDA KELAJAK MOTIVINING BADIIY-POETIK XUSUSIYATLARI

Obidjonova Ma'suma,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari vo‘yicha falsafa doktori

Jahon adabiyotida kelajak tasviri turli tarixiy davrlarda shakllangan badiiy tafakkur mahsulidir. U ayrim asarlarda adolatli jamiyat haqidagi orzularni ifodalasa, boshqalarida mavjud tartibni tanqid qil-ish, fan-texnika taraqqiyotining ehtimoliy oqibatlarini tasavvur etish yoki insoniyat istiqboliga doir ziddi-yatlarni ochish vositasiga aylanadi. Shu bois kela-jak motivini faqat voqealar sodir bo‘ladigan zamon belgisi sifatida talqin etish yetarli emas. Uning badiiy mohiyati asar kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, qahra-monlarning xotirasi va muallif ilgari surgan ma'naviy muammolar bilan aloqada ochiladi.

Mahkam Mahmudovning «Mangu kuy izlab» va Rey Bredberining «Surgun qilinganlar» hikoyalari ke-lajakni aynan shu murakkab munosabatlar doirasida tasvirlaydi. Birinchi asarda uzoq kelajak texnologik taraqqiyot bilan birga inson hissiyotlarining qadri, xalq qo‘shig‘i va mumtoz san'at merosi orqali ang-lanadi. Ikkinchi hikoyada esa adabiy xotira va kito-blar olami yo‘q qilinishi insoniyatning tasavvur qilish imkoniyatiga tahdid sifatida gavdalanadi. Demak, qiyosiy tahlilning markazida kelajak manzarasining tashqi o‘xshashligi emas, balki ma'naviy merosga munosabatning ikki xil badiiy yechimi turadi.

Kelajak motivini o‘rganishda tarixiy vaqt haqidagi nazariy qarashlar muhim metodologik asos beradi. R. Kosellek «tajriba makoni» va «kutilmalar ufqi» tushunchalari orqali o‘tmishda to‘plangan tajriba bi-lan kelajak haqidagi tasavvurlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, aynan bir hodisa emasligini ko‘rsatadi[1]. Inson kelajakni o‘z tajribasi asosida tasavvur qiladi, biroq kelajak mavjud tajribadan ortiq imkoniyatlarni ham o‘zida mujassam etishi mumkin. Badiiy matnda bu munosabat xotira, bashorat, orzu yoki hali ro‘yobga chiqmagan voqelik shaklida ifodalanadi.

M. Kerri hikoya va vaqt falsafasi o‘rtasidagi aloqa-ni tahlil qilib, bayonning faqat o‘tmishga qarash bilan cheklanmasligini, kelajakni oldindan tasavvur qilish

[1] Koselleck R. Futures Past: On the Semantics of Historical Time / Trans. K. Tribe. – New York: Columbia University Press, 2004. – 344 p.

ham hikoya qurilishining muhim jihati ekanini ta'kidlaydi[1]. R. Levitas esa utopiyani tayyor ideal jamiyat manzarasigina emas, ijtimoiy voqelikni boshqacha tasavvur qilish usuli sifatida talqin etadi[2]. Ushbu yondashuvlar «Mangu kuy izlab»dagi kelajakni ma'naviy izlanish va muqobil hayot tarzi, «Surgun qilinganlar»dagi kelajakni esa madaniy qadriyatlar yo'qotilishi mumkin bo'lgan muhit sifatida o'qishga imkon beradi.

Mahkam Mahmudov hikoyasida kelajak tasviri 2472-yilga oid voqealar, kosmik qatnov va ilmiy taraqqiyot tafsilotlari orqali konkretlashadi. Biroq muallifning asosiy e'tibori texnik yangiliklarni namoyish etishga emas, bunday taraqqiyot sharoitida insonning hissiy va ma'naviy ehtiyojlari qanday o'zgarishiga qaratilgan. Professor Ozod kelajak jamiyatidagi odamlarning sovuqqonligini sezib, shunday deydi: *«Ular hissiyotdan mahrum ekanligini unutib qo'yibman. Oyga ham bog'da, ko'llarda sayr qilish uchun emas, ehtiyot qismlar olib kelish uchun borishgan. Ular kuy eshitmaydi. Kuy ular uchun keraksiz. Men esa kuy izlayman»*.

Ushbu parcha hikoyaning asosiy ziddiyatini mujassam etadi. Oyga borish ilgari hayrat va kashfiyot timsoli bo'lgan bo'lsa, tasvirlangan kelajakda u amaliy ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylangan. Insonning fazoviy imkoniyatlari kengaygan, ammo uning hissiy olami xuddi shu darajada boyimagan. «Men esa kuy izlayman» jumlasi Ozodning shaxsiy maqsadini ifodalash bilan birga, hissiyot va san'atni keraksiz deb biladigan muhitga nisbatan ichki e'tirozini ham bildiradi. Shunday qilib, kelajak texnik taraqqiyotning tantanasi sifatida emas, taraqqiyot va ma'naviyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadigan badiiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Hikoyadagi qadimiy kitoblar obrazi kelajak va o'tmish o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Bog'bon chol meros haqida shunday hikoya qiladi: *«Ota-bobolarim menga oltin-kumush, javohir yoki boshqa biror arzirli meros qoldirishmagan. [...] Menga esa bir sandiq mushkul xazina – qadimiy kitoblar meros qolgan»*. Kitoblar moddiy boylikdan farqli ravishda, o'qish, anglash va sabr talab qiladigan ma'naviy xazinadir. Cholning butun umrini kitoblarni tushunishga sarflagani merosning qadrini faqat uni egallash emas, balki mazmunini idrok etish belgilashini ko'rsatadi.

Cholning so'zlarida kelajak voqeasi ham oldindan belgilanadi: *«Kuy hali topilmagan. Topilishi uchun kelajakdan kelgan yigit kerak. Yigit keladi».* «Yigit keladi» degan qat'iy jumla kelajakni bashoratga o'xshash shaklda ifodalaydi, biroq mangu kuy topilmagani voqeani yakunlangan natija sifatida qabul qilishga yo'l qo'ymaydi. Kelajak bu yerda tayyor haqiqat emas, balki izlanish va uchrashuv orqali amalga oshishi kutilayotgan imkoniyatdir. Shu sababli sarlavhadagi «izlab» so'zi ham muhim: badiiy mazmun faqat topiladigan kuyda emas, uni izlashga undaydigan ehtiyojda mujassam.

Hikoyada xalq qo'shig'i ham tarixiy xotiraning davomiyligini namoyon etadi. Besh yuz yillik idishda saqlangan yozuvdan Ozod quyidagi misralarni o'qiydi: «*Baliq aytur, suvsiz tirikmas jonim, Suvsiz menga azim daryo kerakmas...»*[3]. Qadimiy matn qahramonga tayyor nazariy xulosa bermaydi, biroq uning qalbida ravshanlik uyg'otadi. Bu holat ma'naviy merosning ta'siri har doim ham mantiqiy izoh shaklida yuzaga chiqmasligini anglatadi. Ba'zan san'at va xalq ijodi avvalo hissiy tajriba sifatida qabul qilinib, keyinchalik anglanadi.

Mahmudov hikoyasida Hirot, Navoiy g'azallari va Kamoliddin Behzod tasvirlari kelajak insonining ma'naviy olamini shakllantiradigan madaniy belgilar sifatida talqin qilinadi. Matnda o'tmish ijodkorlarining ruhi ular yaratgan asarlarda yashashi ta'kidlanadi: *«Navoiy g'azallarida; Behzod tasvirlarida saqlanib, uzoq asrlarga yo'l oladi...»*. Bu qarashda avlodlar davomiyligi biologik vaqt bilan cheklanmaydi. Ijodkorning umri yakun topishi mumkin, biroq uning yaratgan estetik tajribasi keyingi davr kishilarining idroki va hissiyotida yashashda davom etadi.

Rey Bredberining «Surgun qilinganlar» hikoyasida koinotga parvoz va Mars makoni boshqa g'oyaviy vazifani bajaradi. Insoniyat sayyoralararo safar qilish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, bu yutuq noma'lumlik va ruhiy xavotirni bartaraf etmaydi. Raketa kemasidagi bir kishi illyuminator ortida ulkan, odam yuziga ega ko'rshapalakni ko'rganini aytadi, biroq boshqalar buni tasdiqlay olmaydi. Koinot shu tariqa faqat kashfiyotlar maydoni emas, inson idroki va qo'rquvi sinovdan o'tadigan muhitga aylanadi.

Hikoyaning muhim qatlamlaridan biri adabiy xotira bilan bog'liq. Smit Marsdagi manzarani bolaligida o'qigan Oz haqidagi hikoya bilan bog'laydi: *«Esladim. Ha, endi esladim. Juda uzoq vaqt oldin, bolaligimda. Men bir kitob o'qigan edim. Bir hikoya. Menimcha, Oz haqida edi. Ha, Oz. Zumrad shahar – Oz shahri...»*. Uning uchun ko'rilgan shahar shunchaki noma'lum manzara emas; u ilgari o'qilgan badiiy matn orqali ma'no kasb etadi. Boshqa kishilar Oz haqidagi hikoyani bilmagani uchun Smitning idrokini baham ko'rmaydi. Natijada shaxsiy xotira bilan ja-

[1] Currie M. About Time: Narrative, Fiction and the Philosophy of Time. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 176 p.

[2] Levitas R. Utopia as Method: The Imaginary Reconstitution of Society. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2013. – 268 p.

[3] Маҳмудов М. Мангу куй излаб: фантастик ва тарихий ҳикоялар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 58.

moaviy idrok o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi.

«Surgun qilinganlar» hikoyasidagi eng keskin manzaralardan biri kitoblarning yoqilishi bilan bog‘liq. Smit ko‘rgan hodisani shunday tasvirlaydi: *«Ular so‘nggi nusxalarni yoqishayotgan edi. Jodugarlar qichqirardi. Zumrad shahar qulab tushayotgan edi. Hammasi olov ichiga ketayotgan edi»*[1]. Olov bu yerda oddiy vayronkor kuch emas. U badiiy olamlar, hikoyalar va insoniyat xotirasini yo‘q qiluvchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Zumrad shaharning qulashi kitoblarning yo‘q qilinishi bilan bir vaqtda tasvirlanishi matn va tasavvur olami o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Yan Assmannning madaniy xotira haqidagi qarashlarida matnlar, obrazlar va marosimlar jamiyatning o‘zini anglashini avloddan avlodga yetkazadigan vositalar sifatida talqin qilinadi[2]. Bu yondashuv R.Bredberi hikoyasidagi kitoblar taqdirini kengroq madaniy jarayon bilan bog‘lashga imkon beradi. Kitob yoqilganda faqat moddiy buyum yo‘qolmaydi; u bilan birga muayyan hikoya, timsol va tasavvurga murojaat qilish imkoniyati ham xavf ostida qoladi. Shu ma’noda «surgun qilinganlar» obrazini badiiy merosdan uzilgan ijodkorlar va ularning olamiga joy qolmay borayotgan madaniy muhit bilan bog‘lab o‘qish mumkin.

R.Bredberi hikoyasining yakunidagi bo‘shliq hissi ham shu g‘oyani kuchaytiradi. Smit izlagan shaharni topa olmaganida, *«Bu yerda hech kim yo‘q-ku, shundaymi? Bu yerda hech kim yo‘q»* deya pichirlaydi. Takror uning umidi so‘nganini va kutgan manzarasi ortida tirik mavjudot yoki uchrashuvga sabab bo‘ladigan narsa topilmaganini bildiradi. Shamolning qumni oyoq kiyimi ustidan haydab o‘tishi esa huvillagan makonning begonaligini kuchaytiradi. Bu yakun xotira va adabiyotning yo‘qolish xavfini hissiy jihatdan chuqurlashtiradi.

Ikki hikoyani birlashtiradigan jihat kelajak manzaralarining tashqi o‘xshashligi emas, balki o‘tmishdan yetib kelgan madaniy qadriyatlarning yangi davrdagi taqdiridir. «Mangu kuy izlab»da xalq qo‘shig‘i, Navoiy g‘azallari va Behzod tasvirlari kelajak kishisining ruhiy olamini boyitadi. «Surgun qilinganlar»da esa Oz shahri va Shekspir tragediyasidagi jodugarlar kabi adabiy obrazlar kelajak voqeligiga kirib keladi, lekin ular bilan bog‘liq xotira umumiy idrokda o‘z tasdig‘ini topmaydi. Birinchi hikoyada meros vaqtlararo muloqotga yo‘l ochsa, ikkinchisida madaniy xotiraning yo‘qolishi va shaxsiy xotiraning tan olinmasligi xavotir uyg‘otadi.

Bu farqni kelajak motivining ikki poetik modeli sifatida belgilash mumkin. Mahmudovda kelajak izlanish, ma’naviy davomiylik va insonning hissiy ehtiyoji bilan bog‘langan. Ozodning mangu kuyga intilishi mavjud jamiyatda qadri pasaygan san’atni qayta kashf etish istagini ifodalaydi. Bredberida esa kelajak madaniy merosni yo‘q qilish oqibatlarini ko‘rsatadigan ogohlantiruvchi manzara yaratadi. Kitoblarning yonishi badiiy xotirani uzib qo‘yadi, Smitning ko‘rganlarini boshqalar tasdiqlamasligi esa insonning xotira orqali ma’no yaratish qobiliyati yolg‘iz qolishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kelajak motivi har ikki asarda ham bashoratning o‘zi bilan cheklanmaydi. M.Mahmudov hikoyasida texnologik taraqqiyot hissiyotning o‘rnini bosa olmasligi ko‘rsatiladi; Bredberi hikoyasida esa kosmik imkoniyatlar madaniy xotira va inson idroki muammolarini hal qilmaydi. Shunday ekan, ilmiy fantastikadagi kelajakni faqat yangi qurilmalar, sayyoralararo qatnov yoki g‘ayrioddiy hodisalar majmui sifatida baholash asarlarning mazmunini toraytiradi. Kelajakning badiiy qimmati uning inson, xotira va qadriyatlar bilan qanday munosabatga kirishishida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, «Mangu kuy izlab» va «Surgun qilinganlar» hikoyalari kelajakni o‘tmishdan uzilgan, o‘z-o‘zicha mavjud zamon sifatida emas, madaniy xotira va insoniy tajriba bilan murakkab aloqada tasvirlaydi. Mahkam Mahmudov asarida meros yangi avlodning ma’naviy izlanishiga kuch beradi; Rey Bredberi hikoyasida esa adabiy xotiraning yo‘q qilinishi kelajakning tasavvuriy va axloqiy imkoniyatlarini toraytiradi. Har ikki matn texnik taraqqiyotning insoniylik mezonlari bilan baholanishi lozimligini anglatadi. Kelajak faqat nimaga erishishimiz bilan emas, nimalarni asrab qolishimiz va qanday qadriyatlarga ehtiyoj sezishimiz bilan ham belgilanadi.

Rezyume. Maqolada Mahkam Mahmudovning «Mangu kuy izlab» hamda Rey Bredberining «Surgun qilinganlar» hikoyalarida kelajak motivining poetik vazifalari qiyosiy tahlil qilinadi. Kelajak tasviri tarixiy vaqt, madaniy xotira, badiiy meros va insonning ma’naviy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Har ikki asarda texnologik taraqqiyotning o‘zi insoniyat istiqbolini belgilab bermasligi, o‘tmishdan meros qolgan matnlar, obrazlar va san’at qadriyatlari kelajakni anglashda muhim omil bo‘lishi ko‘rsatiladi. Mahmudov hikoyasida

[1] Bradbury R. “The Exiles” // The Illustrated Man. – New York: Doubleday, 1951. – P. 143.

[2] Assmann J. Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.

ma’naviy vorisiylik va izlanish, Bredberi hikoyasida esa madaniy xotiraning yo‘qolish xavfi hamda individual idrokning yolg‘izligi ustuvor badiiy mazmun sifatida namoyon bo‘ladi.

Resume. This article presents a comparative analysis of the poetic functions of the future motif in Mahkam Mahmudov’s In Search of an Eternal Melody and Ray Bradbury’s The Exiles. The representation of the future is examined in relation to historical time, cultural memory, literary heritage, and human spiritual needs. Both works demonstrate that technological progress alone does not determine the future of humanity, while texts, images, and artistic values inherited from the past play an important role in understanding the future. In Mahmudov’s story, spiritual continuity and the pursuit of an ideal emerge as central artistic themes, whereas Bradbury’s story foregrounds the danger of losing cultural memory and the isolation of individual perception.

Резюме. В статье проводится сравнительный анализ поэтических функций мотива будущего в рассказах Махкама Махмудова «В поисках вечной мелодии» и Рэя Брэдбери «Изгнанники». Образ будущего рассматривается в контексте исторического времени, культурной памяти, художественного наследия и духовных потребностей человека. В обоих произведениях показано, что технологический прогресс сам по себе не определяет перспективы человечества, а унаследованные от прошлого тексты, образы и художественные ценности играют важную роль в осмыслении будущего. В рассказе Махмудова ведущими художественными аспектами выступают духовная преемственность и поиск, тогда как в произведении Брэдбери акцентируется опасность утраты культурной памяти и одиночество индивидуального восприятия.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INSIDER AND OUTSIDER PERSPECTIVES: THE EARLIEST LITERARY MODELS OF AMIR TIMUR IN UZBEK AND RUSSIAN TRADITIONS (ORAL EPIC AND MEDIEVAL WRITTEN SOURCES)

Pardayeva Dilfuza Raimovna,
Qarshi davlat universiteti rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Amir Timur belongs to those historical figures who exert a long-term influence on the formation of national self-awareness. Such images enter a people’s collective memory through written sources, epic, folklore and fiction, and each epoch rereads them through the prism of its own questions. It is at the oral-epic and medieval written stages that the initial models of artistic interpretation are laid down, models that are subsequently reproduced, transformed and reinterpreted over the centuries.

The relevance of the study lies in the fact that the image of Amir Timur in Uzbek and Russian literature took shape from fundamentally different cultural perspectives – internal and external – and a comparison of these perspectives has not yet received a systematic typological description. The aim of the article is to reconstruct both initial models of representing the image and to show that their character is not accidental but systemic, determining the further evolution of the image in the literature of subsequent epochs.

The research material comprises medieval written literature (Alisher Navoi’s works Majolis unnafois, Tarixi muluki Ajam, Khamsa and Muhokamat ul-lughatayn), the Old Russian Tale of Temir Aksak in the redactions presented in the Library of Literature

of Ancient Rus' and in chronicle compilations, as well as the Uzbek oral-epic heritage collected and published by H. Sodikov and other collectors. Later material is also drawn upon – S. Borodin's trilogy Stars over Samarkand, which demonstrates the persistence of the Russian medieval stereotype.

The methodological basis of the work consists of comparative-typological and imagological approaches together with the theory of cultural memory. The comparative-typological method makes it possible to identify stable models of representing the image and to compare the treatment of the same biographical motifs in the two traditions. The imagological approach reveals the mechanism by which the image of «one's own» and of the «alien» ruler is formed, conditioned by the observer's internal or external cultural perspective. The concept of cultural memory provides grounds for considering the literary image of Timur not as a reflection of historical truth but as the result of different strategies of collective remembering. The analytical procedure included singling out the key motifs (lameness, youth, the nature of power, attitude towards the people), comparing them in the Uzbek and Russian traditions and interpreting the divergences identified.

The Uzbek Tradition: An Internal Model of Perception. In the medieval written tradition of Uzbek culture, the image of Amir Timur is formed primarily in the context of notions of the ideal ruler and patron of spiritual life. The outstanding 15th-century thinker and poet Alisher Navoi repeatedly turned to the name of the great commander, emphasising his significance as a sovereign and patron of Turkic culture. In the biographical anthology Majolis un-nafois, Navoi praises Timur's knowledge of poetry and prose and his ability to quote them appropriately[1]; in the historical work Tarixi muluki Ajam he highlights his military achievements and the administrative reforms thanks to which the state gained stability. In a poem from the Khamsa cycle, Timur is presented as an example of a wise and just ruler[2], and in the treatise Muhokamat ul-lughatayn Navoi stresses the role of Timur and his circle in elevating the Turkic language, which was used at court on a par with Persian[3]. Already in this literature the themes are laid down that will regain their force in the poetry of the 20th–21st centuries: will, spiritual resilience, and responsibility before the people and history.

Alongside the written tradition, folk art – legends, dastans and traditions – played an important role. While written sources consolidated the official interpretation of the ruler-patron, the oral tradition enriched the image with vivid details, miraculous motifs and edifying plots. The main centre where such plots took shape was Samarkand, where the image of the Sahibqiran – the «lord of the four corners of the world» – was formed. A special place belongs to Hamdam Sodikov's collection Amir Temur hayotidagi g'aroyibotlar («Wonders in the Life of Amir Timur», 2007), which brings together legendary and mythological material about omens connected with Timur's life path[4]. Revealing is the plot of the «two suns» that allegedly rose over the camp during the Battle of Ankara: popular imagination endowed Timur with an aura of chosenness even before the historical image had finally taken shape.

The legend «Maktabdorning bashorati» («The Teacher's Prophecy») is characteristic. The future ruler's mother, Takina Begim, notices a rare ability in her son – he uses both hands with equal confidence. Mullah Alibek interprets this as a sign from above: such a person will rule from east to west [5]. The ability to write with both hands is symbolically equated with «dual power» – the ruler's capacity to wield the sword and the pen equally well. The legend ends with a sheikh's advice to raise the boy so that he reads the Qur'an and masters weapons, which reinforces an idea characteristic of Uzbek culture: the ideal ruler must combine religious and secular upbringing. Structurally, the legend follows a typical folklore logic: prophecy → symbolic sign → dialogue of mentors → inevitable fulfilment of destiny.

In the popular mind the ability to write with both hands acquires a wider symbolic dimension: the «two-handed person» becomes the image of a universal ruler endowed with exceptional gifts – it is no accident that the legend brings Timur close to outstanding historical figures who possessed a similar trait. The polyphony of the plot (the mother's observation – the father's question – the mullah's explanation – the sheikh's instruction) heightens the effect of authenticity and of involvement in a family dialogue; every detail carries symbolic weight, and the episode itself is built as a «laconic myth» in which the hero's entire future destiny is concentrated in a few brief scenes. Such a structure recurs in legends about many heroes – from biblical kings to epic bogatyrs – but in the Uzbek tradition it consolidates

[1] Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Еттинчи мажлис: Темур Кўрагон Электрон ресурс. – Электрон PDF нусха. – Б. 93. – URL: https://f.lib.dipuni.uz/Adabiyot/Alisher%20Navoiy.%20Majolisun-nafois.pdf (мурожаат санаси: 03.11.2026).

[2] Алишер Навоий. Хамса // Мукаммал асарлар тўплами: 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991.

[3] Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн // Мукаммал асарлар тўплами: 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1987–2003.

[4] Содиқов Ҳ. Амир Темур ҳаётидаги ғаройиботлар: тарихий бадиалар. – Тошкент: ART FLEX, 2007. – Б. 3–5.

[5] Содиқов Ҳ. Амир Темур ҳаётидаги ғаройиботлар: тарихий бадиалар. – Тошкент: ART FLEX, 2007. – Б. 20.

the stable image of a ruler whose power is sanctified and foretold even before his birth.

Another plot from Sodikov's collection is the legend «Yo'lbars bilan yuzma-yuz» («Face to Face with the Tiger»). Amir Timur, dressed in a poor man's clothes, sets off as a pilgrim to the tomb of Ahmad Yasawi in order to hear the living speech of the people and learn their needs[1]. The motif of the «secret round» links the legend with Eastern and world tradition – from Harun al-Rashid in the Thousand and One Nights to the tales of King Arthur. The climax is the hunting scene: having heard from a shepherd about a tiger troubling the herds, Timur goes out against the beast himself and strikes it with a spear, crying «Allahu akbar!» The victory over the tiger becomes symbolic proof that the ruler relies both on his own skill and on God's help, while the support of the people multiplies his strength. Thus the Uzbek tradition – both written and oral – interprets any biographical detail as a sign of chosenness.

The Russian Tradition: An External Model of Perception. A different model develops in Old Russian bookmanship, where the figure of Timur is comprehended from the position of an external observer and incorporated into a system of religious-apocalyptic notions. Its basis was the Tale of Temir Aksak (late 14th – mid-15th century), which tells of Timur's campaign against Rus' in 1395[2]. Rus', weary of the Horde yoke, perceived the rumours about the conqueror as news of a «new Batu» – a threat in almost apocalyptic form. Already the episode of his youth constructs the image through the motif of moral degradation: the young Timur, driven by hunger, stole a sheep, was caught and cruelly beaten, and his leg was broken; having recovered, he «перекова себѣ желѣзомъ ногу свою перебитую» («bound his broken leg with iron») – hence the nickname Temir Aksak, «the Iron Lame One» [3].

In the Old Russian context this episode serves the function of belittlement. Whereas Uzbek legends fill Timur's youth with prophecies of greatness, the Russian chronicle begins with the «base» – theft and disgrace. Lameness here is not a sign of chosenness (like the battle wound in the Uzbek tradition) but the brand of a robber. After the episode of his youth, the Tale moves on to the events of 1395: Timur's victory over Khan Tokhtamysh is perceived as the replacement of one threat by another, even more formidable one, and the direct comparison with Batu turns the conqueror into an apocalyptic figure. At the same time, consolation shows through the fear: if Rus' survived Batu, it will survive Timur too. History turns into a theological lesson in which the conqueror is not an independent force but an instrument of divine providence.

The culmination of the Tale is the miracle of the Vladimir Icon. The Tale dates the departure of the icon from Vladimir to 15 August 1395; its arrival in Moscow is commemorated on 26 August. Muscovites meet the icon with a procession of prayer, and Timur turns his army back. The salvation of the city is explained not by military force but by intercession from above [4]. Here the image of Timur is finally deprived of historical agency: he came not of his own will (God permitted it for the people's sins) and left not of his own will (God turned him away in answer to prayer). Whereas in the Uzbek tradition Timur is an active maker of history, in the Russian Tale he is a figure in someone else's drama, where the leading roles belong to God and the Mother of God.

The Tale of Temir Aksak combines chronicle documentary quality with the poetics of legend. In its two known redactions – of the 15th and 16th centuries – the chronicle structure is preserved: descriptions of campaigns, battles and diplomatic missions are arranged linearly, without psychological digressions, which brings the work close to an official chronicle. Researchers note the characteristic simplicity of the language, the predominance of verbal constructions («шёл», «брал», «строил» – «went», «took», «built»), formulaic epithets («железный Тимур», «iron Timur»), and the rhythmic quality of the narration, which creates the impression of an oral tale[5]. It is precisely this dry, almost businesslike manner that gives the text the appearance of an official document in which each campaign is interpreted as a sign of higher justice. In the 14th century the Tale performed a dual function: it preserved the memory of real events and at the same time formed the image of a formidable conqueror bringing destruction as a manifestation of divine retribution.

The model established in the Tale proved extremely tenacious. Even in the mid-20th century, Russian literature reproduced the motif of a «robber's

[1] Содиқов Ҳ. Амир Темур ҳаётидаги ғаройиботлар: Тарихий бадиалар. – Тошкент: ART FLEX, 2007. – 320 б.

[2] Повесть о Темир Аксаке / Подготовка текста, перевод и комментарии В. В. Колесова // Библиотека литературы Древней Руси / Под ред. Д. С. Лихачёва и др. – СПб.: Наука, 1999. – Т. 6: XIV – середина XV века. – С. 230–235.

[3] Повесть о Темир Аксаке / Подготовка текста, перевод и комментарии В. В. Колесова // Библиотека литературы Древней Руси / Под ред. Д. С. Лихачёва и др. – СПб.: Наука, 1999. – Т. 6: XIV – середина XV века. – С. 232.

[4] Повесть о Темир Аксаке / Подготовка текста, перевод и комментарии В. В. Колесова // Библиотека литературы Древней Руси / Под ред. Д. С. Лихачёва и др. – СПб.: Наука, 1999. – Т. 6: XIV – середина XV века. – С. 236–239.

[5] Иванов П. П. Повесть о Темир Аксаке // Средневековые тексты Востока. – М.: Наука, 2008. – С. 40–56.

past»: S. Borodin's trilogy Stars over Samarkand (1953–1971) opens with the book Lame Timur, bearing an epigraph from the Nikon Chronicle that documents the author's reliance on the medieval tradition[1]. The Uzbek scholar Z. J. Pardayeva rightly notes that Borodin reduces Timur's historical personality «с уровня искусного полководца, великого Сахибкирана до обычного разбойника» («from the level of a skilful commander, the great Sahibqiran, to that of an ordinary robber»)[2]. Thus the «robber» stereotype formed in the 14th century remained stable in Russian cultural consciousness right up to the 20th century, and only by the late 20th – early 21st century did Russian literature move towards a more balanced assessment.

The key difference between the two traditions is rooted in the cultural perspective of perception. For the Uzbek tradition Timur is «one's own», an organic part of national identity; he requires no justification and appears as a symbol of statehood, justice and the cultural flourishing of the Timurid era. For the Russian tradition Timur is «alien», an object of fear comprehended through the prism of the community's own security; his campaign becomes a trial of faith, and the salvation of Moscow a religious miracle. This difference is clearly manifested in the treatment of the same motifs (Table 1).

Table 1. Interpretation of key motifs of Amir Timur's image in the two traditions

Motif	Uzbek tradition	Russian tradition
Lameness	Sign of chosenness, symbol of courage (battle wound)	Punishment for theft, a mark of disgrace
Youth	Prophecy of greatness, ambidexterity, signs of destiny	Theft of a sheep, a robber's past
Power	Justice, patronage of the people	Formidable force, divine punishment
Attitude towards the people	Disguise to communicate with the people, care for their needs	Conqueror, threat

One and the same biographical fact – lameness – receives diametrically opposite interpretations: in the Uzbek tradition it is a sign of courage, in the Russian one the brand of a robber. The functions of the image also differ. In Uzbek culture the image of Timur plays a consolidating role, uniting the people around the idea of statehood and cultural continuity; the legends about him serve as a moral guide. In Russian culture the image functions as a trial that helps the people become aware of their own spiritual strength: deliverance from the invasion becomes proof of Rus' being under divine protection.

The continuity of the traditions differs as well. The Uzbek tradition, originating with Navoi and the oral epic, laid a positive foundation that has been preserved throughout the history of the literature: the image remains heroic, only the emphases change – from patron of culture to symbol of national awakening, from statesman to spiritual guide. The Russian tradition, by contrast, consolidated a negative stereotype, whose persistence is demonstrated by Borodin in the 20th century.

Already at the stage of the oral-epic and medieval written tradition, two fundamentally different typological models of the artistic representation of Amir Timur's image take shape. In Uzbek culture the internal model predominates, within which Timur is understood as a chosen ruler, the bearer of a creative mission, and a symbol of statehood and cultural patronage. In Russian medieval literature an external model develops, based on motifs of threat, divine trial and a religious-apocalyptic interpretation of events.

These divergences are not accidental but systemic: they reflect not so much different historical truths as different strategies of cultural memory. Uzbek literature views Timur from within national experience, Russian literature from outside, through the prism of its own historical destiny. It is these initial models that set the trajectory of the image's further evolution – positively stable in the Uzbek tradition and gradually evolving from a negative towards a more balanced interpretation in Russian literature.

As a prospect for further research, it appears expedient to trace the transformation of both models in the literature of the 20th–21st centuries: the reinter-

[1] Бородин С. П. Звёзды над Самаркандом: трилогия. Кн. 1: Хромой Тимур. – Ташкент: Узбекистан, 1981. – 320 с.

[2] Пардаева З. Ж. Художественно-типологическая интерпретация исторических героев в русской и русскоязычной литературе Узбекистана: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1995. – 24 с.

pretation of Timur's image in Jadid poetry and in the prose of independent Uzbekistan, on the one hand, and the gradual overcoming of the negative stereotype in Russian literature, on the other. A comparative study of Timur's image in other national traditions is also a productive direction, as it would make it possible to refine the typology of the internal and external perspectives of artistic memory.

Resume. The article examines the formation of Amir Timur's literary image in Uzbek and Russian literature through a comparative analysis of oral epic traditions and medieval written texts. The study draws on Alisher Navoi's works, the Old Russian Tale of Temir-Aksak, and Uzbek folk legends published by H. Sodiqov and other collectors. By combining comparative typology, imagology, and cultural memory studies, the author identifies two distinct models of representing Timur. In the Uzbek tradition, he is portrayed as a ruler chosen by fate, a patron of science and the arts, and a symbol of statehood. In the Russian tradition, he appears as a devastating conqueror, an instrument of divine punishment, and a «second Batu Khan.» A motif-based comparison focusing on physical disability, youth, the nature of power, and relations with the people demonstrates how the same biographical elements acquire contrasting meanings in different cultural contexts. The article argues that these differences reflect distinct strategies of collective remembrance rather than merely competing interpretations of historical reality. Their systematic nature has shaped the long-term development of Timur's literary image in both traditions.

Резюме. В статье проводится сравнительный анализ формирования образа Амира Темура в узбекской и русской литературе. Исследование основано на произведениях Алишера Навои, древнерусском «Сказании о Темир-Аксаке» и узбекских народных преданиях. С использованием сравнительно-типологического, имагологического подходов и концепции культурной памяти раскрываются две различные модели интерпретации образа Темура. В узбекской литературе он предстает как мудрый правитель, покровитель науки и искусства, а также символ государственности. В русской литературе Темур изображается как завоеватель, орудие Божьего наказания и «второй Батый». Анализ мотивов, связанных с физическим недостатком, молодостью, характером власти и отношениями с народом, показывает, что одни и те же биографические детали приобретают противоположные значения в разных культурных традициях. Делается вывод о том, что эти различия обусловлены особенностями коллективной памяти и культурного восприятия исторической личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

A.ORIPOVNING «JANNATGA YO'L» DOSTONIDA INSON VA JAMIYAT ZIDDIYATINING BADIIY TALQINI

Abdunazarov O'tkir Saydullayevich,
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
Surxondaryo akademik litseyi
«Tillarni o'rganish» kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Adabiyot inson qalbining ko'zgusi, jamiyat ma'naviyatining muhim tarbiyachisidir. Har bir badiiy asar inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlari va hayot haqidagi falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, insonning ichki olami, vijdoni, iymoni va jamiyat oldidagi mas'uliyatini badiiy talqin qilish buyuk adiblar ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbek adabiyotining zabardast vakili, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi ham ana shunday yuksak ma'naviy-falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan. Abdulla Oripov o'z asarlarida inson qalbi, uning ruhiy kechinmalari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, ma'naviy poklik va adolat masalalarini badiiy talqin etadi. Abdulla Oripovning badiiy tafakkuri, oddiy tilda aytsak, poetik iste'dodi baland edi. Daho shunchaki ulug', buyuk iste'dod emas. Buyuk iste'dod ijod qiladigan adabiy turini, janrini g'oyaviy-badiiy jihatdan takomillashtiradi, yangi obrazlar, badiiy uslublar, original va hammaga manzur asarlar bilan boyitadi[1].

Shoirning «Jannatga yo'l» dostoni ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda insonning vijdoni, jamiyat oldidagi burchi, tavba va ma'naviy kamolot masalalari teran falsafiy mushohadalar asosida yoritilgan.

«Jannatga yo'l» dostoni ilk bor 1978-yilda yaratilgan bo'lib, nazm va dramaturgiya janrlarining xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob badiiy asar hisoblanadi. Asar haqida muallif shunday xotirlaydi: Yoshlik ekan, xotiram kuchli edi, o'n minglab baytni yod bilar edim. Jumladan, yo'qolgan dostonning har bir so'zini jurnal uchun qayta boshdan tiklab berdim. Shu o'rinda uni e'lon qilishda mardonavorlik ko'rsatgan Sa'dulla Siyoyevga rahmat aytishga burchliman[2]. Asar diniy-mifologik syujet asosida yaratilgan bo'lsada, unda tasvirlangan voqealar orqali real hayotdagi ma'naviy muammolar, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar hamda jamiyatdagi axloqiy inqiroz masalalari yoritiladi. Shoir qiyomat, arosat, tarozi, jannat va do'zax kabi ramziy obrazlardan foydalanib, insonning ma'naviy qiyofasi va uning hayotdagi o'rnini tahlil qiladi. Doston voqealari qiyomat maydonida kechadi. Tashqi jihatdan qaralganda, asarda insonlarning amallari hisob-kitob qilinishi, savob va gunohlari taroziga tortilishi tasvirlanadi. Biroq asarning asl mohiyati bundan ancha kengdir. Muallif qiyomat tasvirlari orqali insonning dunyodagi hayoti, uning vijdoni, jamiyat oldidagi javobgarligi va ma'naviy qiyofasi haqida fikr yuritadi. Asarda o'limdan keyingi hayot, savol-javob va qiyomat manzaralari tasvirlangan bo'lsa-da, bular shoirning asosiy g'oyalarini ifodalash vositasidir. Abdulla Oripov mifologik va diniy tasvirlar orqali real hayotdagi kamchiliklar, gunoh va illatlarni, ularning oqibatlarini o'ziga xos badiiy talqinda ochib beradi. Asarda insonning har bir amali, har bir qarori va hatto sukuti ham muayyan ma'noda baholanishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shoirning asosiy maqsadi o'quvchini o'z hayoti haqida chuqur mushohada yuritishga undashdir. Asar davomida ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, haqiqat va yolg'on, savob va gunoh o'rtasidagi kurash badiiy vositalar orqali ochib beriladi.

Asarning markazida inson va uning qiyomatdagi javobgarligi turadi. Tashqi jihatdan bu doston qiyomat maydonida sodir bo'ladigan voqealar haqida, ammo, aslida, muallif bu orqali insonning hayotdagi mas'uliyati, vijdoni va ijtimoiy faoliyatini ko'rsatadi[3]. A.Oripovning «Jannatga yo'l» doston insonning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati, uning ichki olami va e'tiqodiy qarashlarini chuqur ochib berishi bilan ahamiyatlidir.

Doston markazida turgan Yigit obrazi muayyan

[1] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurahim-erkaev-abdulla-oripov-fenomeni/
[2] Abdulla Oripov. Hayratning ko'zlari katta bo'ladi
[3] Iskandarov Q. Abdulla Oripovning "Jannatga yo`l" asari: vijdon va mas'uliyat muhorabasi. 2026. – B. 614.

bir individual xarakterdan ko‘ra, kengroq falsafiy umumlashmani kasb etadi. U butun bashariyatning, ma’lum ma’noda esa san’atkor va ijodkor shaxsning umumlashma timsolidir. O‘z hayotini san’at, go‘zallik va ezgu tuyg‘ularni targ‘ib etishga bag‘ishlagan bu qahramon o‘zini jamiyat oldida mutlaqo pok, halol va vijdonan benuqson deb biladi. Uning subyektiv e’tiqodiga ko‘ra, qilgan ishlari uni bevosita jannatga loyiq ko‘rsatishga yetarli. Biroq asarning asosiy konflikt mexanizmi – *Qiyomat tarozisi* oldidagi sinov jarayonida namoyon bo‘ladi. Qahramonning shaxsiy savoblari kutilgan darajada og‘ir kelmaydi. Muallif bu yerda an’anaviy diniy-falsafiy qarashlardan chiqib, mutlaqo yangi estetik va ijtimoiy mezonni o‘rtaga tashlaydi: insonning taqdiri faqat uning shaxsiy gunohsizligi bilan emas, balki atrofdagi muhitga munosabati bilan belgilanadi. Abdulla Oripov mazkur obraz orqali o‘ta muhim va o‘tkir falsafiy xulosani ilgari suradi: *shaxsning faqat o‘zini o‘ylab yashashi, jamiyatdagi nohaqlik, zulm va adolatsizliklarga nisbatan jim turishi – eng katta ma’naviy gunohdir.* Yigitning fojiasi uning yovuzlik sodir etganida emas, balki yovuzlikka nisbatan befarq va loqayd bo‘lganidadir.

Yigitning o‘zini oqlashga urinishlari, ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va tavba sari intilishi orqali inson qalbining murakkab jihatlari ochib beriladi. Asarni mutolaa qilgan kitobxon Yigit obrazida o‘zining ham ayrim xususiyatlarini ko‘rishi mumkin. Chunki hayotda ko‘pincha inson haqiqatni anglab tursa ham, uni himoya qilish uchun jasorat topa olmaydi. Shu sababli Yigit obrazi har bir o‘quvchini o‘z vijdoni bilan yuzlashtiruvchi ma’naviy timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Dostondagi eng muhim va falsafiy markaziy obrazlardan biri – Tarozibondir. U shunchaki hukm qiluvchi emas, balki *ilohiy va mutlaq adolatning badiiy timsolidir.* Tarozibon insonning butun hayot yo‘lini xolisona taroziga soladi. Biroq bu baholash faqat yuzaki tashqi amallar, ibodat yoki ritual harakatlarga emas, balki shaxsning niyati, asl maqsadi va jamiyat oldidagi real mas’uliyatiga asoslanadi. Tarozibon Yigitning savoblari yetarli emasligini ko‘rsatar ekan, muhim bir falsafiy haqiqatni ochib beradi: insonning sukuti va loqaydligi ayrim hollarda eng og‘ir gunohga tengdir. Qahramon faqat o‘zi sodir etgan yomonliklar uchun emas, balki jamiyatdagi nohaqliklarni ko‘rib turib, oldini olishga urinmagani, ya’ni qilmay qo‘ygan ezgu ishlari uchun ham javobgardir. Asarda faqat individual qahramonlar emas, balki keng ma’nodagi «jamiyat» obrazi ham o‘ziga xos tarzda gavdalanadi. Shoir bu obrazni hasadgo‘ylar, laganbardorlar, manfaatparastlar, riyokorlar va manman kimsalar timsolida namoyon etadi. Shuningdek, «Jannatga yo‘l» dostoni o‘zbek adabiyotida kam uchraydigan diniy-falsafiy yondashuv bilan yozilgan. Asarda Qur’on va islomiy tafakkurga oid timsollar, iboralar, tushunchalar: farishta, Jannat, tavba, gunoh, qiyomat kabi obrazlar shoir tomonidan badiiy-falsafiy talqinda berilgan. Bu esa adabiy asarning diniy-ma’naviy yondashuvi bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi[1].

Abdulla Oripovning ushbu asari badiiy qurilishi va poetik tizimiga ko‘ra chuqur falsafiy ramzlarga boy. Muallif an’anaviy diniy-mifologik timsollardan foydalangan holda, ularga mutlaqo yangi, umuminsoniy va zamonaviy ma’no yuklaydi. Asardagi Tarozi shunchaki u yerdagi yoki narigi dunyodagi oddiy o‘lchov vositasi emas. U insonning butun umri davomida qilgan amallariga, xususan, uning jamiyat oldidagi burchi va vijdoniy faoliyatiga beriladigan qat’iy va xolisona yakuniy bahoni anglatadi. Hayot va o‘lim, o‘tkinchi dunyo va abadiyat o‘rtasidagi ramziy makon bo‘lgan Arosat maydoni insonning o‘z vijdoni, qilmishlari va «Men»i bilan ro‘baro‘ keladigan, hech qanday niqob yoki soxtalik o‘tmaydigan ruhiy poklanish sahnasidir. Farishtalar timsoli asarda faqat ilohiy buyruq bajaruvchilar sifatida emas, balki inson qalbidagi ezgulik, poklik va o‘zgarmas haqiqatning tashqi badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Dostonda ***Jannat va Do‘zax mukofot yoki jazo*** tushunchalaridangina iborat bo‘lmay, insonning hayotdagi tanlovi, ma’naviy-axloqiy kamoloti darajasi yoki ma’naviy tubanligining ramziy ko‘rinishi sifatida talqin etiladi.

Dramadagi ***«Jannat»*** timsolini faqat narigi dunyodagi *oxirat manzili* yoki *mukofot* sifatida tor doirada tushunib bo‘lmaydi. Muallif talqinida u – insonning erishgan ***ma’naviy komilligi, ruhiy yengilligi*** va ***qalb pokligi***ning oliy ramzidir. Chinakam jannat insonning boshqalar uchun qilgan yaxshiliklari, soxtalikdan xoli halol hayoti va pok vijdoni bilan o‘lchanadi. Abdulla Oripovning yuksak badiiy mahorati asarning til va uslub qatlamida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir xalqona, tushunarli va ravon tildan foydalangan holda, insoniyatni asrlar davomida o‘ylantirib kelgan murakkab falsafiy-axloqiy muammolarni o‘ta ta’sirchan tarzda ifodalay olgan. Dostonda badiiy tasvir vositalaridan o‘ta o‘rinli va mahorat bilan foydalanilgan. Nur va zulmat, savob va gunoh, haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi ziddiyatlar asarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. Adib mavhum tushunchalarni aniq obrazlar orqali ochib beradi. Bu poetik unsurlar dostonning dramatik ruhini kuchaytirib, uni o‘zbek adabiyotining durdona asarlaridan biriga aylantirgan. Dostonning eng muhim va ezgu falsafiy g‘oyalaridan biri – ***tavba*** va ***kechirim*** masalasidir. A.Oripov insonni faqat aybdor yoki gunohkor mavjudot sifatida emas, balki o‘z xatolarini chuqur anglay oladigan, o‘zini o‘zi idrok eta oladigan va ruhiy poklanishga intiladigan

[1] Zaribova M. Abdula Oripov ijodida axloqiy – falsafiy motivlar: “Jannatga yo`l” misolida. 78-son 1- to`plam Avgust-2025. – B.114.

ulug‘ zot sifatida tasvirlaydi.

Islomiy axloq va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy o‘zaklaridan biri bo‘lgan tavba asarda alohida ulug‘lanadi. Xatolarni samimiy tan olish, ularni to‘g‘rilashga intilish va vijdonan poklanish inson uchun yagona najot yo‘li sifatida talqin etiladi. Muallif talqiniga ko‘ra, har bir inson uchun kechirim va ma’naviy yangilanish eshigi doimo ochiqdir. Inson o‘z kamchiliklarini tan olib, ezgulik sari qadam qo‘ysa, har qanday ruhiy inqirozdan chiqib, ma’naviy komillikka erishishi mumkin. Dostonda umidsizlik emas, balki umid, ishonch ruhi ustuvorlik qiladi. Bu esa asarning estetik ta’sir kuchini oshirish bilan birga, uning yuksak tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatini yanada yorqin namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, A.Oripovning «Jannatga yo‘l» dostoni o‘zbek adabiyotining yuksak badiiy-falsafiy namunalaridan biridir. Shoir diniy-mifologik ramzlar vositasida inson va jamiyat hayotidagi eng muhim muammolarni yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Asarda insonning vijdoni, ma’naviy mas’uliyati, fuqarolik burchi, tavba va adolatga munosabati chuqur tahlil etiladi. Asar o‘quvchini ezgulik,halollik, haqiqat va adolat yo‘lidan borishga undaydi. Eng muhimi, u har bir insonni o‘z «tarozisi» oldida javob berishini unutmaslikka, jamiyatdagi yovuzliklarga qarshi kurashishga, befarqlikdan voz kechishga va insoniylik burchini sidqidildan ado etishga da’vat etadi. Bugungi globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda ham «Jannatga yo‘l» dostoni o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asarda ilgari surilgan vijdon, adolat, mas’uliyat va ma’naviy poklanish g‘oyalari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan asar nafaqat badiiy yodgorlik balki insonni o‘z qalbi va vijdoni bilan yuzlashtiruvchi ma’naviy maktab vazifasini ham bajaradi.

Rezyume. A.Oripovning «Jannatga yo‘l» dostoni o‘zbek adabiyotida inson va jamiyat munosabatlari, vijdon, adolat, tavba va ma’naviy poklanish masalalarini o‘tkir badiiy talqin etgan yirik asarlardan biridir. Ushbu doston insonning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyati, uning ichki olami va e’tiqodiy qarashlarini chuqur ochib berishi bilan ahamiyatlidir. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar tizimi, xususan, Yigit va Tarozibon kabi obrazlar orqali shaxsning ma’naviy kamoloti, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi mangu kurash hamda fuqarolik pozitsiyasi o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Resume. A. Oripov’s *«The Road to Paradise»* is one of the major works in Uzbek literature that offers a profound artistic interpretation of the relationship between the individual and society, conscience, justice, repentance, and spiritual purification. The poem is significant for its in-depth exploration of an individual’s social responsibility, inner world, and religious beliefs. The system of ideas advanced in the work, particularly through characters such as the Young Man and the Weigher, vividly reflects the spiritual development of the individual, the eternal struggle between good and evil, and civic consciousness.

Резюме. Дастан А. Орипова *«Путь в рай»* является одним из значительных произведений узбекской литературы, в котором на глубоком художественном уровне раскрываются вопросы взаимоотношений человека и общества, совести, справедливости, покаяния и духовного очищения. Значимость произведения заключается в глубоком раскрытии социальной ответственности человека перед обществом, его внутреннего мира и религиозных убеждений. Система идей, выдвинутых в произведении, в особенности через образы Юноши и Весовщика, ярко отражает духовное совершенствование личности, вечную борьбу добра и зла, а также гражданскую позицию человека.

ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AVHADIY MAROG‘IY VA YUSUF AMIRIY «DAHNOMA»LARIDA O‘N NOMA JANRINING POETIK TRANSFORMATSIYASI

Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi,
Termiz davlat universitet
o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Sharq mumtoz adabiyotida noma oddiy maktub bo‘lib qolmagan. U vaqt o‘tishi bilan oshiqning dardi, ma’shuqaning munosabati, hijron, umid va visol kabi holatlarni she’riy shaklda beradigan alohida badiiy yo‘lga aylangan. Dahnoma esa shu yo‘lning o‘n xabar yoki o‘n noma asosida qurilgan ko‘rinishidir. Tadqiqotlarda bu turdagi asarlarda ikki oshiqning munosabati o‘nta yozma yoki og‘zaki xabar orqali asta-sekin o‘zgarib borishi janrning asosiy belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Avhadiddin Marog‘iyning «Dahnoma»si, «Mantiq ul-ushshoq» nomi bilan ham mashhur bo‘lgan asar, janrning bizgacha yetib kelgan qadimgi va shaklan aniq namunalaridan biridir. Avhadiddin Marog‘iy uni hijriy 706-yilda, milodiy 1307-yilda Xoja Nasiriddin Tusiy avlodidan bo‘lgan Vajihiddin Yusuf uchun yozgan. Asar qariyb olti yuz bayt atrofida bo‘lib, oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi o‘nta xabar, ularning kechinmalari, g‘azallar va kichik hikoyatlar asosida qurilgan[1].

Yusuf Amiriyning «Dahnoma»si esa oradan bir asrdan ko‘proq vaqt o‘tib, 1429-1430-yillarda Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlab yozilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida asarning 907 baytdan iborat ekani, muqaddima, o‘nta noma va xotimaga bo‘linishi, har bir noma atrofida g‘azal va fardlar berilishi qayd etilgan. Shu jihatdan ikki asar bir janr doirasida turadi, ammo ular bir xil asar emas. Ularning o‘xshashligi ham, farqi ham o‘n noma shaklining qanday ishlatilganida ko‘rinadi[2].

Maqola sarlavhasidagi «poetik transformatsiya» iborasi murakkab ma’noda ishlatilmaydi. Bu yerda u mavjud badiiy qolipning keyingi ijodkor tomonidan o‘zgartirib, kengaytirib va o‘z davriga moslab davom ettirilishini anglatadi. Demak, maqsad «kim birinchi» yoki «kim yaxshiroq» degan savolga javob berish emas. Maqsad Avhadiddin Marog‘iyda ko‘ringan o‘n noma tartibi Yusuf Amiriyga kelganda nimalarni saqlab qolganini va nimalar bilan boyiganini ko‘rsatish hisoblanadi.

Avhadiddin Marog‘iy asarining kuchli tomoni shundaki, qisqa hajm ichida ishqiy munosabatning bir necha bosqichini tartibli berishida, voqea murakkab sarguzashtlarga qurilmaydi, balki oshiq ma’shuqaga mehr qo‘yadi, unga xabar yuboradi, ma’shuqa avval sovuq qaraydi, keyin javoblar orqali munosabat yumshaydi va oxirida yaqinlashuv yuz beradi. Shuning uchun asardagi asosiy harakat tashqi voqealarda emas, ikki qahramon munosabatining o‘zgarishida ko‘rinadi. Avhadiddin Marog‘iyning «Mantiq ul-ushshoq»ida oshiq va ma’shuqa o‘nta yozma yoki og‘zaki xabar almashishini, har bir bosqichda g‘azal va kichik hikoya qatnashishini, ma’shuqaning dastlab qarshilik ko‘rsatib, keyin asta-sekin ko‘nishini asar davomida kuzatishimiz mumkin.

Asarning kirishidagi mashhur misralar ham «noma» tushunchasini matnning o‘z markaziga olib kiradi:

«Be nom-e on ke moro nom baxshid,
Zabonro dar fasohat kom baxshid...»[3].

Ya’ni asar Yaratganning nomi bilan boshlanar ekan, «nom» va «noma» o‘rtasidagi ma’no yaqinligi ham seziladi. Avhadiddin Marog‘iyda muqaddima qisqa, asosiy e’tibor tezda ishq voqeasiga ko‘chadi. Birinchi xabarning boshlanishida bahor shamoli vositachi qilib olinib, shamol oshiqning gapini ma’shuqaga yetkazadi. Keyingi bosqichlarda boshqa vositachilar ham uchraydi. Xabar yetkazuvchi obrazning mavjudligi noma janri uchun juda muhim: xabar o‘zi borib qolmaydi, uni eltadigan kimdir yoki nimadir bo‘ladi.

Avhadiddin Marog‘iyda o‘n noma bir-biridan uzilgan o‘n alohida she’r emas, balki har bir xabar avvalgisining natijasidan tug‘iladi. Ma’shuqa rad etsa, keyingi xabarda oshiq bunga munosabat bildirib, oshiqning qat’iyligi kuchaysa, ma’shuqaning javobi ham o‘zgaradi. Shu sababli o‘nlik son faqat tashqi tartib emas, syujetning ichki hisobini ham ko‘rsatib,

[1] Khaleghi-Motlagh D. “Awḥadī Marāḡaʾī” // Encyclopaedia Iranica. – 1987. – Vol. III, Fasc. 2. – P. 119. – URL: https://www.iranicaonline.org/articles/awhadi-maragai-shaikh-awhad-al-din-or-rokn-al-din-b/

[2] Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 91.

[3] Khaleghi-Motlagh D. “Awḥadī Marāḡaʾī” // Encyclopaedia Iranica. – 1987. – Vol. III, Fasc. 2. – P. 119. – URL: https://www.iranicaonline.org/articles/awhadi-maragai-shaikh-awhad-al-din-or-rokn-al-din-b/

har bir noma munosabatdagi navbatdagi bosqichni belgilaydi.

Yana bir muhim xususiyat – noma bilan g‘azalning yonma-yon kelishi va masnaviy qism voqeani oldinga siljitadi, g‘azal esa shu vaziyatdagi hissiy holatni kuchaytiradi. Hikoyatlar esa qisqa misol vazifasini bajarib kelgan, Avhadiddin Marog‘iyning o‘n noma shakli uch qatlamni birlashtiradi: xabar, his va ibrat qolipini shakllantirgan.

Yusuf Amiriy «Dahnoma»si turkiy adabiyotdagi noma an’anasi shakllanib ulgurgan davrda yaratilgan. Ungacha Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si, Xo‘jandiyning «Latofatnoma»si va Sayid Ahmadning «Taashshuqnoma»si mavjud edi. Shu bilan birga, fors adabiyotidagi Avhadiddin Marog‘iy kabi ijodkorlarning dahnoma tajribasi ham adabiy an’anada yashab kelayotgan edi. Amiriy «Dahnoma»sini o‘rganish davomida shoir an’anani davom ettirgan holda kompozitsiyada yangi yo‘l tutganligini, Avhadiddin Marog‘iy «Dahnoma»si va Nizomiy dostonchiligidan ta’sirlanganini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Amiriy asarining muqaddimasi Avhadiddin Marog‘iydagiga qaraganda kengroq va saroy adabiy muhitiga yaqinroq, unda munojot, na’t, Sulton Boysung‘ur Mirzo madhi, Horun ar-Rashid hikoyati va «Sababi nazmi kitob» qismlari bor bo‘lib, shundan keyin o‘nta noma boshlanadi. Har bir noma ortidan g‘azal va fard kelib, oshiq yoki ma’shuqaning xatni o‘qishi, undan ta’sirlanishi va javob tayyorlashi ham alohida lavhalar orqali ko‘rsatilgan, asar «Dar xatmi kitob» bilan yakunlanadi.

Bu tuzilishning o‘ziyoq Amiriy an’anani shunchaki ko‘chirib olmaganini ko‘rsatadi. Avhadiddin Marog‘iyda mavjud bo‘lgan «xabar-javob-his-hikoya» harakati Amiriyda turkiy dostonchilikka xos kengroq voqeaband bayon bilan qo‘shiladi. Qahramon faqat xat yozmaydi, balki u xatni kutadi, javobdan ta’sirlanadi, ayrim o‘rinlarda bevosita uchrashuvga yaqinlashadi. Natijada maktub voqeaning o‘rnini bosmaydi, balki voqeani tug‘diradigan vositaga aylanadi.

Yusuf Amiriy haqidagi eng qadimgi muhim ma’lumotlardan biri Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»ida uchraydi. Navoiy Amiriyning turkiy she’rini yaxshi deb baholab, «Dahnoma»dan quyidagi baytni keltiradi:

«Ne yemakdin, ne uyqudin solib so‘z,
Yemakdin to‘yib, uyqudin yumib ko‘z»[1].

Bu baytning tazkiraga kirishi asarning o‘z davridan keyingi adabiy xotirada ham tanilganini ko‘rsatadi.

Ikki asarni qiyoslashdan avval ularni bir janrga birlashtiradigan belgilarni ko‘rish zarur, eng avvalo, har ikkala asarda ham ishqiy munosabat o‘nta xabar yoki noma atrofida quriladi. Bu xabarlar tasodifiy tartibda emas, bir-biriga javob bo‘lib keladi. Dastlabki bosqichlarda ma’shuqa ehtiyotkor yoki rad etuvchi holatda bo‘ladi, oshiq esa o‘z tuyg‘usini isbotlashga urinadi va keyinchalik munosabat o‘zgarib, asar yaqinlashuv tomon boradi.

Ikkinchi o‘xshashlik – masnaviy va lirik she’rlarning bir asar ichida qo‘shilishidir. Avhadiddin Marog‘iyda ham, Amiriyda ham voqeani bayon qiladigan qismdan keyin hissiy ohangni kuchaytiradigan lirik parcha keladi. Bu usul dahnoma janrining tabiiy belgilaridan biri hisoblanib, tadqiqotlarda dahnoma uchun ishqiy xabar almashuvi bilan bir qatorda g‘azalning muntazam qo‘shilishi ham muhim belgi sifatida ko‘rsatiladi.

Uchinchi o‘xshashlik – vositachilik bo‘lib, oshiq bilan ma’shuqa doimo bir makonda turmaydi. Shamol, elchi, xat yoki boshqa xabarchi ularning orasidagi masofani yengadi, shu vosita sababli noma shunchaki yozilgan matn emas, syujetda harakat qiladigan unsurga aylanadi. Xabar boradi, o‘qiladi, javob tug‘iladi va javob esa yangi holatga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchi o‘xshashlik – ma’shuqaning faol ovozga ega bo‘lishida ko‘rinadi. Avhadiddin Marog‘iyda ham u faqat oshiq ta’riflaydigan go‘zal emas, balki u javob beradi va munosabatini o‘zgartirib boradi. Amiriyda bu xususiyat yanada kengayib, ikki asar orasidagi bog‘liqlikni faqat «o‘nta xat bor» degan son bilan bog‘liq xulosaga kelishga yo‘l qo‘ymaydi. Asosiy yaqinlik – ikki qahramon o‘rtasidagi munosabatning xabarlar orqali bosqichma-bosqich ochilishida o‘z aksini topadi.

Yusuf Amiriy Avhadiddin Marog‘iy qolipini qabul qilgan bo‘lsa-da, uni turkiy adabiyot tajribasi va o‘z davrining adabiy talabi asosida kengaytirgan. Bu o‘zgarishlarni bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Belgi	Avhadiy Marog‘iy «Dahnoma»si	Yusuf Amiriy «Dahnoma»si
Umumiy qurilish	Qisqa muqaddima, o‘nta xabar, g‘azal va hikoyatlar, yakun.	Keng muqaddima, o‘nta noma, g‘azal va fardlar, javob lavhalari, xotima.
Xabar almashuvi	Oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi o‘nta yozma yoki og‘zaki xabar munosabatni bosqichma-bosqich o‘zgartiradi.	Maktubni o‘qish, ta’sirlanish va javob yozish holatlari alohida sahnaga aylantiriladi.

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. 13-том: Мажолис ун-нафоис / Матнни изоҳ ва таржималар билан нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 19.

Syujet	Asosiy harakat qahramonlarning ichki munosabatidagi o‘zgarishga tayangan.	Ichki o‘zgarish bilan birga uchrashuv va bayramga olib boruvchi voqeabandlik kuchliroq.
Lirik qo‘shimcha	G‘azal va qisqa hikoya noma bilan birga keladi.	Har bir noma ortidan g‘azal va fardning muntazam berilishi aniq tizim hosil qiladi.
Muqaddima	Muallif, homiy va ishq voqeasiga kirish qisqaroq.	Munojot, na’t, Boysung‘ur madhi, Horun ar-Rashid hikoyati va yozilish sababi keng o‘rin oladi.
Davr muhiti	Ilxoniylar davri fors adabiy muhiti.	Temuriylar saroyi, turkiy yozma adabiyot va Chig‘atoy tilidagi badiiy tajriba.

Birinchi o‘zgarish muqaddimada aks etgan, Avhadiddin Marog‘iy asarida muqaddima asosiy ishq voqeasiga tez olib kiradi. Amiriy esa o‘z asarini Boysung‘ur Mirzo bilan bog‘laydi. Horun ar-Rashid haqidagi hikoyat ham muqaddimaga bekorga kiritilmagan: adabiyotshunoslar bu hikoyat orqali shoir homiyning saxiyligi va asarni qabul qilishini ramziy tarzda ifodalaganini ko‘rsatadilar. Demak, Amiriy o‘n noma qolipini faqat ishqiy syujet ichida emas, saroy va homiylik madaniyati doirasida ham joylashtiradi.

Ikkinchi o‘zgarish xabar almashuvining sahnalashtirilishida ko‘rinadi. Avhadiddin Marog‘iyda ham ikki tomonlama xabar bor, lekin Amiriyda «noma keldi – o‘qildi – qahramonning holati o‘zgardi – javob yozildi» zanjiri kengroq bayon qilinadi. Bu holat qahramonning ichki kechinmasini tashqi harakatga aylantiradi. O‘quvchi faqat maktub mazmunini emas, uning qahramonga qanday ta’sir qilganini ham ko‘radi.

Uchinchi o‘zgarish – turkiy noma an’anasi bilan qo‘shilishi, Amiriy Avhadiddin Marog‘iydan bevosita yoki bilvosita ta’sirlangan bo‘lsa ham, uning oldida Xorazmiy, Xo‘jandiy va Sayid Ahmad tajribasi ham bor edi. Shuning uchun Amiriy «Dahnoma»sini forscha namunaga oddiy tarjima yoki taqlid sifatida ko‘rish noto‘g‘ri. Asar bir necha adabiy yo‘l kesishgan joyda paydo bo‘lgan: fors dahnoma an’anasi, turkiy noma tajribasi va Temuriylar davri dostonchiligi.

To‘rtinchi o‘zgarish – g‘azal va fardlarning tartibli qo‘llanishi, har bir nomadan keyin g‘azal va fard kelishi asarda takrorlanuvchi aniq ritm hosil qiladi. Noma voqeani va fikrni beradi, g‘azal hisni chuqurlashtiradi, fard esa ko‘pincha qisqa yakun yoki keyingi bo‘g‘inga o‘tish vazifasini bajaradi. Natijada har bir noma kichik tugallangan bo‘limga o‘xshaydi, lekin shu bilan birga katta syujetning tarkibida qoladi.

Beshinchi o‘zgarish – yakuniy harakatning kengayishi, Yusuf Amiriy «Dahnoma»sida ikki tomonlama yozishma oxir-oqibat rasmiy uchrashuv, tantana va shodiyona bilan yakun, Avhadiddin Marog‘iyda ham munosabat visol tomon boradi, lekin Amiriyda bu holat dostoniy sahna ko‘rinishida namayon bo‘ladi.

Avhadiddin Marog‘iy bilan Amiriy o‘rtasidagi vaqt farqi ham bu o‘zgarishga ta’sir qilgan. Avhadiy XIV asr boshidagi fors adabiy muhitida yozgan bo‘lsa, Amiriy esa XV asrning birinchi yarmida turkiy yozma adabiyotning mavqei tez o‘sayotgan davrda ijod qilgan. Uning «Dahnoma»si Chig‘atoy tilining yuksak badiiy imkoniyatlarini ko‘rsatgan asarlardan biri sifatida baholanadi. Shuning uchun Amiriydagi o‘zgarish faqat shaxsiy mahorat natijasi emas, balki u yangi til muhiti va yangi o‘quvchi doirasining ham talabiga javob bo‘la oladi.

Amiriy asarining oxiridagi:

«Nizomiydek ishin bedardu ranj et,
Aning ‘Dahnoma’sin ‘panj ganj’ et[1].

Mazmunidagi baytlar shoirning o‘z asarini katta adabiy an’ana ichida ko‘rganini ham ko‘rsatadi. Bu yerda shoir oldingi ustozlarni unutmaydi. Aksincha, ularga suyanib o‘z asarining qadrini oshirishni istaydi. Demak, mumtoz adabiyotdagi yangilik ko‘pincha «oldingi asarni inkor qilish» shaklida emas, ustozning yo‘lini davom ettirib, unga yangi shakl va mazmun qo‘shish orqali namoyon bo‘ladi.

Avhadiddin Marog‘iy va Yusuf Amiriy «Dahnoma»larini qiyoslash o‘n noma janrining bir asrdan ortiq vaqt davomida qanday yashaganini ko‘rsatadi. Avhadiddin Marog‘iyning «Mantiq ul-ushshoq»i janrning asosiy belgilarini yaxlit holda namoyon etadi: oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi o‘nta xabar, ularning asta-sekin o‘zgarib boradigan munosabati, g‘azal va hikoyatlar, visol tomon yo‘nalgan ichki syujet esa, keyingi ijodkorlar uchun tayyor badiiy imkoniyat yaratgan[2].

Yusuf Amiriy esa shu imkoniyatdan foydalanib, o‘n noma shaklini turkiy adabiy muhitga mos holda qayta ishlagan. U ikki tomonlama yozishuvni kengroq vo-

[1] Юсуф Амирий. Даҳнома // Муборак мактублар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 62–121.

[2] Rahmonova Sh. Noma janriga mansub dostonlarning vazn xususiyatlari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – № 4(45). – B. 158-177.

qeaband lavhalar bilan bog‘lagan, xatning o‘qilishi va javob tug‘ilishini syujetning bir qismiga aylantirgan, har bir nomani g‘azal va fard bilan tartibli ravishda bog‘lagan, muqaddimaga Boysung‘ur Mirzo madhi va Horun ar-Rashid hikoyatini kiritgan. Shu yo‘l bilan dahnoma faqat ishqiy maktublar ketma-ketligi bo‘lib qolmay, aniq muqaddima, rivojlangan asosiy qism va xotimaga ega liro-epik asar sifatida kengaygan.

Shu sababli Yusuf Amiriy «Dahnoma»sidagi poetik transformatsiyani an’ananing buzilishi deb emas, uning ijodiy davom etishi deb baholash mumkin. Avhadiddin Marog‘iy yaratgan badiiy qolip Amiriyda boshqa til, boshqa davr va boshqa adabiy muhitda yangi ko‘rinish oladi. Ikki asar orasidagi eng muhim aloqa ham shunda: biri ikkinchisining oddiy nusxasi emas, balki bir janrning ikki tarixiy bosqichini ko‘rsatadi.

Rezyume. Maqolada Avhadiy Marog‘iyning «Dahnoma» («Mantiq ul-ushshoq») asari bilan Yusuf Amiriyning «Dahnoma»si qiyoslanadi. Asosiy e’tibor o‘n noma shaklining ikki asardagi qurilishiga, oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi xabar almashuviga, nomalar orasidagi g‘azal va boshqa she’riy parchalar vazifasiga, syujetning harakatiga hamda muqaddima va xotimaning o‘rniga qaratiladi.

Resume. The article compares Avhadi Maraghi’s «Dahnoma» («Mantiq ul-ushshoq») with Yusuf Amiri’s «Dahnoma». The primary focus is on the structural arrangement of the ten letters in both works, the exchange of messages between the lover and the beloved, the function of the *ghazals* and other poetic excerpts interspersed between the letters, the progression of the plot, and the roles of the prologue and epilogue.

Резюме. В статье проводится сравнение «Дахнамы» Авади Мароги («Мантик уль-ушшак») с «Дахнама» Юсуфа Амири. Основное внимание уделяется построению десятибуквенной формы в обоих произведениях, обмену посланиями между влюбленным и возлюбленной, роли газели и других поэтических фрагментов между письмами, развитию сюжета, а также месту вступления и заключения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

HAKIM TERMIZIY ASARLARINING ADABIYOTSHUNOSLIK TALQINI: JANR, TIMSOL VA AXLOQIY-DIDAKTIK AN'ANA MASALALARI

(jahon sharqshunosligidagi tadqiqotlar misolida)

Xurramova To'lg'anoy Muzaffarovna,
Termiz davlat universiteti magistranti

Hakim Termiziy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy) IX–X asrlarda Movarounnahrda yashab ijod etgan, hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'z ijodida uyg'unlashtirgan mutafakkirdir. Uning hayot yillari manbalarda turlicha ko'rsatiladi: A. Baraka allomaning 820-yilda tug'ilib, 932-yilda vafot etganini yozsa, Hojji Xalifa vafot yili sifatida 869-yilni keltiradi[1]; B. Radtke ham tavalludini 820-yil atrofida deb belgilaydi[2]. Maqolada taxminiy yillar 820–932 deb olinadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, 2026-yilda Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlanmoqda: Termizda noyabr oyida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazilishi va "Navodir ul-usul", "Bahr ut-tafsir" kabi asarlarning ilmiy-izohli tarjimalari nashr etilishi belgilangan[3]. Bu merosni nafaqat ilohiyot va tasavvuf tarixi, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganishni taqozo etadi.

Jahon sharqshunosligidagi tadqiqotlarning aksariyati Termiziy asarlarini valoyat nazariyasi, tasavvuf falsafasi va hadisshunoslik doirasida yoritgan. Asarlarning janriy tabiati, hikmat va hikoyat, timsol va ramz tizimi, shuningdek, keyingi o'zbek adabiyoti bilan tipologik aloqalari esa, kuzatishimizcha, nisbatan kam tahlil qilingan. Bu holat tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – Hakim Termiziy asarlarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan talqin etish va bunda jahon sharqshunosligi erishgan natijalardan foydalanishdir. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi: merosning matniy va janriy tarkibini aniqlash; sharqshunoslikdagi asosiy tadqiqotlarning adabiy-matniy jihatlarini ajratib ko'rsatish; avtobiografiya, hikmat va hikoyat, timsol hamda axloqiy-didaktik an'anani tahlil qilish; Termiziy merosining keyingi o'zbek adabiyoti janrlari bilan tipologik aloqalarini belgilash.

Ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Arab sharqshunosligi va matnshunosligida A. Baraka valoyat nazariyasini (1971)[4], I. Geyoushi hayot va asarlar xronologiyasini[5], A. Sayoih tasavvufiy-psixologik qarashlarni[6] o'rgangan; "Xatm ul-avliyo" va "Budduvvu sha'ni"[7], "Kitob ul-ilal"[8] nashr qilingan. Yevropa va amerika tadqiqotlarida B. Radtke monografiyasi[9], Radtke va J. O'Kane tarjimalari[10], N. Heer[11], S. Sviri[12], A. Palmer[13] ishlari yetak-

[1] Baraka A. A. Al-Hakim al-Tirmidhi va nazariyyatuhu fil-vilaya. – Qohira: Majma' al-buhus al-islamiya, 1971; Hakim Termiziy hayoti va ijodi. – termiziy.uz. – URL: https://termiziy.uz/en/news/1482

[2] Radtke B. A Forerunner of Ibn al-'Arabi: Hakim Tirmidhi on Sainthood. – URL: https://ibnarabisociety.org/?p=9194

[3] Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlanadi. – Muslim.uz, 27.07.2026. – URL: https://www.muslim.uz/en/e/post/47894-hakim-termiziy-tavalludining-1200-yilligi-keng-nishonlanadi

[4] Baraka A. A. Ko'rsatilgan asar.

[5] Al-Geyoushi I. Al-Hakim at-Tirmidhi: dirasat li asarihi va afkarihi. – Qohira: Dor al-Nahda al-Arabiyya, 1980; Geyoushi I. Al-Tirmidhi's Theory of Saints and Sainthood // Islamic Quarterly. – London, 1971. – Vol. 15.

[6] Al-Sayoih A. A. Al-Fikr al-sufi inda al-Hakim al-Tirmidhi. – Qohira: Maktabat al-Anjlu al-Misriyya, 1998.

[7] Al-Hakim al-Tirmidhi. Kitab khatm al-awliya' / Muhaqqiq: U. Yahya. – Bayrut, 1965.

[8] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali al-Hakim al-Tirmidhi. Kitob al-ilal (al-salat va maqasiduha) / Muhaqqiq: U. I. Mansur. – Qohira: Dor al-Navodir, 2009.

[9] Radtke B. Al-Hakim at-Tirmidhi: ein islamischer Theosoph des 3./9. Jahrhunderts. – Freiburg, 1980.

[10] Radtke B., O'Kane J. The Concept of Sainthood in Early Islamic Mysticism: Two Works by al-Hakim al-Tirmidhi. – Richmond: Curzon Press, 1996. – 282 p.

[11] Heer N. A Sufi Psychological Treatise: A Translation of Kitab Bayan al-Farq bayn al-Sadr wa-l-Qalb wa-l-Fu'ad wa-l-Lubb by al-Hakim al-Tirmidhi // The Muslim World. – 1961. – Vol. 51.

[12] Sviri S. Hakim Tirmidhi and the Malamati Movement in Early Sufism // Classical Persian Sufism: From its Origins to Rumi / ed. L. Lewisohn. – London: Khaniqahi Nimatullahi Publications, 1993.

[13] Palmer A. Sainthood and Authority in Early Islam: Al-Hakim al-Tirmidhi's Theory of Wilaya and the Reenvisioning of the Sunni Caliphate. – Leiden: Brill, 2020.

chi. Uchinchi guruhni O‘zbekistonda amalga oshirilgan tarjimalar va futuvvat, tazkira kabi adabiy-axloqiy an’analarga oid tadqiqotlar (I. Usmonov[1], S. Parmonova[2]) tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va tavsifiy tahlil, janr tahlili, tipologik qiyos hamda manbashunoslik va matnshunoslik tamoyillaridan foydalanildi; tahlil asosan chop etilgan ilmiy nashrlar, tanqidiy matnlar va tarjimalarga tayandi.

1. Merosning matniy tarkibi va janr xilma-xilligi. Termiziy asarlarining soni haqida tadqiqotchilar turli raqamlarni keltiradi: ayrim manbalarda 400 dan ortiq deyilsa, A. Baraka 80 dan ortiq asarni qayd etgan[3]. Hozirgi kunda 60 ga yaqin asar qo‘lyozma holida aniqlangan, 30 dan ortig‘i Qohira, Damashq, Bayrut, Istanbul va Toshkentda nashr qilingan. Qo‘lyozmalar Parij Milliy kutubxonasida (№ 5018; 12 asar), Damashqdagi az-Zohiriya kutubxonasida (№ 104; 2 kitob va 5 risola), Londonda (4 kitob) saqlanadi, “Ad-dur al-maknun”ning yagona nusxasi esa Qohirada. Allomaning merosi asosan qisqa risolalardan iborat bo‘lib, ular “Majmuot ar-rasoil” (“Risolalar to‘plami”) nomi ostida birlashtirilgan: Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi majmuasida (Asad Efendi to‘plami, № 1479) 15 ga yaqin risola jamlangan, Qohiradagi “Dorul-kitob” majmuasi tarkibi esa undan farq qiladi. O‘zbekistonda shu kabi risolalar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 2656 inventar raqami bilan saqlanadi. Asosiy asarlar mavzu va janr yo‘nalishiga ko‘ra 1-jadvalda guruhlangan.

1-jadval. Hakim Termiziyning asosiy asarlari

Yo‘nalish	Asarlar va ularning mazmuni
Tasavvuf va ruhshunoslik	“Xatm ul-avliyo” (“Siyrat ul-avliyo”) – avliyolik darajalari va valoyat muhri haqida eng mashhur asar; “Kitob bayon al-farq bayn as-sadr val-qalb val-fuod val-lubb” – qalbning to‘rt qatlami haqida risola; “Adab ul-muridin” – murid odobi; “Riyozat un-nafs” – nafsni tarbiyalash; “G‘avr ul-umur” – ishlarning botiniy jihatlari.
Hadis va shariat ahkomlari	“Navodir ul-usul fi ma’rifati axbor ir-Rasul” – 291 bobdan iborat asar, hadislarning mohiyati va hikmatlari sharhlangan; “Kitob ul-ilal” – ibodat va hukmlarning sabablari; “Al-Ihtiyotot” – fiqhiy masalalar; “Asror us-salot” – namoz, ro‘za, haj ibodatlarining ruhiy mohiyati.
Axloq va ma’rifat	“Navodir ul-hikma” – hikmatli so‘zlar va nasihatlar to‘plami; “Kitob ul-amsol” – masal va o‘xshatishlar orqali diniy-axloqiy tushunchalarni tushuntirish; “Haj va asrorihu” – haj ibodatining botiniy sirlari.
Avtobiografik asar	“Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh” – muallifning hayoti, ko‘rgan tushlari va ruhiy kechinmalari haqida.
Tabiatshunoslikka oid deb nisbat berilgan asarlar*	“Irshod ut-tolibin”, “Navro‘znoma”, “Solnoma”.

*Bu guruhdagi asarlarning Termiziyga nisbati alohida matnshunoslik tekshiruvini talab etadi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, merosda risola, hikmat to‘plami, tamsil, avtobiografiya kabi turli janr shakllari uchraydi. Radtkening ta’kidlashicha, eng hajmli asar “Navodir ul-usul” eski va yangi nashrlarda ishonchsiz bosilgan[4]; bu adabiy tahlilning tanqidiy matn tayyorlash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2. Sharqshunoslikda o‘rganilish va adabiy-matniy jihatlar. XX asrning ikkinchi yarmida Termiziyga e’tibor avvalo arab sharqshunosligida kuchaydi: 1965-yilda Bayrutda U. Yahya tahririda “Xatm ul-avliyo” avtobiografik “Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh” bilan birga nashr etildi[5]; Baraka, Geyoushi va Sayoih valoyat, hayot va asarlar xronologiyasi, ruhshunoslik masalalarini yoritdi[6]. Yevropada Ter-

[1] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat // The importance of Yusuf Khas Hajib’s philosophical legacy in forming the foundations of the third Renaissance. – Alfraganus University, 2025. – № 5(22). – B. 425–442. – DOI: 10.5281/zenodo.15656608.

[2] Parmonova S. U. “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining diniy-irfoniy manbalari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild, № 3 (62). – B. 280–293. – DOI: 10.36078/1751139858.

[3] Baraka A. A. Ko‘rsatilgan asar.

[4] Radtke B. Hakim Termedi // Encyclopaedia Iranica. – 2003, 15 December. – DOI: 10.1163/2330-4804_EIRO_COM_2691.

[5] Kitab khatm al-awliya’. – Bayrut, 1965; Hakim Termiziy hayoti va ijodi. – termiziy.uz.

[6] Al-Sayoih A. A. Ko‘rsatilgan asar; Baraka A. A. Ko‘rsatilgan asar; Geyoushi I. Ko‘rsatilgan maqola.

miziy “islomiy teosof” sifatida talqin qilingan: Radtkening 1980-yilgi monografiyasi shunday nomlanadi[1]. Radtke va O‘Kane “Xatm ul-avliyo” hamda avtobiografiyaning ingliz tilidagi izohli tarjimasini nashr etdi[2]; Heer qalb qatlamlari risolasini tarjima qilgan[3]; Sviri Termiziyni malomatiya harakati bilan bog‘lab o‘rgangan[4]; Palmer valoyat nazariyasini sunniy xalifalik g‘oyasi bilan bog‘lab talqin qilgan[5]. Dastlabki hisob-kitoblarimizga ko‘ra, 2000–2024-yillarda ingliz, arab va fors tillarida 120 dan ortiq maqola va 15 ta monografiya nashr etilgan.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan eng muhim natija – Radtke va O‘Kane tomonidan “Budduvvu sha’ni” ning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi keng qamrovli arab avtobiografiyasi sifatida baholanishi va “Siyrat ul-avliyo”ning tasavvuf yo‘lining arxetipik biografiyasi deb talqin etilishidir[6]. Biroq bu xulosalar asosan tasavvuf tarixi doirasida bayon qilingan; ularni o‘zbek adabiyotshunosligining janr, obraz va tipologiya tushunchalari bilan boyitish mumkin.

3. Adabiyotshunoslik talqini. Quyida Termiziy merosining beshta adabiy jihati ko‘rib chiqiladi.

Avtobiografiya janri. “Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh” keng qamrovli avtobiografiya sifatida o‘zlikni anglash va ruhiy tajribani matn orqali ifodalash an’anasining dastlabki namunalaridan biridir[7]. Asarning dastlabki qismida ustozlar, ilm izlash va ruhiy tarbiya bosqichlari bayon qilinadi, keyingi qismlarda muallif ichki kechinmalari va tushlarini hikoya qiladi. Tush (ro‘yo) bu yerda oddiy bayon emas, balki ichki hayotni ochuvchi tasviriy-kompozitsion vositadir. Asarda forscha parchalar uchrashi ham alohida ahamiyatga ega, chunki ilk tasavvuf yozma merosi deyarli butunlay arab tilida bo‘lgan[8]. Termiziyning avtobiografik matnini keyingi o‘zbek adabiyotidagi xotira-tarjimai hol janri (masalan, Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari) bilan solishtirish mumkin[9]: ular boshqa shaxslar haqida bo‘lsa-da, shaxsning ichki qiyofasini ochish vazifasi jihatidan yaqinlik kuzatiladi.

Siyrat-biografik qolip. “Xatm ul-avliyo” (“Siyrat ul-avliyo”) valoyat nazariyasi bilan birga tasavvuf yo‘lining umumlashgan “siyrati”ni beradi: yo‘l tavbadan boshlanib, nafsni riyozat bilan tarbiyalash va taqvodor ichki o‘zini kuzatish bosqichlariga ko‘tariladi[10]. Radtke va O‘Kane “Budduvvu sha’ni” Termiziyning shaxsiy tarjimai holi bo‘lsa, “Siyrat” umuman soliqning arxetipik biografiyasi ekanini ta’kidlaydi[11]. Avliyolar hayoti va xislatlarini bayon qiluvchi bunday matnlar keyinchalik tazkira janrida – Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida va uning erkin-ijodiy tarjimasi bo‘lgan Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”ida – keng rivoj topdi[12]. Bosqichma-bosqich “yo‘l” (sayr-u suluk) kompozitsiyasi Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi vodiylar silsilasida badiiy shaklga kirgan. Biz bu yerda bevosita ta’sirni emas, tipologik yaqinlikni nazarda tutamiz.

Hikmat, rivoyat va hikoyat. Termiziyning so‘zlari keyingi tasavvufiy manbalarda hikmat shaklida ko‘chirilgan: Qushayriyning “Risola” asarida futuvvatga oid ikki ibora Termiziyga nisbat beriladi – birida futuvvat Robbi uchun nafsga dushman bo‘lish, ikkinchisida muqim va to‘satdan kelgan mehmonni bir xil ko‘rish deb ta’riflanadi[13]. Bunday ixcham, aforistik shakl keyingi pand va hikmat adabiyotining xarakterli xususiyatidir. “Navodir ul-usul”ning 190-bobida esa hadis bilan birga Hotam Toiyning qizi haqidagi hikoyat keltiriladi[14]; bu hadis sharhi bilan qissa elementining uyg‘unlashganini, hikoyat axloqiy xulosani ko‘rgazmali qilishini ko‘rsatadi.

Timsol va ramz tizimi. “Kitob ul-amsol” diniy-axloqiy tushunchalarni masal va o‘xshatishlar orqali tushuntiradi; bu tamsil (allegoriya) an’anasining ilk tasavvufiy nasrdagi ko‘rinishidir. “Bayon al-farq” risolasi inson ichki dunyosini sadr (ko‘krak), qalb, fuod va lubb degan to‘rt qatlamga ajratadi va har birini ruhiy idrokning muayyan darajasi bilan bog‘laydi[15]; Radtkening qayd etishicha, Termiziy antropologiyasida bosh, yurak va qorin uch faoliyat markazi sifatida

[1] Radtke B. Ko‘rsatilgan asar. – Freiburg, 1980.
[2] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[3] Heer N. Ko‘rsatilgan maqola.
[4] Sviri S. Ko‘rsatilgan maqola.
[5] Palmer A. Ko‘rsatilgan asar.
[6] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[7] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[8] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[9] Alisher Navoi (1441–1501). – Ziyouz.uz. – URL: https://ziyouz.uz/en/uzbek-literature/38-literature-of-temurids-period/63-alisher-navoi-1441-1501
[10] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[11] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[12] Parmonova S. U. Ko‘rsatilgan maqola.
[13] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[14] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[15] Heer N. Ko‘rsatilgan maqola.

ajratiladi[1]. Qalbni ko‘p qatlamli ichki makon sifatida tasvirlash keyingi tasavvufiy she’riyatdagi “ko‘ngil” obrazining ko‘p ma’noliligi bilan tipologik jihatdan yaqin.

Axloqiy-didaktik an’ana va futuvvat. I. Usmonov IX–X asrlarda Movarounnahr adabiyotida “futuvvat” atamasi hali keng qo‘llanmasa-da, uning axloqiy sifatlari tasavvufiy asarlarda, jumladan Termiziy asarlarida ifodalanganini qayd etadi; “Navodir ul-usul”ning 67-bobida saxovat, kengbag‘irlik, shijoat va ulfatchilik fazilatlari sanaladi, Ayasofyadagi 2049-raqamli majmuada saqlanuvchi “ar-Risala fil-futuvva” esa misrlik olim Juyushiyga tayanib Termiziyga nisbat beriladi[2]. Keyingi adabiyotda bu mavzu futuvvatnoma janrida (Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy”si), Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi Axiy hikoyatida hamda “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim il-futuvvat” tazkirasida badiiy talqin topgan[3]. Termiziy va keyingi mualliflar o‘rtasida bevosita ta’sir emas, umumiy axloqiy-didaktik an’ana mavjudligini ta’kidlaymiz. Tipologik aloqalar 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval. Termiziy merosining adabiy-tipologik aloqalari

Janr yoki yo‘nalish	Termiziyda ko‘rinishi	Keyingi adabiyotdagi tipologik parallel
Avtobiografiya	“Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh”: tushlar va ruhiy kechinmalar[1]	xotira-tarjimai hol asarlari, masalan, Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin”i[2]
Siyrat va tazkira	“Siyrat ul-avliyo”: tavba, riyozat, o‘zini kuzatish[3]	tazkira janri: “Nafahot ul-uns”, “Nasoyim ul-muhabbat”[4]
Hikmat va hikoyat	aforistik so‘zlar; “Navodir ul-usul”dagi hikoyat[5]	pandnoma va hikmat adabiyoti[6]
Futuvvat axloqi	“Navodir ul-usul”, “ar-Risala fil-futuvva” (nisbat berilgan)[7]	“Futuvvatnomai Sultoniy”, “Sab’ai sayyor”dagi Axiy hikoyati[8]
Timsol va ramz	“Kitob ul-amsol”; qalb qatlamlari[9]	“ko‘ngil” obrazining ko‘p ma’noliligi (tipologik)

Til va tarjima. Termizda yashagan alloma asarlarini arab tilida yaratgan, ayrim parchalarda fors tiliga murojaat etgan[10]; bu IX–X asrlarda Movarounnahrda ilmiy va badiiy tillarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Termiziy merosining turkiy yozma an’anaga ta’siri (shu jumladan, qadimgi uyg‘ur madaniyati bilan aloqalari) hali tizimli o‘rganilmagan. O‘zbek tilida “Xatm ul-avliyo” (K. Rahimov, 2017)[11], “Ma’rifatul asror” (A. Tursunov, 2017)[12] va “Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh” (R. Abdullayev, 2002)[13] tarjimalari nashr etilgan; valoyat, nafs, qalb kabi istilohlarni o‘zbekchaga o‘girish tarjimashunoslik muammolarini yuzaga keltiradi, 2026-yil uchun rejalashtirilgan ilmiy-izohli tarjimalar[14] bu masalani yanada dolzarb qiladi.

4. Natijalar va muhokama. Tahlil quyidagi natijalarni berdi. Birinchidan, Termiziy merosi janr jihatidan xilma-xil bo‘lib, avtobiografiya, siyrat-biografik qolip, hikmat va hikoyat, tamsil hamda axloqiy-didaktik risola shakllarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, jahon sharqshunosligi bu jihatlarning bir qismini (avtobiografiya, “Siyrat”) aniqlagan, ammo adabiy tahlil asosan tasavvuf tarixi doirasida qolgan[15]. Uchinchidan, Termiziy merosi keyingi o‘zbek adabiyotidagi tazkira, futuvvatnoma va doston janrlari bilan tipologik jihatdan bog‘lanadi; bu

[1] Radtke B. Hakim Termedi // Encyclopaedia Iranica. – 2003.
[2] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[3] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442; Parmonova S. U. Ko‘rsatilgan maqola.
[1] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[2] Alisher Navoi (1441–1501). – Ziyouz.uz.
[3] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[4] Parmonova S. U. Ko‘rsatilgan maqola.
[5] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[6] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[7] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[8] Usmonov I. S. Markaziy Osiyoda futuvvat. – B. 425–442.
[9] Heer N. Ko‘rsatilgan maqola.
[10] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.
[11] Al-Hakim at-Termiziy. Xatm ul-avliyo / Tarjimon K. Rahimov. – Toshkent: Noshir, 2017.
[12] Hakim Termiziy. Ma’rifatul asror (Sirlar ma’rifati) / Tarjimon A. M. Tursunov. – Toshkent, 2017.
[13] Hakim Termiziy. Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh / Tarjimon R. Abdullayev // Sino. – 2002. – № 7.
[14] Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlanadi. – Muslim.uz, 27.07.2026.
[15] Radtke B., O’Kane J. Ko‘rsatilgan asar.

bog‘lanish bevosita ta’sirni emas, umumiy tasavvufiy-axloqiy an’anani ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, allomaning hayot yillari, asarlar soni va ayrim asarlar nisbati bo‘yicha manbalardagi tafovutlar yagona ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Hakim Termiziy asarlarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish tasavvuf adabiyoti tarixini ilk bosqichdan boshlab izchil yoritish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlar Termiziy asarlarining tanqidiy matnini tayyorlash, uning keyingi tazkira va futuvvatnoma an’analari bilan aloqasini manba asosida isbotlash, turkiy yozma an’anaga ta’sirini aniqlash hamda asosiy asarlarning o‘zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimalarini yaratishga qaratilishi lozim.

Rezyume. Maqolada IX–X asrlarda Movarounnahrda yashagan mutafakkir Hakim Termiziy asarlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Meros tarkibi va qo‘lyozma fondlari, shuningdek, arab, yevropa va amerika sharqshunoslari (A. Baraka, I. Geyoushi, B. Radtke, J. O‘Kane, N. Heer, S. Sviri, A. Palmer va boshqalar) tadqiqotlari janr va matnshunoslik jihatidan ko‘rib chiqiladi. Termiziy merosida avtobiografiya janri (“Budduvvu sha’ni Abu Abdulloh”), tasavvuf yo‘lining siyrat-biografik qolipi, hikmat va hikoyat, timsol hamda futuvvat bilan bog‘liq axloqiy-didaktik an’ana aniqlanadi va ularning keyingi o‘zbek adabiyotidagi tazkira, futuvvatnoma va doston janrlari bilan tipologik aloqalari ko‘rsatiladi. Natijalardan tasavvuf adabiyoti tarixi, matnshunoslik va tarjimashunoslikda foydalanish mumkin.

Resume. The article analyses the works of Hakim al-Tirmidhi, a thinker who lived in Transoxiana in the 9th–10th centuries, from the standpoint of literary studies. The composition of his heritage, the manuscript holdings, and the research of Arab, European and American orientalists (A. Baraka, I. Geyoushi, B. Radtke, J. O’Kane, N. Heer, S. Sviri, A. Palmer and others) are examined from the perspective of genre and textual criticism. The study identifies in al-Tirmidhi’s legacy the autobiographical genre (“Budduvvu sha’ni Abu Abdullah”), the biographical pattern of the Sufi path, aphorism and anecdote, allegory and symbol, and the ethical-didactic tradition connected with futuwwa, and shows their typological links with the later Uzbek genres of tazkira, futuwwatnama and dastan. The results can be used in the history of Sufi literature, textual criticism and translation studies.

Резюме. В статье произведения Хакима ат-Термизи, мыслителя, жившего в Мавераннахре в IX–X веках, анализируются с позиций литературоведения. Состав наследия, рукописные фонды и исследования арабских, европейских и американских востоковедов (А. Барака, И. Гейуши, Б. Радтке, Дж. О’Кейн, Н. Хеер, С. Свири, А. Палмер и др.) рассматриваются в жанровом и текстологическом аспектах. В наследии ат-Термизи выявляются жанр автобиографии («Будду ша’ни Аби Абдиллах»), биографическая модель суфийского пути, афоризм и притча, аллегория и символ, а также этико-дидактическая традиция, связанная с футувва, и показываются их типологические связи с более поздними узбекскими жанрами тазкира, футуватнаме и дастана. Результаты могут быть использованы в истории суфийской литературы, текстологии и переводоведении.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЦИФРОВЫЕ И ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОДЕРЖАНИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА

Джуманазарова Зилола Обиджоновна,
доктор философии по филологическим наукам,
и.о. доцент кафедры иностранных языков,
University of Business and Science

Реформирование высшего образования в Республике Узбекистан, начатое Концепцией развития системы высшего образования до 2030 года[1] и стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030»[2] ставят перед педагогическими направлениями задачу подготовки учителя, способного работать в цифровой образовательной среде. Для будущего учителя русского языка эта задача имеет особое значение: русский язык в Узбекистане изучается преимущественно как неродной, и эффективность обучения во многом зависит от умения учителя организовать коммуникативно-ориентированную, интерактивную работу и использовать цифровые ресурсы.

В методической литературе сложилось представление о том, что современная профессиональная компетентность учителя включает не только предметные и методические знания, но и умение интегрировать технологии в обучение конкретному предмету. Эта идея получила развитие в модели TPACK, описывающей взаимодействие технологического, педагогического и предметного знания[3], а также в европейской рамке цифровой компетентности педагогов DigCompEdu[4]. В отечественной традиции вопросы использования новых информационных технологий в обучении языкам рассматривались Е.С. Полат[5], терминологическая база активных и интерактивных методов зафиксирована в словаре Э.Г. Азимова и А.Н. Щукина[6], а принципы активного обучения обоснованы, в частности, в работах Ч. Бонвелла и Дж. Эйсона[7]. Задачи цифровизации национальной системы образования Узбекистана рассматриваются в работах Р.Р. Асмятуллина[8] и Ш.Ш. Садыкова[9].

Вместе с тем декларируемые требования к цифровой и интерактивной подготовке учителя не всегда находят отражение в нормативных документах конкретной образовательной программы – учебных программах дисциплин. Именно учебная программа определяет, какие темы будут изучены, какие умения будут сформированы и как будет проверено их освоение. Поэтому анализ содержания учебных программ позволяет оценить, в какой мере методическая подготовка будущих учителей русского языка соответствует

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 г. № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года».

[2] Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030" и мерах по её эффективной реализации».

[3] Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

[4] Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / ed. Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

[5] Полат Е.С. и др. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2000. – 272 с.

[6] Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Икар, 2009. – 448 с.

[7] Bonwell C.C., Eison J.A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – Washington, DC: George Washington University, 1991. – (ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1).

[8] Асмятуллин Р.Р. Особенности цифровизации образования в Узбекистане // Россия и Азия. – 2022. – № 7. – С. 41–53.

[9] Садыков Ш.Ш. Основные направления совершенствования высшего образования Республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации экономики // Открытое образование. – 2021. – Т. 25, № 1. – С. 40–47. – DOI: 10.21686/1818-4243-2021-1-40-47.

современным требованиям.

Цель исследования – определить место цифровых и интерактивных технологий в содержании дисциплин методического цикла, реализуемых в University of Business and Science (UBS) по направлениям 60230100 – «Филология и обучение языкам (русский язык)» и 70230101 – «Лингвистика (русский язык)». Исследовательские вопросы: (1) какую долю тем учебных программ составляют темы, связанные с цифровыми технологиями, интерактивными методами и оцениванием; (2) как изменилось содержание базового курса методики при обновлении программы на 2026–2027 учебный год; (3) как распределяется технологический компонент между обязательными дисциплинами и дисциплинами по выбору.

Материалом исследования послужили пять учебных программ дисциплин методического цикла (табл. 1): две редакции базового курса «Методика преподавания русского языка и литературы» (2025–2026 и 2026–2027 учебные годы), две программы дисциплин по выбору бакалавриата («Интерактивные методы обучения русскому языку», «Современные технологии в обучении русскому языку») и программа магистерского курса «Методика преподавания специальных дисциплин» (2026–2027 учебный год). Программа базового курса в редакции 2026–2027 учебного года разработана автором статьи; чтобы снизить влияние этого обстоятельства на результаты, кодирование проводилось по формальным признакам, описанным ниже.

Таблица 1. Корпус проанализированных учебных программ

Дисциплина	Уровень	Редакция	Число тем
Методика преподавания русского языка и литературы (М-25)	бакалавриат	2025–2026	33
Методика преподавания русского языка и литературы (М-26)	бакалавриат	2026–2027	37
Интерактивные методы обучения русскому языку (ИНТ)	бакалавриат, по выбору	план 2023 г.	30
Современные технологии в обучении русскому языку (ТЕХ)	бакалавриат, по выбору	план 2023 г.	15
Методика преподавания специальных дисциплин (МАГ)	магистратура	2026–2027	30
Итого			**145**

Использовался метод количественно-качественного контент-анализа[1]. Единицей анализа служила тема занятия в том виде, в каком она сформулирована в тематическом плане программы (название темы и её краткое содержание). Каждая тема кодировалась по четырём неисключающим категориям: (Ц) цифровые технологии – упоминание ИКТ, компьютерных, мультимедийных, дистанционных и онлайн-ресурсов, образовательных платформ, электронных материалов, искусственного интеллекта; (И) интерактивные и активные методы – групповые, игровые, дискуссионные, проектные, кейс-методы, проблемное и модульное обучение, педагогические технологии; (О) контроль и оценивание – формы контроля, критерии и шкалы оценивания, тестирование, рейтинговая система; (П) предметно-методическое содержание – темы, не содержащие признаков категорий Ц, И, О (например, методика изучения отдельных разделов курса русского языка). Одна тема могла относиться к нескольким категориям, поэтому сумма долей по программе может превышать 100 %.

Кодирование выполнялось по заранее составленному словарю признаков (ключевых слов и их основ) с последующей ручной проверкой каждой темы. Дополнительно подсчитывалась частота упоминания отдельных цифровых инструментов во всём тексте программы, включая перечни литературы и интернет-ресурсов.

Распределение тем по категориям представлено в таблице 2.

[1] Krippendorff K. Content Analysis: An Introduction to Its Methodology. – 4th ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE, 2018.

Таблица 2. Доля тем учебных программ по категориям, % (абсолютное число тем)

Программа	N	Ц – цифровые	И – интерактивные	О – оценивание	П – предметно-методические
М-25	33	0 (0)	12 (4)	3 (1)	85 (28)
М-26	37	11 (4)	19 (7)	19 (7)	62 (23)
ИНТ	30	10 (3)	93 (28)	7 (2)	7 (2)
ТЕХ	15	13 (2)	87 (13)	0 (0)	7 (1)
МАГ	30	10 (3)	53 (16)	17 (5)	37 (11)
Итого	**145**	**8 (12)**	**47 (68)**	**10 (15)**	**45 (65)**

Во-первых, при обновлении базового курса методики на 2026–2027 учебный год его содержание заметно изменилось. В редакции 2025–2026 учебного года 85 % тем имели предметно-методический характер, а темы с цифровым компонентом отсутствовали. В редакции 2026–2027 учебного года предметно-методические темы составляют 62 %; появились темы, в которых предусмотрено использование цифровых и мультимедийных средств обучения (11 %); доля тем, посвящённых контролю и оцениванию, увеличилась с 3 до 19 %. В формулировках практических занятий новой редакции появились задания на составление тестов, применение критериев оценивания и разработку документации к уроку.

Во-вторых, интерактивные методы представлены в корпусе неравномерно. В дисциплинах по выбору «Интерактивные методы обучения русскому языку» и «Современные технологии в обучении русскому языку» они составляют ядро содержания (93 и 87 % тем соответственно): рассматриваются дискуссионные, игровые, коммуникативно-творческие методы, кейс-технологии, метод проектов, технология развития критического мышления. В обязательном курсе методики интерактивные методы встречаются лишь в 12–19 % тем. В магистерском курсе их доля составляет 53 %, причём здесь они рассматриваются применительно к высшей школе (деловая игра, метод case-study, модульное обучение)[1].

В-третьих, цифровой компонент во всех программах невелик: от 0 до 13 % тем. Как правило, он представлен одной-двумя темами обзорного характера (например, «Информационно-коммуникационные технологии в обучении русскому языку», «Дистанционные технологии при преподавании специальных дисциплин», «Применение мультимедийных технологий в образовательном процессе высшего учебного заведения»). Частотный анализ полных текстов показал, что инструменты искусственного интеллекта упоминаются в трёх программах из пяти (2–3 упоминания), а работа с языковыми корпусами, в том числе с Национальным корпусом русского языка, не упоминается ни в одной программе.

Полученные данные позволяют говорить о положительной динамике: обновление базового курса методики сопровождалось включением тем, связанных с цифровыми средствами обучения и с оцениванием. Рост внимания к оцениванию согласуется с переходом высшего образования Узбекистана на кредитно-модульную систему, в которой прозрачные критерии оценки становятся обязательным элементом учебного процесса.

Вместе с тем результаты выявляют структурную проблему, которую можно назвать «вынесением технологий за скобки». Интерактивные и цифровые технологии сосредоточены в отдельных дисциплинах по выбору, тогда как обязательный курс методики остаётся преимущественно предметно-методическим. С точки зрения модели TPACK[2] это означает, что технологическое знание формируется отдельно от предметно-методического: студент изучает, например, методику обучения орфографии, не связывая её с конкретными цифровыми инструментами (онлайн-тренажёрами, корпусными данными, автоматизированной проверкой). Дисциплины по выбору, кроме того, осваивают не все студенты.

Обзорный характер «цифровых» тем также ограничивает формирование практических умений. Рамка DigCompEdu[3] предполагает, что педа-

[1] Тургунова С.А. Особенности лексикологической терминологии // Science Time. – 2025. – Т. 3, № 5. – С. 103–108. – DOI: 10.66345/stj.v3i5.4633.

[2] Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

[3] Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / ed. Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

гог умеет не только выбирать цифровые ресурсы, но и создавать и адаптировать их, использовать цифровые средства для оценивания и для активизации учащихся. В проанализированных программах такие умения отражены в основном в формулировках результатов обучения, но не подкреплены отдельными практическими заданиями.

Отсутствие в программах работы с языковыми корпусами представляется существенным пробелом для филологического направления: корпусные данные позволяют учителю русского языка подбирать аутентичные примеры, проверять употребительность слов и конструкций, строить задания на наблюдение над языком[1]. Фрагментарное упоминание искусственного интеллекта отражает, по-видимому, то, что программы разрабатывались в период быстрого распространения генеративных моделей, и их методическое осмысление ещё не завершено.

Сопоставление с ранее опубликованными работами показывает, что выявленные пробелы имеют устойчивый характер. Возможности новых информационных технологий в обучении языкам были описаны Е.С. Полат ещё в 2000 г.[2], а использование Национального корпуса русского языка в обучении русскому языку обсуждается с середины 2000-х гг.[3]; однако в проанализированных программах эти направления либо представлены обзорно, либо отсутствуют. Положение модели TPACK о том, что технологическое знание должно формироваться в связи с предметным[4], подтверждается и нашими данными: там, где технологии изучаются в отдельных дисциплинах, их связь с методикой обучения конкретным разделам языка в программе не прослеживается.

На основании полученных результатов можно предложить следующие направления обновления программ: включение в каждую тему обязательного курса методики, посвящённую изучению разделов языка (фонетика, лексика, морфология, синтаксис, орфография, пунктуация), хотя бы одного практического задания с использованием цифрового инструмента; введение практического занятия по работе с Национальным корпусом русского языка и онлайн-словарями; рассмотрение возможностей и ограничений инструментов искусственного интеллекта при подготовке учебных материалов и проверке письменных работ; интеграция элементов дисциплин по выбору («Интерактивные методы», «Современные технологии») в обязательный курс через сквозные практические задания.

Исследование имеет ограничения. Анализ выполнен на материале одного вуза и пяти программ; учебная программа отражает планируемое, а не реально реализуемое содержание обучения; кодирование по словарю признаков, даже при ручной проверке, не исключает субъективности. В дальнейшем целесообразно дополнить анализ документов анкетированием студентов и наблюдением занятий, а также сопоставить программы нескольких вузов Узбекистана.

Контент-анализ 145 тем пяти учебных программ методического цикла показал, что обновление базового курса «Методика преподавания русского языка и литературы» на 2026–2027 учебный год привело к появлению цифрового компонента (с 0 до 11 % тем) и усилению внимания к оцениванию (с 3 до 19 % тем). Интерактивные методы представлены главным образом в дисциплинах по выбору, а цифровые технологии во всех программах занимают не более 13 % тем и рассматриваются преимущественно обзорно; работа с языковыми корпусами отсутствует. Для подготовки учителя русского языка, готового работать в цифровой образовательной среде, необходимо интегрировать цифровые и интерактивные технологии непосредственно в обязательные методические дисциплины, связывая их с обучением конкретным разделам языка и литературы.

Rezyume. Tadqiqotning maqsadi – University of Business and Science (Namangan)da 60230100 va 70230101 yo‘nalishlari bo‘yicha metodik sikl fanlari mazmunida raqamli va interfaol texnologiyalarning o‘rnini aniqlash. Kontent-tahlil usuli bilan beshta o‘quv dasturi (145 ta mavzu) o‘rganildi. “Rus tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” kursida raqamli komponentga ega mavzular ulushi 0 dan 11 foizgacha, nazorat va baholashga oid mavzular ulushi esa 3 dan 19 foizgacha oshgan. Interfaol metodlar tanlov fanlarida ustunlik qiladi

[1] Буторина Е.П. Использование национального корпуса в изучении русского языка студентами-иностранцами // Национальный корпус русского языка и проблемы гуманитарного образования: материалы междунар. науч. конф. – М., 2007. – С. 10–11.

[2] Полат Е.С. и др. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2000. – 272 с.

[3] Буторина Е.П. Использование национального корпуса в изучении русского языка студентами-иностранцами // Национальный корпус русского языка и проблемы гуманитарного образования: материалы междунар. науч. конф. – М., 2007. – С. 10–11.

[4] Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

(87–93 %), raqamli texnologiyalar barcha dasturlarda mavzularning 13 foizidan oshmaydi, til korpuslari bilan ishlash nazarda tutilmagan. Raqamli va interfaol texnologiyalarni bevosita majburiy metodik fanlarga integratsiya qilish zarur degan xulosaga kelingan.

Резюме. Цель исследования – определить место цифровых и интерактивных технологий в содержании дисциплин методического цикла по направлениям 60230100 и 70230101 в University of Business and Science (Наманган). Методом контент-анализа изучены пять учебных программ (145 тем). В курсе «Методика преподавания русского языка и литературы» доля тем с цифровым компонентом выросла с 0 до 11 %, а тем по контролю и оцениванию – с 3 до 19 %. Интерактивные методы преобладают в дисциплинах по выбору (87–93 %), цифровые технологии во всех программах составляют не более 13 % тем, работа с языковыми корпусами не предусмотрена. Сделан вывод о необходимости интегрировать цифровые и интерактивные технологии непосредственно в обязательные методические дисциплины.

Rezyume. The study aims to determine the place of digital and interactive technologies in the content of methodological disciplines in the fields 60230100 and 70230101 at the University of Business and Science (Namangan). Five curricula (145 topics) were examined using content analysis. In the course “Methods of Teaching Russian Language and Literature,” the share of topics with a digital component increased from 0 to 11 %, and the share of topics on assessment rose from 3 to 19 %. Interactive methods prevail in elective disciplines (87–93 %), digital technologies account for no more than 13 % of topics across all curricula, and work with language corpora is not included. It is concluded that digital and interactive technologies should be integrated directly into compulsory methodological disciplines.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ РУССКОЙ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП

Мирзаева Шахло Ризаевна,
Рузиева Муштари Хусниддин кизи,
преподаватели межфакультетской кафедры русского языка
Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова

В современной методике обучения русскому языку насущным считается вопрос выстраивания диалога на занятиях, особенно в общении со студентами, который помогает выявить специфику русского языка и сформировать ценностное отношение к нему как к национальному богатству. Главное внимание в новой образовательной сфере уделяется не запоминанию фактов, а формированию способности вести диалог. Чтобы успешно выстроить учебный процесс и взаимодействие между преподавателем и студентами в формате беседы, а также развить диалоговые отношения, необходимо придерживаться ряда психолого-педагогических требований.

Педагогу важно учитывать не только уровень владения языком, но и личные особенности каждого студента. Для развития навыков диалогической речи коммуникативные задачи следует постепенно усложнять. Регулярные упражнения в интерактивном формате и атмосфера психологического комфорта помогают преодолеть языковые барьеры, формируя уверенность в устном общении на русском языке[1].

Эффективность развития русской диалогической речи студентов национальных групп в значительной степени зависят:

-от знания преподавателей наиболее характерных типов диалогов, закономерностей их построения, особенностей речевых высказываний собеседников, взаимодействия реплик, учета внеречевого поведения говорящих, различных паралингвистических факторов;

-научно-методической обоснованности отбора материала;

-методов, приемов обучения, системы упражнений, способствующих формированию у студентов умений и навыков ведения диалогов.

В статье делается попытка осветить некоторые вопросы, связывающие с проблемой отбора учебного материала и характера работы на занятиях русского языка по развитию русской диалогической речи студентов национальных групп.

Предлагаемая система упражнений предусматривает формирование и развитие реплицированной русской речи и может быть условно разделена на три группы:

1.Упражнения на уровне лексем, словосочетаний и предложений. В результате выполнения предлагаемых в них заданий студенты осваивают необходимый для ведения диалогов лексико-грамматический материал в составе 1-2 реплик.

2. Упражнений формирующие умения и навыки составления и употребления реплик (от одной до четырех) в соответствии с ситуацией и реакцией собеседника.

3. Упражнения по ведению и тактике диалога. В первой группе упражнений превалирует задания, предусматривающие деятельность студентов на репродуктивном и полупродуктивном, во-второй на полупродуктивном и продуктивном, а в третей группе – на продуктивном, творческом уровне.

Выбор материала для упражнений как первой группы, подготавливающей студентов к ведению диалога, так и упражнений 2-3 групп основывается на функционально-коммуникативном принципе. Речевые образцы, представляющие собой отдельные речевые реакции, реплик и диалогические единства, различаются по содержанию и цели высказывания[2]. На первом этапе работы речевые образцы предлагается в готовом виде, на втором – составляются студентами с помощью преподавателя, а на третьем – самостоятельно. При подборе материала для упражнений учитывается структура отбираемых образцов, их

[1] Вайсбурд М.Л. Методика обучения русскому языку в национальной школе. – Москва : Просвешения, 2001.
[2] Леонтьев А.А. Психолингвистические основы обучения диалогической речи. – Москва : Наука, 1981.

лексико-фразеологическое, грамматическое наполнение и синтаксическое построение. В этом большую помощь оказывают фонетико-орфоэпический, лексический, фразеологический и грамматический минимумы, русско-узбекские словари.

Но недостаточно дать студентам готовые образцы, научит их реконструировать и создавать из известного лексико-грамматического материала. Важно, чтобы студенты знали, при каких обстоятельствах может быть употреблен тот или иной типичный образец речевого высказывания и умели его использовать в соответствующей условной, а затем в реальной ситуации.

Для диалога характерны объединения предложений в виде реплик. Последние обычно состоять из одного, редко – на большего числа предложений[1]. В предлагаемых студентам упражнениях речевые образцы представляют собой реплики, состоящие из одного, очень редко – двух предложений. Выполняя задания, студенты знакомятся с различного типа предложениями, в их активную речевую практику вводятся конструкции наиболее характерные для диалога. Тесно связанные между собой в смысловом и лексико-грамматическом отношении реплики составляют диалогические единство. Последние имеют широкое распространений в коммуникативных актах, протекающих в форме диалога. В связи с этим в упражнения второй группы включены задания, предусматривающие работу студентов не с отдельными разрозненными репликами, а с их сочетаниями, часто представляющими собой диалогические единство, так как у студентов необходимо формировать не только навыки и умение употреблять в соответствующей ситуации те или иные реплики, но и использовать их сочетания, представляющие единства и смысловом и структурном отношениях.

Исходя из механизмов порождения диалога и учитывая составные факторы процесса диалогической речи (субъект, процесс диалогической речи, мотивацию процесса, предмет) рационально работу по развитию русской диалогической речи студентов национальных групп вузов проводить не только из материала реплик, диалогических единств, но и на материале компактных речевых образцов, представляющих собой микро- а затем и макродиалоги.

Диалог – это «обмен такими высказываниями, которые естественно порождаются одно другим в процессе разговора» и адресуются собеседниками друг другу. А так как в диалоге высказывания оформляются в виде реплик, то обмен высказываниями в диалоге выступает «как естественное порождение одной реплики другою», что находит отражение в смысловой, лексико-грамматической взаимосвязи реплик и учитывается при составлении упражнений, образцов макро- и микродиалогов. «Ситуация делает излишним функционирование в диалогов конструкций развернутого типа», поэтому реплики обычно представляют собой короткие, неполные, эллиминированные предложения, состоящие часто из нескольких, а то и из одного слова.

При обучении нерусских студентов диалогической речи одно из трудностей заключается в необходимости формирования у студентов навыков и умений пользоваться различными типами реплик, а также основными способами связи между ними в составе диалогических единств и последних – в составе диалога[2]. Студенты должны овладеть различными репликами, как-то: репликами-стимулами, побуждающими собеседника к речевому и неречевому действию, репликами-реакциями, выражающими согласие и несогласие, а также репликами, в которых уточняются факты, высказанные в реплике- стимуле и т.д. В диалоге реплики-реакции, так же как реплики-стимулы, предусматривают продолжение коммуникативного процессов и обусловливают появление следующих за ними очередных реплик. Взаимосвязь реплик проявляется не только на семантическом, но и на лексико-грамматическом уровне. Для диалога характерны «повторы» - повторение в смежных репликах отдельных лексических и грамматических элементов, дублирование строения предложения, а в некоторых случаях и всей реплики, только с другим интонационно-ритмическим оформлением. Построения на материале реплик, включающих «повторы», могут быть использованы при составлении упражнений, как первой, так и второй групп.

Введение в упражнения заданий, предусматривающих работу с различными в смысловом отношении и по взаимосвязи репликами, способствует их функционально-практической направленности, в включении разнообразных «повторов» помогает активизации того или иного лексико-фразеологического и грамматического материала, обеспечивая необходимую для его запоминания повторяемость и отработку употребления.

[1] Яковлева С.В. Уроки русского языка в школе с национальным языком обучения. – Москва: ВЛАДОС, 2011.

[2] Шадманова Н.И. К вопросу о выражении названий местности на русском и узбекском языках. Журнал «Молодой учёный» № 11., 2016 г. с.1726-1726.

При составлении упражнений и образцов текстов диалогов представляется возможным исходить из того, что повторяется во взаимосвязанных между собой репликах. Во-первых, это могут быть лексические «повторы», во-вторых, морфологические, в-третьих, конструктивные, дублирующие структуру предыдущей реплики, и в четвертых, смешанные, в которых повторяется несколько элементов. Введение в учебный материал той или иной группы «повторов» позволяет более целенаправленно проводить работу по усвоению студентами лексико-грамматического материала, синтаксических конструкций и способствует усвоению и активизации «повторов» в речи студентов.

Исходя из обще дидактических принципов обучения (преемственность, последовательность и доступность) при составлении упражнений, следует учитывать, что работу по развитию русской диалогической речи студентов необходимо начинать с освоения универсальных черт диалога, характерных для русского и узбекского языков. С одной стороны – это синкретизм, эллиптизм, а с другой – избыточность, расчлененность. Лишь на следующем этапе можно переходить к тем особенностям диалога, которые специфичны для русского языка, вызывают у узбекских студентов затруднения и в ряде случаев требуют сопоставления с родным языком студентов[1].

Диалогу присуще употребление обращений, эмоционально-экспрессивных слов, утверждений, отрицаний, большого количества «стабилизовавшихся построений», «формула речевого этикета», неполных предложений, сегментированных конструкций, особого типа бессоюзных структур и «слов-предложений». Для того, чтобы русская диалогическая речь студентов национальных групп была живой и эмоциональной, имела естественный характер при составлении упражнений всех групп необходимо предусмотреть знакомство студентов и введение в их речь перечисленных основных особенностей диалога. Упражнения, способствующие развитию диалогической речи студентов, особенно третьей группы диалогов, являясь образцами по тактике осуществления реплицированной формы речевой деятельности, должны одновременно выступать примерами возможных вариантов в плане лингвистического оформления.

Учет особенностей диалога, систематическая работа над каждой из присущих ему характерных черт, знакомство студентов с примерами возможных вариантов реплицированных высказываний, и в дальнейшем самостоятельное составление реплик способствует формированию студентов умений вести диалог на репродуктивном и полупродуктивном уровнях. Для ведения же диалога на продуктивном уровне необходимо не только свободное владение лексико-грамматическим материалом, но и знания по тактике ведения реплицированной формы речевой деятельности. Этому способствует упражнения третьей группы, предусматривающие то или иное речевое поведение студентов в связи с описанными, рисованными(серии картинок) изображенными ситуациями в сочетаний с текстовым материалом, сериями картинок с подписями или словесным сопровождением, учебными ситуациями связанными с процессом обучения. Подобная ситуации помогают создавать в аудитории, при проведении самостоятельных работ способствующие приближение диалога к естественному, реально имеющему место в жизни коммуникативному акту.

Таким образом, настраивая процесс обучения диалогической речи, важно задействовать целый набор методов и подходов, учитывающих как коммуникативные, так и познавательные особенности студентов. Формирование навыка устного общения требует последовательности и системности, при этом необходимо принимать во внимание уровень языковой подготовки, а также возрастные и психологические особенности студентов.

Rezyume. Maqola zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb muammosiga - milliy guruhlar (ikki tilli) talabalarida rus tilidagi dialogik nutq ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishning samarali usullari va yo'llarini izlashga bag'ishlangan. Ishda o'quvchilarning til to'sig'ini muvaffaqiyatli yengib o'tishini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlovchi psixologik-pedagogik hamda metodologik shart-sharoitlar tadqiq etilgan. Mualliflar ona tili ta'sirida yuzaga keladigan tipik interferension xatolarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. O'tkazilgan tajriba-sinov ta'limi asosida tizimli kommunikativ-faoliyatli yondashuvni joriy etishning yuqori samaradorligi isbotlandi, bu nafaqat nutqning ravonligi va to'g'riligini oshirishga, balki talabalarning madaniyatlararo o'zaro ta'sirga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga ham yordam beradi.

[1] Петрова, Т. В. Литература и язык: роль художественных текстов в обучении русскому языку как иностранному. – Ташкент: Узбекистан, 2018.

Summary. The article is dedicated to a pressing issue in modern linguodidactics - the search for effective methods and ways to form and improve Russian dialogic speech skills in students of national groups (bilinguals). The work explores the psychological, pedagogical, and methodological conditions that ensure the successful overcoming of language barriers and the development of students' communicative competence. The authors analyze the specifics of typical interference errors that arise under the influence of the mother tongue. Based on the conducted experimental training, the high effectiveness of implementing a systemic communicative-activity approach has been proven, contributing not only to the growth of fluency and correct speech but also to increasing students' motivation for intercultural interaction.

Резюме. Статья посвящена актуальной проблеме современной лингводидактики – поиску эффективных методов и путей формирования и совершенствования навыков русской диалогической речи у студентов национальных групп (билингвов). В работе исследуются психолого-педагогические и методологические условия, обеспечивающие успешное преодоление языкового барьера и развитие коммуникативной компетенции учащихся. Авторы анализирует специфику типичных интерференционных ошибок, возникающих под влиянием родного языка. На основе проведенного опытно-экспериментального обучения доказана высокая результативность внедрения системного коммуникативно-деятельностного подхода, способствующего не только росту беглости и правильности речи, но и повышению мотивации студентов к межкультурному взаимодействию.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ПРОБЛЕМНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Тургунова Сайера Ахмаджановна,
преподаватель кафедры иностранного языка
University of business and science

Модернизация высшего образования в Республике Узбекистан ориентирует вузы на подготовку специалистов, способных самостоятельно ставить и решать профессиональные задачи. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (2020)[1] и Концепция развития системы высшего образования до 2030 года, утверждённая Указом Президента от 8 октября 2019 г. № УП-5847[2], ставят задачу внедрения современных педагогических технологий и усиления практической и исследовательской направленности обучения.

Для филологического образования эта задача особенно актуальна в преподавании специальных дисциплин, которые традиционно строятся по преимуществу на передаче теоретических сведений. Курс «Лексикология и лексикография» нередко воспринимается студентами как набор классификаций и определений, которые нужно запомнить. Между тем его содержание изначально проблемно: словарь возникает как решение ряда противоречий, а каждое решение лексикографа может быть оспорено.

Теория проблемного обучения подробно разработана в отечественной педагогике[3]. Однако её применение к конкретным специальным филологическим дисциплинам, в частности к лексикографии, описано недостаточно. В рамках компетентностного подхода проблемное обучение рассматривается как одно из основных средств формирования исследовательской компетенции[4].

За рубежом сходный подход развивается под названием problem-based learning; он сложился в медицинском образовании[5] и затем распространился на другие области высшего образования. В обобщающих обзорах к основным целям такого обучения относят гибкие знания, умение решать проблемы и навыки самостоятельного учения[6]. В Узбекистане проблемное обучение рассматривается в работах по педагогическим и инновационным образовательным технологиям[7], однако эти работы носят общедидактический характер и не учитывают специфику содержания отдельных филологических дисциплин.

Цель статьи – обосновать и описать систему применения проблемного обучения в преподавании специальных филологических дисциплин на материале курса «Лексикология и лексикография».

Материалом исследования послужили учебная программа и учебно-методический комплекс дисциплины «Лексикология и лексикография», а также опыт проведения лекционных и семинарских занятий со студентами-филологами. Языковым материалом для проблемных заданий стали толковые словари русского и узбекского языков разных лет издания.

Использованы методы теоретического анализа психолого-педагогической и методической литературы, педагогического моделирования (разработка системы проблемных заданий и модели занятия), педагогического наблюдения, а также анализа результатов учебной деятельности сту-

[1] Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 г. № ЗРУ-637.

[2] Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 г. № УП-5847.

[3] Лернер И. Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1974. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе. – М.: Просвещение, 1977. Оконь В. Основы проблемного обучения. – М.: Просвещение, 1968.

[4] Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

[5] Barrows H. S., Tamblyn R. M. Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education. – New York: Springer, 1980.

[6] Hmelo-Silver C. E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? // Educational Psychology Review. – 2004. – Vol. 16, No. 3. – P. 235–266.

[7] Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.

дентов. Для определения уровня когнитивной сложности заданий использована таксономия учебных целей Б. Блума в редакции Л. Андерсона и Д. Кратвола[1] .

Проблемное обучение – это организация учебного процесса, при которой преподаватель создаёт проблемные ситуации, а студенты в ходе активной самостоятельной деятельности по их разрешению овладевают знаниями и способами деятельности. Центральным понятием является **проблемная ситуация** – состояние интеллектуального затруднения, возникающее, когда имеющихся знаний недостаточно для объяснения нового факта[2].

И. Я. Лернер выделил методы обучения в зависимости от характера познавательной деятельности учащихся: объяснительно-иллюстративный, репродуктивный, проблемное изложение, частично-поисковый (эвристический) и исследовательский[3]. Последние три относятся к проблемному обучению и различаются степенью самостоятельности студента: от наблюдения за тем, как преподаватель разрешает проблему, до самостоятельного исследования.

Для специальных дисциплин магистратуры и старших курсов бакалавриата проблемное обучение особенно значимо. Студенты уже владеют базовыми понятиями, и задача преподавателя – научить их применять эти понятия к спорным случаям, видеть противоречия в научном описании языка и аргументированно выбирать решение.

Анализ содержания курса позволил выделить четыре основных источника проблемных ситуаций.

1. *Лексикографические антиномии.* Противоречия между новизной и анахроничностью словаря, открытостью словарного состава и конечностью словника, описанием и предписанием нормы. Каждая антиномия по своей природе является проблемой, не имеющей единственно верного решения.

2.*Расхождения между словарями.* Одно и то же слово по-разному толкуется, помечается и иллюстрируется в словарях разных лет и разных авторов. Обнаружение расхождения создаёт ситуацию, требующую объяснения.

3. *Противоречие нормы и узуса.* Студенты постоянно сталкиваются со словами и значениями, которые активно употребляются, но не зафиксированы в словарях, или с рекомендациями словарей, расходящимися с реальной речью.

4.*Национально-культурная специфика лексики.* Сопоставление толкований эквивалентных слов в русских и узбекских словарях показывает, что значение слова включает культурные компоненты, не совпадающие в разных языках. Сходная проблематика рассматривается и в исследованиях гендерных стереотипов в русском и узбекском языковом сознании, где предметом анализа выступают национально-культурные особенности языкового восприятия[4] .

Важно, что все эти источники связаны с существом предмета, а не привнесены в него искусственно. Проблемное обучение в данном случае не является внешним приёмом, а раскрывает внутреннюю логику самой науки о словаре.

Проблемные задания были распределены по трём уровням в соответствии с возрастанием самостоятельности студентов и когнитивной сложности (от понимания и применения к анализу, оценке и созданию по таксономии Блума).

Первый уровень – **проблемное изложение.** Преподаватель ставит проблемный вопрос и сам показывает путь его решения, вовлекая студентов в рассуждение. Пример: в начале лекции о словаре как общественном явлении ставится вопрос «Может ли словарь ошибаться?». Студенты высказывают предположения, а преподаватель в ходе лекции показывает, что словарь отражает язык, культуру и взгляды своей эпохи, и в конце возвращается к исходному вопросу.

Второй уровень – **частично-поисковые задания.** Студенты самостоятельно решают часть проблемы под руководством преподавателя. Примеры заданий:

назвать слова, которые активно употребляются в современной речи, но отсутствуют в толковом словаре середины XX в., и объяснить причину их отсутствия;

сравнить толкования одного слова в двух изданиях толкового словаря и определить, что изменилось и почему;

сопоставить статьи *хлеб* и *non* в русском и узбекском толковых словарях и выявить национально-культурные компоненты значения;

сравнить две обложки словарей с рекламными надписями «новейший», «самый полный» и сформулировать критерии надёжности словаря.

[1] Anderson L.W., Krathwohl D.R. (Eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.

[2] Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972.

[3] Лернер И. Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1974.

[4] Джуманазарова З. О. Лингвокультурологические особенности гендерных стереотипов в русском и узбекском языковом сознании // Conferences. – 2026. – Т. 2, № 6. – С. 493–497. – DOI: https://doi.org/10.66343/z5datg30.

Третий уровень – исследовательские задания. Студенты самостоятельно формулируют проблему, выбирают методы и представляют результат. Примеры:

составить словник учебного словаря объёмом 1000 слов для определённого адресата и обосновать принципы отбора;

разработать фрагмент тематического словаря-минимума (20–30 статей) и защитить его на семинаре;

провести мини-исследование отражения неологизмов последних лет в доступных словарях и корпусах.

Последовательное движение от первого уровня к третьему позволяет постепенно передавать студенту ответственность за постановку и решение проблемы.

На основе работ М. И. Махмутова[1] была построена модель проблемного занятия, включающая следующие этапы:

1. **Создание проблемной ситуации** – предъявление факта, противоречащего ожиданиям студентов (например, два словаря по-разному указывают норму).

2. **Формулировка проблемы** – перевод затруднения в чётко поставленный вопрос.

3. **Выдвижение гипотез** – обсуждение возможных объяснений в парах или малых группах.

4. **Проверка гипотез** – работа со словарями, научной литературой, корпусными данными.

5. **Формулировка вывода** – обобщение и соотнесение результата с теоретическими положениями курса.

6. **Рефлексия** – осмысление студентами того, как было найдено решение и какие методы оказались продуктивными.

На лекции этапы 3–4 реализуются кратко (вопросы аудитории, работа в парах в течение 3–5 минут), на семинаре – развёрнуто. Чередование 10–15 минут изложения с короткими проблемными заданиями позволяет поддерживать активность всей аудитории, а не только наиболее подготовленных студентов.

Педагогическое наблюдение позволило выделить условия, при которых проблемное обучение оказывается эффективным:

проблема должна быть посильной: студенты обладают необходимыми базовыми знаниями, но не имеют готового ответа;

проблемные задания чередуются с систематическим изложением теории, а не заменяют его;

преподаватель принимает разные обоснованные ответы и оценивает качество аргументации, а не совпадение с «правильным» вариантом;

языковой материал для заданий отбирается по авторитетным и доступным студентам источникам, в том числе по электронным ресурсам, доступным в Узбекистане.

Для оценивания проблемных заданий предложены следующие критерии: точность формулировки проблемы; обоснованность гипотезы; корректность использования словарей и научных источников; логичность и доказательность вывода; качество рефлексии. Такой подход смещает акцент с проверки запоминания на оценку профессиональных умений.

Наблюдения показали, что при использовании проблемных заданий студенты чаще задают собственные вопросы, увереннее работают со словарями разных типов и критичнее относятся к словарной информации. Количественная проверка эффективности предложенной системы является задачей дальнейшего исследования.

Сопоставим полученные результаты с ранее опубликованными. Мысль о внутренней противоречивости словарного дела восходит к Л. В. Щербе, который описал типы словарей через систему противоположений[2]. В. А. Козырев и В. Д. Черняк представили историю русских словарей как поиск решений лексикографических антиномий[3]. В этих работах антиномии выступают объектом лингвистического описания, тогда как в предложенной системе они используются как дидактический источник проблемных ситуаций. Уровни заданий опираются на классификацию методов И. Я. Лернера, но конкретизированы на материале русских и узбекских словарей. Модель занятия М. И. Махмутова, разработанная для школы, адаптирована к вузовской лекции и семинару: на лекции этапы выдвижения и проверки гипотез сокращаются. Наконец, в отличие от зарубежной модели problem-based learning, где проблема служит исходной точкой всего курса, в нашей системе проблемные задания чередуются с систематическим изложением теории, что соответствует отечественной традиции проблемного обучения.

Проведённое исследование позволяет сделать следующие выводы.

1.Проблемное обучение является эффективным средством преподавания специальных фи-

[1] Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе. – М.: Просвещение, 1977.

[2] Щерба Л. В. Опыт общей теории лексикографии // Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.

[3] Козырев В. А., Черняк В. Д. Вселенная в алфавитном порядке: Очерки о словарях русского языка. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2000.

лологических дисциплин, поскольку формирует умение применять теоретические знания к спорным случаям и аргументированно выбирать решение.

2. Содержание курса «Лексикология и лексикография» изначально проблемно; основными источниками проблемных ситуаций являются лексикографические антиномии, расхождения между словарями, противоречие нормы и узуса, национально-культурная специфика лексики.

3. Предложенная система проблемных заданий трёх уровней – проблемное изложение, частично-поисковые и исследовательские задания – обеспечивает постепенный рост самостоятельности студентов.

4.Модель проблемного занятия включает этапы создания проблемной ситуации, формулировки проблемы, выдвижения и проверки гипотез, вывода и рефлексии и может быть реализована как на лекции, так и на семинаре.

5. Оценивание проблемных заданий должно быть направлено на качество аргументации и профессиональных умений, а не на воспроизведение готовых знаний.

Практическая значимость работы состоит в возможности использования предложенной системы заданий при разработке учебно-методических комплексов специальных филологических дисциплин. Описанный подход может быть перенесён на другие дисциплины: «Историю лингвистических учений», «Общую и русскую вариологию», «Вопросы русской орфографии в диахроническом аспекте».

Резюме. Цель статьи – обосновать систему применения проблемного обучения в преподавании специальных филологических дисциплин на материале курса «Лексикология и лексикография». Использованы методы теоретического анализа литературы, педагогического моделирования и наблюдения. Выявлены четыре источника проблемных ситуаций: лексикографические антиномии, расхождения между словарями, противоречие нормы и узуса, национально-культурная специфика лексики. Разработаны система проблемных заданий трёх уровней, шестиэтапная модель проблемного занятия и критерии оценивания, ориентированные на качество аргументации. Наблюдение показало, что студенты увереннее работают со словарями и критичнее оценивают словарную информацию. Результаты применимы при разработке учебно-методических комплексов филологических дисциплин.

Rezyume. Maqolaning maqsadi – «Leksikologiya va leksikografiya» kursi misolida maxsus filologik fanlarni o‘qitishda muammoli ta‘limni qo‘llash tizimini asoslash. Adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik modellashtirish va kuzatish usullaridan foydalanildi. Muammoli vaziyatlarning to‘rt manbai aniqlandi: leksikografik antinomiyalar, lug‘atlar o‘rtasidagi tafovutlar, me’yor va uzus o‘rtasidagi ziddiyat, leksikaning milliy-madaniy xususiyatlari. Uch darajali muammoli topshiriqlar tizimi, muammoli mashg‘ulotning olti bosqichli modeli va dalillash sifatiga yo‘naltirilgan baholash mezonlari ishlab chiqildi. Kuzatuv talabalar lug‘atlar bilan ishonchliroq ishlashini va lug‘at ma’lumotlariga tanqidiyroq yondashishini ko‘rsatdi. Natijalardan filologik fanlarning o‘quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Resume. The article aims to substantiate a system for applying problem-based learning in teaching specialized philological disciplines, using the course “Lexicology and Lexicography” as an example. Theoretical analysis of literature, pedagogical modelling and observation were used. Four sources of problem situations are identified: lexicographic antinomies, discrepancies between dictionaries, the contradiction between norm and usage, and the national and cultural specificity of vocabulary. A three-level system of problem tasks, a six-stage model of a problem-based class and assessment criteria focused on the quality of argumentation are developed. Observation showed that students work more confidently with dictionaries and evaluate dictionary information more critically. The results can be used in developing teaching materials for philological disciplines.